

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI



I.O. YAKUBOV, H.A. HAKIMOV

IQTISODIYOTDA BALANS TIZIMLARI

fanidan

MA‘RUZALAR MATNI

TOSHKENT – 2015

Yakubov I.O., Hakimov H.A. Iqtisodiyotda balans tizimlari (ma'ruzalar matni). -T.: TDIU, 2015. -288 bet.

Ma'sul muharrir:
iqtisod fanlari doktori, professor
Berkinov B.B.

Taqrizchilar:

A.A. Qayumov – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti "Mintaqaviy iqtisodiyot" kafedrası mudiri, iqtisod fanlari doktori, professor.

M.S. Qosimov - "Makroiqtisodiyot" kafedrası dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.

Ushbu ma'ruzalar matni bozor munosabatlari sharoitida milliy iqtisodiyotning rivojlanish nazariyasi va amaliyotiga bag'ishlangan. Unda milliy iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishi, bozor iqtisodiyotining amal qilish mexanizmi, iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy balanslari va ularni tuzish tartibi yoritilgan. Shuningdek, ma'ruzalar matnida milliy iqtisodiyotni boshqarish tizimida xalq xo'jaligi balansi tizimi va uning asosiy balanslarini tutgan o'rni va tarkibi, respublikamizda milliy hisoblar tizimini asosiy balanslaridan foydalanish, joriy qilish va uning oldida turgan asosiy vazifalar, iqtisodiy operatsiyalar va asosiy hisoblarni ishlab chiqish, tarmoqlararo balanslarni milliy hisoblar tizimi uslubiyati asosida o'rganish, to'lov balanslarini ishlab chiqish masalalari va boshqa shu kabi masalalar o'z ifodasini topgan.

Ma'ruzalar matni oliy o'quv yurti talabalari, ilmiy xodimlar, tadbirkorlar, mustaqil tadqiqotchilar va umumta'lim maktablari o'qituvchilariga mo'ljallangan.

©- Tashkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2015.

KIRISH

Milliy iqtisodiyotimizning turli yo‘nalishlari hamda tarkibiy qismlarini jahon iqtisodiyoti bilan qiyosiy o‘rganish va makroiqtisodiy tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli respublikamizda milliy iqtisodiyotni makroiqtisodiy tahlil qilishning yangi usullarini ishlab chiqish zaruriyati tug‘ildi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi iqtisodiyotning turli sohalarida yuqori malakali, tashabbuskor mutaxassislarni tayyorlashga yo‘naltirilgan.

Bunday mutaxassislarni tayyorlashda iqtisodiyot yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlarda “Iqtisodiyotda balans tizimlari” fani alohida ahamiyatga ega.

Respublikamiz iqtisodiyotini boshqarishga uzoq vaqt xalq xo‘jaligi balansi xizmat qilib keldi, endilikda xalq xo‘jaligi balanslari bozor prinsiplariga javob bera olmayotganligi bois jahon andozalariga javob beradigan yangi balans usullariga ehtiyoj sezilmoqda.

Ushbu ma‘ruzalar matnida aynan shu bozor munosabatlari sharoitida milliy iqtisodiyotga muvofiqlashgan balanslarni (milliy hisoblar, tarmoqlararo balans, moliyaviy balans, to‘lov balansi, aholi pul daromadlari va xarajatlari balansi va h.k.lar) ishlab chiqish uslubiyati ko‘rsatib berilgan. Shu maqsadga muvofiq xalq xo‘jaligi balansi va uning iqtisodiyotni boshqarishdagi roli, asosiy balanslari, milliy iqtisodiyotni boshqarish tizimi, iqtisodiyot rivojlanishining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va ularning tahlili, milliy iqtisodiyot uchun balans hisoblar tuzish uslubiyati, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni baholash, aholi pul daromadlari va xarajatlari balansi, tarmoqlararo balans va to‘lov balansini ishlab chiqish kabi vazifalarni yoritish ko‘zda tutilgan.

1-Mavzu: IQTISODIYOTDA BALANS TIZIMLARI FANINING PREDMETI, USULLARI VA ASOSIY VAZIFALARI

Reja:

1. Iqtisodiyotda balans tizimlari fanining qisqacha rivojlanish tarixi va uning boshqa nazariy fanlar bilan aloqalari
2. Iqtisodiyotda balans tizimlari fanining predmeti va o'rganish usullari
3. Iqtisodiyotda balans tizimlari fanining asosiy vazifalari
4. Moliyaviy faoliyat to'g'risidagi statistik axborotlarning zarurligi
5. Statistik ma'lumotlarni tashkil qilish va iqtisodiy siyosatni tahlil qilishning uslubiy asoslari

1.Iqtisodiyotda balans tizimlari fanining qisqacha rivojlanish tarixi va uning boshqa nazariy fanlar bilan aloqalari

Bozor munosabatlari sharoitida milliy iqtisodiyotni tahlil qilish va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganish amaliyotda yangi balans usullarini qo'llashni talab etmoqda.

Xalq xo'jaligi balans tuzilmalarining tamoyillari, ko'rsatkichlar tizimi, ularning hisoblanish usullari turli iqtisodiy maktablar ta'siri ostida shakllangan. Xalq xo'jaligining balans modellarini yaratishga uringan iqtisodchilar Grigoriy King va Frantsua Kene bo'lishgan. Kenening "iqtisodiy jadvali"da mahsulotning yaratilish va taqsimlanish jarayoni oydinlashtirilgan. Kenening "iqtisodiy jadvali" makroiqtisodiy balansning birinchi tajribasi hisoblanadi.

Keynschilik ta'limoti xo'jalik jarayonlarining makroiqtisodiy balanslarini tuzish va tekshirishni asoslashda muhim o'rin tutadi. Bu xususda ko'plab xorijiy iqtisodchi olimlar J. Keynsni "nazariy balans usulining otasi" deb atashadi. Shuningdek, xorij statistikasida balans tuzilishidagi milliy hisoblarni nazariy-metodologik aspektlarini yaratuvchilar sifatida S. Kuznets va V. Leont'evlar tan olingan. MHT ning amaliy tomondan shakllanishiga R. Stoun., J. Xiks., M. Jilbert., O. Aukrust., G. Jazi., J. Derksen va boshqalar ulkan hissa qo'shdilar.

Ingliz iqtisodchisi J. Keynsning buyuk xizmati shundaki, uning makroiqtisodiy nazariyasi asosan iqtisodiy jarayon natijalarini o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiyotni tavsiflovchi o‘zgaruvchilar orqali (umumiy daromad, iste’mol, investitsiya, jamg‘arma) pul hisobida tadqiq etishga qaratilgan. Bozor iqtisodiyotini boshqarish muommolariga qaratilgan g‘oyalari uning “Bandlik, foiz va qiymat umumiy nazariyasi” asarida yoritib berilgan. Bu asarda J. Keyns makroiqtisodiy tahlil uchun zarur axborot tizimni shakllantirish va uning davlat hokimiyatini boshqarishdagi bir qancha prinsiplarini asoslab berdi.

J. Keyns balans tizimining muhim nazariy va uslubiy asoslarini shakllantirdi. Shuningdek, u balans uslubining rivojlanish tarixi va bugungi kundagi rivojlanish jarayonini ham keng tadqiq qildi.

S. Kuznets tadqiqotlari puxtaligi va amaliy ahamiyati bilan boshqalardan ajralib turadi. Bu olimning tadqiqotlari hozirgi zamon balans uslubiyati uchun asos qilib olingan va amalda qo‘llanilmoqda. Uning asosiy asari – “daromadlar bo‘yicha yuqori guruhlarning daromad va jamg‘armalardagi hissasi” (1953-yil) kitobida 1919 -1948-yillarda AQSh milliy daromadining taqsimlanish dinamikasi keltiriladi. Uning hisobicha, eng katta daromad oluvchi (1 %) aholi hissasi 1919 – 1938-yillari davomida 13 % daromad egasi bo‘lgan, 1948-yilga kelib bu hissa 9 % gacha pasaygan. 5 % ni tashkil etgan yuqori guruh aholi hissasi esa shu davr mobaynida 25 % dan 18 % gacha kamaygan. Shunga asosan u yuqoridagi xulosalarga kelgan. Bu olim iqtisodiy o‘lishning qiyosiy tahliliga katta hissa qo‘shdi, hozirgi zamon iqtisodiyotini belgilovchi mezonlarni aniqladi. Ular quyidagilar: daromadning aholi jon boshiga qarab o‘lish sur‘atlari, ishchi kuchining tarmoqlar bo‘yicha taqsimoti, aholining hududlar bo‘yicha joylashuvi.

V. Leontev iqtisodiyotda “xarajatlar - ishlab chiqarish” uslubini rivojlantirdi va uni muhim iqtisodiy muommolarni hal qilishga tadbiq etdi.

Bu uslub bozor iqtisodiyoti tarmoqlarida ijtimoiy mahsulot qismlarini o‘zaro almashtirishning konkret jarayonlarini tadqiq qilishga yo‘naltirilgandir. V. Leontev

tomonidan taklif qilingan tamoyillar iqtisodiyotni prognozlashtirish va programmashtirish amaliyotida keng qo'llanilmoqda.

R. Stounning asosiy xizmati shundaki, u balans tizimining hozirgi modelini yaratdi. Ular birinchi bor 1953-yili BMT ning statistika bo'limi tomonidan chop etildi va hozir butun dunyoda tan olingan. Uning balans tizimi matritsa shaklida berilgan, har bir hisob eniga (daromad) va bo'yiga (xarajat) ko'rsatkichiga ega. Shuni aytib o'tish kerakki, bunday urinishlar ilgari ham bo'lgan (V. Petti, P. Buagilber - XVII asr, S. Kuznets va K. Klark - XX asr), ulardan farqli ravishda R. Stoun birinchi bo'lib makrodarajada buxgalteriya balansini ikki marta yozish qoidalarini qo'lladi. "Yig'ma matritsa" larida standart ko'rsatkichlar: milliy mahsulot, iste'mol, savdo balansi va boshqalar shunday guruh - guruh qilib berilganki, ular iqtisodiyot tuzilmasi va uning harakat qilish jarayonlarini to'la izohlab beradi. U milliy hisoblarga moliya balansi tizimini kiritishi katta yangilik bo'ldi.

MHT hozirgi rivojlangan mamlakatlarda o'ttizinchi yillarda shakllana boshladi. 1930 - yillarning oxirida AQShda savdo vazirligi qoshida milliy daromad bo'limi tashkil etildi. 1934-yilda yetakchi ingliz iqtisodchisi S. Kuznets mamlakat bo'yicha 1929 -1934-yillar uchun milliy daromad hajmini hisoblagan.

Dastlabki vaqtdagi balanslar milliy daromad ko'rsatkichini hisoblashga qaratilgan edi. XX - asr boshlarida Angliya, Avstriya, Fransiya, Norvegiya, Germaniya va AQShda milliy daromad ko'rsatkichi hisoblangan.

Amerikalik iqtisodchi V. Leontevning 1931-yilda ishlab chiqilgan "tarmoqlararo balans" modeli hozirgi zamon tarmoqlararo tahlilining asosi hisoblanadi.

Milliy daromad hisobi va tarmoqlararo balanslar faqat real (nomoliyaviy) tovar va xizmatlar oqimini ifodalaydi.

Iqtisodiyotning haqiqiy holatini tekshirish uchun pul va moliya kapitalining oqimlarini o'rganish lozim bo'ladi. Bunga moliyaviy oqim balanslari xizmat qiladi. Moliyaviy oqim balansini birinchi bo'lib amerikalik iqtisodchi M. Kopeland "Pul oqimlari jadvali" ko'rinishida tuzgan. Shu jadval asosida "1939- 1953-yillar uchun

AQSh ning moliyaviy oqimlar balansi” ishlab chiqildi. U naqd pullar oqimi bilan birga boshqa bitimlarini ham o‘z ichiga oladi.

Har qanday milliy iqtisodiyot xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimining elementi hisoblanadi. Shuning uchun tashqi operatsiyalarni har tomonlama real va moliyaviy tomonlarini qamrab olib ifodalash zaruriyati tug‘iladi.

To‘lov balansi turli mamlakatlar orasidagi aloqalarni tovarlar, xizmatlar va moliyaviy majburiyatlar orqali ifodalaydi.

Balans muammolari fani mustaqil fan hisoblanib, (qachonki, mustaqil fan bo‘lishi uchun shu fanning predmeti, xususiy o‘rganadigan usullari vaob’ekti bo‘lishi talab qilinadi) u rivojlanish bosqichida bir qancha iqtisodiy fanlar bilan chambarchas bog‘langan. Ayniqsa, bu fan milliy hisoblar tizimi, buxgalteriya hisobi, makroiqtisodiyot, makroiqtisodiy statistika va boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqador.

1.2. Iqtisodiyotda balans tizimlari fanining predmeti va o‘rganish usullari

Iqtisodiyotda balans tizimlari fanining predmeti – milliy iqtisodiyot uchun balans tizimlarini ishlab chiqish, hisoblar tizimini tuzish uslubi, jumladan hisoblar tuzish usullari va qoidalari, uning mazmuni milliy hisoblarni ko‘rsatkichlar tizimi, ularni hisoblash usullari va o‘zaro bog‘lanishlari; har bir **schyotganing** iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishdagi o‘rni, tashqi iqtisodiy faoliyatni tavsiflash, milliy hisoblar konsepsiyalari asosida tarmoqlararo balansni, to‘lov balansini, oila budjetlarini o‘rganish hisoblanadi.

Balans usuli yordamida iqtisodiy jarayonlar va ularning natijalarini tekshirish, milliy iqtisodiyotning asosiy tushuncha va kategoriyalari mazmunini o‘zlashtirish mumkin.

Balans tuzishning asosiy maqsadi - moddiy ne‘matlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, daromadlar hosil bo‘lishi, taqsimlash, qayta taqsimlash, foydalanish va tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog‘langan makroiqtisodiy jarayonlar va ularning natijalarini miqdoriy ifodalash hisoblanadi. Bunday ifodalash o‘zaro bog‘langan

ko'rsatkichlar tizimi resursi va undan foydalanish qismlari bo'yicha balanslash yordamida umumlashgan balans jadvallarida (hisoblarida) aks ettirishni ifodalaydi.

Iqtisodiyotda balans tizimlari fanining ob'ekti mamlakat iqtisodiyoti, uning tarmoqlari va sektorlari hisoblanadi.

Iqtisodiyotda balans tizimlari fanining asosiy usullari. Balans muammolari fani o'z nomidan kelib chiqib, iqtisodiy balanslar tengligi prinsipiga asoslanadi.

Balans usuliga asoslangan, har bir hisobda (balans) uning resurslari va foydalanish qismi orasidagi tenglik balanslashtiruvchi moddani hisoblash yo'li bilan ifodalanadi. Har bir hisobda balanslashtiruvchi modda o'rganilayotgan iqtisodiy jarayonlar natijalarini ifodalashda mustaqil ahamiyatga ega. Shuningdek, bu balanslashtiruvchi modda oldingi **schyot**gani keyinga **schyot**ga bilan bog'lovchi bo'g'in sanaladi.

Shunday qilib, o'zaro bog'langan ko'rsatkichlar tizimlari asosida biriktirilgan hisoblar takror ishlab chiqarish bosqichlariga muvofiq, iqtisodiy jarayonlar va uning natijalarini miqdoriy ifodalaydi.

Iqtisodiyotda balans tizimlari fanida klassifikatsiya va guruhlash usuli ham keng qo'llaniladi. Bu usul yordamida o'rganilayotgan iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiy ko'rsatkichlar tuzilmasi va umumiqtisodiyotni har tomonlama tavsiflash mumkin.

Balans usulida tahlil qilish jarayonida tahlilning maqsadi va mavjud ma'lumotlardan kelib chiqib, zamonaviy matematik-statistik usullardan foydalaniladi.

Balans hisoblarini bosqichma-bosqich tuzish usuli – eng keng tarqalgan usul bo'lib, bu usulda hisoblar bosqichma-bosqich tuziladi, so'ngra uning ko'rsatkichlari butun iqtisodiyot bo'yicha tuziladigan mahsulot vaxizmatlar hisoblarida balanslashadi. Hisoblarni bosqichma-bosqich tuzish takror ishlab chiqarish jarayonining bosqichma-bosqichligidan kelib chiqadi.

Tovar oqimlari usuli juda sodda bo'lib, undan odatda hisoblangan ma'lumotlar bazasi shubhali va bosqichma-bosqich tuzilgan hisoblar oxirida katta statistik farqlar chiqqanida foydalaniladi. Bunday holatda yo'l qo'yilgan xato izlanadi, biroq xatoni aynan qayerdan izlash har doim ham aniq bo'lmaydi. Yetishmayotgan ma'lumotlar

holatida bajarilayotgan operativ hisoblashlar uchun hisoblar “mahsulot-xarajat” jadvalidagi kabi matematik model asosida tuziladi.

Tovar oqimlari usuli shu bilan xarakterlanadiki, har bir hisobdagi ko‘rsatkichlar butun iqtisodiyot, sektor va tarmoqlar bo‘yicha bosqichma-bosqich umumlashtirilmaydi. Aksincha, har bir hisob bo‘yicha alohida mahsulot turlari bo‘yicha resurs ko‘rsatkichlari (ishlab chiqarish va import) foydalanish ko‘rsatkichlari (oraliq iste‘mol, yakuniy iste‘mol, jamg‘arish va eksport) bilan bog‘lanadi.

Milliy statistika xizmatida tovar oqimlari usuli yordamchi usul sifatida qo‘llaniladi. Ba’zi mamlakatlarda esa, masalan, Daniyada bu asosiy usul hisoblanadi. Bu usuldan foydalanish uchun har bir mahsulot bo‘yicha maxsus jadvallar tuziladi, Bunday jadvallarning resurs qismida bozor bahosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar qiymati, shuningdek, bozor baholaridagi import mahsulotlari qiymati ko‘rsatiladi. Foydalanish qismida esa oraliq iste‘mol (ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan mahsulot vaxizmatlar qismi), yakuniy foydalanish (uy xo‘jaligi va unga xizmat ko‘rsatuvchi notijorat tashkilotlar yakuniy iste‘moli), milliy jamg‘arish va eksport ko‘rsatiladi. Agar jadvallarning ikkala qismi o‘zaro balans bermasa, hisob-kitob qilingan ko‘rsatkichlarning kam ishonchli va umuman ishonchsizligi aniqlanadi.

1.3. Iqtisodiyotda balans tizimlari fanining asosiy vazifalari

Iqtisodiyotda balans tizimlari fanining asosiy vazifalari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- 1) Milliy ishlab chiqarish jarayoni har doim ikki yoqlama operatsiyalarning birligi sifatida talqin etiladi;
- 2) Makroiqtisodiy darajalarda ishlab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash, iste‘mol qilish va jamg‘arish jarayonlari balans ko‘rinishida amalga oshiriladi;
- 3) Balans tarzida qiymat shaklida ikkiyoqlama operatsiyalarni amalga oshirayotganlar daromad va xarajatlar sifatida aks ettiradilar;
- 4) Ma’lumotlarning aniqligi, to‘g‘riligi ta’minlanadi;

5) Pulning aylanishi, iste'mol qiymati balansida bevosita ifodalanib, ularning asosiy ko'rsatkichlari yalpi ichki mahsulotda o'z aksini topadi;

6) Balans tizimi mamlakatdagi iqtisodiy jarayonlarni bosqichma-bosqich ifodalab beradi. U ishlab chiqarishdan boshlanib, daromadlar shakllanishi, taqsimlanishi va mavjud pul qiymati, turli qimmatli qog'ozlar iqtisodiyotni moliyaviy nuqtai-nazardan ifodalash bilan yakunlanadi.

Balans tizimida milliy mahsulotning daromadlar shaklidagi harakatini balans ko'rinishida tasvirlash va moliyaviy boyliklar aylanishining hisoblarda ifodalangan tarmoqlararo aloqalar xarakteristikasi qamrab olinadi.

Balans prinsiplari bugun respublikamiz iqtisodiyotidagi o'zgaruvchanlikni to'g'ri aks ettirishi kerak. Jumladan, bozor sharoitida iqtisodiy o'sish dinamikasini aniqlashda sifat o'zgarishlari va tuzilmaviy siljishlar, mintaqalararo iqtisodiy aloqalar va bozor munosabatlari shakllanishi, inflatsiya jarayonlari tahlili va boshqalardagi muhim o'zgarishlarni aniqlab berishi zarur.

1.4. Moliyaviy faoliyat to'g'risidagi statistik axborotlarning zarurligi

Moliyaviy faoliyat to'g'risidagi ma'lumotlar moliyaviy va iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish, amalga oshirish va uni nazorat qilish, hamda makroiqtisodiy tahlil va izlanishlar uchun zarurdir, chunki iqtisodiy siyosatning belgilangan maqsadlariga erishish uchun biror-bir iqtisodiy choralarni qo'llashda ko'rsatkichlar orasidagi bog'liqliklar hisobga olinishi lozim.

O'zaro bog'liqliklar oddiy yoki murakkab bo'lishi mumkin. Biroq ular qanday bo'lmasin moliya tizimiga va xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy aktivlari, ishlab chiqaradigan tovar va xizmatlari hajmiga ta'sir o'tkazishi mumkin.

O'zaro ta'sir moliyaviy ko'rsatkichlarga iqtisodiy choralarning bevosita ta'siri yoki nomoliyaviy xarakterdagi, masalan, me'yoriy-hujjatlar yoki soliq-budjet siyosatidagi choralar orqali bilvosita sodir bo'lishi mumkin.

O'zaro aloqalar vaqt o'tishi bilan boshqa omillar hisobiga ham o'zgarishi mumkin:

- me'yoriy hujjatlar va olib borilayotgan iqtisodiy yo'nalishlar, texnologik rivojlanish, amaldagi valyuta kursi tarkibi, bozor tuzilmasi va ichki moliyaviy bozorlar orasidagi raqobat bilan bog'liq bo'lgan cheklovlar;

- axborot va operatsion xarajatlar, qimmatbaho qog'ozlar portfelini boshqarish nuqtai nazaridan moliyaviy aktivlarga talabning o'zgarishi;

- moliyaviy vositalar va moliyaviy muassasalardagi yangiliklar.

Moliyaviy barqarorlik davrlarida o'zaro aloqalar nisbatan barqaror xarakterga ega bo'ladi. Shuning uchun ekonometrik usullar yoki sifat qirralarini baholash yordamida iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish imkoniyati kengayadi.

Moliyaviy holat tez va keskin o'zgarib turadigan holatlarda, masalan yuqori darajadagi inflatsiya yoki tezkorlik bilan moliyaviy yangiliklarning joriy qilinishi davrlarida o'zaro aloqalarni faqat me'yoriy, hisob va texnik holatlar hamda valyuta tizimini hisobga oluvchi sifat uslubiyatlari yordamida baholash mumkin.

1.5. Statistik ma'lumotlarni tashkil qilish va iqtisodiy siyosatni tahlil qilishning uslubiy asoslari

Asos-moliyaviy operatsiyalar va balans hisoblamalari ma'lumotlarini tartibga keltirish. Uslubiy operatsiyalarni tasniflash va iqtisodiyotni sektorlarga ajratishda bog'liqliklar, tushunchalar, tamoyillarni qamrab oladi. Bu esa o'z navbatida moliyaviy hisob va hisobotlarni zarur ketma-ketlikda tashkil qilishga imkon beradi. Uslubiy qarashlar iqtisodiy siyosatning pirovard maqsadlari bilan davlat boshqaruv idoralarining ixtiyorida bo'lgan xalqaro statistika andozalariga mos keluvchi vositalar orasidagi bog'liqliklarni ifodalashi zarur.

Moliyaviy siyosatning samaradorligi uning ma'lum iqtisodiy siyosatni olib borish natijasida pirovard belgilangan natijalariga erishishdagi ta'siri bilan baholanadi. Ushbu siyosatning pirovard belgilangan natijalari sifatida quyidagi ko'rsatkichlarni keltirish mumkin:

- inflatsiya;

- iqtisodiy o'sish va aholining ish bilan bandligi;

- to'lov balansi;
- sektorlarning iqtisodiy xulqi;
- makroiqtisodiy me'yorlarning bajarilishi va tizimning barqarorligi.

Moliya to'g'risidagi statistik axborot iqtisodiy rivojlanishga ta'sir o'tkazadigan quyidagi moliyaviy vositalarni qamrab oladi:

- pul-kredit siyosatining vositalari (masalan, majburiy zahiralar, aktivlarning likvidlik koefitsiyentlari, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi va h.k.);
- hukumat tomonidan amalga oshiriladigan moliyavay chora-tadbirlar;
- me'yoriy qoidalar;
- valyuta kursi;
- foiz stavkalari

Amaldagi moliya tizimining samaradorligi umuman iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatib, iqtisodiy o'sish uchun zarur sharoitlarni yaratishi yoki iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtirishi va ortiqcha xarajatlarga yo'l qo'yishi mumkin.

Iqtisodiyot nomoliyaviy sektorlar faoliyatining samaradorligi ularga moliya tizimi tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlarning miqdori va sifatiga uzviy bog'liqdir. Bunday xizmatlar sirasiga:

- savdoni rivojlantirish uchun hisob-kitob operatsiyalarini bajarish;
- saldolash (netting) va o'zaro hisobga olishlar (kliring);
- depozitlarni qabul qilish va boshqa majburiyatlarni olish;
- kreditlar bilan ta'minlash;
- likvidlikni ta'minlash;
- nomoliyaviy sektorga ularning o'z shartnoma majburiyatlarini bajarishlari uchun kafolatlar berish.

Iqtisodiyotning har bir sektorida mablag'lar jamg'arilishi mumkin. Jamg'arish hamda kapital hisobi bo'yicha operatsiyalar sof kreditlash hajmini hosil qiladi. Bunda ba'zi iqtisodiyot sektorlari yoki kichik sektorlari nettokreditor bo'lsalar, boshqalari netto-qarz oluvchilar bo'ladilar. Moliyaviy operatsiyalarning olib borilishi

natijasida biror sektorda ortiqcha moliyaviy resurslar shakllanganda, resurs egalari moliyaviy resurslarni boshqa sektorlar ixtiyoriga berishlari mumkin.

MHTdagi moliyaviy hisob netto-qarz oluvchi sektorlarning o'zlariga kerak bo'lgan moliyaviy resurslarni moliyaviy majburiyatlar qabul qilish yoki o'z moliyaviy resurslarini qisqartirish hisobiga shakllantirishlarini ifodalasa, netto-kreditor sektorlarning ortiqcha resurslarini moliyaviy aktivlarni sotib olish yoki majburiyatlarini qisqartirish hisobiga joylashtirishini ifodalaydi.

MHTdagi moliyaviy hisobga qo'shimcha tarzda tuziladigan moliyaviy oqimlar matrisasida moliyaviy vositalar turlari bo'yicha qarzdor va kreditor sektorlarning moliyaviy munosabatlari ifodalanadi.

Moliyaviy operatsiyalar har qanday institutsional birlik faoliyatining ajralmas qismi hisoblansa-da, har qanday mamlakat iqtisodiyotida moliyaviy faoliyatning asosiy salmog'i moliyaviy vositachilar, xususan, deposit banklari hissasiga to'g'ri keladi.

Demak, banklarning moliyaviy operatsiyalari va balanslari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganish natijasida moliyaviy tizimning rivojlanishiga baho berish mumkin bo'ladi. Banklar axborotining yana bir boshqa ustunlik tomoni shundan iboratki, banklardagi axborotlarni o'z vaqtida yetarli hajmda olish imkoni bo'ladi va ko'pgina hollarda boshqa sektorlardagi ma'lumotlarga nisbatan ishonchlilik darajasi ancha yuqori bo'ladi.

Pul massasi ko'rsatkishlari sharxi "moliya tashkilotlari" sektorining bank sektorchasiga taalluqli hisobotlari shakllari asosida tuzilib, MHTning talablaridan kelib chiqqanligi uchun pul-kredit tizimini tahlil qilishda katta amaliy ahamiyatga egadir.

Bank sharxida bank ko'rsatkichlaridan tashqari markaziy hukumat faoliyatiga tegishli bo'lgan pul emissiyasi, xalqaro zahiralarni boshqarish va XVJ bilan olib boriladigan operatsiyalar ham qamrab olinadi.

Har qanday moliyaviy agregat (ko'rsatkich) bir vaqtning o'zida bir institutsional birliklar guruhining moliyaviy aktivlari va boshqalarining moliyaviy majburiyatlarini

ifodalaydi. Umumlashtirilgan yigʻma koʻrsatkich tahliliy nuqtai-nazardan maʼlum institutsional birliklar guruhlarining iqtisodiy xulqiga taʼsir etgan holdagina qiziqish uygʻotishi mumkin.

Umuman olganda “pul” koʻrsatkichiga maʼlum institutsional birliklar guruhlarining moliyaviy aktivlari toʻplami sifatida qaralib, ular muomila yoki jamgʻarish vositasi sifatida foydalanilishi mumkin. Bunday institutsional birliklar guruhi pullarga egalik qiluvchi “egalik sektori” deb qaraladi. Nomoliyaviy huquqiy sektorning pul aktivlari bilan nominal yalpi ichki mahsulot (YaIM) va inflatsiya darajasi oʻrtasida maʼlum boʻgʻliqlik mavjud. Demak, pulga egalik qiluvchi sektor sifatida nomoliyaviy xususiy sektor qaralishi mumkin. Uning aktivlariga boshqa sektorlarning majburiyatlari yoki tashqi dunyo mamlakatlarining majburiyatlari kirishi mumkin.

Agar “pul”ga banklarning majburiyatlari toʻplami sifatida qaraladigan boʻlsa, banklarning iqtisodiy xulqi pul massasi bilan kresit aloqasiga taʼsir oʻtkazishga yoʻnaltirilgan boʻladi.

Qisqacha xulosalar

Bozor munosabatlari sharoitida miliy iqtisodiyotni tahlil qilish va unga taʼsir qiluvchi omillarni oʻrganish amaliyotda yangi balans usullarni qoʻllashni talab etadi.

Iqtisodiyotda balans tizimlarifani predmeti – milliy iqtisodiyot uchun balans tizimlarni ishlab chiqish, hisoblar tizimini tuzish uslubiyat, usullari va qoidalari, uning mazmuni, milliy hisoblarning koʻrsatkichlar tizimi, ularni hisoblash usullari va oʻzaro bogʻlanishlaridan iborat.

Iqtisodiyotda balans tizimlari fanining asosiy vazifasi milliy ishlab chiqarish jarayonini har doim ikki yoqlamaoperatsiyalarning birligi sifatida talqin etishdir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Balans deganda nimani tushunasiz?
2. Balans usulining qisqacha rivojlanish tarixini tushuntiring.

3. Iqtisodiyotda balans tizimlari fanining asosiy vazifasi nima?
4. Iqtisodiyotda balans tizimlari qanday usullarda o'rganiladi?
5. Iqtisodiyotda balans tizimlari fanining boshqa fanlar bilan aloqasini tushuntiring.
6. Ikkiyoqlama yozish prinsipini izohlang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi Prezident Islom Karimovning 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi / Xalq so'zi 22.01.2011
2. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir. I.A. Karimov. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2010. – 34-50 b.
3. I.A. Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: O'zbekiston, 2009.-56 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir” hamda “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot.-2010.– 63-85 b.
5. Кудина М.В. Основы экономики: Учебник. – ФОРУМ: ИНФРА-М, 2006.
6. Бухгалтерский финансовый учет: Учебник для вузов/Под ред.проф. Ю.А. Бабаева. – М.:Вузовский учебник, 2006.
7. Yakubov I.O., G'oyibnazarov B.K., Abdusattarova X.M. Balans muammolari. O'quv qo'llanma.-T.:O'zRyO'AJ. 2004.
8. Якубов И.О., Тошмухамедов Н.С. Балансовые проблемы. – Т.: ТГЭУ, 2008.

2-Mavzu: IQTISODIYOTDA BALANS TIZIMLARI ASOSLARI

Reja:

2.1. Milliy iqtisodiyot balansining mazmuni va mohiyati.

2.2. Milliy iqtisodiyot balansini ishlab chiqishning ilmiy asoslari

2.3. Takror ishlab chiqarish jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida nazariyasi milliy iqtisodiyot balansini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari.

2.1. Milliy iqtisodiyot balansining mazmuni va mohiyati.

Iqtisodiyot balansi deb o‘zaro bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy jadvallar (odatda ular o‘zaro bog‘langan jadvallar qatori ko‘rinishida bo‘ladi) tizimiga aytiladi. Ular o‘zida milliy ishlab chiqarishning aniq moddiy shartlari va natijalarini aks ettiradi. Iqtisodiyot balansining ikki xil turi mavjud: hisobot va reja balanslari. Balans milliy ishlab chiqarish jarayonining o‘tgan davri uchun aniq sonli va sifatli tafsilotini beradi hamda milliy iqtisodiyot amaliyotida yuzaga keladigan mutanosibliklar (proportsiyalar)ni belgilaydi. Iqtisodiyotning reja balansi rejalashtirilayotgan davr uchun ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasidagi mutanosibliklar va aloqalar, rivojlanish shartlari va sur‘atlari, yo‘nalishlari hamda hajmini aniqlab beradi.

Iqtisodiyot balansi iqtisodiyotning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan munosabatlar va mutanosibliklarni ma’lum davrga o‘rnatish imkonini beradi.

Iqtisodiyot balansining asosiy uch xil vazifasi mavjud: birinchidan, u asosiy xalq xo‘jaligi mutanosibliklarni son jihatidan aniqlash uchun ishlab chiqiladi. Bu umumiy iqtisodiy, tarmoq, tarmoqlararo va hududiy mutanosibliklar. Ular iste’mol, ishlab chiqarish sohasi va muomala sohasi, joriy iste’mol va takror ishlab chiqarishni kengaytirishga qo‘yilmalar o‘rtasida mutanosibliklarni belgilab beradi.

Ikkinchidan, agarda yalpi milliy mahsulot va milliy daromad kabi iqtisodiyotning tarkibiy qismlari o‘zaro muvofiqlashtirilgan bo‘lsa, ya’ni xalq xo‘jaligi rivojlanishini umuman balanslangan deb ta’kidlash mumkin bo‘lsa, balans hisob-kitoblaridan tuzilayotgan rejaning o‘zaro mutanosibligini tekshirish uchun foydalanish mumkin.

Uchinchi, milliy iqtisodiyot balanslari iqtisodiyotda mavjud va rivojlanayotgan mutanosibliklar va aloqalarni aks ettirgan holda tartibga solish vositasi hisoblanadi. Statistika va rejalashtirish amaliyotida balans hisob-kitoblarini quyidagicha tasniflash mumkin.

Iqtisodiyot balansini quyidagi bo'limlardan tashkil topgan; yalpi milliy mahsulot ishlab chiqarish, iste'mol va jamg'arish, milliy daromadni ishlab chiqarish, taqsimlash va foydalanish, mehnat resurslarining jamlama balansini, milliy boylik.

Iqtisodiyot balansining birinchi bo'limi milliy bo'ylik, keyin yalpi milliy mahsulot, u iste'mol va jamg'arish maqsadida moddiy boyliklar va xizmatlarni ishlab chiqarish va ishlatishni ko'rsatadi.

Balansning uchinchi bo'limi – milliy daromad, u yaratilgan daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash bosqichlarni aks ettiradi. To'rtinchi bo'lim – moliyaviy balanslar matritsasi, beshinchi bo'lim – real sektor balansini.

Balansning oltinchi bo'limi – ishchi kuchi umumlashma balansini o'zida iqtisodiyotda mavjud ishchi kuchi va ulardan foydalanishni aks ettiradi. Ishchi kuchi – jamiyat ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Boshqa mehnat balanslari bilan birga ishchi kuchi balansini iqtisodiyotda mehnatdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish va mehnatni oqilona taqsimlashni rejalashtirish imkonini beradi. Ushbu asosiy bo'limlardan tashqari iqtisodiyot balansini tarkibiga bir qator qo'shimcha balanslar va balans hisob-kitoblari kiradi. Ular asosiy bo'limlarni aniqlashtiradi va takror ishlab chiqarish jarayonining u yoki bu tomonlarini va shartlarini aks ettiradi. Ular qatoriga: tarmoqlararo balans, asosiy fondlar balansini, kapital qo'yilmalar balansini, ishlab chiqarish vositalari va iste'mol mollari balansini, milliy iqtisodiyot balansining asosiy ko'rsatkichlari balanslari kiradi.

2.2. Milliy iqtisodiyot balansini ishlab chiqishning ilmiy asoslari

Iqtisodiyot balansini ishlab chiqishning ilmiy asosi kengaytirilgan takror ishlab chiqarish iqtisodiy o'sish nazariyasi hisoblanadi.

Takror ishlab chiqarish nazariyasi real takror ishlab chiqarish jarayonini o'rganishga asoslanadi va milliy iqtisodiyot balansining zaruriy ilmiy asosi hisoblanadi. Takror ishlab chiqarish jarayoni milliy mahsulotni ishlab chiqaruvchi va iste'molchisi hisoblanadigan jamiyatning barcha a'zolari o'zaro bog'langan faoliyati asosida amalga oshiriladigan ijtimoiy jarayondir. Bu jarayon o'z ichiga ishlab chiqarish, ayirboshlash, iste'molni va jamg'armani oladi.

Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoni yil sayin ishlab chiqarish hajmlarini kengayishni, ya'ni unda foydalanayotgan resurslar – ishchi kuchi, ishlab chiqarish vositalari va xom ashyoni yil sayin ko'proq darajada iste'mol qilishni, shu bilan birga takror ishlab chiqarish jarayoni natijasida ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar hajmining yil sayin oshib borishni va shunga mos ravishda, muomala, taqsimot va iste'mol jarayoniga yil sayin ko'proq tovarlar va xizmatlar kelib tushishini bildiradi. Shuning uchun iqtisodiyot doimo yangilanib turuvchi tovarlar va xizmatlar, moddiy va moliyaviy resurslarning doiraviy harakatidan iborat.

Ma'lumki, iqtisodiyot firmalar (korxona, zavod, fabrika, dehqon-fermer xo'jaligi, jamoa xo'jaligi) va uy xo'jaligidan iborat bo'ladi. Uy xo'jaligi bilan firmalar o'rtasidagi tovarlar va xizmatlar pul mablag'lari va moddiy resurslarni doiraviy harakati jamiyat hayotining makroiqtisodiy oboroti deb ataladi. Bu ikki oqim harakati har doim bir-biriga mos kelganda iqtisodiyot ravon rivojlanadi.

Ikki oqimli harakat darajasi iqtisodiy sub'ektlar o'z manfaatlarini ko'zlab yuritiladi. Bozor ularni bir-biriga bog'laydi. Makroiqtisodiy jarayon murakkab bo'lib, u millionlab tovarlar va xizmatlar yaratilishini, ularni millionlab kishilar iste'mol qilishini bildiradi. Bu harakatning ravon amalga oshishi uchun undagi iqtisodiy nisbatlar, ya'ni takror ishlab chiqarishning turli tomonlari o'rtasidagi nisbatlar muhim ahamiyatga ega.

Bizga ma'lumki, yalpi milliy mahsulot tarkibiy qislardan iborat, shuning uchun unda quyidagi nisbatlar mavjud:

Yalpi ichki mahsulot va qoplash fondi.

Iste'mol fondi va jamg'arish fondi.

Birinchi bo‘lim tarmoq korxonalari mahsuloti bilan ikkinchi bo‘lim tarmoq korxonalari mahsuloti kabilari o‘rtasida vujudga keltirishning ikki usuli mavjud:

Bozor usuli.

Totalitar usuli.

Bozor usuli tovar va xizmatlar, moddiy va moliyaviy resurslar harakatini ishlab chiqaruvchilar manfaatini, qobiliyatini hisobga olgan holda ta‘minlaydi.

Totalitar usulda ma‘muriy buyruqbozlik yo‘li bilan kishilar turmushini tenglashtirishga harakat qilinadi. Tovlar va xizmatlar, moddiy va moliyaviy resurslar harakati yuqoridan berilgan buyruqlar, rejalar asosida amalga oshiriladi.

Takror ishlab chiqarish jarayonining barcha jabhalarda makroiqtisodiy muvozanatning quyidagi turlari mavjud:

1. Yalpi talab bilan taklif o‘rtasidagi muvozanat.;
2. Ishlab chiqarish bilan iste‘mol o‘rtasidagi muvozanat;
3. Uy xo‘jaligi daromadi va xarajati o‘rtasidagi muvozanat;
4. Pul massasi va tovar-xizmatlar massasi o‘rtasida muvozanat;
5. Jamg‘arish bilan investitsiya o‘rtasidagi muvozanat;
6. Investitsiya darajasi bilan iqtisodiy o‘sish darajasi o‘rtasidagi muvozanat;

Ko‘p yillik tajriba shuni ko‘rsatdiki, ishlab chiqarish balansi iqtisodiy rivojlanishning sur‘at va mutanosibligini asoslashning samarali quroli bo‘lishi mumkin.

Mamlakat iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish amaliyotida uning roli faqatgina mustaqillik yillarida qaytadan tiklanib, balans yangi pog‘onaga ko‘tarilmoqda. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti to‘lov balansi, Markaziy bank pul balansi, moliyaviy matritsa, real sektor balansi, tarmoqlararo balans kabilarga katta ahamiyat berilmoqda.

2.3. Takror ishlab chiqarish jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida nazariyasi milliy iqtisodiyot balansini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari.

Jamiyatda iqtisodiy barqarorlik va yuksalishning asosiy ko'rsatkichi yalpi ichki mahsulot (YaIM)dir. Uning o'sish dinamikasi va tarkibi jamiyat iqtisodiy ko'rsatkichlarining undagi foydalanilmay qolgan imkoniyatlarini ko'rsatuvchi birdan-bir indikator bo'lib hisoblanadi. O'z-o'zidan yalpi ichki mahsulot ijtimoiy mahsulotning tarkibiy qismi. Ishlab chiqarish hajmlari xalq xo'jaligi balanslari orqali hisoblanganda uning asosiy ko'rsatkichi yalpi ijtimoiy mahsulot hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarda ishlab chiqarish hajmlari milliy hisob tizimi (MHT) orqali hisoblanadi. Uning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichi yalpi ichki mahsulot (YaIM) bo'lib hisoblanadi. Hozirgi kunda bizning respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida, iqtisodiyotda ishlab chiqarish xajmlarini belgilashda xalq xo'jaligi balanslaridan milliy hisoblar tizimiga o'tish bilan birga amalga oshirilmoqda.

MHTning asosiy afzalligi shundan iboratki, unda moddiy ishlab chiqarish sohasi bilan birga (XXBlari faqatgina moddiy ishlab chiqarish sohasini o'z ichiga oladi va nomoddiy ishlab chiqarish sohasida moddiy ne'matlar va xizmatlar yaratilmaydi, deb hisoblanadi) nomoddiy ishlab chiqarish sohasi natijalari ham hisobga olinadi. U takror hisoblash usulidan ozod bo'lib, takror ishlab chiqarish jarayonining har bir fazasi uchun maxsus hisob schyotlariga ega. MHT davlatning iqtisodiy faoliyatiga har tomonlama tavsif beruvchi o'zaro bog'liq bo'lgan statistik ko'rsatkichlardan, hisob schyotlaridan, jadvallardan iborat bo'lgan tizimni tashkil qiladi.

Xalq xo'jaligi balanslari tizimini amalga oshirishning asosiy vositasi sifatida ishlab chiqarilgan milliy daromad tarkibiga, uning vujudga kelish davrida birlamchi taqsimot va yakuniy iste'mol xarakatlari qo'shib o'rganilgan. MHTga o'tish davrida davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi istiqbollarini belgilash va shu asosda uning boshlang'ich bazasi bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun rivojlangan mamlakatlarda qo'llanayotgan indekativ rejalar tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Xalq xo'jaligi balansi modeli, asosan "xarajat ishlab chiqarish"ga asoslangan bo'lsa, endi o'zaro bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish schyotlari orqali istiqbolni belgilash yo'li bilan YaIM ning kelajakdagi xajmini aniqlash imkoniyati yaratilmoqda. XXB

tizimida nomoddiy ishlab chiqarish ikkinchi darajali soha deb qaralib, bu sohada mahsulot yaratilmasdan, balki moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan mahsulotni qayta iste'mol qiladi, deb qaralgan. Hozirgi kunda bunday qarashlar noreal va MHTga o'tish zarurligi real haqiqatdir.

MHTga o'tish iqtisodiyot tarmoqlararo balansining yangi konsepsiyasiga o'tishni taqazo qiladi. Tarmoqlararo balansning yangi konsepsiyasi :

- MHTning barcha ko'rsatkichlarini muvofiqlashtirish;
- Baho va deflyator indeksatsiyalarini hisoblash, inflatsion jarayonlarni kompleks baholash, iqtisodi o'sishni belgilash bo'yicha to'la informatsion metodologik bazani yaratish;
- Iqtisodiy va ijtimoiy sohani rivojlantirishning ilmiy istiqbollarini belgilashning axborot imkoniyatlarini yaratish.

XXB nisbatan MHT moliyaviy resurslar budjet, qo'shimcha qiymat, ish haqi fondi va foyda, daromadlar va xarajatlar, aktivlar va passivlar, institutsional birliklar kabi iqtisodiy tushunchalarga juda mos keladi. XXB bilan MHTni integratsiyalash jamiyatni iqtisodiy rivojlanish asosi bo'lmish moddiy ishlab chiqarish sohasini takror ishlab chiqarishni makroiqtisodiy tahlil qilish darajasini oshiradi. XXB bilan MHT o'rtasida farq bo'lishga qaramay, bular o'rtasida umumiylik mavjud. Ushbu ikki tizimning ham asosiy vazifasi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlashning kontseptual asoslarini belgilash va iqtisodiyotning rivojlanish, undagi aloqadorlik va bog'liqliklarni belgilovchi ko'rsatkichlar tizimini aniqlashdir. Ikkinchidan, makroiqtisodiy statistika ko'rsatkichlarining uslubiy biligini ta'minlash, ya'ni ko'rsatkichlar mohiyati, ularning klassifikatsiyasi birligini taminlashdan iboratdir.

XXB va MHTning vazifalari o'rtasidagi umumiylikdan tashqari bu ikki model o'rtasida metodologik xarakterdagi umumiylik ham mavjud. Ular:

- milliy xo'jalikni rivojlanib boruvchi, takror ishlab chiqaruvchi iqtisodiy tizim sifatida modellashtirish tamoyili;
- iste'mol qiymatlar xarakati bilan daromad xarakatini chegaralash;

- bir tomondan iste'mol qiymatlari va daromadlarini ikkinchi tomondan resurslar zahirasini ajratib ko'rsatish;

- ishlab chiqarish daromadlarini qayta taqsimot daromadlaridan farqlash;

- mahsulotni yakuniy va oraliq mahsulotga hamda iste'molni yakuniy va oraliq iste'moga guruhlash;

- asosiy va moddiy aylanma fondlarni ajratib ko'rsatish.

XXB bilan MHT o'rtasida shu bilan birga boshqa turdagi umumiyliklar ham mavjud. Masalan. Aholining yordamchi xo'jalik faoliyatini baholashda tovar-pul shakliga kirmaydigan mahsulot bahosini belgilash va hakazo.

Qisqacha xulosalar

Iqtisodiyot balansi deb o'zaro bog'liq bo'lgan iqtisodiy jadvallar tizimiga aytiladi. U iqtisodiyotni muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan mutanosibliklarni ma'lum davrga o'rnatish imkonini beradi.

Iqtisodiyot balansini ishlab chiqishning ilmiy asosi takror ishlab chiqish (iqtisodiy o'sish) nazariyasi hisoblanadi.

Iqtisodiyot balansini takomillashtirish – iqtisodiy rivojlanishning sur'at va mutanosibligini asoslashning samarali instrumenti bo'la olishidadir.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Iqtisodiyot balansining mohiyati nimadan iborat?
2. Balans hisob-kitoblaridan qayerda foydalanish mumkin?
3. Milliy ishlab chiqarish balansi qanday tasniflanadi?
4. Iqtisodiyot balansining bo'limlari qaysilar?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi Prezident Islom Karimovning 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga

mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.// Xalq so'zi 22.01.2011

2. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir. I.A. Karimov. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2010. – 34-50 b.

3. I.A. Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: O'zbekiston, 2009.-56 b.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir” hamda “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot.-2010.– 63-85 b.

5. Кудина М.В. Основы экономики: Учебник. – ФОРУМ: ИНФРА-М, 2006.

6. Бухгалтерский финансовый учет: Учебник для вузов/Под ред.проф. Ю.А. Баб9аева. – М.:Вузовский учебник, 2006

7. Yakubov I.O., G'oyibnazarov B.K., Abdusattarova X.M. Balans muammolari. O'quv qo'llanma.-T.:O'zRyoUAJ. 2004.

8. Якубов И.О., Тошмухамедов Н.С. Балансовые проблемы. – Т.: ТГЭУ, 2008.

3-Mavzu: AHOLI VA MEHNAT BALANSI

Reja:

3.1.Ishchi kuchi balansini tuzishning nazariy va ijtimoiy asosi

3.2.Ishchi kuchi balanslari tizimi va ularning iqtisodiyotni tartibga solishda qoʻllanishi

3.3.Mehnat resurslari va aholining kelajakdagi sonini aniqlash uslubiyati

3.1.Ishchi kuchi balansini tuzishning nazariy va ijtimoiy asosi

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti, tabiiy boyliklar, iqtisodiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishni koʻzda tutadi. Mazkur masalani yechishda mehnat resurslaridan toʻla va oqilona foydalanishga katta ahamiyat beriladi.

Aholining joylashtirilishi ijtimoiy-iqtisodiy qonun. Shuning uchun bu qonunni faqat demografik hodisa deb qarash mumkin emas, yaʼni demografik hodisalar odamlarning ishlab chiqarish vositalariga munosabati va ularning ishlab chiqarishdagi bevosita ishtiroklari natijasidir.

Demak, aholini joylashtirish qonunining mazmuni takror ishlab chiqarish, mehnat resurslari (aholi)ning harakati va ulardan foydalanishdir.

3.2.Ishchi kuchi balanslari tizimi va ularning iqtisodiyotni tartibga solishda qoʻllanishi

Balans hisob-kitoblari tizimi - ishchi kadrlarni tayyorlash va mehnat resurslaridan foydalanishni tartibga solishning asosiy usuli sifatida ishchi kuchi, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning barcha asosiy bosqichlari, oʻnlab hisob-kitoblarni oʻz ichiga oladi.

Hozirgi vaqtda tartibga solish organlari ishchi kuchi balanslarining quyidagi tizimidan foydalanadilar:

- a) ishchi kuchi;
- b) iqtisodiyotni ishchi kuchi bilan taʼminlash balans hisob-kitoblari;
- v) yoshlarni mehnat bilan taʼminlash balans;

g) malakali ishchi kadrlar balansi;

d) mutaxassislar balansi.

Bu balanslar yordamida quyidagilar aniqlanadi:

-iqtisodiyotni tarmoqlari bo'yicha mehnat resurslarini taqsimlashdagi mutanosibliklar;

-tumanlar, shaharlar va qishloqlar o'rtasida mehnat resurslarini taqsimlash zaruriyati; o'qishda band bo'lgan mehnatga qobiliyatli aholi soni, mehnatga qobiliyatsiz yoshdagi aholining milliy ishlab chiqarishdagi ishtiroki.

Ishchi kuchi balansi iqtisodiyot balansining tarkibiy qismini tashkil etadi. Chunki, unda milliy mahsulot ishlab chiqarishga ketgan barcha mehnat xarajatlari aks ettiriladi.

Shu munosabat bilan u kelajakdagi ishchi kuchini, takror ishlab chiqarish jarayonining muhim tomonlarini xarakterlaydi. Unda mehnat resurslarining soni va o'sishi, bandlikning ortishi, malakali kadrlarga bo'lgan talab va uning ta'minoti, mamlakat tumanlari va tarmoqlari bo'yicha ishchi kuchini taqsimlash ko'rsatiladi.

Demakki, ishchi kuchi balansi iqtisodiyot balansining tarkibiy qismi bo'lib, u o'zida ishchi kuchi, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini ham aks ettiradi; mamlakatning mehnat resurslari, ularning bandligi va fan-texnika yutuqlari, mehnat umumdorligi o'sishi hisobiga mehnat resurslaridan oqilona foydalanishni xarakterlaydi.

Ishchi kuchi balansi ikkita o'zaro bog'langan balanslar; ish vaqti va mehnat resurslari balanslaridan iborat.

Ish vaqti va mehnat resurslari balanslari iqtisodiyotni tartibga solishning shakllanishiga faol ta'sir etadi. Mehnat resurslaridan maqsadga muvofiq va samarali foydalanish eng kam mehnat xarajatlari bilan maksimal natijaga erishish imkonini beradi.

Tartibga solish amaliyotida ish vaqti balansining qo'llanilishi ijtimoiy mehnatdan oqilona foydalanish ehtiyojidan kelib chiqadi.

Shunday qilib, ish vaqti balansi barcha xarajatlarni aks ettirish asosida tarmoqlar bo'yicha mehnatni taqsimlash va undan foydalanish mutanosibliklarni to'g'ri aniqlab olish imkonini beradi.

Balansda quyidagilar o'z aksini topadi:

- xo'jalikning turli tarmoqlari, bo'yicha real mehnat xarajatlari;
- Milliy ishlab chiqarishda uy xo'jaligi va shaxsiy tarmoqlarga, xo'jalikda, shuningdek, o'qishdagi mehnat xarajatlari ratsional mutanosibligi;
- milliy ishlab chiqarishda band bo'lgan bitta ishchiga to'g'ri keladigan mehnat yuki (nagruzkasi);
- vaqt zahirasi;
- vaqtni yo'qotish va qisqartirish;

Sanab o'tilgan vazifalar ish vaqti balansi mazmunini ochib beradi.

Ish vaqti balansini 2 ta bo'limga ajratish mumkin:

- jamoat tasarrufidagi vaqt zahiralar;
- jamiyatga kerakli ish vaqti.

Buni quyidagi jadval sifatida ko'rish mumkin:

3.1.-jadval

Ish vaqti balansi

Vaqt zahirasi (resurslar)

1. Jamiyat tasarrufidagi potentsial vaqt zahiralar (resurslari)

jami _____

shu jumladan:

a) real vaqt zahiralar _____

b) vaqtni yo'qotishlar _____

bundan

kasalliklar tufayli _____

boshqa yo'qotishlar _____

2 Jamiyatga kerakli ish vaqti-

jami _____

shu jumladan:

A) ijtimoiy xo‘jalikda _____

Ulardan:

B) moddiy-maishiy xizmatlar sohasida _____

V) madaniyat va sog‘liqni saqlash sohasida _____

G) uy xo‘jaligida _____

D) o‘qishga sarflangan vaqt xarajatlari _____

Ulardan:

Ishlab chiqarishdan tashqari _____

Ish vaqtining umumiy xarajatlaridan jami _____

Moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida ishlatiladi jami _____

Shu jumladan, tarmoqlar bo‘yicha: _____

Noishlab chiqarish sohasi tarmoqlari ishlatiladi: jami _____

Shu jumladan, tarmoqlar bo‘yicha: _____

3. Jamiyatning ishsiz vaqti-umuman _____

Shu jumladan,

-yo‘lga ketgan xarajatlar (ishgacha va orqaga) _____

-boshqa vaqt xarajatlari

-jamiyatining bo‘sh vaqti (odamlarning jismoniy rivojlanishi va dam olish)

Balansning ikkita oxirgi bo‘limlaridagi vaqt sarflari birinchi bo‘lim, ya’ni jamiyat tasarrufidagi vaqt zahiralar bilan bog‘liq.

Umumlashma balansning bu jadvali jamiyat vaqtidan foydalanish haqida tasavvur yaratadi.

Ish vaqti balansini hisob-kitob qilishda haqiqiy vaqt zahiralari hisoblanadi. Maksimal vaqt fondi kalendar ish vaqti fondidan uyqu, ovqatlanish va boshqa fiziologik ehtiyojlarini qondirishga ketgan vaqt ayrilib topiladi. Hozirda bu xarajatlar oʻrtacha 1kishiga taxminan 1 kunda 9 soatni tashkil etadi.

Demakki, 1 kishining maksimal yillik ish vaqti fondi 5475 soatga teng.

Iqtisodiyot va oʻqishda band boʻlgan barcha mehnat resurslarining yillik ish vaqti fondi mamlakatning ish vaqti zahirasini (resursini) tashkil etadi.

Ishchi kuchi balansi-bu reja iqtisodiy hujjat hisoblanib, unda ishchi kuchi, takror ishlab chiqarish jarayoni, xoʻjalik tarmoqlari, faoliyat turlari boʻyicha mehnatdan foydalanish, ularni toʻldirish manbalari oʻz aksini topadi.

Ishchi kuchi balansining mohiyati va qoʻllanilishidan kelib chiqib, uning vazifalarini quyidagilarga ajratish mumkin:

- mamlakatning barcha mehnat resurslari va ularni asosiy belgilarga koʻra guruhlashni toʻla hisobga olishni taʼminlash;

- iqtisodiyotning alohida tarmoqlari va maʼmuriy hududlarda ishchi kuchiga boʻlgan qoʻshimcha ehtiyojni aniqlash;

- bu ehtiyojlarni qondirish manbalarini aniqlash;

- mamlakatda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning hududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda xalq xoʻjaligi tarmoqlari va sohalari oʻrtasida mehnat resurslarini oqilona taqsimlash va qayta taqsimlash boʻyicha tadbirlar, ishlab chiqish;

- malakali ishchilar va mutaxassislarni tayyorlash, shuningdek, ularning malakasini oshirishni tashkil etish orqali mamlakat mehnat resurslari sifatini yaxshilash tadbirlarini ishlab chiqish.

Ishchi kuchi balanslari:

- haqiqiy;

- reja balanslariga boʻlinadi.

Ishchi kuchi haqiqiy balansida oldingi davr uchun ishchi kuchi zahiralari va ulardan foydalanish oʻrtasida mutanosiblik aks ettiriladi. Haqiqiy mehnat balanslari

mamlakat iqtisodiyotidagi o'zgarishlar va ro'y bergan ijtimoiy siljishlar bilan bog'liq mehnat resurslarining soni va tarkibidagi sifat o'zgarishlarni tavsiflaydi.

Ishchi kuchining kelajakdagi reja balansi keyingi davrga tuziladi, unda iqtisodiyotning istiqbolli rivojlanishi, mehnat umumdorligining o'sishi fan, texnika va madaniyat yutuqlarini joriy qilish asosida ishchi kuchi resurslarining o'zgarishi hamda ulardan oqilona foydalanish loyihalashtiriladi.

Ishchi kuchi reja balansini tuzish uchun quyidagilarni bilish lozim:

- xo'jalikning alohida tarmoqlarini rivojlantirish rejalarining iqtisodiy va texnik xususiyatlari;

- ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar;

- mehnatga qobiliyatli aholining ko'payishi;

- malakaviy tarkibda o'zgarishlar

Yuqoridagilardan tashqari ishchi kuchi balanslari xususiy va yig'ma, tarmoq va hududiy balanslarga bo'linadi.

Ishchi kuchining xususiy balansi mehnat resurslarining sifatini to'la tavsiflash uchun tuziladi. Bu ayollar bandligi, yoshlar mehnat resurslari, malakali ishchi kadrlar, mutaxassislar balanslari va h.k.

Xususiy balanslar asosida yig'ma balanslar tuziladi.

Ishchi kuchi yig'ma reja balansi tumanlar, iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha mehnat resurslari harakati va uy xo'jaligida band bo'lgan mehnat resurslarining ulushini aniqlash imkonini beradi.

3.3.Mehnat resurslari va aholining kelajakdagi sonini aniqlash uslubiyati

Mehnat resurslari tushunchasi o'z ichiga barcha ishlayotgan va ishlamayotgan, mehnatga qobiliyatli aholini oladi. Bunday tavsif barcha formatsiyalarga tegishli. Fiziologik nuqtan nazardan inson faqat ma'lum bir jismoniy rivojlanish darajasiga ega bo'libgina mehnat qila oladi. Demak, mehnat resurslariga yoshi jihatidan bu darajaga etmagan va mehnat qobiliyatini yo'qotgan aholi qismi kiritilmaydi. Shunday qilib, mehnat resurslari mavjud va potentsial ishchi kuchi, aholining bir qismi sifatida

namoyon bo‘ladi. Pastki chegarasi potentsial ishchi kuchini tashkil etadi. Yoshiga ko‘ra chegarasi ijtimoiy-iqtisodiyomillarga bog‘liq. Eng muhim-omillar:

1.Aholiningmoddiytur mushdarajasi

2.Ishchilarnitayyorlashga hukumat talablari

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar jamiyat rivojlanishi bilan o‘zgarib, mehnat resurslari chegarasi ham o‘zgarib turadi.

Umumiy an‘ana shundayki, kam rivojlangan mamlakatlarda yosh avlod mehnat faoliyati bilan erta shug‘ullana boshlaydi, qariyalar esa kech tugatadilar.

Rivojlangan mamlakatlarda mehnat resurslari chegaralari yosh avlodning mehnat faoliyati bilan kech shug‘ullanishi tufayli qisqartiriladi.

Shunday qilib, mehnat resurslari – bu nafaqat statistik miqdoriy tushuncha, balki, ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya hamdir.

Aholi va mehnat resurslari sonini reja davriga hisob-kitoblar iqtisodiyot rivojlantirish rejalarini ishlab chiqarishda muhim rol’ o‘ynaydi.

Reja davrining har bir yiliga aholi soni quyidagicha aniqlanadi: aholi sonidan reja davridagi o‘lchamlar soni ayrilib, bu davrda tug‘iladigan va yashaydigan bolalar soni qo‘shiladi.

Mamlakat xo‘jaligida ayollar ishtirok etish darajasi demografik, ijtimoiy va iqtisodiy omillarga bog‘liq.

Demografik omillarga quyidagilar kiradi: soni, tuzilishlar soni, maktabgacha va maktab yonidan soni;

Ijtimoiy-iqtisodiy omillarga esa: aholi daromadlari darajasi, turmushning sanoatlashtirilishi, xalq ta’limi tizimi va kadrlar tayyorlash tizimi rivojlanishi; ayollarning jamiyatdagi o‘rni va h.k.

Aholi va mehnat resurslarini reja davriga hisob-kitob qilish xalq xo‘jaligi rivojlanish rejalarini ishlab chiqarishning muhim qismini tashkil etadi.

Moddiy ishlab chiqarish ob’ektlari va xizmat ko‘rsatish sohasi ko‘rsatkichlarini asoslash uchun butun aholi sonini aniqlash kerak.

Qisqacha xulosalar

Ishchi kuchi balansini tuzishning nazorat va ijtimoiy asosi ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti, tabiiy boyliklar, iqtisodiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishni koʻzda tutadi.

Balans hisob-kitoblari tizimi – ishchi kadrlarni tayyorlash va mehnat resurslaridan foydalanishni tartibga solishning asosiy usuli sifatida hisob-kitoblarni oʻz ichiga oladi.

Aholi va mehnat resurslarini reja davriga hisob-kitob qilish iqtisodiyotni tartibga solishning muhim qismini tashkil etadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ishchi kuchi balansi tuzilishining shart-sharoitlari nimalardan iborat?
2. Aholi va mehnat resurslarining kelajakdagi soni qanday aniqlanadi?
3. Ish vaqti balansi qanday tuziladi?
4. Ishchi kuchi balansining turlari qanday?

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi Prezident Islom Karimovning 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga moʻljallangan eng muhim ustuvor yoʻnalishlarga bagʻishlangan Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi maʼruzasi / Xalq soʻzi 22.01.2011

2. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir. I.A. Karimov. – Toshkent: “Oʻzbekiston”, 2010. – 34-50 b.

3. I.A. Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, Oʻzbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yoʻllari va choralari. -T.: Oʻzbekiston, 2009.-56 b.

4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir” hamda “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz

farovonligini yanada yuksaltirishdir” nomli ma’ruzalarini o’rganish bo’yicha O’quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot.-2010.– 63-85 b.

5. Кудина М.В. Основы экономики: Учебник. – ФОРУМ: ИНФРА-М, 2006.

6. Бухгалтерский финансовый учет: Учебник для вузов/Под ред.проф. Ю.А. Баб9аева. – М.:Вузовский учебник, 2006

7. Yakubov I.O., G’oyibnazarov B.K., Abdusattarova X.M. Balans muammolari. O’quv qo’llanma.-T.:O’zRYoUAI. 2004.

8. Якубов И.О., Тошмухамедов Н.С. Балансовые проблемы. – Т.: ТГЭУ, 2008.

4-Mavzu: MILLIY BOYLIK BALANSI

Reja:

- 4.1. Milliy boylik balansini vazifalari va ko'rsatkichlari
- 4.2. Milliy mahsulotni ishlab chiqarish, iste'mol qilish va jamg'arish balansini.
- 4.3. Asosiy fondlar balanslari

4.1. Milliy boylik balansini vazifalari va ko'rsatkichlari

Mamlakat milliy boyligi - inson mehnati tufayli to'plangan nomoliyaviy va moliyaviy aktivlar hamda tabiat in'omlarining yig'indisidan tashkil topadi.

O'zbekiston Respublikasi milliy boyligining hajmi 1991-yil 1-sentabrdan hisoblana boshlandi. U yaratilish manbai bo'yicha 2 qismdan iborat:

- 1. Milliy mulk - inson mehnati tufayli shu davrgacha to'plangan boyliklar.
- 2. Tabiat in'omlari - boyliklari.

Umuman, Yevropada qo'llanadigan MHT konsepsiyasiga asosan O'zbekiston Respublikasini milliy boyligi quyidagilardan tashkil topadi:

Yil boshida

Moddiy boyliklar		Moliyaviy resurslar
Tabiiy resurslar	Inson mehnati tufayli to'plangan moddiy boyliklar	
AV	VGDE	JZIKLMN

Yil davomida qilingan operatsiyalar

Moddiy boyliklar bo'yicha qilingan operatsiyalar	Moliyaviy resurslar bo'yicha qilingan operatsiyalar

yil oxirida

Moddiy boyliklar		Moliyaviy resurslar
Tabiiy resurslar	Inson mehnati tufayli to'plangan moddiy boyliklar	
AB	VGDE	JZIKLMN

I. Tabiiy resurslar:

A - foydalanishga kiritilmagan;

B - ishlab chiqarishda foydalaniladigan;

II. Inson mehnati tufayli yig'ilgan moddiy boyliklar;

V - asosiy fondlar;

G - moddiy aylanma mablag'lar va zahiralar;

D - aholining shaxsiy mulki;

E - boshqa moddiy boyliklar;

III. Moliyaviy resurslar;

J - oltin;

Z - mavjud pullar va bankdagi hisoblar;

I - qimmatli qog'ozlar (aksiyalardan tashqari);

K - zayomlar;

L - aksiyalar;

M - sug'urta fondlari;

N - boshqa moliyaviy mablag'lar.

Milliy boylik hajmi odatda yil boshi va oxirida quyidagicha aniqlanadi:

$MB + TR + KMTYMB + MR$.

Bunda: MB - milliy boylik.

TR - tabiiy resurslar;

KMTYMB - inson mehnati tufayli yig'ilgan moddiy boyliklari;

MR - moliyaviy resurslar.

Qanday maqsadga mo'ljalanganligiga qarab inson mehnati tufayli yaratilgan milliy boyliklar ikki guruhga bo'linadi:

1. Ishlab chiqarish fondlari;
2. Noishlab chiqarish fondlari.

Birinchi guruh inson mehnati tufayli yig'ilgan boylikning 40 foizga yaqinini tashkil qilib, ishlab chiqarish vositalaridan iborat. Ikkinchi guruh inson mehnati tufayli yig'ilgan boyliklarning asosiy qismini (60 foiz) tashkil qilib, noishlab chiqarish fondlar, aylanma fondlar va aholining shaxsiy mulkini o'z ichiga oladi.

Aylanma fondlar - bu ishlab chiqarish vositalarining bitta ishlab chiqarish jarayoni davomida tamomila iste'mol qilingan qismi bo'lib, uning qiymati tayyor mahsulotga to'laligicha o'tadi. Noishlab chiqarish vositalari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- mehnat ashyolari va g'amlamalari;
- tugallanmagan ishlab chiqarish va yarim fabrikatlar;
- kelajak uchun mo'ljallangan xarajatlar.

Aylanma fondlar asosiy ishlab chiqarish fondlarining taxminan 19-20 foizini tashkil qiladi. Ular yil davomida bir necha marta aylanadi. Shu sababli yil mobaynida sarflangan resurslarning umumiy hajmi ularning o'rtacha yillik hajmiga qaraganda bir necha baravar katta bo'ladi.

Statistika mamlakatimiz milliy boyligi hajmini hisoblash bilan birga uning dinamikasini ham tahlil qiladi.

Bu formula milliy boylik hajmining milliy daromaddagi jamg'arma me'yoriga to'g'ri, yil boshidagi hajmiga esa teskari proportsional bog'lanishda ekanligini ifodalaydi. Milliy boylikning o'sishi, jamg'arish qonuni asosida yuz beradi. Bu qonunga binoan iqtisodiyotda o'sish yuz berganda qo'shimcha mahsulotning jamg'ariladigan qismi milliy boylikka aylanadi.

4.2. Milliy mahsulotni ishlab chiqarish, iste'mol qilish va jamg'arish balansi.

Aktiv - bu institutsional birliklar qo'lidagi mulk bo'lib, uning egalari unga egalik qilish va undan foydalanish huquqi tufayli ulardan iqtisodiy daromad topadilar. Aktivlar mulk ob'ekti bo'lganligi sababli zahira ko'rinishida namoyon bo'ladi. Mulkning qiymatidagi ifodasi MHT da iqtisodiy aktiv ma'nosini beradi. Iqtisodiy aktivning miqdori (ko'lami) olingan iqtisodiy daromad hajmiga, shuningdek, muayyan davrda undan foydalanilganlik darajasiga ham bog'liq.

Mulk ob'ektlarining xizmat qilish davri turlicha bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan ulardan olinadigan daromad kamayib boradi. Natijada mazkur mulkning bozor qiymati pasayadi. Shu tariqa har bir institutsion birlik daromad topadi. Aytaylik:

- yer egasi dehqonchilik qilish yoki yerni ijaraga berib renta olishdan;
- pul yoki qimmatli qog'ozlar egasi uni qarzga berib foiz olishdan;
- kapital egasi uni biznesda ishlatishdan daromad topadi.

Passivlar - institutsion birliklarning qarzlari yoki ularni uzish bo'yicha qarzдорlik majburiyatidir.

Aktivlarning qiymatini hisobga olish ularning umumiy miqdorini (hajmi) hisobga olish imkonini beradi. Aktivlarning (A) umumiy qiymatidan (P) passivlar ayirib tashlansa, institutsion birliklarning xususiy kapitali (XK) kelib chiqadi:

$$XK=A-P$$

Makroiqtisodiyotda xususiy kapital sof aktivlar deb yuritiladi. Aktivlar ikki turdagi resurslardan tashkil topadi:

- moddiy (nomoliyaviy) resurslar;
- moliyaviy resurslar.

Moddiy resurslar o'z navbatida tiklanadigan va tiklanmaydigan fondlarga bo'linadi.

Moddiy aylanma vositalar va moddiy-tovar mablag'lar zahiralar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqaruvchilardagi tayyor mahsulot va tugallanmagan ishlab chiqarish g'amlamalari;
 - oraliq iste'mol uchun chetdan sotib olingan xomashyo, mablag' va yarim fabrikatlar g'amlamalari;
 - muomaladagi tovar g'amlamalari va davlat ixtiyoridagi zahiralar.
- Asosiy fondlar ham o'z navbatida ikki guruh aktivlaridan iborat:

Moddiy tiklanadigan aktivlar - turar joylar, ishlab chiqarish binolari va qurilish mahsulotlari, uskunalar, ishlab chiqarishga jalb qilingan tabiiy resurslar, buyumlashgan badiiy asarlar;

Nomoddiy tiklanadigan aktivlar - tadqiqotlar va izlanishlar, qazib olinadigan mineral resurslar, elektron hisoblash mashinalari dasturlari, adabiyot hamda san'atning nodir asarlari va hokazo.

Moddiy aktivlar jamiyatning moddiy ehtiyojini qondiruvchi va aniq moddiy ashyoviy shakldagi aktivlardir. Nomoddiy aktivlar ham moddiy ko'rinishga ega bo'lib, ular nomoddiy ehtiyojni qondiradi.

Asosiy fondlar deganda xizmat muddati bir yildan ortiq va qiymati o'n besh minimal ish haqidan kam bo'lmagan ishlab chiqarish vositalari tushuniladi. Ular ishlab chiqarishning bir bosqichida emas, balki bir necha bosqichida ishtirok etadilar, mahsulot ishlab chiqaradilar va natural ashyoviy shaklini saqlab qolgan holda qiymatlarni tayyorlanayotgan mahsulot qiymatiga qisman-qisman o'tkazib boradilar.

Sof moliyaviy aktiv iqtisodiyotning sof aktivlarni yoki xususiy kapitalni hisoblash uchun zarur. U quyidagicha aniqlanadi:

$$SMA=MA-MM$$

Bu yerda: SMA - sof moliyaviy aktiv;

MA - moliyaviy aktiv;

MM - moliyaviy majburiyatlar.

Moliyaviy majburiyat kreditorlar va qarzdorlar o'rtasida tuzilgan shartnoma munosobatlari natijasida vujudga keladi.

Moliyaviy majburiyat - qarzdorlarning o'z kreditorlari talablarini qondirish (to'lash) bo'yicha majburiyatidir.

Aktiv va passiv balanslar odatda yil boshi va yil oxiridagi holati bilan hisobga olinadi. Shunga qarab mutanosib ravishda aktiv va passiv balanslar boshlang'ich hamda yakuniy ko'rinishlarda tuziladi. Bu balanslar MHT tarkibidagi to'rtinchi toifa hisoblar bo'lib ularda aktivlar elementlarining tarkibiy majburiyat va xususiy kapitalning muayyan vaqtdagi holati aks ettiriladi.

Iqtisodiyotning sof aktivi barcha sektorlarning sof aktivlari yig'indisiga teng:

$$I_{sa} = ES_a$$

Bu yerda: I_{sa} - iqtisodiyotning sof aktivi;

ES_a - sektorlar sof aktivlarining yig'indisi.

Chet el moliyaviy aktivlari mamlakatning chet ellar bo'yicha aktiv va passiv balanslariga asoslanib hisoblanadi. Bu balansning aktiv qismida quyidagilar hisobga olinadi:

1. Chet el valyutasi zahirasi;
2. Xorijiy investitsiya va qimmatli qog'oz;
3. To'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari;
4. Eksport bo'yicha kechiktirilgan to'lovlar uchun berilgan kredit;
5. Xorijiy davlatlarning qarzlar;
6. Xalqaro tashkilotlarga berilgan badallar;
7. Boshqa tashqi faollar (bunga valyuta banklarining qisqa muddatli chet el aktivlari va korporatsiyalarning chet el aktivlari kiradi)

Balansning passiv qismida quyidagi unsurlar hisobga olinadi.

1. Ichki qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar;
2. Ichki iqtisodiyotga qilingan investitsiyalar;
3. Import bo'yicha kechiktirilgan to'lovlar uchun berilgan kredit;
4. Xorijiy davlatlardan qarzlar;
5. Boshqa tashqi qog'ozlar (buning tarkibiga valyuta banklarining qisqa muddatli tashqi qarzi va korporatsiyalarning tashqi qarzlar kiradi).

Aktivlar va majburiyatlar balanslari o'rganilayotgan davr boshi va oxiridagi holati bilan quyidagi daromadlar bo'yicha ishlab chiqiladi:

- institutSIONal birliklar;
- iqtisodiyot sektorlari;
- mamlakat iqtisodiyoti miqyosida.

Aktivlar va majburiyatlar balansini tuzish chog'ida bozor bahosida olib boriladi. Aktivning tarkibiy elementlari va ularning davr boshi va oxiridagi o'zgarishi quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$A_0 + V - S + D + X = A_1$$

Bu yerda:

A_0 va A_1 - aktivlarning davr boshi va oxiridagi qiymati (bozor narxida); V - sotib olingan aktivlar (oldi-sotdi qilish chog'idagi bahoda);

S - sotilgan yoki tugatilgan aktivlar;

D - aktivlar tarkibidagi boshqa o'zgarishlar;

X - aktivlar bo'yicha xolding nominal foydasi (+) va zarari (-).

Jamg'arma - kapitalning shakllanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Uning miqdori mavjud daromaddan jamg'arish foiziga bog'liq va u mavjud daromad bilan haqiqiy pirovard iste'mol o'rtasidagi farqqa teng. Sof jamg'arma kapital hajmining o'zgarishida birinchi va hal qiluvchi omil bo'lib hisoblanadi.

Moliyaviy aktivlar tarkibidagi o'zgarishlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-falokat yoki fojia natijasida ko'rilgan zararlar;

-qoplanmaydigan musodara qilishlar;

-tasnif va tarkibiy qismlardagi o'zgarishlar;

4.3. Asosiy fondlar balanslari

Ishlab chiqaruvchilar o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun ma'lum miqdorda ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lishlari kerak:

Ishlab chiqarish fondlari (asbob-uskunalar, transport vositalari, o'tkazuvchi qurilmalar va hokazolar) yordamida ishchi kuchi ishlab chiqarish vositalariga tayyor mahsulot olish uchun ta'sir etadi. Ular ishlab chiqarish jarayonining bir necha aktlarida ishtirok etadi va asta-sekin eskirib boradi. Ishlab chiqarish predmetlari (materiallar, yonilg'i va hokazo) esa ishlab chiqarish jarayoni oxirida butunlay ishlatilib tayyor mahsulotga o'tib ketadi.

Demak, ishlab chiqarish predmetlari o'z qiymatlarini bir ishlab chiqarish bosqichida tayyor mahsulotga o'tkazadi. Ishlab chiqarish fondlari esa o'z qiymatining eskirib borishiga qarab asta-sekin o'tkazadi va ishlab chiqarishning bir necha bosqichida qatnashadi.

Shunday qilib, asosiy fondlar - qiymat (pul) shaklida ifodalangan, xizmat muddati 1 yildan kam bo'lmagan mehnat vositalarining yig'indisi bo'lib, ular ishlab chiqarish jarayonida uzoq vaqt qatnashadi va qiymatini tayyor mahsulotga asta-sekin, eskirishiga qarab o'tkaza boradi.

Asosiy fondlar hajmini aniqlash uchun ularning har biri yoki bir guruhi natural ko'rsatkichda hisobga olinadi. Masalan: pechlar- foydalanish maydoni kubmetr (m^3) da, yashaydigan imoratlar-sonda va foydalanish maydoni kvadratmetr (m^2) da hisoblanadi va hokazo.

Asosiy fondlarni bunday ko'rsatkichlarda hisobga olish ko'p iqtisodiy masalalarni o'rganishga xizmat qiladi.

Shunga qaramay, asosiy fondlarning holati va eskirishiga baho berish, ishdagi umumiy ko'rsatkichlarni aniqlash, ularni guruhlash, tarmoq yoki butun sanoatning asosiy fondlari hajmini aniqlashda qiymat (pul) shaklida baholash muhim ahamiyatga ega. Bu shakl asosida yillik amortizatsiya normasi va summasi aniqlanadi, asosiy fondlarning balansi tuziladi.

Amaliyotda asosiy fondlarni quyidagicha baholash usullari qo'llaniladi:

1.To'liq qiymati bo'yicha:

a) to'la boshlang'ich qiymati bo'yicha.

b) tiklashdagi qiymati bo'yicha.

2.Eskirgan qismini ajratish qiymati bo'yicha:

a) to'la boshlang'ich qiymatida eskirgan qismini ajratish.

b) tiklashdagi qiymatida eskirgan qismini ajratish.

3.Yo'qotishdagi qiymati;

Asosiy fondlarni sotib olish, olib kelish, o'rnatish jarayonidagi xarajatlar yig'indisi asosiy fondlarning to'liq boshlang'ich qiymatini tashkil etadi va u

baholashning asosiy turi hisoblanadi. Asosiy fondlar shu bahoda korxonalarning balansiga o'tkaziladi.

Tiklash qiymati esa shu qiymatning hozirgi baholarda ifodalanishidir. Qurilish materiallarini hozirgi bahosida, hozirgi vaqtdagi transport va hokazolar xarajatlari bo'yicha baholash asosiy fondlarni qayta baholash natijasida aniqlanadi.

Eskirgan qismini ajratish qiymati, deb to'liq birlamchi qiymati yoki tiklash qiymatidan eskirgan qism qiymati ayirib tashlangandan keyin qoladigan qiymatga aytiladi.

Eskirib ishlab chiqarishdan chiqarib tashlashdagi qiymati yo'qotish qiymati deyiladi.

Asosiy fondlar amortizatsiyasi jismoniy va ma'naviy tomondan eskirishni pul shaklida ifodalashdir. Shu bilan birga amortizatsiya asosiy fondlar qiymatining tayyor mahsulotga o'tkazgan qismini belgilaydi. Jismoniy eskirish ularni ishlatish natijasida hosil bo'ladi. Ma'naviy eskirish esa ular zamon talabiga javob bera olmay qolganida ro'y beradi.

Ma'naviy eskirishning 2 turi mavjud:

- 1)Mavjud asosiy fondlarga nisbatan unumlirog'i ishlab chiqarilganda;
- 2)Mavjud asosiy fondlarga nisbatan arzonrog'i ishlab chiqarilganda.

Jismoniy va ma'naviy eskirishning amortizatsiya ajratmalari asta-sekin yig'ila borib amortizatsiya fondini tashkil etadi. Bu fond hisobidan asosiy fondlar butunlay yoki qisman tiklanib boriladi. Asosiy fondlar amortizatsiyasini o'rganishda yillik amortizatsiya summasini va amortizatsiya me'yorini ajratish kerak.

Yillik amortizatsiya summasi- yil davomida ajratilgan amortizatsiya summalari yig'indisi bo'lib, u mutloq miqdor - so'mlarda ifodalanadi.

Bu fondlar summasi - ishlab turgan vaqtida ularni kapital ta'mirlash va qayta uskunalash uchun, ishdan chiqqanida esa qiymatini butunlay koplash yoki yangisini sotib olish uchun ishlatiladi. U quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

Bu yerda: P(V)- asosiy fondlarning to'la boshlang'ich qiymati;

L-yo'qotishdagi qiymati;

X- asosiy fondlarning xizmat davri.

Amortizatsiya normasi deb, yillik amortizatsiya summasini uning to'liq birlamchi bosh bahosiga nisbatan foizda ifodalanishiga aytiladi.

Agar ushbu stanok 10 yildan keyin ham ishlab chiqarishda ishtirok etaversa, unda faqat kapital ta'mir uchun amortizatsiya ajratiladi.

Korxonalardagi asosiy fondlar qiymati muttasil o'zgarib turadi. Ularning ko'payishiga quyidagi omillar ta'sir etadi:

1)Sotib olish;

2)Qurish;

3)Inventarizatsiya davridagi bahosining ortishi.

Asosiy fondlar hajmining kamayishi quyidagi omillar ta'sirida kechadi:

1. Eskirganligi sababli yo'qotish;

2. Boshqa korxonalarga sotish;

3. Tabiiy ofat natijasida yo'qotilishi;

4. Inventarizatsiya bahosining kamayishi.

Asosiy fondlar haqidagi ma'lumotlarga asosan korxona va tarmoq bo'yicha ularning to'liq qiymatiga ko'ra balans tuziladi.

$$Af_1 = Af_0 + Af_{kir} - Af_{chik}$$

Bunda: Af_0 - asosiy fondlarning yil boshidagi qoldig'i.

Af_1 - asosiy fondlarning yil oxiridagi qoldig'i.

Af_{kir} - ishlab chiqarishga kiritilgan asosiy fondlar.

Af_{chik} - ishlab chiqarishdan chiqib ketgan asosiy fondlar.

Masalan: Tarmoqda yil boshida 6000 m.s. asosiy fond mavjud edi. Yil davomida ishlab chiqarishga 1200 m.s. asosiy fond kiritildi va 200 m.s. asosiy fond chiqarildi. Asosiy fondlarning yil oxiridagi qiymati aniqlansin va balansi tuzilsin:

- 1) $Af_1 = Af_0 + Af_{kir} - Af_{chik}$
- 2) $6000 + 1200 - 200 + 7000$
- 3) $6000 + 1200 = 200 + 7000$
- 4) $7200 \text{ m.s.} = 7200 \text{ m.s.}$

Asosiy fondlarning takror ishlab chiqarish jarayonini tahlil qilish uchun ularning ishlash holati, eskirish darajasi va bu fondlardan foydalanish darajasini tavsiflaydigan ma'lumotlarga ega bo'lmoq kerak.

Asosiy fondlarning eskirish darajasi mutloq va nisbiy ko'rsatkichlarda ifodalanadi.

Masalan, Sanoat tarmog'ining yil boshidagi asosiy fondlari qiymati 10 mln. so'm. Uning qoldiq qiymati esa 8 mln. so'm. Bunday holda uning eskirish summasi 2 mln. so'm. bo'ladi. Eskirish koeffitsienti quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$\text{Of-Of}^1$$

$$\text{Eskirish koef} = \frac{\text{Of-Of}^1}{\text{Of}};$$

Bu yerda: Of-asosiy fondlarning boshlang'ich qiymati;
Of¹-qoldiq qiymat.

Eskirish koeffitsienti yaroqlilik koeffitsienti bilan uzviy bog'liq. Eskirish koeffitsienti qancha kichik bo'lsa, yaroqlilik koeffitsienti shuncha katta bo'ladi va aksincha. Agar "1" dan eskirish koeffitsientini ayirib tashlasak, yaroqlilik koeffitsientiga ega bo'lamiz. Yuqoridagi misolimizda

$$\text{Eskirish koeffitsiyenti} = \frac{10-8}{10} = 0.2 \text{ yoki } 20 \% \text{ bo'lsa,}$$

$$\text{Yaroqlilik koeffitsiyenti} = 1-0.2 = 0.8 \text{ yoki } 80 \% \text{ bo'ladi.}$$

Asosiy fondlarning takror ishlab chiqarish sur'atini tavsiflash uchun ularning jismoniy va texnik holatini o'rganishda yangilash koeffitsiyenti qo'llaniladi.

$$\text{Yangilash koeffitsiyenti} = EV/EO_{fk}$$

Bunda EV- ishlab chiqarishdagi yangi kiritilgan asosiy fondlar qiymati.

EO_{fk} -asosiy fondlarning yil oxiridagi qiymati.

Bundan tashqari chiqib ketish koeffitsiyenti ham qo'llaniladi.

Chiqib ketish koeffitsiyenti = EV / EO_{fn}

Bunda EV- ishdan chiqarilgan asosiy fondlar qiymati.

EO_{fn} -asosiy fondlarning yil boshidagi qiymati.

Jamiyatimizning moddiy - texnika bazasi mustahkamlangani sari mehnatning asosiy fondlar bilan qurollanish darajasi ortib boradi. Bu ko'rsatkich, asosiy fondlar qiymati korxonadagi xodimlar soniga yoki eng ko'p ishchi ishlagan smenadagi ishchilar soniga bo'lib aniqlanadi.

Masalan, Korxonada asosiy fondlar qiymati -12 mln.so'm. Eng ko'p ishchilar ishlagan smenadagi ishchilar soni 12008 kishi. Bunda mehnatning fond bilan qurollanganligi $=12008/12=10$ mln.so'm.

Demak, har bir ishchi 10000 ming so'mlik asosiy fond bilan qurollangan ekan. Bu ko'rsatkichning ortishi mehnat unumdorligini ortishiga olib keladi.

Qisqacha xulosalar

Mamlakat milliy boyligi – inson mehnati tufayli to'plangan nomoliyaviy va moliyaviy aktivlar tabiat in'omlarining yig'indisidan tashkil topadi.

Aktiv – bu institutsional birliklar qo'lidagi mulk bo'lib, uning egalari unga egalik qilish va undan foydalanish tufayli ulardan iqtisodiy daromad topadilar. Passivlar – institutsion birliklarning qarzlari yoki ularni uzish bo'yicha qarzdorlik majburiyatidir.

Asosiy fondlar - qiymat (pul) shaklida ifodalangan xizmat muddati 1 yildan kam bo'lmagan mehnat vositalarining yig'indisidir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Milliy boylik deganda nimani tushunasiz?
2. Milliy boylik statistikasining asosiy vazifalarini tushuntirib bering.
3. Milliy mulk nima?

4. Asosiy fondlar deganda nimani tushunasiz?
5. Asosiy fondlar qanday baholanadi?
6. Asosiy fondlar balanslarini tushuntiring.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi Prezident Islom Karimovning 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi / Xalq so'zi 22.01.2011

2. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir. I.A. Karimov. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2010. – 34-50 b.I.A. Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: O'zbekiston, 2009.-56 b.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir” hamda “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot.-2010.– 63-85 b.

4. Кудина М.В. Основы экономики: Учебник. – ФОРУМ: ИНФРА-М, 2006.

5. Бухгалтерский финансовый учет: Учебник для вузов/Под ред.проф. Ю.А. Бабаева. – М.:Вузовский учебник, 2006.

6. Yakubov I.O., G'oyibnazarov B.K., Abdusattarova X.M. Balans muammolari. O'quv qo'llanma.-T.:O'zRyO'AJ. 2004.

7. Якубов И.О., Тошмухамедов Н.С. Балансовые проблемы. – Т.: ТГЭУ, 2008.

5-Mavzu: AHOLI PUL DAROMADLARI VAXARAJATLARI BALANSI

Reja

5.1. Aholi pul daromadlari tushunchasi va balansi

5.2. Iste'mol baholar o'zgarishi, indeksi va aholining nominal va real daromadlariga ta'siri.

5.3. Aholi pul daromadlari va xarajatlari balansi

5.4. Aholi iste'moli

5.1. Aholi pul daromadlari tushunchasi va balansi

Pul daromadlari barcha toifalardagi aholining mehnati evaziga olgan ish haqi, tadbirkor shaxslar daromadlari, nafaqa, tushum, stipendiya, mulkdan olingan daromadlar, qimmatbaho qog'ozlar, dividendlar, renta, ko'chmas mulk, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva mollarini sotish, turli xizmatlarni ko'rsatishdan olingan daromad va boshqalardan iborat.

1. Aholining real umumiy daromadlari deganda, sotib olish narxlari o'zgarishlariga moslashtirilgan, bepul yoki ijtimoiy iste'mol fondlari hisobidan aholiga xizmatlar uchun imtiyozlar berilgandagi qiymatlarga shaxsiylarni qo'shish orqali aniqlangan daromad tushuniladi.

2. Aholining ihtiyoridagi shaxsiy daromadlari iste'mol narxlari o'zgarishiga moslashtirilgan shaxsiy daromadlaridir.

3. Aholining daromadlari yig'indisi uning shaxsiy daromadlariga ijtimoiy iste'mol fondlari hisobidan aholiga bepul yoki imtiyozli ravishda ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini qo'shish orqali aniqlanadi.

4. Aholining shaxsiy daromadlari - ishchilarni yollab ishlatganliklari uchun, shaxsiy yordamchi xo'jalikdan yordamida, yakka tartibdagi mehnat faoliyati natijasida, moliya-kredit tizimidan olingan barcha pul va natura shaklidagi daromadlardir.

5. Aholining ihtiyoridagi shaxsiy daromadlarini (2) topish uchun aholining shaxsiy daromadlaridan soliqlar, majburiy to'lovlar va aholining har xil ijtimoiy tashkilotlarga to'laydigan badallarin chegirib tashlash lozim.

6. Aholining pul daromadlari (aholining pul daromadlari va xarajatlari balansining daromad qismi) o'z ichiga korxonalardan tushayotgan pul tushumlari, naqd bo'lmagan o'tkazmalar va soliq, turli xil to'lovlar, aholining pul daromadlari hisobidan ko'rsatilayotgan xizmatlar va mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oladi, Aholi guruhlar orasidagi pul aylanishi balansda hisobga olinmaydi.

7. Ishchilarning o'rtacha daromadlari va o'rtacha ish haqi har bir ishchining iste'moliga yo'naltirilgan vositalarning yig'indisiga asosan aniqlanadi.

Iste'molga yo'naltirilgan vositalarga quyidagi natura va pul shaklidagi to'lovlar kiradi: mehnatga xaq to'lash fondi, rag'batlantirishlar va pul to'lovlari, aksiyalardan kelayotgan dividend va % lar.

8. Real ish haqining o'rtacha qiymati nominal ish haqidan soliqlar chegirib tashlagandan so'ng, iste'mol tovarlari va xizmatlari narxlar indeksi nisbatiga teng.

9. Nafaqa, stipendiya va yordam pullarining o'rtacha qiymati ish bilan band, qariligi sababli, nogironligi, boquvchisi yo'qligi bo'yicha pensiyalar va ijtimoiy pensiyalarning miqdoriga asosan hisoblanadi. Ushbu nafaqalar bir xil vaqtda, har oy to'lanadi.

Aholining pul mablag'lari o'z ichiga aholining qo'l ostida bo'lgan nakd pullari, xalq banki va boshqa banklardagi omonot qo'yilmalari, obligatsiyalari, davlatning hayotni sug'urta qilish bo'yicha polislari, sertifikatlar, aksiya va boshqa qimmatbaho qog'ozlarni oladi.

Aholi pul xarajatlari va jamg'arish aholining tovarlar va turli x summasi shu ttib olishga qilgan xarajatlari, majburiy to'lovlar va turli xil a'zolik badallari (soliq va yig'imlar, sug'urtaga to'lovlar, ijtimoiy va kooperativ tashkilotlarga a'zolik badallari, tovar kreditiga % lar va boshqalar) hamda shaxsiy jamg'armalaridan iborat.

Aholining turmush darajasini iqtisodiyotda quyidagi ko'rsatkichlar xarakterlab beradi:

- jon boshiga to'g'ri kelgan sof milliy daromad.
- nominal va real daromad indeksleri.
- turmush qiymati indeksi;
- inson barkamolligi indeksi;
- aholi pul daromadlari va xarajatlari balansi;
- yashash minimumi va boshqalar.

Bu ko'rsatkichlar qiymat - pul ko'rsatkichlari bo'lib, aholining hayotiy ehtiyojlarini qondirish me'yorini aks ettiradi. Aholi jon boshiga yaratilgan Sof milliy daromad iqtisodiy taraqqiyotni va aholi turmush darajasini ifodalaydi:

$$K = \frac{SMD}{A}$$

Bu yerda: K - aholi turmush darajasi koeffitsiyenti;

SMD - sof milliy daromad;

A - aholining o'rtacha yillik soni.

Aholi turmush darajasining yuksalishi uchun SMD ning o'sish sur'ati aholining o'sish sur'atidan yuqori bo'lishi lozim. Buni aniqlash uchun turmush darajasi indeksini hisoblash kerak:

$$I_{t.d} = \frac{SMD_1}{A} : \frac{SMD_0}{A_1} = K_1 : K_0$$

Bu yerda: $I_{t.d}$ - aholi turmush darajasi indeksi.

Agar $I_{t.d}$ birdan katta bo'lsa, iqtisodiy o'sish sodir bo'lgan, binobarin aholi turmush darajasi oshgan. Agar $I_{t.d}$ birdan kichik bo'lsa, aksincha.

$I_{t.d} < 1$ bo'lganda aholi turmush darajasi ham o'zgarmagan.

5.2. Iste'mol baholar o'zgarishi, indeksi va aholining nominal va real daromadlariga ta'siri.

Aholining nominal daromadi – bu ishlovchining muayyan turdagi ish (xizmat) larni bajargandan so'ng uning mehnatining natijasiga qarab (bunda albatta uning

miqdori va sifati hisobga olinadi) beriladigan mehnat (ish) haqi ko‘rinishidagi jami daromadlarini ifodalaydi.

Statistikada aholining nominal daromadi – aholining o‘z mulkidan (renta, foyda, foiz) olgan daromadlari bilan mehnat tufayli olgan daromadlari (ish haqi, tadbirkorlik daromadi) yig‘indisi sifatida ko‘riladi.

Nominal daromad – aholining turmush darajasini yetarli darajada baholay olmaydi. Chunki, bu daromadlar joriy iste‘mol baholarida ko‘rsatiladi. Shuning uchun aholining real daromadini hisoblashga ehtiyoj tug‘iladi.

Real daromad jami pul daromadlaridan turli to‘lovlar (soliqlar, ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar) ajratib tashlangandan so‘nggi qolgan pul daromadini iste‘mol narxlari indeksiga bo‘lish yordamida aniqlanadi:

$$RD = \frac{\text{Nominal daromad - turli xil to'lovlar}}{\text{Iste'mol narxlari indeksi}}$$

Real daromad iste‘mol tovarlari va xilma-xil xizmatlarda ifodalangan daromad bo‘lib, pul daromadining xarid qobiliyatini bildiradi, aholi turmush darajasini umumlashgan holda xarakterlaydi.

8.1- jadval

Aholining real daromad indeksini hisoblash*

	Ko‘rsatkichlar	2009 yil	2010 yil
1.	Aholining umumiy daromadlari, ming. so‘m	567	598
2.	Umumiy nominal daromaddan chegirib tashlanadigan har xil to‘lovlar (turli xil soliqlar va maishiy xizmatlar uchun to‘lovlar)	98	112
3.	Aholining real daromadi, haqiqiy baholarda, ming. so‘m (1-2)	469	486
4.	Iste‘mol narxlari indeksi (Ip)	1,0	1,16
5.	Real daromad solishtirma bahoda, mln.so‘m (3: 4)	469	418,9

* Raqamlar shartli

Aholining real daromadi indeksi.

Aholining umumiy va yakuniy daromadlarini hisoblash natijasida aholining real daromad indeksi hisoblanadi. Buni quyidagi jadvalda ko‘rib chiqamiz. Aholining real daromad indeksi quyidagicha hisoblanadi:

$$I_{PD} = \frac{PD_1}{PD_0} : I_p$$

Bu yerda: PD_0 va PD_1 – real daromadning bazis va joriy davrlardagi qiymati; I_p – iste’mol narxlari umumiy indeksi.

$$I_{PD} = \frac{PD_1}{PD_0} : I_p = (486 : 469) : 1,16 = 0,893 \text{ yoki } 89,3 \%$$

Demak, aholining real daromadi joriy davrda bazis davrga nisbatan 10,7 % ga kamaygan.

O‘rganilayotgan yillarda iste’mol narxlari indeksi esa 16 % ga oshgan. Agar baho o‘zgarmagan yoki pasaygan holatda aholining pul daromadi ko‘paysa, real daromad ham ko‘payadi. Agar pul daromadi o‘zgarmay turib, narx oshsa, real daromad pasayadi, narx pasaysa, aksincha, ortadi. Aholining pul daromadi va narx real daromadga qarama-qarshi yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatadi.

Oilalarning daromad va xarajatlarini statistik o‘rganish uy xo‘jaligi budjetlarini statistik tekshirish asosida har oyda muntazam ravishda oilalarni (turli kasbdagi) tanlab olish asosida amalga oshiriladi.

Uy xo‘jaligi budjetlarini tekshirish ma’lumotlari aholi daromadi iste’mol xarajatlari, aholi turli qatlamlaridagi daromad va xarajatlarining o‘zgarishini tavsiflaydi. Uy xo‘jaligi va uning tarkibidagi a’zolarining bandligi bilan bog‘langan holda, ular orasidagi farqlarni ochishda foydalaniladi, daromad darajasini iste’mol bilan bog‘langan holda daromadlarni shakllantirishda alohida manbalar rolini ko‘rsatadi; iste’mol talablari o‘zgarishlarini bosqichma- bosqich ifodalashda

foydalaniladi; daromadlar darajasi va aholi turmush darajasini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlar differentsatsiyalashini ifodalaydi.

5.3. Aholi pul daromadlari va xarajatlari balansi

Aholi pul daromadlari va xarajatlari balansi aholi daromadlarining yig'indisi va ularning tashkil topish manbalari, xarajatlari miqdori va tarkibini ifodalaydi.

Aholining pul daromadlari tarkibiga quyidagilar kiradi; mehnat haqi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishdan olingan daromadlar, pensiya, stipendiya va boshqa nafaqalar, moliya tashkilotlaridan tushumlar (sug'urta to'lovlari, omonatdan tushumlar, zayom yutuqlari), shaxsiy qurilish va boshqa maqsadlar uchun olingan qarzlar h.k.lar.

Aholi xarajatlariga quyidagilar kiradi:

1. Tovarlar va xizmatlarni sotib olish.
 - a) turli shoxobchalardan sotib olingan tovarlar;
 - b) xizmatlarni to'lash va boshqa xarajatlar, shu jumladan,
 - uy - joy va maishiy xizmatlar to'lovi;
 - kommunal xizmatlar uchun to'lovlar;
 - ta'lim xizmatlari uchun to'lovlar;
 - dam olish, sanatoriya yo'llanmalari uchun to'lovlar;
 - tibbiyot va turizm uchun to'lovlar;
 - kino, teatr, turli tomoshalar uchun to'lovlar;
 - transport va aloqa xizmatlari uchun to'lovlar;
 - boshqa xarajatlar;
2. Majburiy va ixtiyoriy to'lovlar:
 - a) soliq va yig'imlar;
 - b) sug'urta uchun to'lovlar;
 - v) qarzlarni to'lash.
 - g) lotoreya biletlarini sotib olish;
 - d) tovar krediti uchun foiz to'lovlari;

e) nafaqa fondi uchun to'lovlar;

3. Omonatga qo'yilgan va qimmatli qog'ozlarga qilingan sarflarning o'sishi:

a) xalq bankiga va boshqa banklarga qo'yilgan omonatlarning o'sishi;

b) ichki zayomlarni sotib olish.

v) sertifikatlarni sotib olish.

g) bank bilan hisob-kitob qilish maqsadida plastik kartochkalarni sotib olish.

d) korxonalar aksiyalarini sotib olish;

4. Uy - joy sotib olish;

Bozor iqtisodiyoti sharoitida respublikamizda bozor prinsiplaridan kelib chiqib aholi pul daromadlari va xarajatlari balansi tarkibida bir qancha o'zgarishlar yuz berdi. Masalan: avval aholi pul daromadlari tarkibida dividend, foiz, tadbirkorlik va chet - el valyutasini sotishdan tushgan daromadlar aks etmas edi. Hozirgi kunda bu daromadlar aholi daromadlarida ma'lum o'ringa ega. Aholi xarajatlariga esa bank bilan hisob -kitob qilish uchun plastik kartochkalarni sotib olish, korxonalar aksiyalarini sotib olish, chet el valyutalarini sotib olish va shu kabi xarajatlar qo'shilgan.

Dividend – bu aksiyadorlik jamiyati ko'rgan foydaning aksiyadorlarga ulush sifatida tegadigan qismi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan sari dividendning aholi daromadlaridagi salmog'i ortib boradi. Chunki, aholining tobora ko'proq qismi aksiyadorlarga aylanadi. Aksiyadan olinadigan nominal daromad (A_n)

Quyidagicha aniqlanadi.

$$A_N = \frac{D}{AK} \times 100 \%$$

bu yerda: D - dividend; A - aksiya qiymati.

Aksiyadan olinadigan real daromadni hisoblash uchun inflatsiyaning ta'siri inobatga olinadi: $A_{rd} = A_N \times I_p$

bu yerda: I_p -- narxning umumiy indeksi.

Foiz - bu pul egasi o'z pulini o'zgalarga qarzga berganligi uchun oladigan daromadi. Foiz karzga berilgan pul summasiga nisbatan ulush darajasida belgilanadi, ya'ni foiz stavkasi aniqlanadi:

$$F_n = \frac{KD}{KS} \times 100\% \quad KD = KS \times F$$

$$F_p = F_n \times I_p$$

Bu yerda: F - nominal foiz stavkasi.

KD - ko'zlangan daromad; KS- qarz summasi. F - real foiz stavkasi. I_p - narx indeksi.

8.2- jadval

Aholi daromadlari va ularning tashkil topish manbalari (%)*

Daromad turlari	2013-yil	2014-yil
JAMI:	100	100
shu jumladan,		
- ish haqi	30,67	28,57
-korxonalardan olingan daromad	0,57	0,47
- jamoa xo'jaliklaridan olingan Daromad	3,85	1,9
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishdan kelgan daromad	23,0	22,96
- nafaqa, yordam puli, stipendiya	15,07	17,02
- tadbirkorlikdan olingan		
Daromad	26,84	29,08

* Raqamlar shartli

Aholi xarajatlarining taqsimlanishi (%)*

Xarajat turlari	2013-yil	2014-yil
JAMI	100	100
shu jumladan,		
- iste'mol xarajatlari	89,44	90,02
- majburiy to'lov va badallar	8,86	8,25
- omonotlarni o'sishi	1,42	1,55
- boshqa xarajatlar	0,28	0,18

Jadvaldagi ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston respublikasi aholisi pul daromadlari vaxarajatlari balansining daromadlar qismida 2013-yil 2014-yilga nisbatan ish haqi, korxonalar, jamoa xo'jalik va qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishdan olingan daromadlarning salmog'i kamaygan holda, nafaqa, yordam puli, stipendiya va tadbirkorlikdan olingan daromadlar salmog'i oshgan. Balansning xarajatlar qismida 2014-yilda iste'mol xarajatlari salmog'i oshgani, majburiy to'lov, badallar va boshqaxarajatlar salmog'i kamayganini kuzatishimiz mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlarini indeksatsiyalash muhim ahamiyatga egadir. Chunki, bu aholi daromadlari oshishiga yordam beradi.

Indeksatsiya - fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining bir turi bo'lib, aholining ayniqsa, kam ta'minlangan aholining (nafaqadagi, nogironlar, ko'p bolali oilalar, talabalar) pul daromadlarini va ularni sotib olish qobiliyatini saqlab qolishga qaratilgan. Indeksatsiyani amalgaoshirishda iste'mol buyumlariga bo'lgan narx indeksi asos qilib olinadi. Indeksatsiyani amalgaoshirishda eng kam iste'mol savati aniqlanadi. "Iste'mol savati" insonga zarur bo'lgan oziq - ovqat, sanoat mollari va xizmatlarining tirikchilik uchun kifoya qiladigan hajmidir.

* Raqamlar shartli

Yuqoridagilarni hisobga olib, aytish mumkinki, respublikamizda aholi iste'mol xarajatlarining salmog'i oshganini hisobgaolgan holda aholi pul daromadlarini indeksatsiya qilish fuqarolar daromadini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

5.4. Aholi iste'moli

Moddiy ne'matlar, xizmatlar iste'moli darajasi va uning strukturasi "aholi turmush darajasi"ning muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Aholining turmush darajasini tavsiflashda noishlab chiqarish iste'moli ya'ni xizmat ko'rsatish sohalaridagi muassasa va tashkilotlardagi aholining iste'mol ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Ishlab chiqarish iste'moli ya'ni mehnat predmetlari va vositalarining ishlab chiqarish jarayonidagi iste'moli moddiy ishlab chiqarish xarajatlari hisoblanadi va iqtisodiy statistikaning o'rganish ob'ektidir.

Noishlab chiqarish iste'moli 3 ta tarkibiy elementga bo'linishi mumkin:

- 1) aholining shaxsiy iste'moli (shaxsiy budjet hisobiga moliyalashtiriladi).
- 2) aholiga madaniy- maishiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar (maktab, klublar, teatr-kontsert tashkilotlari, passajir transporti) va muassasalarning moddiy xarajatlari shaklida ifodalanadigan moddiy ne'matlar iste'moli;
- 3) Davlat boshqaruvi, mudofaa, fan va texnika xizmatlarini ko'rsatish va ijtimoiy sohada moddiy ne'matlar iste'moli.

Birinchi 2 element aholining iste'mol fondlarini shakllantiradi. Bu fondning tarkibi, miqdorlari va tuzilmalarini to'liq statistik o'rganish aholining oziq-ovqat, kiyim-kechak, poyafzal, uy-joy, madaniy-maishiy predmetlariga mo'ljallangan ratsional iste'molini qondirish jarayonini aks ettirish uchun muhim ijtimoiy ahamiyatga ega.

Aholining iste'mol fondini o'rganish uchun bir qator guruhlashlar qo'llaniladi. O'z navbatida bu fondning natural- buyum tarkibi tekshiriladi. Moddiy ne'matlar iste'molining bunday guruhlari: oziq- ovqat mahsulotlari; salqiin ichimlik va tamaki; kiyim – kechaklar; poyafzal: mebel va xo'jalik tovarlari; uzoq muddatli

foydalanishga mo'ljallangan madaniy-maishiy buyumlar; yonilg'i va yorituvchi tovarlar; elektr-energiya, suv, gaz, uy-joy fondining eskirishidan iborat.

Jamiyat a'zolarining moddiy ta'minlanishi aholining turli xil moddiy ne'matlarga bo'lgan iste'mol darajasi va tuzilmasi bilan aniqlanadi. Aholining moddiy ne'matlar vazirlatlarga bo'lgan ehtiyojlarining qondirilish darajasi ya'ni iste'molini tavsiflash uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

Bu ko'rsatkichlar qiymat va natura shaklida hisoblanishi mumkin. Misol uchun, shunday umumlashgan ko'rsatkichlardan biri "moddiy ne'mat va xizmatlarga bo'lgan umumiy iste'mol hajmi" qiymat shaklida aholi jon boshiga hisoblanishi mumkin. Bu ko'rsatkichning hisoblashda iste'mol qilingan moddiy ne'matlarning hajmi aholining moddiy ne'matlarga bo'lgan shaxsiy iste'moli qiymati sifatida aniqlanadi (bunda davlat uy-joy fondining yillik eskirish qiymati hisobga olinmaydi).

Oziq-ovqat va nooziq - ovqat mahsulotlariga bo'lgan iste'mol ko'rsatkichlarini hisoblashda muayyan xususiyatlar vujudga keladi. Oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan iste'mol 80 % ni tashkil etadi. Oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan iste'mol ko'rsatkichlarini aholi jon boshiga hisoblashda (odatda yilga) natural va shartli natural o'lchov birliklari qo'llaniladi.

Masalan: qaymoq, qatiq, sariyog' va boshqalar "sut va sut mahsulotlari" guruhiga bo'lgan iste'mol bo'yicha qayta hisoblanadi. Aholi jon boshiga oziq- ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj 10 ta asosiy guruhga ajratiladi.

Bunda aniq mahsulotlar bo'yicha natura holdagi iste'mol fondi alohida mahsulot turining moddiy balanslari asosida aniqlanadi. Aholi jon boshiga oziq-ovqat mahsulotlari ko'rsatkichlarining boshqa xususiyatlari shunda namoyon bo'ladiki, uni alohida hududlar birligi bo'yicha taqqoslashda iste'molchilar tarkibini yoshi bo'yicha (erkaklar va ayollar iste'moli, yosh bolalar va katta yoshdagilar, yoshlar va pensionerlar, jismoniy va aqliy band bo'lganlarga ajratgan holda) hisobga olish zarur.

5.3- jadval

Oziq- ovqat mahsulotlari (aholi jon boshiga, kg da)*

	1995 yil	2000 yil	2010yil	2014yil	Ratsional norma
Go'sht va go'sht mahsulotlari	39,5	47,5	57,6	62,4	78
Sut va sut mahsulotlari	240	307	314	333	405
Tuxum, dona	118	159	239	268	292
Baliq va baliq mahsulotlari	9,9	15,4	17,6	18,7	18,2
Shakar	28,0	38,8	44,4	44,0	40,0
O'simlik yog'i	5,3	6,8	8,8	9,8	9,1
Kartoshka	143	130	109	107	110
Sabzavot va polizlar	70	82	97	102	130
Mevalar	22	35	38	56	91
Non va non mahsulotlari	164	149	138	132	115

“Iste'molni qondirish koeffitsiyenti” ko'rsatkichini hisoblash uchun iste'molning haqiqiy darajasi (HI) ilmiy asoslangan normaga - iste'molning ratsional normasiga (RI) nisbati bilan ifodalanadi, ya'ni

$$K = \frac{\text{Haqiqiy iste'mol darajasi}}{\text{Ratsional norma}}$$

Iste'molning ratsional normalari – tibbiyot, biologiya va ijtimoiy soha mutaxassislari tomonidan ishlab chiqiladi.

Aholining oziq - ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini yaxshilash nafaqat ularning alohida mahsulotlarga bo'lgan iste'moli darajasining oshishiga, balki uning tuzilmasining takomillashishiga olib keladi.

Masalan, 1- jadvaldan ko'rinadiki, aholining jon boshiga to'g'ri kelgan non va non mahsulotlari, shuningdek, kartoshka sezilarli qisqardi, bu vaqtda suv, go'sht, tuxum va boshqa mahsulotlar iste'mol darajasi o'sdi. O'z navbatida ikkala tendentsiya ham ratsional normaga unchalik yaqinlashmadi.

* Raqamlar shartli

Sotsial statistikada moddiy ne'matlar iste'moli ko'rsatkichlari dinamikasini tekshirish – iqtisodiy indekslar metodiga asoslangan. Bunda barcha moddiy ne'matlar hamda alohida turdagi iste'mol mahsulotlariga ajralgan holda iste'mol dinamikasi o'rganiladi.

Alohida turdagi mahsulotlar iste'mol hajmining individual indeksi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$i_g = q_1 : q_0$$

bu yerda: q_1 va q_0 hisobot va bazis davrlardagi moddiy ne'matlarning natura ko'rinishidagi iste'mol hajmlari.

Aholi jon boshiga iste'molning individual indeksi quyidagi formula bilan topiladi:

$$i_q = \frac{q_1}{S_1} : \frac{q_0}{S_0} = I_q : I_s$$

Bu yerda: S_1 va S_0 – hisobot va bazis davrdagi aholining o'rtacha yillik soni.

Moddiy ne'matlar guruhlarining iste'mol dinamikasini aniqlash uchun qiymat ko'rsatkichlari asosida iste'molning umumiy indeksleri tuziladi. Bu indeks formulasi iste'mol fizik hajmining agregat indeksi ko'rinishida bo'ladi:

$$I_{f.x.iste'mol} = \frac{\sum q_1 p_0}{\sum q_0 p_0}$$

bu yerda: p_0 har bir mahsulotning taqqoslama bahosi;

q_1 va q_0 hisobot va bazis davrlardagi har bir turdagi iste'mol qilingan mahsulot miqdori.

Moddiy ne'matlarni qayta baholash xalq iste'moli tovarlariga bo'lgan individual va gruppaviy baho indeksleri asosida tashkil etiladi ya'ni $q_1 p_1 q_0 p_1 : I_p$

Aholi jon boshiga umumiy iste'mol indeksi quyidagicha hisoblanadi:

$$I_{a.j.b.ist.} = I_{f.x.iste'mol} : I_s = \frac{\sum q_1 p_0}{\sum q_0 p_0} : \frac{S_1}{S_0}$$

Moddiy ne'matlarning iste'mol darajasiga faktorlarning ta'sir darajasini aniqlash maqsadida korrelatsion-regression tahlil hamda iste'molni turli faktorlar ta'siri natijasida o'zgarishini hisobga olib, empirik va nazariy elastiklik koeffitsiyentlaridan foydalaniladi. Bunday faktorlarning eng katta qismi sifatida daromadlar darajasi o'zgarishi qabul qilinadi.

$$E = \frac{\frac{\sum x \cdot u}{\sum u \cdot x}}{\frac{\sum x \cdot u}{\sum x \cdot u}} = \frac{\sum x \cdot u}{\sum x \cdot u} : \frac{\sum x \cdot u}{\sum x \cdot u}$$

Bu yerda: E- daromaddan elastiklik iste'moli koeffitsiyenti;

x- o'rtacha jon boshiga iste'mol;

u- o'rtacha jon boshiga daromad;

x va u – mos ravishda o'sishlar;

Olingan elastiklik koeffitsiyenti qiymati shuni ko'rsatadiki, daromadlarning 1 % oshishiga ko'ra berilgan moddiy ne'mat turining iste'moli necha % ga oshishini ifodalaydi.

Masalan, joriy yilda sabzovotga bo'lgan aholining o'rtacha jon boshiga iste'moli o'tgan yilga nisbatan 2,5 % ga oshgan, go'shtga bo'lgan iste'moli esa 5 % ga oshgan. Bu davrda aholining jon boshiga daromadlarining o'sishi 10 % ga teng. Bu holatda sabzavot iste'molining elastiklik koeffitsiyenti 0,25 ga teng (ya'ni 2,5 : 100), go'sht iste'molining elastiklik koeffitsiyenti esa 0,5 (yoki 5:10) ga teng. Barcha turdagi aholi bo'yicha noiste'mol tovarlariga elastiklik iste'moli oziq-ovqat mahsulotlariga elastiklik iste'molidan ortiq turadi. O'z navbatida oziq-ovqat va kartoshka iste'molining elastikligi past, hayvon yog'i . go'sht , meva iste'moli ko'p. Noiste'mol tovarlari orasida (kiyim – kechak, poyafzal va boshqalar) elastiklik iste'moli kam.

Sezilarli katta elastiklik chegaralangan talab tovarlari iste'moli (chinni idishlar, zargarlik buyumlari), shuningdek shaxsiy avtomobil vositalarida (yengil mashinalar va mototsikllar) kuzatiladi.

Shaxsning har tomonlama va garmonik rivojlanish sharoitlarini hosil qilish uchun uning turli xizmatlarga bo'lgan iste'molini to'la qondirish kerak.

Qisqacha xulosalar

Aholi pul daromadlari barcha kategoriyalardagi aholining mehnati evaziga olgan ish haqi, tadbirkorlik daromadlari, nafaqa, stipendiya, mulkdan olingan daromadlar, dividendlar, renta, ko'chmas mulk, qishloq xo'jalik mahsulotlari, chorva mollarini sotish, turli xizmatlarni ko'rsatishdan olingan daromaddir.

Aholining nominal daromadi – bu ishlovchining muayyan turdagi ishlarni bajargandan so'ng uning mehnati natijasiga qarab beriladigan mehnat haqi ko'rinishidagi daromadidir.

Real daromad iste'mol tovarlari va xilma-xil xizmatlarda ifodalangan daromad bo'lib, pul daromadining xarid qobiliyatini bildiradi.

Aholi pul daromadlari va xarajatlari balansi aholi daromadlarining yig'indisi va uning tashkil topish manbalari xarajatlari miqdori va tarkibini ifodalaydi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Aholi daromadlari deganda nimani tushunasiz?
2. Aholining pul daromadlari va xarajatlari hosil bo'lishi va taqsimlanishini tushuntiring.
3. Aholining mulk va tadbirkorlikdan olgan daromadlari qaysi daromadlardan hosil bo'ladi?
4. Aholining real va nominal daromadlarini izohlang.
5. Aholiga ko'rsatilgan pullik va bepul xizmatlar hajmi qanday hisobga olinadi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi Prezident Islom Karimovning 2010-yilda

mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi / Xalq so'zi 22.01.2011

2. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir. I.A. Karimov. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2010. – 34-50 b.

3. I.A. Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: O'zbekiston, 2009.-56 b.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir” hamda “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot.-2010.– 63-85 b.

5. Кудина М.В. Основы экономики: Учебник. – ФОРУМ: ИНФРА-М, 2006.

6. Бухгалтерский финансовый учет: Учебник для вузов/Под ред.проф. Ю.А. Бабаева. – М.:Вузовский учебник, 2006.

7. Yakubov I.O., G'oyibnazarov B.K., Abdusattarova X.M. Balans muammolari. O'quv qo'llanma.-T.:O'zRyoUAJ. 2004.

8. Якубов И.О., Тошмухамедов Н.С. Балансовые проблемы. – Т.: ТГЭУ.

6-Mavzu: MILLIY HISOBLAR TIZIMIDA QO‘LLANILADIGAN GURUHLASH VA TASNIFLASHLAR

Reja:

- 6.1. Iqtisodiy faoliyat turlarini mulk shakllari, ma'muriy va iqtisodiy hudud hamda idoraviy tassarufi bo'yicha tasniflash
- 6.2. Institutsional birlik tushunchasi va iqtisodiy faoliyat turlarining sektorlari bo'yicha tasnifi
- 6.3. Iqtisodiyot sektorlari asosiy resurslari kelib chiqishi va iqtisodiy faoliyat turlari tarmoqlarining tasnifi.
- 6.4. Makroiqtisodiyotda qo'llaniladigan boshqa guruhlash va tasniflash.

6.1. Iqtisodiy faoliyat turlarini mulk shakllari, ma'muriy va iqtisodiy hudud hamda idoraviy tassarufi bo'yicha tasniflash

O'zbekiston Respublikasi istiqbolga erishishi, jahon hamjamiyati va BMTga a'zo bo'lishi bois uning makroiqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va ularni rivojlangan mamlakatlar ko'rsatkichlari bilan taqqoslash vazifasi tug'ildi.

Makroiqtisodiy statistikaning o'rganish ob'ekti – mamlakat iqtisodiyoti bo'lgani sababli, u ko'p sonli ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlar - firma, korxona, tashkilot va muassasalarning o'zaro bir-birlari bilan bog'liqlik faoliyatini o'rganadi. Ma'lumki, bu sub'ektlarning ayrimlarida moddiy ne'matlar yaratilib, ularni iste'molchilarga etkazib beradi, ayrimlari turli-tuman xizmatlarni amalga oshiradi, davlatni boshqarishda ishtirok etadi, ba'zilar esa ilmiy, ma'rifiy faoliyat, madaniy va maishiy xizmatlar ko'rsatadi. Shuning uchun mavjud korxona, tashkilot va muassasalar faoliyatini o'rganishda ularni mulkchilik shakllari, ma'muriy va iqtisodiy hududlar hamda idoraviy tassarufi bo'yicha guruhlariga ajratish-tasniflash lozim.

Xalqaro hamjamiyat mamlakatlarining andozalari asosidagi tasniflash yuqoridagi qayd etilgan belgilar asosida amalga oshiriladi.

Mulkchilik shakllari bo'yicha guruhlash uchun respublikamizning ko'p ukladli iqtisodiyoti o'ziga mos ravishda quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Davlat mulki.
2. Jamoa–kooperativ mulki.
3. Jamoa mulki.
4. Turli jamiyatlar (aktsionerlik) mulki.
5. Xususiy mulk.
6. Shaxsiy mulk.

Mulkchilik shakllari bo'yicha bunday guruhlash har bir mulkchilik shaklining mamlakatimiz yalpi milliy mahsulotini yaratishdagi o'rni, salmog'i va aholi bandligini aniqlash imkonini beradi.

Ma'muriy, idoraviy tassarufi bo'yicha guruhlashning asosiy zarurati shundan iboratki, uning yordamida xalq xo'jaligi tarmoqlarini boshqarishning tashkiliy shakllari aniqlanadi. Xalq xo'jaligi tarmoqlarini boshqarish esa tarmoq qoidalari asosida amalga oshiriladi. Masalan: umumta'lim maktablarini Xalq ta'limi vazirligi, qishloq va suv xo'jaligi tarmog'ini esa qishloq va Suv xo'jaligi vazirligi boshqaradi. va hokazo.

Korxona yoki tashkilotlar vazirlik yoki idoraviy tassarufi doirasida yana respublika, viloyat, tuman tassarufidagi korxonalarga guruhlanadi.

Ma'muriy va idoraviy tassarufi bo'yicha guruhlashdan asosiy maqsad har bir vazirlik bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, dinamikasi, mehnat unumdorligi dinamikasi, ishlab chiqargan va sotgan mahsulotlari bo'yicha rejalari va bitimlarining bajarilish darajasini nazorat qilishdan iborat.

Hududlar bo'yicha guruhlash mamlakat turli hududlari rivojlanishini, ishlab chiqarish kuchlari joylanishini va hududlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarini tahlil qilish imkonini beradi.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti alohida-alohida iqtisodiy hududlarga bo'linmagan, balki, ma'muriy hududlarga ajratilgan. Shu sababli, korxonalarni avtonom respublika, viloyat, shahar va tumanlar tassarufi bo'yicha ham guruhlariga ajratish mumkin.

Ayrim tarmoqlarda hududlar bo'yicha maxsus guruhlar qo'llaniladi. Masalan, ko'mir sanoatida, ko'mir havzalari bo'yicha qishloq xo'jaligida yer zonaları va tabiiy iqlim sharoiti bo'yicha ham guruhlariga ajratiladi.

6.2. Institutsional birlik tushunchasi va iqtisodiy faoliyat turlarining sektorlari bo'yicha tasnifi

Milliy hisoblar tizimining asosiy mohiyati iqtisodiy faoliyat natijasida daromad olishi va undan foydalanishni talqin qilishdir.

Milliy hisoblar tizimida (MHT) moddiy ne'matlar yaratish, xizmatlar ko'rsatish, taqsimlash va iste'mol qilishda qatnashuvchilar bajaradigan iqtisodiy vazifasi asosida guruhlariga ajratilgan. Har bir guruh yoki xo'jalik birligi MHT da iqtisodiy agent deb yuritiladi.

Iqtisodiy faoliyat olib borish va boshqa agentlar bilan bo'ladigan ishlarda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan iqtisodiy agent institutsion birlik deb ataladi.

Institutsion birlik mustaqil ravishda faoliyat ko'rsatib, daromad oluvchi, barcha moliyaviy majburiyatlarni bajaruvchi, qaramog'ida barcha turdagi mol-mulk va pul mablag'lari bo'lgan, ularni o'z ixtiyori bilan ishlata oladigan muassasalardir. Bunday muassasalar korxona, firma, moliyaviy tashkilot va boshqalar bo'lishi mumkin. Ular o'z hisob-kitob ishlarini o'zlari to'liq yuritadilar, banklarda hisob raqamiga ega bo'ladilar. Auditorlar esa ularning xo'jalik faoliyati natijalarini tahlil qiladilar. Institutsion birliklar amalga oshirayotgan birtodoloi faoliyat asosida quyidagi sektorlar va sektorchalarga bo'linadi:

1. tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sektori;
2. moliyaviy korporatsiyalar (tashkilotlar) sektori;
3. umumdavlat boshqaruv sektori;
4. uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi davlat tasarrufida bo'lmagan notijorat (ijtimoiy) tashkilotlar sektori;
5. uy xo'jaligi sektori;
6. tashqi dunyo sektori.

Tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sektori moliyaviy tashkilotlardan tashqari institutsion birliklarni o'z ichiga oladi. Ularning asosiy vazifasi mahsulot ishlab chiqarish va nomoliyaviy xizmatlar ko'rsatish bo'lib, o'z xarajatlarini qoplash uchun faoliyatlari natijalarini ko'zlangan baholarda sotishdir. Ammo ko'pgina hollarda ishlab chiqarish xarajatlarining bir qismi milliy iqtisodiyot manfaatlarini hisobga olgan holda davlat budjetidan subsidiya va dotatsiyalar hisobidan koplanadi. Bu sektorga yana shartli ravishda davlat budjeti hisobidan to'la moliyalashtiriluvchi korxonalar, shuningdek, korxonalar tomonidan moliyalashtiriluvchi mablag'larga bog'liq bo'lgan notijorat tashkilotlar ham kiradi.

Moliyaviy korporatsiya (tashkilot)lar sektori mulkchilik shaklidan qat'iy nazar tijorat asosida moliyaviy va sug'urta operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi institutsion birliklarni ya'ni tijorat banklari, qarz beruvchi jamiyatlar va assotsiatsiyalarni o'z ichiga oladi. Ularning asosiy vazifalari – moliyaviy mablag'larni chiqarish, sotib olish, saqlash va taqsimlash, qimmatbaho qog'ozlar chiqarish, pul mablag'larini saqlash, korxonalar, uy xo'jaliklari va boshqalarga qarz berishdan iborat.

Banklarni moliyaviy tashkilotlarini davlat muassasalari sirasiga kiritish mumkin. Markaziy bank pul siyosatini olib boradi va uning vazifasiga quyidagilar kiradi:

1. Xorijiy valyutalar rezervini boshqarish va saqlash. 2. Ssuda orqali boshqa (tijorat) banklarni pul bilan ta'minlash. 3. Hukumat banki. 4. Qimmatbaho qog'ozlarni sotish va sotib olish.

Sug'urta tashkilotlari - hayotni ko'ngilsiz hodisalardan sug'urta qilish hamda korxona va uy xo'jaligining mulklari sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi institutsion birliklarni o'z ichiga oladi.

Umumdavlat boshqaruv sektori bozordan tashqari xizmatlar ko'rsatuvchi hamda milliy daromad va milliy boylikni qayta taqsimlash vazifasini bajaruvchi institutsion birliklardan iborat. Ularga asosan davlat budjeti tomonidan moliyalashtiriluvchi boshqaruv, moliya faoliyati, atrof-muhit muhofazasi, davlat ximoyasi, jamoa tartibini boshqaruvchi hamda aholiga ilm olish, sog'liqni saqlash,

sa'nat va madaniyat, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy sug'urta sohalarida pulsiz yoki imtiyozli xizmatlarni amalga oshiruvchilar (xa muassasa va tashkilotlari kiradi).

Davlat moliya muassasalariga markaziy, mintaqaviy va mahalliy banklar kirib, ularning asosiy vazifalari - davlat tashkilotlariga moliyaviy xizmatlar ko'rsatish (qimmatbaho qog'ozlar va pul chiqarish, temir pullar bosish, tilla zahiralari va xorijiy valyuta zahiralari saqlash), uy xo'jaligi va xususiy tadbirkorlarga moliyaviy xizmat ko'rsatishdir.

Agar aholiga xizmat ko'rsatuvchi davlat tassarufida bo'lmagan notijorat (ijtimoiy) tashkilotlar davlat tashkilotlari tomonidan moliyalashtirilsa va nazorat qilinsa, ular "Umumdavlat boshqaruvi" sektoriga kiritiladi.

Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi davlat tassarufida bo'lmagan notijorat (ijtimoiy) tashkilotlar uy xo'jaligiga bozordan tashqari xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi institutsion birliklarni qamrab oladi. Bunda davlat muassasalari tomonidan moliyalashtirilmaydigan va nazorat qilinmaydigan tashkilotlar ko'zda tutilib, ularga turli siyosiy partiyalar, kasaba uyushma va turli ijtimoiy tashkilot a'zolarining ilm olishi, sog'liqni saqlashi, dam olishini ta'minlovchi, ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi va boshqa sohalaridagi individual va jamoa iste'molini qondiruvchi ijtimoiy tashkilotlar kiradi.

Uy xo'jaligi sektori aholi yoki aholi guruhlariga mahsulot va xizmatlarning iste'molchilariga ishchi kuchini etkazib beruvchilarni o'z ichiga oladi. Uy xo'jaligiga ham iqtisodiy ham yuridik nuqtai nazardan ajratib bo'lmaydigan ayrim shaxslarning tadbirkorlik faoliyatlari ham kiradi.

Tashqi dunyo sektoriga shu mamlakat rezidentlari bilan har qanday operatsiyalarni amalga oshiruvchi chet el iqtisodiy birliklari kiritiladi.

Umuman iqtisodiy faoliyat turlarini mulk shakllari, hududlar, iqtisodiy sektorlar bo'yicha tasniflash va guruhlash makroiqtisodiy jihatdan milliy iqtisodiyotni o'rganishning boshlanishi va birlamchi asosi hisoblanadi. Ular ishlab chiqarilgan mahsulot (xizmat)lar hajmi, turi va tarkibi, pul aylanishi bo'yicha ob'ektiv

ma'lumotlarni olish, bu ma'lumotlarni tahlil qilish va ichki imkoniyatlardan samarali foydalanish imkoniyatini beradi.

6.1-jadval

Iqtisodiy sektorlarning asosiy resurslari kelib chiqishi va asosiy vazifalari.

Sektorlar	Iqtisodiy faoliyat turlari	
	Asosiy vazifa	Asosiy resurslar
Tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish	tovar va nomoliyaviy bozor xizmatlarini ishlab chiqarish	Mahsulotni sotishdan keladigan tushum
Moliya muassasalari	moliya ya'ni moliyaviy resurslarni yig'ish, o'tkazish va taqsimlash, sug'urta ajratmalari	foyda, moliyaviy majburiyatlar, foiz, sug'urta badallari
Davlat korxonalari	jamo'a iste'moli uchun nobozor xizmatlarni ishlab chiqarish va milliy daromad hamda milliy boylikni qayta taqsimlash operatsiyalari	majburiy to'g'ri va egri soliqlar to'lovi
Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat (ijtimoiy) tashkilotlar	alohida uy xo'jaligi guruhlar uchun nobozor xizmatlari ishlab chiqarish	Istemolchi sifatida uy xo'jaliklarini qilgan ko'ngilli badallari, mulkdan olingan daromad
Uy xo'jaligi a) iste'molchi sifatida b) tadbirkor sifatida	Iste'mol tovar va nomoliyaviy bozor xizmatlarini ishlab chiqarish	mehnat haqi, mulkdan olingan daromad, transfertlar mahsulotni sotishdan keladigan tushum
Tashqi Dune	Ushbu sektor biror asosiy resurs va vazifalarni ifodalamaydi. Bu asosan chet davlatlar va mamlakat institutsion birliklari (rezidentlari) o'rtasidagi operatsiyalarni hisobga oladi.	

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlari

6.3. Iqtisodiyot sektorlari asosiy resurslari kelib chiqishi va iqtisodiy faoliyat turlari tarmoqlarining tasnifi.

Ma'lumki, iqtisodiyotda asosan uch xil faoliyatni ko'rish mumkin:

1. Ishlab chiqarish. 2. Iste'mol. 3. Jamg'arish.

Ishlab chiqarish shunday jarayonki, uning natijasida iste'mol yoki jamg'arish uchun tovar va xizmatlar yaratiladi. Ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun esa ishchi kuchi, ish quroli va texnologiya, mehnat predmeti bo'lishi shart. Demak, ishlab chiqarish jarayoniga resurslarni tortish va mahsulot (xizmat) yaratish faoliyat turini aniqlaydi.

Alohida olingan ish faoliyati bir xil turdagi mahsulot ishlab chiqarishga olib keladi ya'ni bir turdagi ish faoliyati asosan bitta oddiy ishlab chiqarish jarayonidan iborat.

Ammo har qanday ishlab chiqarish jarayoni yoki ish faoliyati bir necha bosqichlardan iborat. Ishlab chiqarish jarayonining bosqichlari qanchalik ko'p bo'lsa, faoliyat turlari ham shunchalik ortib boradi.

Masalan, avtomobil ishlab chiqarish bir turdagi faoliyat hisoblanadi. Ammo bu jarayon quyish, temirchilik ishlari, payvandlash, yig'uv, bo'yash va boshqa bir qancha faoliyat turlarini o'zi chiga oladi. Agar bu jarayonda avtomobilning motori, uzatish qutisi, asbob-uskunalarini ishlab chiqarilsa, ularning hammasiga bir faoliyat turi sifatida qaraladi. Deylik, korxona oxirgi mahsulotni ishlab chiqaradi. Ishlab chiqarishda turli faoliyat turlari qo'llaniladi. Ammo ishlab chiqarish jarayonlari bu korxonada juda yuqori darajada uzviy bog'liqdir. Bunday holatda bu korxonadagi faoliyat turlarining biriga asosiy, qolganlariga yordamchi faoliyat, deb qaraladi. Buni faoliyat turlari bo'yicha sotilgan mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmatlarning qo'shimcha salmog'i orqali aniqlash mumkin. Lekin bu juda mushkul ish. Shu bois asosiy va yordamchi faoliyat ko'pincha faoliyat natijasidagi tovar va xizmatlarga to'g'ri kelgan yalpi mahsulot salmog'i bilan, bu ham to'g'ri kelmasa faoliyat turlarida band bo'lgan ishchilar salmog'i orqali aniqlanadi.

Yana boshqa tomondan qaralsa, bir turdagi faoliyat natijasida ikki va undan ortiq turdagi mahsulotlar yaratilish mumkin. Ammo ishlab chiqarishni tashkil qilish nuqtai-nazardan ishlab chiqarish jarayonlari bir-biri bilan bog'liq emas: texnologiyasi ham ishlab chiqarish omillari ham turlicha. Boshqacha aytganda bu korxonada bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan ikki xil mahsulot ishlab chiqariladi. Bunday hollarda

ishlab chiqarish jarayonlarini turli faoliyat turlariga ajratish mumkin. Lekin, bu ishlab chiqarish bo'linmalarini to'g'ridan - to'g'ri ajratish degan so'z emas.

Ko'rinib turibdiki, faoliyatni asosiy va yordamchi turlarga ajratish mumkin. Asosiy va yordamchi faoliyat natijasida olingan mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmatlar bozorda sotish uchun avvaldan belgilanmagan hollarda ishlatish, saqlash yoki qayta ishlash uchun ishlab chiqariladi. Yordamchi faoliyat esa asosiy va ko'makchi faoliyatga xizmat qilish uchun amalga oshiriladi. Bu faoliyat mahsuloti tasodifiy ravishda bozorda sotilishi mumkin. Bunday hollarda u ko'makchi faoliyat mahsuloti hisoblanadi. Masalan, korxona o'zining kompyuter xizmatlaridan o'zi foydalandi yoki turli dasturlarni chetga sotdi.

Ikkilamchi faoliyat turiga har bir alohida faoliyat turi kirib, uning mahsuloti oxirgi hisobda 3 tomon uchun ishlab chiqariladi va u, albatta ikkilamchi faoliyat mahsuloti hisoblanadi. Aksariyat iqtisodiy ob'ektlarda bir qancha ikkilamchi mahsulotlar yaratiladi.

Yordamchi faoliyatlar asosiy va ikkilamchi faoliyatni amalga oshirish mumkin emas. Yordamchi faoliyatga buxgalteriya hisobi, mahsulotlarni tashish, saqlash, sotish va sotib olish, tuzatish, xizmat ko'rsatish, qo'riqlash va hokazolar kiradi.

Statistik birliklarni tasniflashda yordamchi faoliyat turlari hisobga olinmaydi. Asosiy faoliyat turning birligi asosan boshqa birliklarga yoki iste'molchilarga sotgan yoki jo'natgan mahsuloti yoki xizmati asosida aniqlanadi. Demak, bir turdagi ishlab chiqarish faoliyatlarining yig'indisi tarmoqni tashkil etadi. Ijtimoiy mehnat taqsimotida bajaradigan vazifalari mohiyati va xususiyatiga qarab mehnat faoliyatining barcha turlari tarmoqlarga ajratiladi. Xalq xo'jaligi tarmoqlari ijtimoiy mehnat taqsimoti va ijtimoiy mahsulot yaratishdagi xususiyatiga qarab, moddiy ne'mat ishlab chiqaradigan va moddiy ne'mat ishlab chiqarmaydigan soha tarmoqlariga bo'lingan va ular o'z navbatida yana bir necha tarmoqlarga ajratilgan edi.

Xalqaro andozadagi iqtisodiy faoliyat turlarining tarmoq klassifikatsiyasi 1948-yilda BMTning Statistika komissiyasi tomonidan ishlab chiqarilgan va qabul

qilingan. U 1958, 1968, va 1993-yillarda qayta ko‘rib chiqilgan. Bunda iqtisodiy faoliyat natijasi milliy daromad yaratishning asosi sifatida qaralib, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalariga ajratilmagan. Bunday tasnif asosiga uch belgi qabul qilingan:

6.2-jadval

Xalqaro andozaviy tarmoqlar klassifikatsiyasi tuzilishi

Sho‘balar	Guruhlar soni				
	Jami	Shu jumladan, darajalari bo‘yicha			
		I Tasniflash 1-darajali	II (bo‘lim)	III (guruh)	IV (sinf)
1	2	3	4	5	6
Jami	526	17	60	159	290
A. qishloq xo‘jaligi, ovchilik va o‘rmonchilik	18	1	2	6	9
V. Baliqchilik	4	1	1	1	1
S. Qazib oluvchi sanoat	28	1	5	10	12
D. Qayta ishlovchi sanoat	210	1	23	61	125
E. Elektroenergetika, gaz va suv ta‘minoti	11	1	2	4	4
F. Qurilish	12	1	1	5	5
G. Ulgurji va chakana tovar oborot; avtomobil’, mototsikllar remonti	50	1	3	17	29
N. Mehmonxona va restoranlar	6	1	1	2	2
I. Transport, omborxona xo‘jaligi va aloqa’lo	33	1	5	10	17
J. Moliyaviy vositachilik	21	1	3	5	12
K. Ko‘chmas mulk operatsiyalari, ijara va tijorat faoliyati	54	1	5	17	31
L. Davlat boshqaruvi va mudofaa, ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar	13	1	1	3	8
M. Ta’lim	11	1	1	4	5
N. Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy sug‘urta	11	1	1	3	6
O. Boshqa’lo kommunal, ijtimoiy va personal xizmatlar	36	1	4	9	22
R. Yo‘llanma personalga asoslangan xususiy uy xo‘jaliklari	4	1	1	1	1
Q. Eksteritorial tashkilotlar va idoralar	4	1	1	1	1

Manba: Mualliflar ishlanmasi

1. Asos qilib olingan materiallarning natural ko‘rinishi.

2. Mahsulotni bevosita belgilangan maqsadda ishlatish.

3. Mehnat predmetlariga ishlov berish darajasi bilan bog'liq bo'lgan texnologik jarayonning xususiyati.

Xalqaro andozaviy tarmoqlar klassifikatsiyasi (XATT) ishlab chiqarish jarayonlarining ketma-ketlik qoidalari bo'yicha tuzilib, natural tabiiy moddiy resurlardan foydalanuvchi tarmoqlardan (qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi, baliqchilik, ovchilik) boshlanib, qazib olish, qayta ishlash sanoati, qurilish, aloqa, transport, moliya va kredit va hokazo tarmoqlarga o'tiladi.

Barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xalqaro andozaviy tarmoqlar klassifikatsiyasi (XATT) BMT tomonidan qabul qilingan.

Yuqoridagi jadvalda ko'rsatilgan (XATT) 17 sho'ba (sektor)dan iborat bo'lib, lotin harflari bilan belgilangan. Bir sho'ba bir bo'limdan iborat. Bo'limlar va guruhlar quyidagilardan iborat:

a) ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan tovar va xizmatlar (jismoniy holati, ishlab chiqarish bosqichlari);

b) tovar va xizmatlar nomi;

v) xomashyo, ishlanuvchi materiallar va ishlab chiqarish texnologiyasi;

Shuningdek, jadvalda mahsulotlarni markaziy tasniflash bo'yicha shu tasnifga ega bo'lgan 10 ta sho'ba ko'rsatilgan, ammo ba'zi bo'limlar bo'yicha berilmagan. Bularga 1,2,3 va 7-sho'balari kiradi. Transportabel tovarlar o'z navbatida 0-4 bo'limlarda, notransportabel tovarlar va xizmatlar 5-9 bo'limlarda ko'rsatilgan.

6.4. Makroiqtisodiyotda qo'llaniladigan boshqa guruhlash va tasniflash.

Yuqorida bayon etilgan XATTdan tashqari statistikada u bilan bog'liq bir kancha klassifikatsiyalashlarni ko'rib chiqish mumkin. Jumladan, tarmoqlarni hududiy boshqarishning tashkiliy tuzilishi (shakli) bo'yicha, mulkchilik shakli bo'yicha klassifikatsiyalash va hokazo. Bundan tashqari makroiqtisodiy statistikada mahsulotlarning xalqaro tasnifi va xalqaro savdo tasniflarini o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mahsulotlar tasnifi jabxasidagi hozirgi zamon andozalari

xalqaro mehnatni tashkil etish doirasida olib borilgan uzoq muddatli ish natijasi bo'lib, hozirgi kun amaliyotida 1957-yildagi tasnifga nisbatan 1968-yilda aniqlik kiritilib, to'ldirilgan klassifikatsiyadan foydalanib kelinmoqda. Mahsulotlarning xalqaro andozalardagi klassifikatsiyasi (MXAT) bo'yicha guruhlashga "faoliyat turi" asos qilib olingan. Lekin bunda ko'pincha tarmoq belgilariga asoslanilgan. Hozirgi kunda amal qilib kelinayotgan MXAT iga asosan xodimlar quyidagi 11 ta guruhga bo'lingan.

1. Erkin mutaxassislikka ega shaxslar, texniklar va bir-biriga o'xshash mutaxassisliklar;
2. Ma'muriy va boshqaruv xodimlari;
3. Devonxona xizmatchilari;
4. Savdo xodimlari;
5. Xizmat ko'rsatish sohasi xodimlari;
6. Qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi xodimlari, baliqchilar va ovchilar;
7. Moddiy ishlab chiqarish soha xodimlari;
8. Transport sohasi xodimlari;
9. Aloqa sohasi xodimlari;
10. Mashg'ulot turi bo'yicha tasnifga kirmaydigan xodimlar;
11. Maxsus guruh, harbiy xizmatchilar.

Xalqaro andozalar yuqorida keltirilgan MHT ning yirik guruhlari asosida 84 ta guruhchalarga (ikkinchi darajali bo'linish), 784 ta uch raqamli (3 darajali bo'linish) va 150 ta to'rt raqamli, jami 5,5 mingta turli mashg'ulotlarni birlashtiruvchi bo'limchalarga bo'lingan.

Xalqaro savdo klassifikatsiyasi boshqa tasniflarga nisbatan to'laroq va mukammalroq ishlab chiqilgan. Bu tasnifga davlat tashkilotlari, xalqaro tashkilotlarning alohida e'tibor berishlariga asosiy sabab bojxona siyosatining talabchanligidir. Tashqi savdo sohasida juda keng turdagi iste'mol mollari va ishlab chiqarish vositalarining barcha assortimentlari bo'yicha turlari qamrab olingan. Savdo tasnifida mahsulotlar tasnifi bilan tarmoqlar tasnifini chambarchas birlashtirish

imkoniyatlari to'g'risidagi masalani hal qilish zarur. Agar tovarlar tasnifida tarmoq belgisiga mos kelmaydigan belgi asos qilib olinsa, u holda ma'lumotlarni solishtirishda qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Shuningdek, turli tarmoq mahsulotlarini tovarlar guruhida aralashtirib yuborish natijasida ham qiyinchiliklar tug'ilishi mumkin. Aksariyat mahsulotlarning iste'mol qiymatlaridan kelib chiqqan holda mahsulotlar ilmiy tasniflanadi. Boshqalari sof natural belgilari, masalan, mahsulotlarni kimyoviy tarkibi orqali tasniflanadi.

1974-yilda BMT Statistika komissiyasi tomonidan ikkinchi tahrir (matni) asosida qabul qilingan xalqaro andozalardagi savdo tasnifi (XAST) ning yirik bo'limi va bo'limchalari quyidagilardan tashkil topgan:

1. Oziq-ovqat mahsulotlari (10 ta bo'lim);
2. Ichimlik va tamaki mahsulotlar (2 ta bo'lim);
3. Birlamchi xomashyo (yokilg'i kirmaydi) (9 ta bo'lim);
4. Mineral yoqilg'i va moylash materiallari (4 ta bo'lim);
5. O'simlik va hayvon yog'lari (3 ta bo'lim);
6. Kimyo mahsulotlari (9 ta bo'lim);
7. Sanoat yarim tayyor mahsulotlari (9 ta bo'lim);
8. Mashinasozlik mahsulotlari va transport vositalari (9ta bo'lim);
9. Ishlov beruvchi sanoatning boshqa tovarlari (8 ta bo'lim);
10. Avval qayd etilmagan boshqa tovarlar.

Xulosa qilib aytganda, tarmoqlar xalqaro klassifikatsiyasi iqtisodiyotda tarmoqlar, korxonalar va ularning bo'linmalarini taqsimlash uchun zarur. Iqtisodiy faoliyat turlarini klassifikatsiyalash ishlab chiqarish va unga ta'sir qiluvchi omillar to'g'risidagi statistika ma'lumotlarini tahlil qilish uchun baza bo'lib xizmat qiladi. O'z navbatida O'zbekistonda xalqaro andozaviy tasniflash (BMT metodologiyasi bo'yicha) tizimini kiritish zarur. Bir so'z bilan aytganda, barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xalqaro klassifikatsiyalashlar iqtisodiyotni o'rganish va uni tahlil qilishda asosiy tizim bo'lib xizmat qiladi.

Qisqacha xulosalar

Korxona, tashkilot va muassasalar faoliyatini o'rganishda ularni mulkchilik shakllari, ma'muriy va iqtisodiy hududlar hamda idoraviy tasarrufi bo'yicha guruhlarga ajratiladi va klassifikatsiyalanadi.

Iqtisodiy faoliyat olib borish va boshqa agentlar bilan bo'ladigan ishlarda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan iqtisodiy agent institutsion birlik deb ataladi.

Ishlab chiqarish jarayonida iste'mol yoki jamg'arish uchun tovar va xizmatlar yaratiladi. Ishlab chiqarish faoliyati uchun ishchi kuchi, ish quroli va texnologiya, mehnat predmeti bo'lishi shart.

Xalqaro andozaviy tarmoqlar klassifikatsiyasi (XATT) dan tashqari hududiy boshqarishning tashkiliy tuzilishi, mulkchilik shakli bo'yicha va h.k. tasniflashlar mavjud.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. MHT da qo'llaniladigan guruhlash va klassifikatsiyalarni izohlang.
2. Xalqaro andozaviy tarmoqlar klassifikatsiyasini tushuntiring.
3. BMT tasniflarini izohlang.
4. Xalqaro savdo klassifikatsiyasini tushuntiring.
5. MHT da qo'llaniladigan boshqa klassifikatsiyalash va guruhlashlarni izohlang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi Prezident Islom Karimovning 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi / Xalq so'zi 22.01.2011
2. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir. I.A.Karimov. – Toshkent: «O'zbekiston», 2010. – 34-50 b.

3. I.A.Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. -T.: O‘zbekiston, 2009.-56 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir” hamda “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” nomli ma’ruzalarini o‘rganish bo‘yicha O‘quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot.-2010.– 63-85 b.
5. Кудина М.В. Основы экономики: Учебник. – ФОРУМ: ИНФРА-М, 2006.
6. Бухгалтерский финансовый учет: Учебник для вузов/Под ред.проф. Ю.А.Бабаева. – М.:Вузовский учебник, 2006.
7. Yakubov I.O., G‘oyibnazarov B.K., Abdusattarova X.M. Balans muammolari. O‘quv qo‘llanma.-T.:O‘zRYoUAI. 2004.
8. Якубов И.О., Тошмухамедов Н.С. Балансовые проблемы. – Т.: ТГЭУ, 2008.

7-Mavzu: MAKROIQTISODIY TAHLILDA MHT DAN FOYDALANISH

Reja:

7.1. Makroiqtisodiy tahlil

7.2. Makroiqtisodiy tahlilda MHT dan foydalanish

7.3. Milliy hisoblar va pul-moliyaviy amaliyoti

7.1. Makroiqtisodiy tahlil

Milliy hisob-kitob - iqtisodiy tahlilning asosiy qurolidir. Ularda, budjetni cheklash ifodalanadi. Milliy hisob - kitoblar jamlangan holda makroiqtisodiy tahlil uchun foydalaniladi. Makroiqtisodiy tahlil uchun hisobda asosan – balansli tutashganlik, hisoblarning o‘zaro moslashganligidir. Hisoblarni haqiqiy balanslash – budjetlarni chegaralashdir. Ular to‘lov balansining daromadlar va xarajatlarining bir xilligini ifodalaydi:

1) **Daromadlar + xarajatlar barchasi** (ichki ishlab chiqarishda). Agarda iste’mol olib tashlansa, u holda:

Jamg‘arma + Investitsiyalarning barchasi.

2) **Davlat budjeti kamomadini aniqlash**. Xarajatlarning daromadlardan oshib ketishi Davlat ichki qarzining yig‘indisi va muomalaga qo‘shimcha pul chiqarish.

3) **To‘lov balansi**. Valyuta xarajatining kelib tushishidan oshib ketishi. Chet el zayomlari va ichki valyuta vositasi o‘zgarishi hisobidan mablag‘ ajratiladi.

Bu manbalar hisobidan tenglashtiriladi.

Milliy hisoblar davlat siyosati va iqtisodiy rivojlanish dasturini ishlab chiqarish uchun samarali vositalar hisoblanib, iqtisodiy statistikani uyushtirish va sistemalash uchun negiz va asos yaratadi.

MHT ning statistik vazifasi avvalam bor, aniq shaklda tizimlar o‘rnini va o‘zaro bir biri bilan bog‘liqligini ko‘rsatish va shu negizda butun iqtisodiy aylanishi aks etish hamda xususiy yakuniy miqdor orasida o‘zaro moslikni ta’minlashdan iboratdir.

MHT kam me’yorda bo‘lsa ham qiymat tizimini butun xolga keltirishning ko‘pgina talablariga javob beradi. Avvalam bor u xalq xo‘jaligini ishlab chiqarish sxemasini butunligicha ifodalaydi hamda uni tashkil etgan tarkibi o‘rnini va o‘zaro

bog'liqligini aniqlaydi. Iqtisodiyotning real holatini tahlil qilish uchun hamda iqtisodiy siyosat va istiqbolni ishlab chiqishda kerakli bo'lgan statistik ma'lumotlar har bir hisoblar sistemalarida saqlanadi. (jadvalga qarang).

MHT statistik ma'lumotning misli ko'rilmagan qimmatli manbasini ifodalaydi. Oxirgi yillarda model tizimini ishlab chiqish tez o'sdi: 1) qisqa muddatli prognozlar uchun ekonometrik modellar, 2) rivojlanish dasturini ishlab chiqarish uchun makromodellar nazariyasiga asoslangan va shu kabi, 3) "xarajatlari-ishlab chiqarish" nazariyasini o'zagi hisoblangan tarmoqlararo model.

7.2. Makroiqtisodiy tahlilda MHT dan foydalanish

Ilgarida hisoblangan ko'rsatkichlar nuqtai nazaridan milliy daromad statistikasi va TAB tarmoqlararo balans bir - biri bilan bog'lanmagan. Yangi MHT da "ko'chirilgan koeffitsiyentlar" ni hisoblashda va shu asosda ko'p sektorlik modellarda bir qator funksiyalarni baholash uchun ma'lumot yetishmasligini bartaraf qilishda katta yutuqqa erishildi.

Moliya va pul-kredit doirasida moliyaviy kapital harakati aks etuvchi real (milliy daromad va boshqalar) va moliyaviy modellarning birlashish zarurligi paydo bo'ldi. Milliy daromad statistikasi va moliyaviy oqimlar balansi birlashishi buni amalga oshirish mumkin ekanligini ko'rsatdi. Masalan, avval iqtisodiy rejalar faqatgina real nuqtai nazardan kelishuvga ega bo'lgan bo'lsa, hozir esa moliyaviy muvozanatni ta'minlash asosini ifodalaydi.

MHT qisqa muddatli iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish uchun ham muhim ahamiyatiga ega bo'ladi. Masalan, investitsiyalarni mashina va jihozlarda o'sishini aniqlash uchun ma'lum o'sish sur'atlarining dastlabki sharti sifatida bir tomondan ishlab chiqarish quvvatini qanchalikka kengaytirish hisoblansa, boshqa tomondan buning uchun qanday kapital talab qilinishi zarurdir.

Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish uchun davlat xarajatlari ko'rsatkichi muhim rol o'ynaydi. MHTda ko'rsatilgan klassifikatsiyalarga muvofiq davlatning moliyaviy

xarajatlari (o'zini - o'zi mahalliy boshqaruv organlarini o'z ichiga oladi) quyidagilarga bo'linadi:

- a) umumiy hukumat xizmati
- b) mudofaa
- c) maorif
- d) sog'liqni saqlash
- e) uy-joy qurilishi
- f) bozorlar rivojlanishi
- g) iqtisodiy xizmat va boshqalar

Bu xarajatlar institutsional sektorlar bo'yicha reja tuzishda ko'rinadi:

- 1. Markaziy hukumat
- 2. mahalliy organlar
- 3. ijtimoiy sug'urta fondlari va boshqalar

Bunday ko'rsatkichlar, davlat xarajatlarini qaysi maqsadda va qanday hajmda sarflash hamda bu holat iqtisod va uning sub'ektlariga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilishga imkon beradi.

MHTning takomillashtirishdagi vazifalariga quyidagilar kiradi:

- 1) Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasini o'rganish uchun vaqtinchalik gorizontal qatorlarni tuzish;
- 2) MHT vertikal qatorlarni
- 3) Statistikada zaif hisoblangan muomila va xizmat ko'rsatish sohasida ma'lumotlarni takomillashtirish;
- 4) Xududiy hisoblar, taqsimlash statistikasi, ijtimoiy statistikani ishlab chiqish.

MHTning keyingi takomillashishi bilan bog'liq bo'lgan izlanish bir qancha yo'nalishlarda olib boriladi:

- 1) iste'mol xarajat va daromadlarning aniq taqsimlash tizimini ishlab chiqish.
- 2) MHTning ommalashtirilishi va keng foydalanilishidan maqsad yil o'lchovlari, mavsumiy korrektirovka, tovar oqimlari statistikasidan bevosita olish mumkin bo'lgan, narx indeksi tizimini ishlab chiqish ko'zda tutiladi. Xulosa qilib,

shuni qayd qilish mumkinki, MHTdan iqtisodiy dinamikani tahlil qilish uchun iqtisodiy siyosat va dasturni ishlab chiqish sifatida foydalaniladi.

7.3. Milliy hisoblar va pul-moliyaviy amaliyoti

Makroiqtisodiy tahlilda tuzilishni aniqlab beradigan 5 asosiy schyotlardan foydalaniladi:

1. Davlat daromadi va xarajati teng Davlat budjeti (joriy kapital subschyot)
2. Moliyaviy tizim schyoti;
3. To'lov balansi;
4. Nomoliyaviy xususiy sektor schyoti;
5. Milliy daromad va yakuniy mahsulot sifatidagi schyot.

I schyot. Davlat daromadlari va xarajatlari schyotining tuzilishi, joriy subschyot

Joriy kelib tushishi	Joriy sarflar
1.Soliqlar- to'g'ri, egri tushumlar	1.Xususiy iste'mol xarajatlari
2.Toza taqsimlanmaydigan foyda;	2.Ichki transfertlar
3.CHet el joriy transfertlari;	3.Foiz bo'yicha to'lov
Xususiy sektorga ichki qarz bo'yicha	Tashqi qarz bo'yicha
4.Subsidiyalar	4. Jamg'arma (balanslashgan)
Kapital subschyot	
1.Davlat mablag'lari	
2.Xususiy sektorga davlat kreditlari	

Davlat investitsiyalariga, davlat jamg'armalaridan mablag' ajratiladi, shunday qilib bu schyot muvofiqlashadi.

II Moliyaviy tizim schyoti (pul-kredit sohasida moliyalarning o'zgarishini ko'rsatadi)

Aktivlarning o'zgarishi	Passivlarning o'zgarishi
1. Davlat kreditlarining o'zgarishi	1.Pul miqdorining o'zgarishi (AMG)
2.Xususiy sektor kreditlarining o'zgarishi	(depozitlar, talablar)
	2.Tashqi dunyoga munosabati bo'yicha

3. Chet el valyutasi rezervlarining o'zgarishi (Boshqa davlatlarning moliyaviy majburiyatlari)	uzoq va qisqa muddatli majburiyatlarning o'zgarishi, ya'ni chet el tashqi zayomlari
4. Aktivlarning boshqa o'zgarishlari	3. Passivlarning boshqa o'zgarishlari

Markaziy bank tizimlari (tijorat va xalq banklari) joriy daromad va xarajatlarga ega emas. Schyotlar aktivlar va passivlarning o'zgarishini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, shunday tuzilish bo'yicha Markaziy bank bo'yicha subschyot, tijorat banklar tizimlari va moliyaviy tizimlar uchun jamlangan schyotdan tarkib topadi.

III schyot. Xususiy sektor Joriy subschyot.

Joriy tushum	Joriy xarajatlar
1.Qo'shimcha narx (ish xaqdari foyda)	1.Iste'mol xarajatlari:
	a)ichki iste'mol
	b)import iste'moli
2.Davlat transfertlari	2. To'g'ri soliqlar
3.Ichki qarz bo'yicha foizlarning kelib tushishi (davlat hisobidan kreditlarni uzish)	3. Tashqi qarz bo'yicha foizlar to'lash
	4.Jamg'arma (Daromadlarning xarajatlardan o'sib ketishi-balanslashgan)
Kapital subschyot	
1. Xususiy kvartiralar (mashinalar, jihozlar, qurilish)	1. Jamg'arma
2. Davlatga kreditlari	2. Moliyaviy tizimlardan xususiy sektorlarga kreditlar (aksiya bir qismining davlat orqali olinishi)
3.Pullar va depozitlar (ega bo'lish)	3. CHet el kreditlari
4. CHet el valyutalarining moliyaviy majburiyatlari va qimmatli qog'ozga ega bo'lish	4. Davlat zayomlari
5. Aktivlarning boshqa o'zgarishlari	

IV schyot. Tashqi dunyo "to'lov balansi". Joriy subschyot.

Tashqi dunyoning joriy daromadlari	Tashqi joriy xarajatlari
1.Import	1.Eksport
2.Foiz bo'yicha tashqi dunyodan	2.Davlatga joriy transfertlar

kelib tushish	3.Xususi sektor joriy transfertlar 4.Tashqi dunyoning jamg'armasi (bizning defitsit-jamg'arma)
Kapital subschyot	
1. Davlatning qarzi 2. Xususi sektorning tashqi qarzi 3.Moliyaviy tizimlarning uzoq muddatli, o'rta muddatli kreditlari	1. Jamg'arma 2. Moliyaviy tizimning qimmatli qog'oz sotuvi (xususi sektorning chet el valyutasini sotib olishi va qimmatli qog'ozni sotishi) 3. Davlat va xususi sektorga boshqa moliyaviy majburiyatlar

V schyot. Mahsulot va daromadlarning jamlovchi schyot (asosiy o'xshashlikni aks etadi)

Joriy subschyot	
Joriy kelib tushish 1.YaIM 2.Egrisoliqlar (subsidiya) 3.Import	1.Iste'moli: a) xususi sektor, davlat. 2.Kapital mablag'lari: a) xususi sektor, davlat. Jamg'armasi:- davlat-xususi sektor
Kapital subschyot	

MS q MD, bunda

MS- pul taxminlari, MD- pullarga talab.

Pulga talab –pulning shunday miqdoriki, buni jismoniy va yuridik shaxslarning bir qismi boshqa maqsadlarda ishlatish uchun ega bo'lishidir. U, inflatsiya, sur'atiga bog'langan holda tajribaga asoslanib baholanadi.

I schyot. Markaziy bank. Pul balansi.

Aktiv	Passiv
1.MGA chet el aktivlari (chet el valyutalari) 2.MDSU Xukumatning ichki krediti (davlat ichki qarzi) 3.Tijorat sektori va tijorat bankiga ichki kredit SSV	1.Pul rezervlari (M): Bankdan tashqaridagi pul muomilasi Bank rezervlari 2.Tashqi dunyoga munosabat bo'yicha majburiyat (tashqi qarz) 3.Xukumat depozitlari (pullar, sug'urta, fondlar) 4.Boshqalar

MR QMGA+MDSU+SSV, bunda

Bunda: MR-pul miqdori;

MGA-tashqi;

MDSU-davlat budjeti bilan o‘zaro munosabat;

SSV- xususiy sektor bilan o‘zaro munosabat.

Tijorat xalq banklarining schyoti.

Aktiv	Passiv
1.Chet el moliyaviy aktivlar (yoki bu bankda chet el valyutasini sotib olish)	1.Depozitlar (omonatlar)
2.Pul rezervlari	2.Tashqi dunyoga munosabat bo‘yicha majburiyatlar
3.Markaziy hukumat kreditlari	3.Markaziy hukumat depozitlari
4.Xususiy sektor kreditlari	4.Markaziy bank kreditlari
5.Boshqalar	5.Boshqalar

Moliyaviy tizimlar schyoti

Aktivlar	Passivlar
1.Sof chet el aktivlari (MFA) moliyaviy balansning yakuniy sal’dosi	1.Keng ma’nodagi muomiladagipul
2.Sof ko‘rinishdagi ichki kredit (kreditlar orasidagi farq): NDC	2.M3- omonat depozitlari (naqd va naqd davlat Diversifikatsiya bo‘lmagan oborot qismi)
a) davlatning tashqi qarzi	
b) xususiy sektorning tashqi qarzi	
v)	
boshqamoliyaviyinstitutlarningtashqiqarzi	3.Boshqalar

Qisqacha xulosalar

Milliy hisob-kitob iqtisodiy tahlilning asosiy qurolidir. Milliy hisob-kitoblar jamlangan holda makroiqtisodiy tahlil uchun foydalaniladi. Ular to‘lov balansining daromadlar va xarajatlari bir xilligini ifodalaydi.

Ilgari hisoblangan ko'rsatkichlar nuqtai nazaridan milliy daromad va tarmoqlararo balansi bir-biri bilan bog'lanmagan. Yangi MHTda "Ko'chirilgan koeffitsiyentlar" ni hisoblashda va shu asosda ko'p sektorlik modellarda bir qator funktsiyalarni baholash uchun ma'lumot etishmasligini bartaraf qilish borasida katta yutuqqa erishildi.

Pulning umumiy taklifini oshirish, ichki kredit va chet el valyutasi rezervlarini ko'paytirishdir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Milliy hisoblar tizimini yuritishning birlamchi davrini ayting?
2. Makroiqtisodiy tahlilda MHTdan foydalanishni aytib bering?
3. MHT va pul moliyaviy amaliyotini tavsiflab bering?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi Prezident Islom Karimovning 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi 22.01.2011
2. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir. I.A.Karimov. – Toshkent: "O'zbekiston", 2010. – 34-50 b.
3. I.A. Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: O'zbekiston, 2009.-56 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir" hamda "Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot.-2010.– 63-85 b.

5. Кудина М.В. Основы экономики: Учебник. – ФОРУМ: ИНФРА-М, 2006.
6. Бухгалтерский финансовый учет: Учебник для вузов/Под ред.проф. Ю.А.Бабаева. – М.:Вузовский учебник, 2006.
7. Yakubov I.O., G‘oyibnazarov B.K., Abdusattarova X.M. Balans muammolari. O‘quv qo‘llanma.-T.:O‘zRYoUAJ. 2004.
8. Якубов И.О., Тошмухамедов Н.С. Балансовые проблемы. – Т.: ТГЭУ, 2008.

8-Mavzu: TARMOQLARARO BALANS (TAB).

Reja:

8.1. Milliy hisoblar tizimi uslubiyati asosida tarmoqlararo balansni tuzish tamoyillari.

8.2. Tarmoqlararo balansning milliy hisoblar tizimidagi o'ri.

8.3. Milliy mahsulot ishlab chiqarish va taqsimlash tarmoqlararo balansidan MHT TABiga o'tish usuli.

8.1. Milliy hisoblar tizimi uslubiyati asosida tarmoqlararo balansni tuzish tamoyillari.

Mahsulot (xizmat) larni ishlab chiqarish va taqsimlashning tarmoqlararo balansi milliy hisoblar tizimining muhim qismi hisoblanadi. Bu balans natura va qiymat shaklida tuziladi. Uning yordamida asosiy xalq xo'jaligi muvozanatini tarmoqlar bo'yicha va tarmoqlar o'rtasida mufassal ravishda oydinlashtirish ta'minlanadi. U natura shaklida tarmoq doirasidagi kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini aks ettiradi. Qiymat shaklida esa ishlab chiqarishning moddiy aloqalari haqida tasavvur uyg'otadi. Natural shaklida tuzilgan balans o'z mohiyati bilan ko'p sonli alohida balanslarning yig'indisidan iborat. Shartnomalar, mahsulot ishlab chiqarish va tarmoqlararo balans hisoblari asosida belgilanganda yalpi ichki mahsulot va milliy daromad balanslaridan kelib chiqadigan xalq xo'jaligi muvozanatlari, sanoat va boshqa tarmoqlar asosiy turdagi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmiga oid tarmoq ichki proportsiyalari bilan uyg'unlashtirish ta'minlanadi.

Mahsulot ishlab chiqarish va tarmoqlararo balans yordamida milliy mahsulot ishlab chiqarish va iste'mol qilishning alohida moddiy balanslari o'zaro uyg'unlashtiriladi, tarmoqlar va xalq xo'jaligi rivojlanishining sur'atlari va proportsiyalarini mehnat resurslaridan va kapital mablag'lardan foydalanish darajalari bilan muvofiqlashtirish amalga oshiriladi.

Hisobot balansi o'tgan davr ichidagi kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni, vujudga kelgan o'zaro aloqa va proportsiyalarni har tomonlama ifodalab beradi.

Joriy tarmoqlararo balans tuzishning metodologik tamoyillari va asosiy elementlari o'tgan asrning 20-yillarida xalq xo'jaligi balansini tuzish maqsadida ishlab chiqilgan edi. Ammo, bu ishlar keyinchalik yetarli darajada rivojlanmadi. Faqatgina xo'jalikning rejalashtirilgan tarmoqlararo aloqalarini o'rganishga talab kuchaygan va xalq xo'jaligiga elektron hisoblash mashinalarining joriy qilina boshlagan 50 yillarning ikkinchi yarmidan boshlab tarmoqlararo balanslarga bo'lgan talab ortib bordi.

Markaziy Statistika Boshqarmasi tomonidan 1959-yili amaliyotda ilk bor joriy tarmoqlararo ishlab chiqarish va taqsimlash balansi tuzildi. Bunday balanslar 1966, 1972, 1977 va 1982-yillar uchun ham tuzildi. 1975-yildan boshlab esa ushbu balanslar har yil uchun qisqartirilgan dastur bo'yicha tuzila boshlandi. Mahsulot ishlab chiqarish va tarmoqlararo balans asosan ikki xil jadvalda aks ettiriladi:

1) mahsulot ishlab chiqarish va taqsimlashning qiymat ko'rinishidagi tarmoqlararo balansi;

2) mahsulot ishlab chiqarish va taqsimlashning natura ko'rinishidagi tarmoqlararo balansi.

Tarmoqlararo balansning (qiymat ko'rinishidagi) sxemasi shaxmat shaklidagi jadval ko'rinishida tuzilgan bo'lib, uning egasida (qatorlarida) va kesimida (ustunida) bir xil ketma-ketlikda moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari keltirilgandir. Bundan tashqari, jadvalning egasida sof mahsulotning (ish haqi, foyda va hokazo) elementlari, kesimida esa – mahsulotdan pirovard foydalanish elementlari (noishlab chiqarish iste'moli, jamg'arma va boshqalar) keltirilgan. Shunday qilib, agar tarmoqlararo balansning ma'lumotlarini qatorlar bo'yicha qarasak, u holda har bir qator har bir tarmoqning jamlanma ko'rsatkichlari balansini ifodalaydi. Bunda – tarmoqning mahsulotini ishlab chiqarish uchun va noishlab chiqarish uchun iste'moli va boshqa sarflari ko'rsatiladi. Agar balansni ustunlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, u holda har bir ustun – tarmoq mahsuloti tarkibini qiymati bo'yicha ko'rsatadi.

Tarmoqlararo balans o'z iqtisodiy ma'nosiga ko'ra, kengaytirilgan ishlab chiqarishning alohida tomonlarini ifodalovchi to'rt qismga (kvadrantga) bo'linadi.

Birinchi kvadrant tarmoqlararo balansda (TAB) asosiy bo'lib, tarmoqlar orasidagi o'zaro moddiy ishlab chiqarish aloqalarini ifoda etadi. U moddiy ishlab chiqarishning barcha tarmoqlarini qamrab oladi.

Ikkinchi kvadrantda esa har bir tarmoq mahsulotining noishlab chiqarish iste'moliga, jamg'arishga va boshqa pirovard foydalanishga sarfi xarakterlanadi.

Noishlab chiqarish hajmining umumiy jamlanmasidan aholini moddiy boyliklarining shaxsiy iste'moli va noishlab chiqarish sohasi korxona va tashkilotlardagi moddiy boyliklar iste'moli alohida ko'rsatiladi. Noishlab chiqarish sohasining quyidagi tarmoqlari ajratib ko'rsatiladi: yo'lovchilar transporti, aloqa (aholiga va noishlab chiqarish sohasiga xizmat ko'rsatish qismi), maorif, sog'likni saqlash va madaniyat, fan, umumiy boshqarish va uy-joy kommunal xo'jaligi.

Uchinchi kvadrantda milliy daromadning tarkibi qiymat bo'yicha ko'rsatiladi. Bu yerda sof mahsulotning asosiy elementlari har qaysi moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari bo'yicha o'z aksini topadi, sof mahsulotning quyidagi elementlari esa ajratiladi: ish haqi va boshqa pul to'lovlari (xizmat safari xarajatlari, ish haqiga kirmaydigan boshqa xarajatlar) shirkat xo'jaliklaridagi mehnat haqi, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, davlat korxonalarining foydasi, aylanma solig'i, jamoa xo'jaliklari va kooperatsiyalar daromadlari, sof daromadning boshqa elementlari (kredit uchun foiz va hokazo) va aholi tomorqasidan olingan sof daromad.

8.2.Tarmoqlararo balansning milliy hisoblar tizimidagi o'rni.

Olib borilgan izlanishlar natijasida TAB MHT ning joriy bahodagi quyidagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari hisoblandi:

- oraliq iste'mol;
- qo'shilgan qiymat (yalpi ichki mahsulot);
- uy xo'jaliklarining pirovard iste'moli;
- aholining shaxsiy talabini qondiruvchi davlat tashkilotlarining pirovard iste'moli;
- jamoa talabini qondiruvchi davlat tashkilotlarining pirovard iste'moli;

- uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarning pirovard iste'moli;

- asosiy kapitalning yalpi jamg'armasi;

- moddiy aylanma vositalar zahiralarining o'zgarishi;

- tovarlar va xizmatlar eksporti qoldig'i;

Yuqorida qayd etilgan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida MHT ning tajribaviy TABi jadvali joriy bahoda milliy valyutada to'ldiriladi.

MHT TABi asosan uch qismdan -1,2 va 3-kvadrantlardan iborat.

1-kvadrant tarmoqlarning o'zaro bog'lanishini va oraliq iste'molini xarakterlaydi.

MHT TAB ining 1-kvadrantidagi yo'llar va ustunlarda moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari va noishlab chiqarish tarmoqlari (maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat, fan, boshqaruv, mudofaa va boshqalar) joylashgan.

MHT TABi 1-kvadrantidan o'ng tomonda 2-kvadrant joylashgan bo'lib, uning yo'llari ishlab chiqarish tarmoqlariga mos kelsa, ustunlari esa pirovard foydalanishning toifalariga mos keladi: pirovard iste'mol (uy xo'jaliklarining, shaxsiy va jamoa iste'molini qondiruvchi davlat muassasalarining; uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarining), yalpi jamg'arma (asosiy kapitalning yalpi jamg'armasi, moddiy aylanma vositalar zahiralarining o'zgarishi), tovarlar va xizmatlar eksporti va importi sal'dosi ko'rsatkichi.

3-kvadrantda 1-kvadrant asosida joylashgan, ustunlar ishlab chiqarish tarmoqlariga mos kelsa, qatorlar qo'shilgan qiymatning asosiy elementlari: mehnat haqi, ishlab chiqarish soliqlari (subsidiyalarni ayirib tashlab) foyda, asosiy kapitalning iste'moli, aralash daromad va boshqalarni ifodalaydi.

MHT TABi ustunlarining jamida tarmoqlar mahsulotining yalpi ishlab chiqarish (YaIch qiymati tarkibi ko'rsatilib, u oraliq iste'mol (1-kvadrant) va qo'shilgan qiymatdan (3-kvadrant) iborat bo'ladi.

Jadvalning 01-ustun va 01-qatorida "moddiy ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari oraliq iste'moli" (1-kvadrant) makroiqtisodiy ko'rsatkichlari

ifodalangan. Keyinga 01-yo‘l, **02-05**, 07-08 va 10 ustunlarda yalpi ichki mahsulotdan (YAIM) pirovard foydalanishning tarkibi ifodalanadi (2-kvadrant, MHT TAB i) va quyidagilardan iborat bo‘ladi:

1. Pirovard iste‘mol:

a) uy xo‘jaliklarining;

b) aholi shaxsiy iste‘molini va jamoa iste‘molini qondiruvchi davlat muassasalarining;

v) uy xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatuvchi notijorat tashkilotlarning;

2. Yalpi jamg‘arma:

a) asosiy kapitalning yalpi jamg‘armasi:

b) moddiy aylanma vositalar zahiralarini o‘zgarishi;

3. Tovarlar va xizmatlar eksporti va importi sal’dosi.

01 yo‘lning 06,09,11 ustunlari mos ravishda MHT ning quyidagi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari pirovard jamlanma qiymatlarini ko‘rsatadi: “Pirovard foydalanish”, “Yalpi ishlab chiqarish” ko‘rsatkichlarining qiymati 01-yo‘lning 01-11-ustunlarini quyish natijasi bo‘lib, milliy korxona va tashkilotlar tomonidan joriy davrdagi umumiy ishlab chiqarish hajmi va tovarlar hamda xizmatlar taqsimoti umumiy hajmini ifodalaydi.

Jadvalning 01 ustun, 04 yo‘lida joylashgan qo‘shilgan qiymat (yoki yalpi ichki mahsulot) ko‘rsatkichining qiymati “Asosiy kapitalning iste‘moli” (01 ustun 02 yo‘l) va “sof qushilgan qiymat” (01-ustun va 03-yo‘l) ko‘rsatkichlarining yig‘indisidan iborat bo‘ladi.

“Sof qo‘shilgan qiymat” “Qo‘shilgan qiymat” va “Asosiy kapital iste‘moli” ko‘rsatkichlari orasidagi tafovutni ifodalaydi.

Jamlanma ko‘rsatkich “Yalpi xarajatlar” (01 ustun 05 yo‘l), “Moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy soha xizmatlarining oraliq xarajatlari” ko‘rsatkichlari yig‘indisi ko‘rinishida aniqlanadi.

8.3. Milliy mahsulot ishlab chiqarish va taqsimlash tarmoqlararo balansidan MHT TABiga o'tish usuli.

MHB metodologiyasi bo'yicha 1-kvadrantda aks etgan oraliq iste'mol qisqa muddat foydalaniladigan barcha moddiy mahsulotlarni, hamda ishlab chiqarish sohasida foydalanadigan moddiy va nomoddiy xizmatlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari davlat tashkilotlari harbiy anjomlar va uskunalar (kemalar, tanklar, raketa moslamalari va hokazo) sotib olishga qilgan sarflari ham oraliq iste'molga kiradi.

MHT TABi 1-kvadranti oraliq iste'moli tarkibiga korxona va tashkilotlarning joriy qiymat hajmida tovarlarni va xizmatlarni sotib olish uchun qilingan joriy xarajatlari (bunda savdo ustamasi va transpot xarajati alohida hisobga olinadi) kiritiladi.

Oraliq iste'mol quyidagilarni o'z ichiga olmaydi:

- bino va inshootlarni qurishga yoki ularni kapital ta'mirlashga qilingan sarflar;
- mehnat unumdorligini oshirish, xizmat muddatini uzaytirish maqsadida mashina va uskunalar ta'miri (tuzatish) sarflari (bunday sarflar asosiy fondlarning yalpi jamg'armasi deb talqin qilinadi).

- uy-joyni ta'mirlash uchun, istiqomat qiluvchilar - ijarachilar tomonidan qilingan joriy sarflar (bo'yoq, gul, qog'oz va shunga o'xshash materiallarni sotib olish va hokazo). Bular uy xo'jaliklarining pirovard iste'moli sarflari deb yuritiladi.

Oraliq iste'molning (1- kvadrant) MHT TABi konsepsiyasi bo'yicha hisoblash usuli quyidagi sxemada amalga oshiriladi:

A) Moddiy (material) xarajatlar (amortizatsiyasiz) (XXT TABi 1-kvadranti);

B) 1 dan 8 gacha yig'indi = B

1. Ijtimoiy ist yillardagi iga kiruvchi noishlab chiqarish tarmoqlari xizmati moddiy xarajatlari (amortizatsiyasiz).

2. Moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari tomonidan nomoddiy xizmatlar uchun to'lov (geologiya qidiruv xizmatlarisiz, XXB TAB 3-kvadranti);

3. Nomoddiy xizmatlar tarmog'i nomoddiy xizmatlari to'lovi (XXB TABi 4 - kvadranti).

4. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlaridagi xizmat safarlari xarajatlari (transport va mehmonxona xizmatlariga to'lov qismida, XXB TABi);

5. Joriy ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan zahiralarining yo'qotilishi;

6. Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan oziq-ovqat tovarlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini sotib olish (XXB TABi 2-kvadranti);

7. Armiyadagi iste'mol va ust-bosh uchun to'lovlar;

8. Pudrat tashkilotlari tomonidan bino va inshootlarning joriy ta'mirini bajarish uchun qilgan xarajatlari;

V) Moddiy ishlab chiqarish tarmoqlaridagi kapital remont xarajatlari;

G) MHT TABida (1-kvadrant) oraliq iste'moli sxemada hisoblanadi: $A+B-V=G$

1.3. Yalpi ichki mahsulotni pirovard foydalanish usuli bilan hisoblash.

Ushbu usulning maqsadlaridan biri yalpi ichki mahsulotni (YaIM) pirovard foydalanish qismlari yig'indisikotirinishida MHT xalqaro andozalariga mos ravishda hisoblash va YaIM miqdori, tuzilishi va o'zgarishi to'g'risida ma'lumot tuplash uchun asos yaratishdir.

YaIM dan pirovard foydalanish mahsulotlar va xizmatlarning pirovard iste'molini, asosiy fondlarning yalpi jamg'armasini, moddiy aylanma vositalar zahiralarining o'zgarishini, mahsulotlar va xizmatlar eksporti va importi sal'dosini o'z ichiga oladi.

YaIM ni hisoblash quyidagi jadval bo'yicha olib boriladi:

1. Pirovard iste'mol ($A+B+V$)

a) uy xo'jaliklarining pirovard iste'moli sarflari;

b) aholining shaxsiy iste'molini va jamoa iste'molini qondiruvchi davlat muassasalarining pirovard iste'moli sarflari;

v) uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarining pirovard iste'moli sarflari.

E. Yalpi jamg'arma ($G+D$)

G. Asosiy fondlarning yalpi jamg'armasi.

D. Moddiy aylanma vositalari zahiralarining o'zgarishi.

3. Mahsulotlar va xizmatlar eksporti va importi sal'dosi.

4. Yalpi ichki mahsulot (1+2+Z).

1.3.1. Pirovard iste'mol.

Pirovard iste'mol xo'jalik birliklari aholining joriy davrdagi shaxsiy va jamoa iste'molini qondirish uchun foydalanilgan mahsulotlar va xizmatlar sarflaridir. Ushbu sarflar kim tomonidan moliyalashtirilishiga qarab uch guruhga bo'linadi:

1) uy xo'jaliklarining iste'mol sarflari aholining shaxsiy budjeti hisobidan moliyalashtiriladi;

2) davlat muassasalari - davlat budjeti hisobiga;

3) notijorat muassasalar esa ushbu muassasalar a'zolarining a'zolik badallari va xayriyalari hisobiga mablag' bilan ta'minlanadi.

1.3.1.1. Uy xo'jaliklarining pirovard iste'moliga ketgan sarflar.

MHT da uy xo'jaliklarining pirovard iste'moliga ketgan sarflar - aholining shaxsiy daromadi hisobiga qisqa va uzoq muddat foydalaniladigan vositalar (uylarni va kvartiralarini sotib olishdan tashqari) va iste'mol xususiyatiga ega xizmatlar uchun to'lovlardir. Bu ko'rsatkich shuningdek, aholi mehnat -haqiga natura shaklida to'langan yoki ularning tomorqasidan olingan mahsulotlarni va ko'rsatilgan xizmatlarni o'z ichiga oladi.

1. Kvartira to'lovi: Ushbu ko'rsatkich ma'lumotlari "Aholining pul daromadlari va sarflari balansi"dan "Kvartira to'lovi va kommunal to'lovlari" jadvali -1-yo'l "Kvartira to'lovi" dan aniqlanadi.

2. Mehmonxonalar va yotoqxonalarda yashaganlik uchun to'lovlardan ayirib tashlanadi (minus) xizmat safari to'lovlari hisobiga mehmonxonalar va yotoqxonalarda yashaganlik uchun to'lovlar

3. Kanalizatsiya va axlat o'ralarini tozalaganlik uchun kommunal to'lovlari.

4. Umumiy ovqatlanish tashkilotlari xizmatining iste'moli.

5. Maishiy va nomoddiy (hammomlar, sartaroshxonalar, ijara shaxobchalari, fotosurat, ma'lumotxonalar (ma'lumot berish byurolari), uy-joy almashtirish muassasalari va hokazo xizmatlar to'lovlari.

6. Sanatoriyalarga, dam olish-uylari, pensionatlar, turistik bazalar va hokazolarga yo'llanmalar sotib olish.

7. Pullik tibbiy muassasalar xizmatiga to'lovlar.

8. Kino, teatr, muzey, tsirk, hayvonot bog'i va boshqa madaniy-oqartuv muassasalariga tashrif buyurish sarflari.

9. Transport xizmatlari uchun to'lovlar (xizmat safari puli hisobiga ko'rsatilgan transport xizmati sarfi bundan ayirib tashlanadi).

10. Aloqa xizmati uchun to'lovlar.

11. Moliyaviy, yuridik va boshqa xizmatlar uchun to'lovlar

12. Yollanma xizmatchilar xizmati uchun to'lovlar: bu ko'rsatkich uy xo'jaliklarini tanlama tekshirish natijasi ma'lumotlari asosida hisoblanadi.

13. O'z uyida yashaganlik xizmatlari uchun to'lovlar quyidagi joriy xarajatlar yig'indisini o'z ichiga oladi:

-joriy ta'mir uchun davlat va kooperativ savdosi shaxobchalaridan, ayrim shaxslardan sotib olingan qurilish materiallari qiymati;

- ixtisoslashgan korxonalar tomonidan bajarilgan joriy ta'mir tizimlari qiymati;

- inshootlar egalaridan yig'ilgan to'lovlar va soliqlar;

- uy-joy eskirishi.

14. Erkin mutaxassisliklar bilan shug'ullanuvchi shaxslarning xizmati uchun to'lov: bu ko'rsatkich uy xo'jaliklarini tanlanma kuzatish asosida to'plangan ma'lumotlar asosida hisoblanadi.

15. Yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan band shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarga (uy-ro'zg'or, ijtimoiy madaniy xizmatlar, uy-joyi ijaraga berish va boshqalar) to'lovlar.

16. Bolalar muassasalariga to'lovlar.

17. Lotereyalarning shartli to'lovi: lotereya biletlarini sotib olish sarflari bilan ularning yutuqlari orasidagi tafovuti kabi aniqlanadi.

18. Sugʻurta xizmatlarining shartli toʻlovi: bu koʻrsatkichni baholash davlat va tijorat sugʻurta tashkilotlarining yillik buxgalteriya hisobotlari asosida amalga oshiriladi:

$$a-b-v+g$$

- a) sugʻurta mukofotlari;
- b) sugʻurta toʻlovlari;
- v) sugʻurta zahiralarining qoʻshimcha oʻsishi;
- g) sugʻurta zahiralar boʻyicha foizlar;

V. 19 dan 22 gacha yigʻindi q V

19. Uy-joy fondining (eskirishi) amortizatsiyasi.

20. Harbiy xizmatchilarning ovqatlanishi va ust-boshi qiymati.

21. Uy va kvartira egalarining uy-joy fondini joriy taʼmirlash uchun qurilish materiallarini sotib olishga qilgan sarflari.

22. Aholining umumiy ovqatlanish muassasalaridagi isteʼmoli (ushbu korxonalarining savdo ustamasini qoʻshib).

G. MHT da TAB (2 kvadrant) boʻyicha uy xoʻjaliklarining isteʼmoli quyidagi sxemada hisoblanadi:

$$A+B-V=G$$

1.3.1.2.

a) ayrim shaxslarga davlat budjetidagi muassasalar tomonidan sogʻlikni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy taʼminot, maorif, madaniyat va sanʼat sohalarida bepul xizmat koʻrsatish qiymati.

b) uy xoʻjaliklariga berish maqsadida davlat muassasalari tomonidan ijtimoiy sugʻurta yoki ijtimoiy yordam koʻrsatish dasturi asosida sotib olingan mahsulotlar va xizmatlar qiymati.

Aholining shaxsiy talabini qondiruvchi davlat muassasalarining pirovard isteʼmoli sarflari quyidagi sxemada olib boriladi:

A. Tarmoqlar boʻyicha budjetdagi muassasalarni taʼminlash sarflari davlat budjetining bajarilishi haqidagi hisobot asosida hisoblanadi.

B. 1 dan 17 gacha bo'lgan yig'indi = B

1. Uskunalar va jixozlar sotib olish uchun qilingan sarflar.
2. Davlat kapital quyilmalari.
3. Bino va inshootlarni kapital ta'mir qilish xarajatlari;
4. Nafaqa va yordam puli.
5. Nafaqalar va yordam pullariga qo'shimcha to'lovlar.
6. Budjetdan nafaqa fondiga o'tkaziladigan mablag'lar.
7. Stipendiyalar.

V. Budjetdagi tashkilotlarni budjet hisobiga ta'minlash joriy sarflari quyidagi jadval asosida hisoblanadi:

$$A-B=V$$

G. Ijtimoiy-madaniy tadbirlar uchun davlat ijtimoiy sug'urta budjetidan ajratilgan mablag'larning joriy sarfi.

D. Ijtimoiy-madaniy tadbirlar uchun kasaba uyushmasi budjetidan ajratilgan mablag'larning joriy sarfi.

E. Davlat budjet muassasalarining jami joriy sarflari quyidagi sxemada hisoblanadi:

$$V+G+D=E.$$

J. Budjetdagi muassasalarning asosiy fondlar iste'moli.

3. Budjetdagi muassasalarning saqlash sarflari (asosiy fondlar iste'molini ham qo'shib) quyidagi sxemada hisoblanadi:

$$E+J=Z.$$

I. Budjet hisobidagi pullik xizmatlarning sotilishi.

K. Aholining shaxsiy iste'molini qondirish uchun davlat muassasalarining pirovard iste'mol uchun sarflari, quyidagi jadval asosida hisoblanadi:

$$3-I=K$$

L. Uy xo'jaliklariga berish uchun tovarlarni va xizmatlarni sotib olish (natural ijtimoiy yordam).

M. (Pulsiz tekin) Budjet hisobidagi xizmatlarning qiymati

1.3.1.3. Jamoa iste'molini qondiruvchi davlat muassasalarining pirovard iste'moli sarflari.

Jamoa iste'molini qondiruvchi davlat muassasalarining pirovard iste'moli sarflari, ushbu muassasalarning bepul xizmatlarini ы3 ichiga olib, ularning joriy xarajatlariga (asosiy fondlar iste'moli ham qo'shib) tenglashtiriladi (pullik xizmatlardan tushgan daromadlar bunda hisobdan chiqariladi) va quyidagi sxemada hisoblanadi:

1. Boshqaruv.
2. Mudofaa.
3. Fan va ilmiy xizmat ko'rsatish.
4. Kredit.
5. Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar.
6. Yo'l xo'jaligi.

7. Jamoa istemolini qondiruvchi davlat muassasalarining pirovard iste'moli sarflari:

$$1+2+3+4+5+6=7.$$

1.3.1.4. Uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat muassasalarining pirovard sarflari.

Uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat muassasalarining pirovard sarflari quyidagilarni o'z ichiga oladi;

a) ushbu muassasalar (kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, turli tashkilotlar, xayriya va boshqa turli fondlar) tomonidan uy xo'jaliklariga ko'rsatilgan bepul xizmatlar qiymati;

b) uy xo'jaliklariga berish (bepul) maqsadida notijorat muassasalari tomonidan sotib olingan mahsulotlar va xizmatlar qiymati;

Bepul xizmatlar qiymati tashkilotlarning joriy xarajatlaridan (asosiy fondlar iste'moli ham hisobga olinib) pullik xizmatlar qiymatining ayirib tashlanganiga teng. Bu ko'rsatkichga korxonalarning (notijorat muassasalariga qarashli) xarajatlari

(masalan, bosmaxonalar xarajatlari partiya va kasaba uyushmalariga tegishli) kiritilmaydi.

A. Joriy sarflar $= 1 + 2 + 3 + 4 = A$.

1. Mehnat haqi.

2. Oraliq iste'mol.

3. Asosiy fondlar iste'moli.

4. Ishlab chiqarishga solingan soliq va boshqa sarflar.

B. Pullik xizmatlarning sotilishi.

V. Uy xo'jaliklariga ko'rsatilgan bepul xizmatlar qiymati quyidagi sxemada hisoblanadi:

$$A - B = V$$

G. Uy xo'jaliklariga berish maqsadida mahsulot va xizmatlarning sotib olinishi (bunga tashkilotga qarashli kasalxonalar, uy-joylar fondi, stadionlar, klublar, dam olish uylari va hokazolar) tomonidan o'z xizmatchilari va ularning oila a'zolariga ko'rsatilgan xizmatlar ham kiradi). Ushbu xizmatlar qiymati joriy davrda ushbu korxona va tashkilotlar xarajatlariga tenglashtirib olinadi.

D. Uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat muassasalarining pirovard sarflari $= V + G = D$

1.3.2. Yalpi jamg'arma (YAJ)

Yalpi jamg'arma o'z ichiga asosiy fondlar yoki kapitalning yalpi jamg'armasini va moddiy aylanma vositalar zahiralarining o'zgarishini qamrab oladi.

Asosiy fondlarning yalpi jamg'armasi xo'jalik yurituvchi rezidentlar tomonidan investitsion ob'ektlarga va bir yildan ortiq muddat foydalanuvchi vositalarga ajratilgan mablag'larni tashkil qiladi. (ularga kiruvchi xizmatlar qiymatini ham qo'shib).

Asosiy fondlar yalpi jamg'armasini tashkil etuvchi elementlarni baholash, agar ular sotib olingan bo'lsa sotib olish baholarida, ular o'z kuchi bilan yoki xo'jalik usuli bilan amalga oshirilgan bo'lsa, u holda asosiy baholarda (ya'ni birlamchi

xarajatlarni yoki boshqa ishlab chiqarish soliqlarini hisobga oluvchi baholarda) amalga oshiriladi.

Moddiy aylanma vositalar zahiralar, xo‘jalik birliklarida ushbu davrda mavjud bo‘lgan, asosiy fondlarning yalpi jamg‘armasiga qushilmaydigan barcha mahsulotlarni o‘z ichiga oladi.

Moddiy aylanma vositalar zahiralariga quyidagilar kiradi:

- a) sanoat mahsulotlarining zahiralar (xomashyolar, materiallar, yarim fabrikatlar, yoqilg‘i, tayyor mahsulot);
- b) yig‘ishtirib olingan qishloq xo‘jalik mahsulotlari zahiralar;
- v) boquvdagi mol, yosh mol, quyon, qush va asalarilar;
- g) tugallanmagan ishlab chiqarish;
- d) davlat moddiy zahiralar;

Moddiy aylanma vositalar zahiralar qazilma boyliklar zahiralar, yig‘ib olingan o‘rmon va qishloq xo‘jaligi hosili qiymatini o‘z tarkibiga olmaydi. Zahiralar qiymatining ma’lum davrdagi o‘zgarishi ularning davr boshidagi va dav oxiridagi zahiralar tafovuti bilan aniqlanadi.

Tovarlar zahiralar, agar ular iste’molchilarda yoki ulgurji va chakana savdo korxonalarida bo‘lsa, sotib oluvchilarning baholari bo‘yicha, bordiyu ishlab chiqaruvchilarda bo‘lsa, u holda asosiy baholarda baholanadi.

1.3.2.1. Asosiy fondlarning yalpi jamg‘armasi

Asosiy fondlarning yalpi jamg‘armasi ko‘rsatkichini hisoblash quyidagi sxemada olib boriladi:

A. Asosiy fondlar jamg‘armasi (2-kvadrant XXB TABi)

B. 1 dan 8 gacha yig‘indi = B.

- 1. Kapital remont va chiqib ketgan asosiy fondlar o‘rnini qoplash.
- 2. To‘xtatilgan qurilishni chegirib tashlash.
- 3. Chiqarib tashlangan noishaab chiqarish fondlarining qiymati (2-kb. XXB TABi);
- 4. Tugallanmagan qurilishning qo‘shimcha o‘sishi.

5. Tugallanmagan kapital ta'mirning qo'shimcha o'sishi.

6. Davlat budjeti asosiy faoliyat mablag'lari hisobiga amalga oshirilgan qazish va geologiya qidiruv ishlari xarajatlari.

7. EHM ni dastur bilan ta'minlash va vujudga keltirish bilan bog'liq xarajatlar.

8. Yirik qora molning nobud bo'lishi.

V. MHT TABida asosiy kapitalning yalpi jamg'armasi quyidagi sxemada amalga oshiriladi:

$$A + B = V$$

1.3.2.2. Moddiy aylanma vositalar zahiralarining o'zgarishi.

"Moddiy aylanma vositalar zahiralarining o'zgarishi" quyidagi sxemada amalga oshiriladi:

A. Moddiy aylanma vositalarning XXB TABidagi jamg'armasi (2-kv. XXB TAB)

$$B. 1 + 2 = B .$$

1. Tugallanmagan qurilishning qo'shimcha o'sishi. (2-KB. TAB).

2. Tugallanmagan kapital joriy ta'mirning qo'shimcha o'sishi. (2-kv. XXB TAB).

V. Moddiy aylanma vositalar zahiralarining o'zgarishi MHT TABida (2-kvadrant) quyidagi sxemada hisoblanadi: $A - B = V$

1.3.3. Tovarlar vazirliklar eksporti va importi sal'dosi

Tovarlar vazirliklar eksporti va importi sal'dosi – tashqi iqtisodiy operatsiyalar natijasining quyidagi shaklidir:

- tovarlar eksporti va importi;
- moddiy va nomoddiy xususiyatga egazirliklar eksporti va importi;

Tovarlar vazirliklar eksporti va importi sal'dosi - bu tashqi savdo balansining yakuniy ko'rsatkichi bo'lib, tashqi savdo birlashmalarining va yuklarning bojxona deklaratsiyasi ma'lumotlari asosida tuziladi. Tovarlarini eksporti deganda mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarini mamlakatdan tashqarigaolib chiqib ketish va tovarlarini reeksporti tushuniladi.

Mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar tarkibiga, shuningdek mamlakatgachetdan olib keltirilgan va ma'lum darajada qayta ishlov berilib texnik vaasosiy tavsiflari o'zgartirilgan tovarlar ham kiradi.

Tovarlar importi deganda mamlakatga chet eldan tovarlarni olib kirish tushuniladi.

Importgaxalq xo'jaligida iste'mol qilish uchun chet eldan keltirilgan reeksportga mo'ljallangan tovarlar va chet eldan ushbu mamlakatning tashkilotlari uchun o'sha yerdan iste'mol qilish uchun sotib olingan tovarlar ham kiradi.

Agar eksport importdan ortiq bo'lsa, sal'do musbat, agar import hajmi eksportdan ortiq bo'lsa, sal'do manfiy bo'ladi.

Tovarlarni baholash shartnomada ko'rsatilgan tashqi savdo baholarini hisobga olgan holda milliy valyuta yoki AQSh dollarida olib boriladi.

Xizmatlar importi va eksporti texnik xizmat ko'rsatish, ta'mir, yo'lovchilar va yuklarni tashish, aloqaxizmatlari, tijorat xizmatlari, chet el sayyohchiligi va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Xizmatlar eksporti va importi sal'dosi ushbu xizmatlardan tushgan tushumlar orasidagi farq kabi aniqlanadi.

Tovarlar va xizmatlar eksporti va importi sal'dosi quyidagicha aniqlanadi:

A. Tovarlar vaxizmatlar eksporti;

B. Tovarlar vaxizmatlar importi;

V. Tovarlar vaxizmatlar eksporti va importi sal'dosi quyidagicha aniqlanadi: $A - B = V$

1.4. MHT TABi taqsimot usuli yordamida yalpi ichki mahsulotni hisoblash (3-kvadrant).

MHT TABi 3-kvadrantida ishlab chiqarish jarayoni ishtirokchilarining umumiy daromadini aks ettiruvchi qo'shilgan qiymat ifodalanadi: ya'ni "qo'shilgan qiymat" toifasi MHT da mahsulot qiymat komponentlarini ifodalash uchun xizmat qiladi. MHT daasosiy makroiqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, qo'shilgan qiymatning tarmoqlar

bo'yicha miqdori yig'indisiga import sof soliqlarini qo'shib hosil qilinuvchi, yalpi ichki mahsulot hisoblanadi.

Ushbu makroiqtisodiy ko'rsatkich quyidagi sxemadaolib boriladi:

A. Sof mahsulot (3-kvadrant XXB TABi)

B. $1 + 2 + 3 + 4 = B$

1. Moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining amortizatsiyasi (1-kv. XXB TABi);

2. Nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari amortizatsiyasi;

3. Kapital ta'mirlashga sarflangan xarajatlar.

4. Nommodiy xizmatlar ko'rsatish sohalarining qo'shilgan qiymati. (4-kv. XXB TABi).

V. $5 + 6 = V$

5. Moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari va nomoddiy xizmatlar sohasi bo'yicha transport va mehmonxonaxizmatlariga komandirovka sarflari.

6. Moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy xizmatlar sohasi nommodiy xizmatlariga to'lovlar. (3 va 4-kv. XXB TABi)

G. Qo'shilgan qiymat (3-kv. MHT TABi) quyidagi sxemada hisoblanadi:

A + B - V = G.

Qisqacha xulosalar

Tarmoqlararo balans asosiy xalq xo'jaligi muvozanatini tarmoqlar bo'yicha va tarmoqlar orasida mufassal ravishdaoydinlashtiradi. Uning yordamida mahsulot ishlab chiqarish va iste'mol qilishning alohida moddiy balanslari uyg'unlashtiriladi.

TAB milliy hisoblar tizimi xalq xo'jaligi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlar umumlashmasi bo'lib, uni tuzish tarmoqlar umumiy faoliyati jami bo'yicha statistik ma'lumotlar to'plash va ularga ishlov berish natijalarigaasoslanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Tarmoqlararo balans deganda nimani tushunasiz?
2. Tarmoqlararo balans kvadrantlarini tushuntiring?

3. Tarmoqlararo balansda oraliq iste'mol ko'rsatkichining tutgan o'rnini baholang?
4. Tarmoqlararo balansda yakuniy iste'molning tasniflanishini ko'rsating?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi Prezident Islom Karimovning 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi / Xalq so'zi 22.01.2011
2. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir. I.A. Karimov. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2010. – 34-50 b.
3. I.A. Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: O'zbekiston, 2009.-56 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir” hamda “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot.-2010.– 63-85 b.
5. Кудина М.В. Основы экономики: Учебник. – ФОРУМ: ИНФРА-М, 2006.
6. Бухгалтерский финансовый учет: Учебник для вузов/Под ред.проф. Ю.А.Бабаева. – М.:Вузовский учебник, 2006.
7. Yakubov I.O., G'oyibnazarov B.K., Abdusattarova X.M. Balans muammolari. O'quv qo'llanma.-T.:O'zRYoUAJ. 2004.
8. Якубов И.О., Тошмухамедов Н.С. Балансовые проблемы. – Т.: ТГЭУ, 2008.

9-Mavzu: REAL SEKTOR TAHLILI VA BASHORATI

Reja:

9.1. Milliy hisoblar tizimi (MHT). Iqtisodiyotning asosiy sektorlari. Asosiy agregatlar. Asosiy tushunchalar. Yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmini hisoblashning muqobil (muqobil) usullari. Boshqa standart agregatlar.

9.2. Ishlab chiqarish hajmi, xarajatlar va narxlar bashorati

9.1. Milliy hisoblar tizimi (MHT). Iqtisodiyotning asosiy sektorlari. Asosiy agregatlar. Asosiy tushunchalar. Yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmini hisoblashning muqobil (muqobil) usullari. Boshqa standart agregatlar.

MHT makroiqtisodiyotga taalluqli ma'lumotlarni qayta ishlash va makroiqtisodiy tahlil maqsadlarida foydalanish uchun buxgalteriya hisobi tizimi shaklida ishlab chiqilgan. U xalqaro hamjamiyat tomonidan milliy iqtisodiyot ko'rsatkichlarini tahlil qilish, baholash va monitoringini olib borish uchun uzluksiz axborot oqimlarini tashkil qiladigan asos sifatida tan olingan. MHTdan foydalanishning boshqa muhim yo'nalishlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

Makroiqtisodiy tahlil. Ushbu yo'nalishdagi tahlil uchun MHT turli iqtisodiy nazariya va modellarga mos kelganligi va turli darajada rivojlangan mamlakatlarning ehtiyojlariga javob bera olganligi sababli asos bo'lib xizmat qiladi.

Turli davrlarga mansub bo'lgan ma'lumotlarni taqqoslash. MHT muhim makroiqtisodiy agregatlarning (masalan, ishlab chiqarish hajmi va bandlik) ma'lum davrlarda o'zgarishini kuzatib borishga imkon beradigan izchil tizimdir.

Turli mamlakatlar ma'lumotlarini taqqoslash. Xalqaro andozalar va tasniflarga binoan ishlab chiqilgan MHTning ma'lumotlari xalqaro tashkilotlarga muntazam taqdim qilinadi. Bu ma'lumotlar o'z navbatida xalqaro taqqoslash ishlarini tashkil qilishda foydalaniladi va natijada, masalan, xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ)ga a'zo mamlakatlarga imtiyozli yordam ko'rsatish bo'yicha kvotalarni aniqlash, umumiy rejada esa turli mamlakatlar iqtisodiyotining miqyoslarini taqqoslashda qo'llaniladi. Ushbu taqqoslash ishlarida ishlab chiqarish hajmini ifodalovchi

ko'rsatkichlar umumiy valyutaga keltirib olinadi. Amaliyot nuqtai nazaridan qiyinchilik tug'ilmasligi uchun milliy valyuta birliklarida hisoblangan YaIM ni umumiy valyutaga keltirishda bozor almashuv kursi asos qilib olinadi. Bunday qayta hisoblashlar bozor almashuv kurslarida YaIM darajasida hisoblangan taqqoslama tovar va xizmatlar savati bilan o'rtacha tortilgan narxlarning nisbatlari teng bo'lgan holdagina talabga javob berishi mumkin. Yuqorida keltirilgan narxlar nisbatini amaliyotda valyutalarning xarid qilish qobiliyati deb ham yuritiladi (VHQQ, RRR yoki PPS). Biroq bozor almashuv kurslari bir qancha vaqt mobaynida VHQQdan farqlanadigan bo'lsa, hisob-kitoblarda YaIMni xorijiy valyutada hisoblashda noaniqliklarga yo'l qo'yilishi mumkin. Shuning uchun xalqaro hisob-kitoblarda muntazam xatolarni iloji boricha qisqartirish uchun maxsus muqobil usullar ishlab chiqilgan.

Quyida makroiqtisodiy agregatlar va ularning o'zaro bog'liqliklari masalalari ko'rib chiqiladi. Unda, shuningdek inflatsiya darajasini hisoblash va tahlili, bandlik, ishsizlik, real ish haqi kabi masalalarga ham alohida e'tibor beriladi.

Iqtisodiyotning asosiy sektorlari.

Iqtisodiyotda oltita muhim sektor faoliyat olib boradi: uy xo'jaliklari, uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi nodavlat, nomoliyaviy tashkilotlar, nomoliyaviy korporatsiyalar, moliya sektori, davlat va tashqi dunyo sektori.

Uy xo'jaliklari turli omil bozorlariga yer, mehnat resurslari va kapitalni taklif qilib tovar bozorlarida tovar va xizmatlarga talabni shakllantiradi. Ayrim paytlarda ular yuridik maqomga ega bo'lmagan korxona tashkil qilib, ishlab chiqaruvchi maqomini ham olishi mumkin. Uy xo'jaliklari mamlakatdagi mavjud iqtisodiy holat va rivojlanish istiqbollari hisobga olgan holda moliya bozorida iste'mol, jamg'arish va investitsiyalarga qancha mablag' ajratilishi to'g'risida mustaqil qaror qabul qiladilar.

Uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi nodavlat, notijorat tashkilotlar o'z nomiga ko'ra davlat tassarufida bo'lmaydi, davlat budjetidan moliyalashtirilmaydi va shuningdek tijorat xarakterida faoliyat yuritmaydi. Ularning asosiy maqsadi uy

xo'jaliklariga xizmat ko'rsatish bo'lib, ular moliyaviy mablag'larni a'zolik badallari, hayriyalar hisobiga shakllantiradi. Ular qo'shimcha tarzda tadbirkorlik faoliyati bilan ham shug'ullanishlari mumkin. Lekin olingan foyda tashkilot xodimlari orasida taqsimlanmasdan, uy xo'jaliklariga yanada sifatliroq xizmat ko'rsatish uchun sarflanishi talab qilinadi, aks holda qonunchilikda belgilangan imtiyozlardan mahrum bo'lib, nomoliyaviy korporatsiyalar sektoriga mansub bo'lib qolishlari mumkin. Ushbu sektorga turli partiyalar, din tashkilotlari, kasaba uyushmalari, qizil yarim oy jamiyati, Ekosan, Orolni qutqarish va shunga o'xshash fondlar kiradi.

Nomoliyaviy korporatsiyalar ham bozorga tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun yer, ishchi kuchi va kapital singari ishlab chiqarish omillaridan foydalanadilar. Ishlab chiqarish va investitsiyaga oid qarorlar korxonalarining maksimal foyda olish maqsadlariga bo'ysundiriladi.

Moliya sektori iqtisodiyotni moliyaviy xarakterdagi vositachilik xizmatlari bilan ta'minlaydi. Ushbu sektorga asosiy faoliyati moliyaviy vositachilik bo'lgan barcha tashkilotlar, shu jumladan bank tizimi va o'zaro yordam fondlari, kredit ittifoqlari, nafaqa fondlari va sug'urta kompaniyalari kabi boshqa moliyaviy muassasalar kiradi.

Davlatning asosiy iqtisodiy roli samarali me'yoriy-huquqiy asosini yaratish, ma'lum ijtimoiy tovarlar (xizmatlar)ni yyetkazib berish (masalan, ma'orif, ijtimoiy himoya infratuzilmasi va tizimi), soliq tizimini nazorat qilish va davlat xarajatlarini boshqarishdan iboratdir.

Tashqi dunyo sektori norezidentlar bilan sodir bo'ladigan iqtisodiyotdagi barcha operatsiyalarni qamrab oladi.

Asosiy agregatlar.

Yalpi ishlab chiqarish (Q) iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan barcha tovar va xizmatlar qiymati. Ushbu ko'rsatkichda takroriy hisob muammosi mavjud.

Qo'shilgan qiymat (VA) = yalpi ishlab chiqarish - oraliq iste'moli.

Qo'shilgan qiymat ko'rsatkichidan iqtisodchilar mamlakatdagi ishlab chiqarish hajmini o'lchashda foydalanadilar. Ishlab chiqarish bozor va nobozor turlariga

ajratiladi. Nobozor ishlab chiqarishga o'z iste'moli uchun ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar kiradi, masalan, shaxsiy tomorqani yuritish va shaxsiy uylarda istiqomat qilish bozor qiymatiga ega bo'lmaydi.

Iste'mol(S) ikki turga ajratiladi: oraliq va pirovard.

Oraliq iste'moliga ishlab chiqarish resurslarining iste'moli kiritilsa, pirovard iste'molga uy xo'jaliklari va davlat sektorining iste'mol qilgan tovar va xizmatlari (mamlakat ichkarisida ishlab chiqarilgan yoki import qilinganligidan qat'i nazar) kiritiladi.

Yalpi ichki mahsulot (GDP) barcha sektorlarda ishlab chiqarilgan qo'shilgan qiymatlar yig'indisidir. YaIM mamlakatda ishlab chiqarilgan pirovard tovar va xizmatlar qiymatini o'lchaydigan me'yor hisoblanadi.

Investitsiyalar (yalpi kapitalning shakllanishi) (I) makroiqtisodiy nuqtai nazardan iqtisodiyotga kiritilgan kapital qo'yilmalarning jismoniy hajmini ifodalaydi. Ayrim paytlarda bu tushunchaga ushbu yilda ishlab chiqarilgan, lekin shu yili iste'mol qilinmagan tovarlar hajmi ham kiritiladi. Makroiqtisodiy ma'noda investitsiyalar - uskunalar, fabrikalar, uylarni bunyod qilish, hamda tovar-material zahiralarining o'zgarishini qamrab oladi. Shunday qilib, aksiya va obligatsiyalarni sotib olish, alohida olingan kishi nuqtai nazaridan investitsiya bo'lib hisoblansa-da, makroiqtisodiy nuqtai nazardan bunday operatsiyalar moliyaviy aktivlarning bir agentdan ikkinchisiga berilganligi sababli investitsiya bo'lib hisoblanmaydi.

Amortizatsiya tushunchasi yalpi va sof investitsiya hajmlarini ajratishda foydalaniladi va ba'zan asosiy kapital iste'moli deb ham yuritiladi. Asosiy fondlar vaqt o'tishi bilan yemirilishi sababli, biror-bir davrda butunlay foydalanib bo'lingan asosiy fondlarning o'rni amortizatsiya ajratmalari hisobiga qorejaadi va ushbu summani yalpi investitsiya hajmidan ayirsak, sof investitsiya hajmi aniqlanadi. Ya'ni:

Sof investitsiya hajmi = Yalpi investitsiya hajmi — amortizatsiya.

Yalpi investitsiya hajmiga nisbatan sof investitsiya hajmi ishlab chiqarish quvvatlarining o'zgarishini aniqroq ifodalaydi.

Sof eksport hajmi ko'rsatkichi tovar va xizmatlar eksportidan tovar va xizmatlar importini ayirib aniqlanadi va yalpi talabga tashqi savdoning ta'sirini o'lchashda qo'llaniladi.

Qanoatlantirilgan talab – absoritsiya (A) ba'zan yalpi ichki talab deb nomlanadi va umumiy pirovard iste'mol (*S*) bilan yalpi investitsiya (*I*) hajmining yig'indisi sifatida aniqlanadi:

$$A = C + I. \quad (9.1)$$

Asosiy tushunchalar.

Oqimlar va zahiralar. MHTda iqtisodiy faoliyat ma'lum bir davr, masalan YaIM yil davomida ishlab chiqarilgan hajmi ko'rinishida ifodalanishi mumkin. Odatda, statistik qatorlar asosida olinadigan ma'lumotlar "oqimlar" ko'rinishida, ayrim vaqt holatiga nisbatan olingan ma'lumotlar esa "zahiralalar" ko'rinishida o'lchanadi.

Zahira va oqim tushunchalari o'zaro bog'liqdir. Masalan, yil davomida ishlab chiqarilgan avtomobillar oqimi – yil oxiriga avtomobillar zahirasi yalpi ko'payishini ifodalaydi. Zavodlar (ishlab chiqarish jarayoni amalga oshiriladigan binolar) va uskunalariga amortizatsiyani chegirgandan so'ng yangi investitsiyalar oqimi inson kapitali yaratgan zahiralarining o'zgarishiga teng bo'ladi. Iqtisodchilarni birinchi navbatda oqim ko'rinishidagi ko'rsatkichlar ko'proq qiziqtiradi. Biroq, zahira ko'rinishidagi ayrim ko'rsatkichlar iqtisodiy tahlilda katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Masalan, pul zahiralar, bank tizimidagi sof tashqi aktivlar, to'lanmagan tashqi yoki ichki qarz, ishsizlar soni va h.k.

Yalpi va sof agregatlar. MHTda "yalpi mahsulot" va "sof mahsulot" tushunchalari farqlanadi. Yalpi ishlab chiqarish hajmini aniqlash uchun korxonalarning mahsulotlari pirovard yoki oraliq xarakterdaligiga qaramasdan yig'indisi jamlanadi. Masalan, fermer ishlab chiqargan don qiymati tegirmonchi ishlab chiqargan un va nonvoy ishlab chiqargan non qiymatida o'tiradi. Biroq, ushbu misolimizda don qiymati uch marotaba turli ishlab chiqarish jarayonlarida hisobga olindi. MHTda yuqoridagi misolda keltirilganidek qayta-qayta bir narsani bir necha marotaba hisoblanishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida faqat pirovard mahsulot hisobga

olinadi. Buning uchun barcha ishlab chiqarish birliklarining ishlab chiqargan mahsulotlari yig'indisidan "oraliq iste'moli" deb nomlanadigan boshqa firmalardan barcha xaridlar summasi ayiriladi. Hosil bo'lgan ayirma "qo'shilgan qiymat" deb yuritiladi va bu ko'rsatkich ma'lum bir davrdagi umumiy ishlab chiqarish hajmi bo'lib hisoblanadi.

MHTdagi "asosiy kapitalning iste'moli" buxgalteriya hisobidagi "amortizatsiya" tushunchasidan farqlanadi. Birinchidan, biror-bir kapital tovarni kapital ta'mirlash juda qimmatga tushgunga yoki yangi yuqori samarali texnologiyani kiritilishi natijasida ma'naviy eskirib qolgunga qadar qancha vaqt o'tishini oldindan aniq belgilab bo'lmaydi. Ikkinchidan, qoldiq qiymatni hisoblashda kapital tovarni bir necha yil avval sotib olishdagi narxi yoki uni o'rniga yangi kiritilayotganining narxini olish kerakmi degan savolga javob berish ancha mushkul. Uchinchidan, ba'zi hollarda soliq sohasidagi qonunchilikda amortizatsiya summasini tezlashtirilgan usullaridan foydalanishga ruhsat berilishi yoki amortizatsiya summasini ajratishda ba'zi tarmoqlarga imtiyozlar berilishi mumkin. Natijada, umumiy amortizatsiya summasi soliq deklaratsiyalari asosida hisoblanib, kapital tovarlar zahiralarining ishlab chiqarish jarayonida foydalanishi natijasida kamayishini to'laqonli ifodalay olmaydi.

Nazariy jihatdan ichki mahsulot sof ko'rinishda ifodalanishi lozim. Ammo, amaliyotda amortizatsiyani hisoblashdagi murakkabliklar va yalpi ko'rinishdagi ma'lumotlarning keng tarqalganligi, ularni tezroq hisoblash va mamlakatlararo taqqoslash imkoniyatlarining mavjudligi sababli YaIM tushunchasidan foydalanish qabul qilingan.

MHTda boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarini hisoblashda ham amortizatsiyaning hisobga olinishi yoki olinmasligiga qarab "yalpi" va "sof" atamalaridan foydalaniladi. Masalan, "yalpi kapital qo'yilmalari" va "sof kapital qo'yilmalari", "yalpi jamg'arish" va "sof jamg'arish" kabi ko'rsatkichlar. Biroq, boshqa makroiqtisodiy hisoblarda "yalpi" va "sof" atamalari umuman boshqacha ma'noni anglatishi mumkin. Masalan, "sof eksport" – eksport bilan importning ayirmasiga

teng, “sof tashqi aktivlar” esa tashqi aktivlar bilan tashqi passivlarning ayirmasiga teng.

Omil xarajatlari va bozor narxlari.

YaIM hajmini baholashda barcha korxonalardagi tovar va xizmatlar ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan qo‘shilgan qiymatlarning yig‘indisi olinadi. Korxonalarning davlatga to‘laydigan soliqlari (bu yerda gap bilvosita soliqlar, ya’ni mahsulotga soliqlar to‘g‘risida ketmoqda) avtomatik tarzda qo‘shilgan qiymat tarkibiga kiritilmaydi. Agar qo‘shilgan qiymat bilvosita soliqlarni inobatga olmasa, u holda barcha ishlab chiqarish birliklari tomonidan yaratilgan qo‘shilgan qiymatning umumiy summasi, ya’ni mahsulotning qiymati barcha daromadlar qiymatiga teng bo‘ladi. Ushbu konsepsiya ”omil qiymatidagi mahsulot” nomini olgan. Agar barcha omillardan olingan daromadlar summasiga to‘langan bilvosita soliqlar summasi qo‘shilsa, hosil bo‘lgan yig‘indi ”bozor narxlaridagi mahsulot” deb nomlanadigan agregat hosil bo‘ladi. “Bozor narxi” atamasi barcha bilvosita soliqlarni hisobga oladigan narxni anglatadi. MHTda bilvosita soliq tushumlari daromad tarkibiga kiritilmaganligi sababli tabiiy ravishda “daromad” va “bozor narxidagi mahsulot” orasida tafovut mavjud bo‘ladi. Bilvosita soliqlardan farqli o‘laroq, bevosita soliqlarning bazasi bo‘lib fuqarolar va korxonalarning yalpi daromadlari hisoblanadi va ular ushbu yalpi daromadlardan to‘lanadi.

Korxonalar tomonidan biror-bir davlat idoralaridan subsidiyalarning olinishi ham omil daromadlari va ishlab chiqarish hajmi orasida tafovutning paydo bo‘lishiga olib keladi. MHTda bozor narxlaridagi YaIMni aniqlash uchun omil qiymatlarida aniqlangan YaIMdan firmalarga beriladigan subsidiyalarni chegirish lozim. Shunday qilib, qarama-qarishi belgilarga ega bo‘lgan va o‘zaro bir-birini qoplaydigan ikkita farqlanish mavjud bo‘lib, birinchisi korxonalar tomonidan to‘lanadigan bilvosita soliqlar bo‘lsa, ikkinchisi esa korxonalarning davlatdan oladigan subsidiyalari. Bilvosita soliqlardan subsidiyalarni ayirish natijada hosil bo‘ladigan modda “sof bilvosita soliqlar” deb yuritiladi.

Transfertlar.

Hech qanday almashuv sodir bo'lmaydigan va majburiyatlarni paydo qilmaydigan to'lovlar transfertlar deb yuritiladi. Transfertlarga xorijda ishlagan mamlakat fuqarolari jamg'armalarini repatriatsiya qilish (ularning ona vatanlariga resurslarning kirib kelishi), hadyalar, emigrantlarning pul o'tkazishlari, hayriya tashkilotlarining yordamlari va xorijiy mamlakatlarning iqtisodiy yordamlari kiritiladi. Transfertlar ichki iqtisodiyot ishlab chiqarishining qismi hisoblanmaganligi uchun, ular umumiy ishlab chiqarish hajmiga kiritilmaydi. Lekin, sof transfertlar mamlakat iqtisodiyotining ushbu davrda egalik qilishi va pirovard foydalanish hamda yalpi jamg'arish maqsadlarida foydalanishi mumkin bo'lgan umumiy daromad hajmini ko'paytirishi yoki kamaytirishi mumkin. Mamlakat yalpi milliy daromadi (YaMD) va xorijdan oladigan sof transfertlari (TR) summasi yalpi egalikdagi milliy daromad (YaEMD) ko'rsatkichini beradi. Ba'zi hollarda sof transfertlar manfiy bo'lishi mumkinligini hisobga olsak, YaEMD YaMDdan kam bo'lishi mumkin.

Nominal va real agregatlar.

Joriy davr narxlarida hisoblanadigan agregatlar "nominal", bazis davr narxlarida hisoblanadiganlari esa "real" agregatlar deb nomlanadi. Masalan, joriy davrda ishlab chiqarilgan nominal YaIM joriy davr narxlarida hisoblangan pirovard tovar va xizmatlar hajmiga teng bo'ladi. Real YaIM esa joriy davrda ishlab chiqarilgan pirovard tovar va xizmatlarning o'zgarmas bazis davr narxlarida hisoblangan hajmini ifodalaydi. Nominal YaIMdagi o'zgarishlar narxlar va ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar miqdoridagi o'zgarishlar hisobiga sodir bo'ladi. Real YaIMdagi o'zgarishlar esa faqat pirovard ishlab chiqarish hajmlaridagi o'zgarishlar hisobiga sodir bo'lishi mumkin.

Joriy davrda bazis davriga nisbatan narxlarning o'rtacha o'zgarishini aniqlash uchun nominal YaIM real YaIMga bo'linadi va bu ko'rsatkich YaIM deflyatori deb yuritiladi. Ushbu ko'rsatkich mamlakat iqtisodiyotidagi inflatsiya darajasini baholaydigan umumlashtiruvchi ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi.

Tovar va xizmatlar.

MHTda har qanday ishlab chiqarish birligi tovar ishlab chiqarishi yoki xizmat ko'rsatishidan qat'i nazar ishlab chiqarish jarayonida resurslardan foydalanish natijasida mahsulot ishlab chiqaradi va qo'shilgan qiymat yaratadi deb qabul qilingan. Qo'shilgan qiymat barcha ishlab chiqarish birliklari tomonidan yaratilishi va ularning yig'indisi bo'lganligi sababli YaIM tarkibiga xizmat ko'rsatish sohasida yaratilgan qo'shilgan qiymat ham kiritiladi. Har bir mahsulot turining qiymati bozor narxlarida yoki u monopolist tomonidan ishlab chiqarilayotgan bo'lsa (masalan, energoresurslar), davlat tomonidan belgilangan narxlarda o'lchanadi. Davlat sektori mahsulotining qiymati barcha kiritilgan omillar qiymati, ya'ni davlat sektoridagi xodimlarga to'lanadigan ish haqi summasiga ko'ra o'lchanadi. Xizmat ko'rsatish sohasidagi kapital tovarlarning eskirishi (masalan sartarosh foydalanadigan qaychining eskirishi) ham mamlakat iqtisodiyotidagi eskirish summasining bir qismi bo'lgani uchun YaIM tarkibiga kiritiladi.

Rezidentlikka mansublik.

Har bir jismoniy shaxs yoki muassasa qaysi mamlakatda iqtisodiy qiziqishi kuchliroq va uzviy aloqada bo'lishiga qarab biror-bir mamlakatning rezidenti sifatida qaraladi. Xorijiy mamlakat mulki hisoblangan korxonalar iqtisodiy qiziqishi ko'proq korxona joylashgan hudud bilan bog'liq bo'lgani uchun, u faoliyat ko'rsatayotgan hudud uchun rezident bo'lib hisoblanadi. Shunday qilib, MHTda mulk nuqtai nazaridan qaysi mamlakatga mansub bo'lishidan qat'i nazar, mamlakat hududida faoliyat olib borayotgan barcha korxonalar ushbu mamlakatning rezidentligiga mansub bo'ladilar. Xuddi shunga o'xshab, xorij mamlakatlarida joylashgan va faoliyat olib borayotgan milliy korxonalarning filial-shoxobchalari asosiy korxona joylashgan korxonaning emas, balki haqiqatda joylashgan mamlakatning rezidentligiga kiritiladi. MHT va uning ajralmas qismi bo'lmish to'lov balansi maqsadlarida xorijda bir yildan ortiq muddatda ishlayotgan va yashayotgan jismoniy shaxslar millati va fuqaroligidan qat'i nazar o'sha davrda yashayotgan va ishlayotgan mamlakat rezidenti hisoblanadi. Davlat boshqaruv idoralari xorijda faoliyat yuritayotgan bo'lsada, o'z mamlakatining rezidenti hisoblanadi. Masalan, xorijda

joylashgan elchixonalar va u yerda ishlash uchun yuborilgan xodimlar o'z mamlakatlarining rezidenti bo'lib hisoblanadi.

Yalpi ichki mahsulot hajmini hisoblashning muqobil usullari

Eng asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkich bo'lmish YaIMni uch xil usulda hisoblash mumkin: ishlab chiqarish, daromadlar va xarajatlar. Lekin ko'rsatkich qaysi usulda hisoblanmasin, bir xil natija berishi lozim.

Ishlab chiqarish usuliga ko'ra YaIM mamlakatda ishlab chiqarilgan bozor narxlaridagi yalpi qo'shilgan qiymat yig'indisiga yoki yalpi ishlab chiqarish hajmidan ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan tovar va xizmatlar qiymatini (ya'ni oraliq iste'molini) ayirish natijasiga teng.

Shunday qilib,

$$GDP = \sum VA \quad (9.2)$$

bu yerda $\sum VA$ – iqtisodiyotning barcha sektorlaridagi qo'shilgan qiymatlar yig'indisi.

YaIM konsepsiyasi rezidentlik tushunchasiga asoslangan bo'lib, faqat rezidentlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotni hisobga oladi. Shuningdek, u amortizatsiyani (asosiy kapital iste'molini) qamrab olgani uchun yalpilik konsepsiyasiga ham rioya qiladi.

Daromadlar usuli bo'yicha YaIMni hisoblashda barcha ishlab chiqaruvchi-rezidentlar daromadlarining yig'indisi olinadi. Demak,

$$GDP_{\text{bozornarxlaridagi}} = GDP_{\text{omilqiymatidagi}} + TSP = W + OS + TSP, \quad (9.3)$$

bu yerda: W – xodimlarga to'lanadigan mehnat haqi va boshqa ustamalar yig'indisi; OS – ishlab chiqarish birliklarining operatsion foydasi (ijara haqi, foizlar, amortizatsiya va foyda); TSP – bilvosita soliqlar minus subsidiyalar.

Xarajatlar usulida YaIM barcha pirovard foydalanish moddalarining yig'indisidan iborat bo'ladi. Ya'ni,

$$GDP = C + I + (X - M), \quad (9.4)$$

bu yerda: S – davlat va nodavlat sektorlarning pirovard iste'moli; I – yalpi investitsiyalar hajmi (aosiy kapitalga investitsiyalar plyus tovar-moddiy zahiralarining o'zgarishi); X – tovar va noomil xizmatlar eksporti; M – tovar va noomil xizmatlar importi.

Boshqa standart agregatlar.

YaIM faqat mamlakat ichkarisida olingan daromadlarni ifodalashi, yalpi talabni shakllantirishda esa iqtisodiyotdagi barcha manbalardan olinadigan daromadlar hisobga olinganligi sababli, u yalpi daromadlarni to'liq aks ettira olmaydi. Shuning uchun MHTda qo'shimcha tarzda yalpi milliy daromad (YaMD yoki GNI) va yalpi egalikdagi milliy daromad (YaEMD yoki GNDI) agregatlari hisoblanadi. Bu agregatlarni hisoblash ichki emas, balki milliy asosda tashkil qilingan, chunki ular tarkibiga mamlakat ichida shakllangan, lekin norezidentlarga to'langan daromadlar kiritilmasdan, mamlakat tashqarisida shakllangan, lekin bizning rezidentlarga to'langan daromadlar hisobga olinadi.

Yalpi milliy daromad. YaIM yordamida mamlakat rezidentlari tomonidan ishlab chiqarilgan pirovard mahsulotlar hajmi aniqlanganligi uchun, uni hisoblashda norezidentlar olgan yoki to'lagan daromadlar inobatga olinmaydi. Ishlab chiqaruvchi birliklarning ishlab chiqarish faoliyati natijasida shakllangan daromadlari asosan rezidentlar orasida taqsimlanadi. Shu bilan birga daromadlarning ma'lum bir qismi norezidentlarga to'lanadi. Faqat rezidentlarning olgan daromadlarinigina hisobga olish uchun

$YaMD = YaIM - \text{norezidentlarga to'lanadigan daromadlar} + \text{norezident ishlab chiqarish birliklaridan olinadigan daromadlar}.$

YaIM va YaMD orasidagi farq "xoriждан olinadigan sof omil daromadlari" deb nomlanib, " Yf " deb belgilanadi. Bu farq musbat ham, manfiy ham bo'lishi mumkin. Shunday qilib,

$$GNI = GDP + Yf. \quad (9.5)$$

YaIMni hisoblash konsepsiyasi ham bir vaqtning o'zida ishlab chiqarish va daromadlar bilan bog'langan bo'lsa, YaMD konsepsiyasi faqat birlamchi daromadlar bilan bog'langandir. Omil to'lovlari va tushumlari odatda bevosita investitsiyalardan olinadigan dividendlar qisqa va uzoq muddatli qarzlardan olinadigan foizlar kabi daromadlarni ifodalaydi. Mehnat faoliyati natijasida olinadigan daromadlar xorijdan kelgan ishchi rezidentga aylanishi uchun bir yil vaqt (statistik hisob-kitoblar maqsadlarida) talab qilinganligi uchun katta miqdorlarni tashkil qilmaydi. Bu turdagi daromad xorijdan kelgan xodim mehnat qilgan mamlakat YaIM va kelgan mamlakati YaMDga kiritiladi. Tashqi omil xizmatlari bo'yicha to'lov va tushumlar tarkibiga shuningdek yer va inshootlar uchun ijara haqi va royalti (kitoblar, filmlar, musiqa asarlari, kompyuter dasturlari va h.k.) ham kiritiladi.

Yalpi egalikdagi milliy daromad pirovard iste'mol yoki jamg'arish maqsadlarida rezidentlar egalik qilishlari mumkin bo'lgan umumiy daromadlardir. Uni hisoblash uchun YaMDga xorijdan olingan sof joriy transfertlar qo'shiladi, ya'ni

$$GNDI = GNI + TRf. \quad (9.6)$$

Xorijdan olingan sof joriy transfertlarni hisoblash uchun ishlab chiqarish omillari hisobiga olingan daromad bilan bog'liq bo'lmagan norezidentlardan olingan joriy transfertlardan xorijga o'tkazilgan xuddi shunday transfertlarni ayirish lozim. Ushbu transfertlar xususiy va davlatniki bo'lishi mumkin. Xususiy transfertlarga asosan xodimlar ish haqlarining o'tkazilishi kiritilsa, davlat transfertlariga esa hukumatlarning grantlari (qaytarilmaydigan yordam) kiradi. Joriy transfertlar bilan kapitalning harakati o'rtasida aniq chegarani belgilash ancha murakkab masala va shuning uchun u yalpi jamg'arma hajmiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yalpi milliy jamg'arma hajmi yalpi egalikdagi milliy daromaddan pirovard iste'mol ayirib hisoblanadi, ya'ni

$$S = GNDI - C. \quad (9.7)$$

MHTdagi asosiy agregatlar

Ishlab chiqarish	Daromad*	Xarajatlar
Tarmoqlardagi qo'shilgan qiymat:	Xodimlarga qoplash (<i>W</i>)	Xususiyste'mol (<i>Cp</i>)
Qishloq xo'jaligi	+ (<i>OS</i>) korxonalarning joriy	+ davlat boshqaruvidoralarining
Sanoat	daromadi (amortizatsiya ham qo'shilgan)	iste'moli (<i>Cg</i>)
Xizmatlar		+ yalpi investitsiya hajmi (<i>I</i>)
Davlat xizmatlari	= baza narxlaridagi <i>GDP</i>	+ tovar va noomil xizmatlar eksporti
= baza narxlaridagi <i>GDP</i>	+ bilvosita soliqlar minus	(<i>X</i>)
+ bilvosita soliqlar minus	mahsulotlarga subsidiyalar	tovar va noomil xizmatlar importi
mahsulotlarga subsidiyalar		(<i>M</i>)**
bozor narxlaridagi <i>GDP</i>	bozor narxlaridagi <i>GDP</i>	bozor narxlaridagi <i>GDP</i>
	+ xoriydan olinadigan sof omil	+ xoriydan olinadigan sof omil
	daromadlari (<i>Yf</i>)	daromadlari (<i>Yf</i>)
	= bozor narxlaridagi yalpi milliy	= bozor narxlaridagi yalpi milliy
	daromad narxlaridagi <i>GNI</i>	daromad narxlaridagi <i>GNI</i>
	+ xoriydan olinadigan sof joriy	+ xoriydan olinadigan sof joriy
	transfertlar (<i>TRf</i>)	transfertlar (<i>TRf</i>)
	= yalpi egalikdagi milliy daromad	= yalpi egalikdagi milliy daromad
	(<i>GNDI</i>)	(<i>GNDI</i>)
	- amortizatsiya (<i>D</i>)	- amortizatsiya (<i>D</i>)
	= Sof egalikdagi milliy daromad	= Sof egalikdagi milliy daromad
	(<i>NNDI</i>)	(<i>NNDI</i>)

*) baholash iste'molchilarning narxlarida hisoblanadi.

**) xarajatlarning importdan boshqa tashkil etuvchilari iste'molchilar narxlarida hisoblansa, import FOB narxlarida baholanadi. Xususan unga bilvosita soliqlar minus subsidiyalar kirmaydi.

9.1.2. Asosiy o'zaro bog'liqliklar. Yalpi daromad va talab bilan to'lov balansining joriy operatsiyalar hisobi saldosi. Yalpi jamg'arish va investitsiyalar bilan to'lov balansining joriy operatsiyalar hisobi saldosi.

Milliy daromadni hisoblash tamoyillari makroiqtisodiy tahlilda hal qiluvchi rol o'ynaydigan va shuning uchun alohida e'tibor berish lozim bo'lgan ikkita muhim o'zaro bog'liqliklarga olib keladi. Bu fundamental o'zaro bog'liqliklar YaIMni uni

xarajatlar usuli bilan bog'laydigan ayniyatdan kelib chiqadi. Birinchisi yalpi daromad va yalpi xarajatlarni to'lov balansi joriy hisoblar hisobining saldosi bilan aloqasini ifodalaydi, ikkinchisi esa yalpi jamg'arma hajmi bilan yalpi investitsiya hajmini yana to'lov balansining joriy hisoblar hisobining saldosi bilan aloqasini ifodalaydi.

Yalpi daromad va yalpi xarajatlarni to'lov balansining joriy hisoblar hisobining saldosi bilan bog'liqligi

MHT va to'lov balansi (TB) orasidagi birinchi turdagi o'zaro aloqalarni YaIM, YaMD va YaEMD lar orasidagi ayniyatlardan keltirib chiqarish mumkin.

$$GNDI - A = CAB. \quad (9.8)$$

Yuqoridagi ayniyat TB ni tahlil qilishda yalpi talab usulining asosi hisoblanadi. Ayniyatning mazmuni shundan iboratki, TBning joriy operatsiyalar hisobidagi kamomad – ushbu davlat daromadga qarab buromad qilmayotganligini, ya'ni ishlab chiqarganiga nisbatan ko'proq iste'mol qilganligini anglatadi. Boshqacha aytganda, TB joriy operatsiyalar hisobining kamomadi yalpi talabning yalpi daromadlardan ko'p bo'lganligini ifodalaydi. Ushbu kamomadni qisqartirish uchun daromadlarni oshirish yoki yalpi talabni kamaytirish lozim. Qisqa fursatlarda ishlab chiqarish hajmini (mos ravishda daromadlarni) ko'paytirish hozirgi paytda foydalanilmayotgan ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hisobiga, o'rta muddatli davrlarda esa chuqur o'ylangan tizimiy siyosat yuritish orqali amalga oshirilishi mumkin. Yalpi ichki talabni qisqartirish pirovard iste'mol (S) yoki yalpi investitsiyalarni (I) kamaytirish evaziga sodir bo'lishi mumkin. Yalpi talab va daromadni qamrab olgan ayniyat barqarorlashtirish dasturini ishlab chiqishda katta ahamiyatga ega bo'lsada, u faqat hisob-kitob shaklidir va joriy operatsiyalar hisobi nazariyasining almashuv kursi, foiz stavkalari va tashqi muhit ta'siri kabi omillarini ifodalamaydi.

Yalpi jamg'arma va investitsiyalar hajmi va joriy operatsiyalar hisobining saldosi

MHT agregatlari bilan joriy operatsiyalar hisobining saldosi orasidagi o'zaro munosabatlarni belgilashning ikkinchi vositasi bo'lib mamlakat jamg'arma va

investitsiyalar balansi hisoblanadi. Joriy operatsiyalar hisobining saldosi (SAV) mamlakatdagi jamg'arma (S) va investitsiyalar (I) orasidagi farq sifatida aniqlanadi.

$$S - I = CAB \quad (9.9)$$

yoki

Mamlakat iqtisodiyotidagi jamg'arma va investitsiyalar orasidagi farq = Joriy operatsiyalar hisobining	
saldosi =	(9.10)
= Xorijiy jamg'armalardan foydalanish	

Boshqacha aytganda, mamlakat iqtisodiyotidagi jamg'arma va investitsiyalar bilan joriy operatsiyalar hisobi saldosi orasidagi balansni hukumatni xorijiy investitsiyalardan foydalanishi sifatida qarash mumkin.

Yopiq iqtisodiyotda yalpi jamg'arma hajmi yalpi investitsiya hajmiga teng bo'ladi. Ochiq iqtisodiyotda esa yuqoridagi ikkita ko'rsatkich orasida farq mavjud bo'ladi va u joriy operatsiyalar hisobining saldosiغا teng bo'ladi. Boshqacha aytganda, har qanday yalpi investitsiyalar hajmining mamlakatdagi yalpi jamg'armadan ortgan qismini xorijiy jamg'armalar hisobiga qorejaishi lozim bo'ladi. Shunday qilib, joriy operatsiyalar hisobining saldosi ni kamaytirish uchun jamg'armalarni ko'paytirish yoki investitsiyalarni qisqartirish kerak. Agar investitsiyalar jamg'armalardan katta bo'lsa, mamlakat bu farqni qoplash uchun xorijdan qarz olishi, ya'ni xorijiy jamg'armalardan foydalanishi talab qilinadi.

Shunday qilib, jamg'arma va investitsiyalar orasidagi farqni joriy operatsiyalar hisobining saldosi bilan bog'lovchi ayniyat yalpi daromad va yalpi talab aytivatidan kelib chiqar ekan.

Ayniyatlar haqiqiy ahvolni ifodalasada, mamlakat iqtisodiyotida mavjud bo'lgan deformasiyalarni, iqtisodiy agentlarning ushbu deformasiyalardan manfaatdorligini ifodalovchi xulqini tushuntirib bera olmaydi. Lekin bu ayniyatlardagi o'zaro aloqalarni tushunish va bilish ichki va tashqi hodisalar orasidagi aloqalarni tahlil qilish uchun zarurdir, chunki ular orqali iqtisodiyot sektorlari orasida moliyaviy resurslar oqimini ochib berish imkoniyati yaratiladi.

Yalpi daromad va yalpi talab hamda joriy operatsiyalar hisobining saldosi orasidagi o'zaro aloqalar.

Daromad va xarajatning asosiy yalpi ko'rsatkichlari

Yalpi ichki mahsulot (<i>GDP</i>)	$= C + I + (X - M)$	1)
Yalpi milliy daromad (<i>GNI</i>)	$= GDP + Y_f = C + I + (X - M + Y_f)$	2)
	$= A + (X - M + Y_f)$	3)
Yalpi egalikdagi milliy daromad (<i>GNDI</i>)	$= GNI + TR_f$	4)
	$= C + I + (X - M + Y_f + TR_f)$	5)
	$= A + (X - M + Y_f + TR_f)$	6)
<i>GNDI - A</i>	$= X - M + Y_f + TR_f$	7)
chunki <i>GNDI - C</i>	$= S$	
<i>GNDI - C</i>	$= I + X - M + Y_f + TR_f = S$	8)
shuning uchun <i>S - I</i>	$= X - M + Y_f + TR_f = CAB$	9)
bu yerda		
<i>A</i>	$= \text{yalpi ichki talab } (A = S + I)$	
<i>X</i>	$= \text{tovar va noomil xizmatlar eksporti}$	
<i>M</i>	$= \text{tovar va noomil xizmatlar importi}$	
<i>Y_f</i>	$= \text{xorijdan olingan sof omil daromadlari}$	
<i>TR_f</i>	$= \text{xorijdan olingan sof transfertlar}$	
<i>C</i>	$= \text{pirovard iste'mol}$	
<i>I</i>	$= \text{yalpi investitsiya hajmi (tovar-moddiy zahiralarining o'zgarishi ham hisoblanadi)}$	
<i>S</i>	$= \text{yalpi milliy jamg'arma hajmi}$	

9.1.3. Nominal va real YaIM

Yuqorida qayd qilinganidek, nominal YaIM ushbu yildagi ishlab chiqarish hajmining ushbu yil narxlaridagi qiymatini ifodalaydi.

Demak, nominal YaIM hajmining o'zgarishiga ham ishlab chiqarish jismoniy hajmi, ham narxlardagi o'zgarishlar ta'sir ko'rsatar ekan.

Faqat jismoniy hajmdagi o'zgarishlarning o'zinigina hisoblash uchun iqtisodchilar nominal YaIMni yalpi ichki mahsulotning deflyatori deb nomlangan eng umumlashtiruvchi inflatsiya ko'rsatkichidan foydalanib deflatsiya qilishadi.

YaIMni yalpi ichki mahsulot deflyatori yordamida deflatsiya qilishdan hosil bo'lgan ko'rsatkich real YaIM deb yuritiladi. MHTda real YaIM deganda joriy yildagi ishlab chiqarish hajmini bazis davri narxlaridagi qiymati tushuniladi.

YaIM deflyatori bazis yilida 100 deb qabul qilingan narxlarga nisbatan joriy yilda iqtisodiyot bo'yicha o'rtacha narxlar o'zgarishini ifodalaydi.

Nominal va real YaIM hamda YaIM deflyatori o'zaro quyidagicha bog'langan:

$$\text{NominalYaIM} = \frac{\text{RealYaIM} \cdot \text{YaIMdeflyatori}}{100} \quad (9.11)$$

yoki

$$\text{RealYaIM} = \frac{\text{NominalYaIM}}{\text{YaIMdeflyatori}} \cdot 100 \quad (9.12)$$

yoki

$$\text{YaIMdeflyatori} = \frac{\text{NominalYaIM}}{\text{RealYaIM}} \cdot 100. \quad (9.13)$$

O'sish sur'atlari nuqtai nazaridan:

$$(1 + v) = (1 + g) \cdot (1 + p), \quad (9.14)$$

bu yerda: v – nominal YaIMning foizlardagi o'sish sur'ati/100; g - real YaIMning foizlardagi o'sish sur'atlari/100; p – YaIM deflyatori orqali ifodalangan foizlardagi inflatsiya sur'atlari/100.

9.1.4. YaIM hajmini hisoblash masalalari. Umumiy masalalar. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlardagi xususiy masalalar

YaIMdan ishlab chiqarish hajmi va rezidentlarning iqtisodiy farovonligini o'lchashda keng foydalanilgani bilan, ushbu yondoshish quyidagi to'rtta kamchilikka egadir:

Birinchidan, ba'zi mahsulot turlarining bozorda sotish-sotib olish predmeti bo'lib hisoblanmasligi sababli, qiymatlarini aniq hisoblab bo'lmaydi. Masalan, davlat xizmati ijtimoiy ishlar xarakteridagi nobozor faoliyati, tomorqadagi faoliyat, egasi egallagan uy-joyning ijara qiymati va h.k.

Ikkinchidan, MHT tovarlar sifatining oshishini yyyetarli darajada ifodalamaydi. Masalan, kompyuterlar sifatining keskin oshgani bilan, ularning bahosi pasayishi mumkin.

Uchinchidan, ba'zi iqtisodiy faoliyat turlari resurslarni atrof-muhit ifloslanishi va milliy xavfsizlik hurujlariga qarshi qaratsada, YaIMga hissa qo'shadi deb hisoblanadi. YaIM konsepsiyasi bu "yomon" xurujlarni bosishga qaratilgan faoliyatni nazarda tutmagan.

Va nihoyat, to'rtinchidan, MHTda atrof-muhitning ifloslanishi va tabiiy resurslarning tugab borishi hisobga olinmaydi. Bu muammolar rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlar uchun katta ahamiyatga egadi.

"Qora bozor"ning (yashirin iqtisodiyotning) mavjudligi ham iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish hajmini aniqlashda katta muammolarni keltirib chiqaradi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar narkotik moddalarni sotish yoki kontrabanda operatsiyalarini bajarish jarayonida soliqlardan qochib, qonun va rasmiy qoidalarni buzadilar. Ba'zi mamlakatlarda yashirin iqtisodiyot miqyoslari juda salmoqli bo'ladi. Qora bozordagi operatsiyalar, asosan naqd pullar orqali sodir etilganligi sababli, qora bozor miqyoslari naqd pul ko'rinishidagi aktivlar miqdoriga qarab baholanadi. MHTda uni baholash uchun yalpi daromad va yalpi xarajat orasidagi farqdan ham foydalanish mumkin. Agar yashirin iqtisodiyot rasmiy iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga nisbatan jadalroq rivojlansa, ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari kamayitrib

hisoblangan bo‘ladi. Ko‘pchilik mutaxassislarning fikriga ko‘ra rasmiy iqtisodiyotning qattiq nazorat qilinishi bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarda “qora bozor”ning salmoqli miqyosga ega bo‘lishiga olib kelgan.

Oxirgi yillarda bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarda keskin o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Biroq iqtisodiy statistikadagi chegaralanganlik bu mamlakatlardagi barqarorlashtirish jarayonlarining oqibatlarini baholashda ayrim muammolarni keltirib chiqardi. Ko‘pchilik iqtisodchilarning fikriga ko‘ra, islohotlarning dastlabki bosqichlarida rasmiy statistika ma’lumotlarida ishlab chiqarish hajmlarining pasayishi bo‘rttirib ko‘rsatilgan bo‘lsa, iqtisodiyotning sog‘lomlashish jadalligi esa kamaytirib ko‘rsatilgan. Bunday fikrlar quyidagilarga asoslangan:

- xususiy ishlab chiqarish hajmining kamaytirib ko‘rsatilishi. Amaldagi an’anaviy statistika iqtisodiyotda sodir bo‘layotgan tez o‘zgarishlarni qamrab ololmayotganligi sababli, ishlab chiqarish hajmining real o‘zgarishlarini ham to‘laqonli hisoblay ololmayapti. Davlat tasarrufidagi sanoat korxonalarida ishlab chiqarish hajmining qisqarish jarayoni xususiy xizmat ko‘rsatish sohasidagi keskin ko‘tarilish bilan birgalikda sodir bo‘lmoqda. Amaldagi an’anaviy statistika esa, odatda xizmat ko‘rsatish sohasiga “o‘gay” ko‘z bilan qarab kelgan. Natijada ko‘pincha rasmiy statistika raqamlarida xususiy sektor rivojlanishidagi sur’atlar yyetarli darajada hisobga olinmasdan umumiy iqtisodiy pasayish va aholi turmush darajasining pasayish miqyoslari bo‘rttirilib ko‘rsatilmoqda. Xususiy sektordagi pasaytirib ko‘rsatish masalasini bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlardagi bandlik darajasini tahlil qilish jarayonida chuqur ko‘rib chiqish mumkin;

- amaldagi statistika tizimining kamchiliklari. An’anaviy statistika tizimlari unchalik katta bo‘lmagan davlat tasarrufidagi savdo tashkilotlari faoliyatini kuzatishga qaratilganligi sababli mayda xususiy savdodagi juda tez rivojlanish jarayonlarini to‘laqonli kuzatishga moslashmagan;

- indekslardagi farqlanishlar. Bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarda iqtisodiy faoliyatni kamaytirib ko‘rsatish bilan birga indekslar hisoblashda ham

muammolar mavjud. Ishlab chiqarish hajmining real o'zgarish indeksini hisoblash uchun turli ishlab chiqarish hajmlari taqqoslanishi lozim. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida tovarlar qiymatini taqqoslash uchun narxlardan foydalaniladi va ular asosida ishlab chiqarish hajmlarining indeksleri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida islohotlardan avval mavjud bo'lgan narxlar turli tovarlarning taqqoslama qiymatlarini ifodalay olmagan. Narxlar biror-bir darajada tannarxga asoslangan bo'lsada, tannarxning o'zi resurslarning taqqoslama yetishmovchiligini ifodalagan. Undan tashqari, islohotlargacha bo'lgan davrda taqqoslama xarajatlarni iste'molchi uchun tovarning foydaligiga qarab sarflash mexanizmi umuman mavjud bo'lmagan;

– mahsulotning assortimenti va sifatidagi o'zgarishlar. Hozirgacha yangi tovar va xizmatlarning paydo bo'lishi, biror-bir tovar va xizmatlar ishlab chiqarilishining to'xtatilishi va sifatidagi keskin o'zgarishlarni hisobga olish masalasiga oydinlik kiritilmagan. Bunday muammolar barcha mamlakatlarda mavjud bo'lsada, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida u alohida ahamiyat kasb etadi, chunki yangi yuqori sifatli tovarlarning paydo bo'lishi va tovar yetishmovchiligiga barham berilishi aholi turmush darajasining oshganligidan dalolat beradi, agar gap asosiy fondlar to'g'risida ketadigan bo'lsa – hisobga olinmagan investitsiyalar sifati to'g'risida ketishi mumkin. Undan tashqari, erkinlashtirishdan avval talab bo'lmaganligi sababli ayrim mahsulotlar sotilmay qolgan, lekin ishlab chiqarish tarkibida hisobga olingan. Erkinlashtirishdan so'ng bunday mahsulotlarni ishlab chiqarish to'xtatilgan va natijada o'lchanadigan mahsulot hajmi kamaygan. Erkinlashtirishdan oldin bu tovarlar sotilmay omborxonalarda chang bosib yotganligi uchun iqtisodiy nuqtai nazardan hech qanday qiymatga ega bo'lmagan va shuning uchun ularning bozordan chiqib ketishini ishlab chiqarish hajmini kamayishi deb hisoblamaslik lozim.

O'lchashdagi yuqorida qayd qilingan muammolar miqyosi to'g'risida to'g'ridan-to'g'ri dalillar amalda kam keltirilishiga qaramasdan, ular bilan bog'liq bo'lgan xatolar miqyosi juda katta bo'lishi mumkin. An'anaviy statistikadagi hisob-kitoblarga nisbatan muqobil bo'lgan va yangi turdagi faoliyatlarni to'laroq qamrab

oladigan ko'rsatikchlardan foydalanish hollari ham, albatta uchrab turadi. Masalan, aholi iste'molini tekshirishlar xususiy chakana savdoni ham qamrab oladi. Yoki Polsha mamlakatida real ishlab chiqarish hajmining kamayishi 1989-1992-yillar uchun rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra 18 % baholangan bo'lsa, muqobil baholash atigi 5-10 % bo'lganligini ko'rsatgan.

Yuqoridagilardan, har holda rasmiy statistika ma'lumotlaridan foydalanish jarayonida ularning qamrab olish va hisoblash manbalari masalasiga ehtiyotkorlik bilan murojaat qilish zarur degan xulosa chiqarishga imkon beradi. Umumiy tarzda bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar dasturining biror-bir qirralari to'g'risida, ayniqsa aholining turmush darajasi masalasida, global xulosalarni chiqarish masalalarida, ishlab chiqarish hajmini o'lchashda ma'lum xatolar mavjudligini esdan chiqarmaslik lozim.

9.1.5.Inflatsiya

Iqtisodiyotda narxlar umumiy darajasining muttasil va doimo oshib borishiga inflatsiya deyiladi. Iqtisodiyotdagi barcha tovar va xizmatlarga o'rtacha narxlarning oshishini ayrim tovar va xizmatlar guruhlariga nisbiy narxlarning o'zgarishi bilan farqlash lozim. Odatda narxlarning umumiy oshishi nisbiy narxlar tarkibining o'zgarishi bilan bog'langan bo'ladi, ammo inflatsiya deb nisbiy narxlarning o'zgarishi emas, balki umumiy narxlarning oshishi hisoblanadi. Ayrim muhim tovarlarga nisbiy narxlarning o'zgarishi (masalan, elektr energiyasi yoki neft mahsulotlariga) ko'pincha, inflatsiyaga qarshi olib borilayotgan iqtisodiy siyosatga qaramasdan, umumiy inflatsiyaga olib keluvchi jarayonlarni boshlab berishi mumkin.

Boshqariladigan narxlarning (monopolist korxonalar ishlab chiqaradigan tovar va xizmatlarga) oshirilishi dastavval umumiy narxlarning oshishiga olib keladi. Biroq u o'z navbatida nisbiy narxlarning ham o'zgarishiga olib keladi. Bunda asosiy inflatsiya tezlashuvi shart emas, chunki asosiy inflatsiya kam uchraydigan bir yo'lakay boshqariladigan narxlar, aksiz soliqlari yoki valyuta kursidagi o'zgarishlarni hisobga olmagan holda hisoblanadi. Asosiy inflatsiyani har doim ham aniq hisoblash

qiyinroq bo'lsada, u iqtisodiy siyosatda inflatsiya sur'atlari ko'rsatkichlariga nisbatan muhimroq mo'ljol sifatida tan olingan. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarning mutaxassislari bu mamlakatlarda tizimiy islohotlar o'tkazilish sababli ko'pgina tovar va xizmatlar narxlariga tuzatishlar kiritilishi munosabati bilan inflatsiya sur'atlariga nisbatan asosiy inflatsiya sur'atlariga ko'proq e'tibor berishlari lozim.

Bir yo'lakay ayrim tovarlarga, ayniqsa juda muhim hisoblangan energoresurslarga narxlarning oshirilishi, albatta butun iqtisodiyotda narxlarning (shu jumladan ish haqining ham) oshishiga olib keladi. Agar mamlakatda qattiq pul-kredit siyosati olib borilmasa, bir yo'lakay narxlarning oshishi muttasil inflatsiya sodir bo'lishiga olib keladi (bunday inflatsiya xarajatlarning oshishi hisobiga sodir bo'lgan, deb nomlanadi). Oldin xarajatlar oshib, keyin u muttasil inflatsiyaga olib kelgan misollarni ko'plab keltirish mumkin. Yaqqol misol sifatida 1990-yillarda nisbiy narxlardagi farqlarni kamaytirish yo'nalishida bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda neft va gazning dunyo narxlariga o'tkazilishi munosabati bilan sodir bo'lgan karaxtlikni keltirish mumkin. Bir qancha mamlakatlarda energoresurslarga narxlarning o'sishi boshqa narxlar va ish haqining o'sishi bilan qorejaishiga harakat qilinganligi kuchli inflatsiya jazavasiga olib keldi. Shu davrda ayrim mamlakatlar qattiq moliyaviy siyosat yuritishlari va nisbiy narxlarni tuzatish davrida aholi tomonidan real daromadlarining pasayishi masalasida tushunish mavjud bo'lganligi natijasida inflatsiyani nazoratga olishga muvaffaq bo'ldilar.

YaIM deflyatoridan tashqari statistikada inflatsiyani ifodalaydigan boshqa ko'rsatkichlar ham hisoblanadi. Ular qatorida iste'mol narxlari indeksi (INI yoki CPI) xalqaro andozalarga ko'ra 300 tadan kam bo'lmagan tovar va xizmatlarni qamrab olgan iste'mol savati bo'yicha narxlarning o'rtacha o'zgarishini ifodalaydi. Uning YaIM deflyatoridan uchta asosiy farqi mavjud.

Birinchi farqi – indekslarning turli tovar va xizmatlar tarkibini qamrab olganligi. Agar INI faqat aholi xarid qiladigan iste'mol tovarlari va xizmatlarinigina qamrab olsa, YaIM deflyatori YaIM tarkibiga kiruvchi barcha tovar va xizmatlarni qamrab

oladi. Natijada, firmalar va davlat boshqaruvi idoralarining, masalan, xomashyo, materiallar, mashinalar, uskunalar, texnoliyagiya bilan bog'liq bo'lgan xarid qilgan tovar va xizmatlariga narxlarning o'zgarishi YaIM deflyatoriga bevosita ta'sir qilsa, INIga ta'sir qilmaydi.

Ikkinchi farqi – YaIM deflyatori faqat mamlakat ichkarisida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar narxlarining o'zgarishini ifodalab, import qilingan pirovard mahsulotlariga narx o'zgarishini qamrab olmaydi. Shuning uchun import mahsulotlariga narxlarning o'zgarishi YaIM deflyatoriga qisqa muddatlarda to'g'ridan-to'g'ri ta'sir o'tkazmaydi. Ammo import mahsulotlari INIning savatiga kiritilgani uchun, ularga narxlarning o'zgarishi INIga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchi farqi – indekslarni hisoblash uslubiyatidagi vaznlardan foydalanish. INIni hisoblashda Laspeyres formulasidan foydalaniladi. Unga ko'ra bazis davridagi iste'mol savatiga kiruvchi tovar va xizmatlarning o'zgarmas vaznlari qo'llaniladi. YaIM deflyatorini hisoblashda esa Pashe formulasidan foydalaniladi. Uning savatiga kiruvchi tovar va xizmatlar salmog'i (vazni) o'zgarib turishi mumkin. Boshqacha aytganda, INIda vazn sifatida bazis davridagi miqdorlar olinsa, YaIM deflyatorini hisoblashda joriy davr vaznlari (miqdori) olinadi. Masalan, yog'ingarchilik kam bo'lgan quruqchilik natijasida makka hosili nobud bo'lgan bo'lsa, uni ishlab chiqarish hajmi nolgacha tushib ketadi, narxi esa keskin ko'tariladi. Bu holda makka (ishlab chiqarilmagan) YaIM deflyatorining hisob-kitoblariga kiritilmaydi, lekin INI hisob-kitoblarida hamon inobatga olinadi va natijada INIning sun'iy tarzda bo'rttirib ko'rsatilishiga olib kelishi mumkin.

Inflatsiya sur'atlari past vaqtlarda YaIM deflyatori va INI o'rtasida katta farq bo'lmaydi. Ammo nisbiy narxlar va importning keskin o'zgargan paytlarida farq katta bo'lishi mumkin.

Ayrim tovarlarga narxlar oshib ketgan paytlarda, odatda iste'molchilar bu tovarlarning o'rnini bosishi mumkin bo'lgan tovarlarni ko'proq xarid qilishlari mumkin. Laspeyres indeksida o'zgarmas bazis davridagi vaznlardan foydalanilganligi sababli iste'mol tarkibidagi bunday o'zgarishlar hisobga olinmaydi.

Bundan tashqari, bu indeks yyetarli tarzda tovarlar sifatining yaxshilanishi yoki yangi tovarlarning paydo bo'lishi, yoki pasaytirilgan narxlarda savdo qiladigan chakana savdo shoxobchalari sonining ko'payishi holatlarni ham hisobga olmaydi. Shuning uchun Laspeyres indeksi ko'pincha inflatsiya sur'atlarini oshirib ko'rsatadi.

INIga o'xshash ulgurji narxlar indeksi va mahsulot ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi ham Laspeyres formulasi bo'yicha o'zgarma vaznlardan foydalanib hisoblanganligi uchun ko'pincha inflatsiya darajasini oshirib ko'rsatadi. Boshqa tomondan o'zgaruvchi vaznli Pashe indeksi esa inflatsiya sur'atlarini pasaytirib ko'rsatadi.

$$\text{Iste'molnarxlarindeksi (INI)} = \frac{\sum P_t Q_0}{\sum P_0 Q_0} * 100$$

yoki Laspeyres indeksi

$$\text{YalMdeflyatori} = \frac{\text{JoriyyilnarxlaridagiYalM}}{\text{BazisiylnarxlaridagiYalM}} * 100 = \frac{\sum P_t Q_t}{\sum P_0 Q_t} * 100$$

yoki Paashe indeksi.

9.1.6.Daromadlar va bandlik. Real ish haqi. Bandlik va ishsizlik

Real ish haqini hisoblash uchun nominal ish haqini narx indeksiga bo'lish kerak. Iqtisodiy atama sifatida real ish haqi va real daromad tushunchalarini farqlash lozim. Real ish haqi tushunchasi ish haqi oladigan shaxsning ishlab chiqarish jarayonida mehnat sarflaganligi uchun oladigan pul ko'rinishidagi daromadlarining haqiqatdagi sotib olish quvvatini ifodalaydi. Real daromadlar yuqoridagiga qo'shimcha tarzda natura ko'rinishdagi transfertlar va ish haqidan tashqari turli nafaqalarni ham qamrab oladi. Bu tushunchalarni farqlash, ayniqsa bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda ish haqi bilan bog'liq bo'lmagan transfertlar, masalan subsidiyalanadigan oziq-ovqat va uy-joy kommunal xizmatlari, aholi daromadlarining muhim qismi hisoblanganligi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun bu mamlakatlarda real ish haqining dinamikasi ko'rsatkichi aholi turmush darajasini aniq ifodalamasligi mumkin. Kelgusda uzoq muddatli davr uchun real ish haqining o'sish sur'ati asosan iqtisodiyotda mehnat unumdorligining o'sish

sur'atlari bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Bu bog'liqlik makroiqtisodiy tahlil ishlarida katta ahamiyatga ega. Agar quyidagi shartli belgilarni qabul qilsak:

R – narxlarning umumiy darajasi;

L – kishi-soatlarda hisoblagan umumiy mehnat sarfi;

Y – ishlab chiqarishning real hajmi;

Y/L – mehnat unumdorligi;

WL – umumiy ish haqi fondi;

WL/Y – ishlab chiqarilgan mahsulot birligiga to'g'ri kelgan ishchi kuchi sarfi;

$P*Y$ – nominal daromad;

β – ish haqidan boshqa ko'rinishdagi daromadlar bilan ish haqi ko'rinishdagi daromadlarning nisbati (bu nisbatni o'zgarmas deb qabul qilamiz)

$$P * Y = WL + \beta * WL = WL * (1 + \beta)$$

tenglamasini yozishimiz mumkin.

U holda, agar ko'rsatkichlarni qo'shimcha o'sish sur'atlari orqali ifodalasak:

$$\frac{\Delta P}{P} = \frac{\Delta W}{W} + \left(\frac{\Delta L}{L} - \frac{\Delta Y}{Y} \right) \quad (1)$$

yoki

$$\frac{\Delta P}{P} = \frac{\Delta W}{W} - \left(\frac{\Delta Y}{L} \right) / \left(\frac{Y}{L} \right) \quad (2)$$

yoki

inflatsiya sur'atlari = ish haqining o'sish sur'atlari –

–mehnat unumdorligining o'sish sur'atlari

yoki

$$\frac{\Delta W}{W} - \frac{\Delta P}{P} = \frac{\Delta Y}{Y} - \frac{\Delta L}{L} \quad (3)$$

Boshqacha aytganda

$$\left(\frac{\Delta W}{P} \right) / \left(\frac{W}{P} \right) = \left(\frac{\Delta Y}{L} \right) / \left(\frac{Y}{L} \right) \quad (4)$$

ish haqining real o'sish sur'atlari = mehnat unumdorligining o'sish sur'atlari.

Demak, agar mehnat unumdorligi 2 foizga va ish haqi 6 foizga oshgan bo'lsa, inflatsiya darajasi shu yili 4 foiz bo'lgan deb hisoblashimiz mumkin. Shunday qilib, mehnat unumdorligining o'sish sur'atlari barqaror narxlar sharoitida ish haqi o'sish sur'atining yuqori chegarasini belgilaydi.

Bandlik va ishsizlik.

Quyida ishsizlik darajasini tahlil qilishda qo'llaniladigan muhim konsepsiya va tushunchalarni keltiramiz.

Ishchi kuchi – ta'rifga ko'ra mehnatga layoqatli yoshdagi (erkaklar – 16 yoshdan 60 yoshgacha, ayollar – 16 yoshdan 55 yoshgacha) ishlayotgan va ish qidirayotgan barcha kishilar. Ishchi kuchi tarkibidagi doimiy ish joyiga ega bo'lmagan va ish izlayotgan shaxslar *ishsiz* deb hisoblanadi.

Ishsizlik darajasi – doimiy ish joyiga ega bo'lmagan va ish ilayotgan shaxslarning umumiy ishchi kuchidagi foizlarda hisoblangan salmog'i. Demak,

$$\text{Ishsizlikdarajasi} = \frac{\text{ishsizlarsoni}}{\text{ishchikuchisoni}} * 100.$$

Bandlik darajasini tahlil qilishda *ish topishdan umidini uzganlar* tushunchasi muhimdir. Uzoq muddat davomida band bo'lmagan va ish topa olmagan shaxslar ko'pincha ish qidirishga barham berib, ishchi kuchi tarkibidan chiqib ketadilar va shuning uchun ular ishsizlar deb hisoblanmaydi. Natijada, iqtisodiyotdagi haqiqiy ishsizlik darajasi pasaytirib ko'rsatiladi.

$$\text{Ishchikuchiningsalmog'i} = \frac{\text{ishchikuchi}}{\text{mehnatgalayoqatliyoshdagiaholisoni}} * 100.$$

Ishchi kuchi salmog'ining, masalan, ayollarning mehnat bozoriga chiqishi natijasida, o'zgarishi ishsizlik darajasi ko'rsatkichiga kuchli ta'sir qilishi mumkin.

To'la bandlik – iqtisodiyotda bandlikning optimal darajadaligini bildiradi. Bu holatni ishsizlik darajasi nol ekan deb tushunmaslik lozim. Bozor iqtisodiyoti sharoitida doimo talab tarkibi, texnologiya va mahsulotlar o'zgarishda bo'lishi sababli doimo biror-bir darajada ishsizlik mavjud bo'ladi. Ko'pgina iqtisodchilar ishchi kuchining tarkibidagi o'zgarishlar va mehnat bozoridagi tizimiy o'zgarishlar

oxirgi yillarda ko'p mamlakatlarda to'la bandlik darajasini birmuncha ko'targan degan xulosaga kelishgan. Bu esa o'z navbatida ishsizlik darajasini nisbatan yuqori va barqaror bo'lishiga olib keldi.

Inflatsiya darajasini oshishiga olib kelmaydigan ishsizlik ko'rsatkichi – muvozanatni ta'minlaydigan bandlikni ta'minlaydi.

Odatda ishsizlik tushunchasi quyidagicha tasniflanadi:

- *mavsumiy ishsizlik* – yil davomida (odatda qishloq xo'jaligi, qurilish, turizm sohasida) ishchi kuchining taklifi va unga bo'lgan talabdagi o'zgarishlar sababli sodir bo'ladi;

- *friksion ishsizlik* – bo'sh ish o'rinlari xodimlar va ish beruvchilar tomonidan o'rganilishi lozim bo'lganligi sababli vaqtincha ma'lum bir davr mobaynida to'lmasdan qolgan vaqtlarda sodir bo'ladi. Bu turdagi ishsizlik odatda uzoq vaqt davob etmaydi va ishchilar bilan ish o'rinlarining o'zaro mosligini ta'minlashga xizmat qilishi mumkin;

- *davriy (siklik) ishsizlik* – iqtisodiyotda pasayish davrlarida ishlab chiqarish hajmining kamayishi sababli sodir bo'ladi. Pasayish bozor iqtisodiyoti ish siklining ajralmas qismi hisoblanadi. Pasayish davrlarida hukumatning asosiy vazifasi talabni rag'batlantirishga qaratilgan iqtisodiy siyosat yuritib, bu turdagi ishsizlikni iloji boricha qisqartirishga qaratilgan bo'lishi lozim;

- *tizimiy (strukturaviy) ishsizlik* – geografik joylashish va malakaning mos kelmasligi oqibatida sodir bo'ladi. Masalan, talab va texnologiya tarkibidagi o'zgarishlar ayrim kasblarga talabni kamaytirishi mumkin. Tizimiy ishsizlik mintaqada qaysidir tarmoqning tugatilishi va uning o'rniga yangi tarmoq shakllanayotgan davrlarda sodir bo'ladi. Bu turdagi ishsizlikni tugatish xodimlarni qaytadan o'qitish va ularning harakatchanligini oshirishni talab qilganligi uchun boshqa turdagi ishliklarga nisbatan ancha qiyin kechadi;

- *yashirin ishsizlik* – xodimning ishlab chiqarishga qo'shgan hissasi nol yoki manfiy bo'lgan paytlarda sodir bo'ladi. Iqtisodiyotdagi ushbu fakt tan olinib, bunday xodimlarni unumliroq ishga o'tkazishi orqali yashirin ishsizlikni qisqartirish mumkin.

9.2. Ishlab chiqarish hajmi, xarajatlar va narxlar bashorati

Ushbu qismda ishlab chiqarish hajmlari, xarajatlar, inflatsiya sur'atlariga ta'sir qiladigan omillar va ularni bashoratlash usullari ko'rib chiqiladi. Iqtisodiy o'sish va inflatsiya sur'atlari bo'yicha belgilangan nazorat raqamlari iqtisodiy siyosatni olib borishda asosiy maqsad hisoblanganligi uchun, ularni bashoratlash barqarorlashtirish dasturlarini ishlab chiqishda asos qilib olinadi. Bundan tashqari, xarajatlar tarkibini o'zi o'sish imkoniyatlari va shuningdek mamlakatning tashqi dunyo mamlakatlari bilan aloqalari balansini tahlil va bashoratlashda muhim rol o'ynaydi.

9.2.1. Ishlab chiqarish. Ishlab chiqarish hajmini belgilaydigan omillar: talab va taklif. Ishlab chiqarish hajmini bashoratlash

Ishlab chiqarish hajmi. Talab va taklif. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida biror-bir turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki xizmatlarni ko'rsatish va ularni sotib olish odatda ixtiyoriy bo'ladi. Natijada, yalpi ishlab chiqarish hajmi iqtisodiyotni turli sektorlaridagi ayrim korxonalarning qabul qilgan qarorlarini ifodalaydi. Makroiqtisodiy tahlil ayrim firmalar faoliyatini o'rganishga emas, balki asosiy e'tiborni umumiy ishlab chiqarish hajmiga qaratadi.

Tovar va xizmatlarni mumkin bo'lgan ishlab chiqarish hajmi foydalanilayotgan resurslar (kapital, ishchi kuchi), shuningdek mavjud texnologiya darajasi, mehnat va bozor tarkibidagi munosabatga ko'ra o'zgarib turishi mumkin. Yalpi ishlab chiqarish funksiyasi ishlab chiqarish hajmi bilan ishlab chiqarishning turli omillari orasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Ishlab chiqarish funksiyasi quyidagicha yozilishi mumkin:

$$Q = f(K, L, A), \quad (9.14)$$

bu yerda: Q – real ishlab chiqarish; K – kapital; L – ishchi kuchi; A – texnologiya (yoki texnika taraqqiyoti).

Demak, real ishlab chiqarish hajmi kapital, ishchi kuchi va texnologiya hisobiga o'sishi mumkin va ular ishlab chiqarishning omillari hisoblanadi.

Uzoq muddatli davrda ishlab chiqarish hajmining o'sishi ishlab chiqarish omillaridan kengroq va samaraliroq foydalanish hisobiga ta'minlanishi mumkin.

Mehnat resurslarining to'la bandlik va ishchi kuchi va kapitaldan normal intensivlik bilan foydalanish sharoitlaridagi ishlab chiqarish hajmi ishlab chiqarishning potensial darajasi yoki to'la bandlik sharoitidagi ishlab chiqarish darajasi deb yuritiladi.

Doimiy ishlab chiqarish darajasi berilgan asosiy kapital va ishchi kuchi hajmlaridan foydalanib, maksimal ishlab chiqarish mumkin bo'lgan hajmdan kam bo'ladi. To'la bandlik sharoitida ishchilarning ma'lum bir qismi iqtisodiyot barqaror o'sib borayotgan davrlarda ham bir ish joyidan ikkinchisiga o'tish jarayonlarida bo'lganliklari uchun ishsizlik darajasi nolga teng bo'lmaydi. Undan tashqari, masalan, uskunalarga vaqti-vaqti bilan texnik xizmat ko'rsatilishi zarurligi sababli, ular tinmasdan mahsulot ishlab chiqarish bilan band bo'lolmaydilar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida firmalarning ishlab chiqarish quvvatlari joriy va kelgusidagi sotish hajmlariga ko'ra to'la yoki qisman ishlatilishi mumkin. Demak, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish firma ishlab chiqarayotgan mahsulotga talab bilan uzviy bog'liqlikda bo'ladi. Agar sotish hajmi doimiy ishlab chiqarish hajmidan past bo'lsa, korxona odatda ishlab chiqarayotgan mahsulot hajmini qisqartiradi va ishchilarning ma'lum qismini ishdan bo'shatishi mumkin. Makroiqtisodiy darajada iqtisodiyotda talab sust bo'lgan paytlarda ishsizlik darajasi odatdagi darajadan ko'tariladi va firmalarning ishlab chiqarish hajmi maksimal imkoniyat darajasidan past bo'ladi. Shunday qilib, qisqa muddatli davrlarda YaIMning real o'sishi, birinchi navbatda, talabning o'zgarishini ifodalasada, ishchi kuchi va kapitaldan to'la foydalanilmasligi mumkin. Iqtisodiyotda qisqa vaqt mobaynida yalpi ishlab chiqarish hajmi normal to'la band sharoitidagi ishlab chiqarish darajasiga nisbatan yuqoriroq ham bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda ish haqi va boshqa ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi inflyasiga olib keladi.

Talabning oshishi pul ko'rinishidagi ishlab chiqarish hajmini ham oshishiga olib keladi, lekin unga ham real ishlab chiqarish hajmining, ham narxlarning oshishi ta'sir ko'rsatadi. Agar iqtisodiyot ishlab chiqarishning doimiy darajasidan ancha past holatda bo'lsa, ishlab chiqarish hajmining o'sish miqyoslari salmoqli bo'ladi; teskari holat bo'lsa, ya'ni ishlab chiqarish hajmi to'la bandlik holatiga yaqin yoki undan ham

yuqori bo'lsa, ishlab chiqarish hajmining o'sishi nisbatan past darajada bo'lib, narxlarning ta'siri kuchli bo'ladi. Yalpi talab to'la bandlik holatiga yyetib, keyin pasayib borsa, dastavval narxlar va ayniqsa ishchi kuchining narxi (ya'ni, ish haqi) pasayishga nisbatan qarshilik ko'rsatilishi sababli ishlab chiqarish hajmiga ta'sir ko'rsatadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida qisqa muddatda yuqoridagi omillar ishlab chiqarish hajmiga asosiy ta'sir etuvchi omillar hisoblanadi.

Ishlab chiqarish hajmini bashoratlash. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarish salohiyatining uzoq muddatli trendlari to'g'risidagi to'laqonli statistik ma'lumotlar yordamida ishlab chiqarish funksiyalarini tahlil etish imkoniyatlari mavjud. Qisqa muddatli kelgusi davr uchun ishlab chiqarish hajmlarini aniqlashda talab va taklif omillaridan foydalanish mumkin. Taxminiy ishlab chiqarish funksiyalarini hisoblash maqsadida talab va taklif orasidagi bog'liqliklarni ifodalovchi ekonometrik modellar tuzilishi talab qilinishi sababli, bandlik va asosiy fondlar to'g'risida yyetarli darajada ma'lumotlar zarur. Bunday yondoshishdan foydalanishga imkon beradigan ma'lumotlar va modellar ko'pchilik mamlakatlarda mavjud emas. Natijada, moliyaviy dasturlar tuzishda ishlab chiqarish hajmlarining bashoratini, odatda boshqa taxminiy usullarga asoslanib ishlab chiqishga to'ri keladi.

Yalpi ishlab chiqarish hajmining taxminiy bashoratini ishlab chiqishda qo'llaniladigan usullardan biri oxirgi yillardagi tendensiyalardan foydalanishdir. Bu bashorat, keyinchalik bashorat davrida biror-bir omillar ta'sirining kutilayotgan darajasiga qarab, qaytadan ko'rib chiqiladi. Odatda, iqtisodiy o'sishning haqiqiy sur'atlari YaIMning doimiy o'sish sur'atlaridan qanchalik farq qilishi mumkinligiga (past yoki yuqori) baho beriladi. Bunday bashoratning asoslanganligi YaIM tarkibidagi o'zgarishlar tendensiyasiga qarab tekshiriladi. Har bir sektor bo'yicha qilingan ekstropolyasiyaga tuzatishlar ushbu sektorga xos bo'lgan omillar va har xil faoliyat turlari orasidagi bog'liqliklardan kelib chiqqan holda kiritish lozim. Masalan, qishloq xo'jaligi sektorining bashoratlari bu sektorga xos bo'lgan iqlim, ishlab chiqaruvchilar narxi va shunga o'xshash boshqa omillardagi bashoratlarni hisobga

olgan holda tuzilishi kerak. Tizimiy o'zgarishlar davrida ishlab chiqarish tarkibining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni ham hisobga olinishi talab etildi.

9.2.2. Xarajatlar tarkibi. Uy xo'jaliklari iste'molini belgilovchi omillar.

Xususiy sektorda kapital qo'yimlarni belgilovchi omillar

Xarajatlar tarkibi. Bashoratlar ichki va tashqi komponentlar bashoratiga bo'linadi. Ichki talab iste'mol va investitsiyalarni, tashqi talab esa eksport va import operatsiyalarini qamrab oladi. Eksport va import bashoratlari to'lov balansi baholariga asoslansa, davlat sektoridagi iste'mol va investitsiyalar budjet bashoratiga asoslanadi.

Quyida uy xo'jaliklarining iste'moli va investitsiyalari bashorati masalalari yoritilgan. Ishlab chiqarish hajmi va iste'mol bashoratlari bilgan holda yalpi jamg'arma miqdorini yuqoridagilarning farqi sifatida hisoblash mumkin.

Uy xo'jaliklari iste'molini belgilaydigan omillar. Uy xo'jaliklarining ixtiyoridagi daromadni (YD) uning manbalari va undan foydalanish nuqtai nazaridan ko'rib chiqish mumkin:

$$YD = W - T = CP + SP, \quad (9.15)$$

bu yerda: W – ish haqi; T – soliqlar minus to'lovlar, ya'ni bevosita shaxsiy daromadlarga soliqlardan (masalan, aholidan olinadigan daromad solig'i) aholiga qaytarilmaydigan to'lovlar (masalan, pensiya va ishsizlik nafaqalari); CP – shaxsiy iste'mol; SP – shaxsiy jamg'arma.

Demak, uy xo'jaliklarida iste'mol va jamg'arma bir vaqtning o'zida hisoblanadi. Agar uy xo'jaliklarining iste'moli ma'lum bo'lsa, ixtiyordagi daromadga asoslanib, qoldiq usulida jamg'armani aniqlash mumkin.

Iqtisodiy nazariyadan ma'lumki, uy xo'jaliklarining iste'moli va ixtiyoridagi daromadi orasida arifmetik bog'liqlikdan tashqari hulqiy bog'liqlik ham mavjud:

$$CP = a + b*YD, \quad (9.16)$$

bu yerda $a > 0, 0 < b < 1$.

Iste'mol funksiyasining bunday tarzda yozuvi iste'molga moyillikning doimiyligi ($MRS = \Delta CP / \Delta YD = b$) va shu vaqtning o'zida iste'molga o'rtacha moyillik ($\Delta CP / \Delta YD$) ijobiy konstanta nisbiy miqdorining kamayishi hisobiga YD oshganda, kamayishini nazarda tutadi. Ya'ni, iste'mol va jamg'armaning o'zgarishi iqtisodiy jonlanish paytlarida jamg'arish koeffitsiyentining ko'tarilishi, pasayish paytlarida esa jamg'arish koeffitsiyentining kamayishi tendensiyasiga ega bo'lganligi sababli, iqtisodiy barqarorlikdan darak beradi. Bundan tashqari, uzoq muddatli bashorat davrida daromadlarning o'sib borishi, jamg'arish koeffitsiyentini ham oshib borishini nazarda tutadi.

Uy xo'jaliklari iste'molidagi qonuniyatlarni yanada to'laroq tushuntirib berish maqsadida iste'molning yuqorida keltirilgan eng oddiy tenglamasiga qo'shimcha o'zgaruvchilarni kiritish mumkin:

$$CP = f(YD^*, NW, r, X), \quad (9.17)$$

bu yerda: CP – shaxsiy iste'mol xarajatlari; YD^* – uy xo'jaliklarining o'rtacha joriy va kelgusi davrda kutilayotgan ixtiyoridagi daromadlari (2.15 tenglamaga asosan aniqlangan); NW – uy xo'jaliklarining sof moddiy boyliklari; r – soliq to'langandan keyingi real foiz stavkasi; X – iste'molga ta'sir qiladigan boshqa omillar.

Xususiy sektorda investitsiyalarga ta'sir qiladigan omillar. Yalpi kapital qo'yilmalari asosiy kapitalni yalpi jamg'arish (mashinalar, uskunalar, binolar va inshootlar) va tovar-moddiy zahiralarning o'zgarishiga ajratiladi. Bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida kapital qo'yilmalarni bashoratlashda, odatda kapital qo'yilmalari davlat va xususiy kapital qo'yilmalariga ajratilishi maqsadga muvofiq, deb hisoblanadi. Davlatning kapital qo'yilmalari budjet rejasiga mos kelishi lozim. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda siyosiy rahbarlikning eng asosiy masalalaridan biri, davlat korxonalarining kapital qo'yilmalari rejasini hisoblanadi.

Natijada, bozor kuchlari davlat korxonalariga kapital qo'yilmalari uchun asosiy omil bo'lmashligi mumkin.

Xususiy sektorning kapital qo'yilmalari YaIMning asosiy tashkil etuvchilari hisoblanadi, lekin ularni bashoratlash ancha qiyinchiliklar tug'diradi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda xususiy investitsiyalar, odatda uy-joy fondiga va u bilan bog'liq bo'lmagan investitsiyalarga ajratiladi. Yuqoridagi har bir turdagi investitsiyalarni bashoratlashda alohida maxsus modellardan foydalaniladi.

Xususiy sektorning investitsiyalarini nazariy modellarida asosiy e'tibor foyda normasi va moliyalashni amalga oshirgan investorning oladigan daromadiga beriladi. Biroq, foyda normasining hisob-kitoblari investorning kelgusida ishlab chiqariladigan mahsulotni sotish hajmlariga asoslanishi ham mumkin. Investorlarning kelgusidagi sotish hajmlari bobida yutuqqa erishishlarini kutishlari va ishonchlarida subyektivlik elementlari mavjud bo'lib, uni miqdoriy baholash imkoniyati yo'q darajada. Undan tashqari, kapitalning qiymati va chegaraviy unumdorligiga asoslangan investitsiyalarni optimallashtirishning standart modellarini institutsional va tizimiy omillarning mavjudligi, rivojlangan moliviy bozorlarning mavjud emasligi, kapitalni shakllantirishda davlat rolining salmoqliligi va boshqa bozor mexanizmidagi turli noaniqliklar sababli, qo'llash imkoniyati bo'lmaydi. Shuningdek, yuqorida ta'kidlangan modellarni qo'llashga kapital, ishchi kuchi, ish haqiga xarajatlar kabi ma'lumotlarni olishdagi murakkabliklar tufayli qiyinchiliklar tug'diradi.

Ba'zi izlanishlarda xususiy investitsiyalarni chegarovchi asosiy omil bo'lib moliyalashtirish bahosi emas, balki mablag'larning yetishmasligi hisoblanadi, deb ta'kidlanadi. Bu holat real foiz stavkalarining bozor muvozanati darajasidan past darajada ekanligidan dalolat berib, moliyaviy resurslar narxlar bilan bog'liq bo'lmagan mexanizmlar orqali taqsimlanishidan dalolat beradi. Bunday mamlakatlarda xususiy investitsiyalar miqdorini belgilovchi asosiy omil sifatida bank kreditlarining mavjudligi, xorijiy kapitalning kirib kelishi, hamda taqsimlanmagan foyda ko'riladi. Bank kreditlarining mavjudligi mamlakatda olib borilayotgan pul-kredit siyosatiga bog'liq bo'ladi. Xususiy sektor davlat sektori tomonidan siqib

chiqarilmasligi uchun olib borilayotgan soliq-budjet siyosati ham katta ahamiyatga ega. Odatda, davlat sektori tomonidan bank kreditlariga talabning oshishi, xususiyl sektorlarga berilishi mumkin bo'lgan kreditlar miqdorini kamashtirishga olib keladi.

9.2.3. Narxlar darajasini bashoratlash. Umumiy qoidalar. Amaliy yondoshish

Narxlar darajasini bashoratlash. Inflatsiya darajasini bashoratlashda quyidagi omillarni hisobga olish muhimdir:

- tannarxning oshishidagi qanday tendensiyalar narxlarni oshishiga olib kelmoqda? Energoresurslarga dunyo narxlarining oshishi bunga yaqqol misol bo'lishi mumkin. Natijada, xarajatlar majburiy tarzda oshib, taklif nuqtai nazaridan inflatsiyaga ta'sir o'tkaziladi. Xarajatlar o'sishini baholashda qancha foiz narxlarni o'sishiga va qancha foiz korxonaning o'ziga pastroq (yuqoriroq) foyda olinishiga ta'sir qilishi mumkinligini baholash talab qilinadi;

- firmalar xarajatlarning oshishi hisobiga narxlarni qanchaga ko'tarilishi mamlakat iqtisodiyotini iqtisodiy siklning qaysi bosqichida turganligiga bog'liq bo'ladi. Agar tovar va xizmatlarga talab yuqori darajada va malakali xodimlar yetishmayotgan bo'lsa, firmalar ish haqini yanada oshirib, buning natijasida ortiqcha qilingan xarajatlarni qoplash uchun narxlarni ko'tarishlari mumkin (talab tufayli sodir bo'lgan inflatsiya). Bunday vaziyat mamlakat ichida va shuningdek xorijiy ishlab chiqaruvchilar bilan raqobat bo'lmagan holatlarda sodir bo'ladi. Yuqoriroq xarajatlarni narxlarga ko'chirish darajasi mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy siyosat, shu jumladan hukumatning xarajatlari oshayotgan ayrim sektorlarga soliq imtiyozlari va subsidiyalar berishga tayyorligi bilan uzviy bog'langandir;

- iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat va oxirgi yilga nisbatan qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi? Masalan, real ishlab chiqarish hajmi o'zgarmay qolib, pul-kredit nazorati yumshatilsa, iste'molchilar nisbatan ko'payib ketgan pul massasini tovar va xizmatlar sotib olishga xarajat qilishlari natijasida narxlar ko'tarilishi sodir bo'ladi (talab ta'siridagi inflatsiya);

– bir yoki bir nechta narxlarning oʻzgarishi narxlar umumiy darajasi oʻzgarishini ifodalaydimi yoki u boshqa qarama-qarshi yoʻnalishdagi narxlarning oʻzgarishi bilan qorejaadimi? Nisbiy narxlarning oʻzgarishi chegaralangan resurslarning eng katta naf keltirishi mumkin boʻlgan sohalarda qaytadan taqsimlash zarurligini koʻrsatadi. Boshqa tomondan qaraganda, narxlar umumiy darajasining oshishi, odatda iqtisodiyotda ortiqcha talab mavjudligidan dalolat beradi. Amalda bu ikki holat orasidagi tafovut qisqa muddatli kelgusi davrda narxlar pasayishiga qarshilik qilganligi sababli, yoʻqolib ketadi. Shunday qilib, nisbiy narxlarning oʻzgarishi qisqa vaqtda boʻlsada, narxlar umumiy darajasini oʻsishida aks etadi;

– isteʼmolchilarning kelgusida narxlar oʻzgarishi bobidagi kutishlari bugungi kundagi narxlarning oʻsishiga qanday taʼsir qiladi? Inflatsion kutish, masalan foiz stavkalarining tezda koʻtarilishi va ish haqini oshirish talablarida oʻz ifodasini topib, isteʼmolchilarning xarajatlariga taʼsir koʻrsatadi. Kutishni modellashtirish muammolari iqtisodchilar orasida jiddiy qarama-qarshi fikrlar uygʻotgan va bir qancha empirik izlanishlar oʻtkazilishiga sabab boʻlgan boʻlsada, uning asosida oddiygina gʻoya yotadi, yaʼni kishilarning kelgusi davrga boʻlgan fikrlari bugungi kundagi hulqlariga taʼsir koʻrsatadi;

– narxlarning harakatiga mamlakatning rasmiy siyosati taʼsir qiladi. Unga narxlarni nazorat qilish, raqobat sohasidagi siyosat va tashqi savdo tizimidagi choralari kiradi. Tashqi savdo tizimi qanchalik erkin boʻlsa, ortiqcha talabning salmoqli foizi ichki narxlarning oʻsishida emas, balki toʻlov balansida ifoda topadi. Narxlarning oʻzgarishiga almashuv kursining tarkibi kuchli taʼsir oʻtkazishi mumkin: almashuv kursi tizimi qanchalik moslanuvchan boʻlsa, talabning oʻsishi shunchalik valyuta zahiralarining qisqarishida aks topadi.

Inflatsiyani baholashning eng oddiy usullaridan birida xarajatlarning oshishi bashoratlash uchun asos hisoblanadi. Biroq, inflatsiyani bunday tarzda baholash vaqt oʻtishi bilan narxlarning oshishi umuman iqtisodga bilvosita taʼsir oʻtkazishi mumkinligi natijasda faqat taxminiy deb qabul qilinishi mumkin. Bundan tashqari, qandaydir vaqt davomida narxlarning oʻzgarishi faqat shu davrdagi xarajatlarning

oshishinigina emas, balki undan oldingi davrlardan davom yetib kelayotgan xarajatlar oshishini ifodalashi mumkin. Masalan, import mahsulotlariga narxlarning oshishi, dastavval faqatgina bevosita import qilinayotgan tovarlar narxi va mamlakat ichkarisida o'sha import qilingan xomashyo va materiallardan foydalanib ishlab chiqarilgan tovarlar narxining oshishida aks topadi. Ammo, keyinchalik yuqoriroq narxlarning iqtisodiyotga kengroq tarqalib borishi natijasida, mamlakat ichkarisidagi xomashyo va materiallarga narxlarning oshishi ehtimoli mavjud bo'ladi. Bu oqibatlar, agar ortiqcha xarajatlarni qoplash maqsadida ish haqi ham oshirilsa, juda kuchli bo'lishi mumkin.

Iste'mol narxlari indeksi (INI) – rezidentlar iste'mol qiladigan vakolatli savatga kiritilgan, mamlakat ichkarisida ishlab chiqarilgan va import qilingan tovar va xizmatlarga narxlarning o'zgarishini, YaIM deflyatori esa mamlakat ichkarisida ishlab chiqarilgan va ichki iste'mol va eksportga mo'ljallangan barcha tovar va xizmatlarga narxlarning o'zgarishini ifodalashi haqida oldingi savollarda ko'rib chiqilgan edi. Bashorat ishlarida INI va YaIM deflyatori orasidagi farq boshqa sabablardan tashqari, import va eksport narxlarining o'zgarishi orasidagi farq bilan ham bog'liq ekanligini esdan chiqarmaslik lozim. Agar import narxlari eksport narxlariga nisbatan yuqoriroq darajada oshsa, INI orqali ifodalangan inflatsiya boshqa teng sharoitlarda YaIM deflyatori orqali ifodalangan inflatsiya darajasidan kattaroq bo'ladi. Ammo amalda import narxlarining INIga va eksport narxlarining YaIMga ta'sirini ajratib olish ancha mushkul ish hisoblanadi. Bu holat import narxlarining o'sishini mamlakat ichkarisida ishlab chiqarilgan mahsulotlar narxlariga o'tishi qanday sodir bo'lganligi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Eksport narxlarining o'zgarishini INIga ta'siri bevosita sodir bo'ladi, chunki odatda ichki va tashqi bozordagi mamlakatning eksportga mo'ljallangan tovarlari bir xil narxda sotiladi.

Inflatsiyaning bazis darajasini aniqlashda xarajatlarning o'sish sur'atlari o'zgarmay qoladi va narxlarning o'sish sur'atlari oldingi yildagidek deb faraz qilinadi. So'ngra, inflatsiya sur'atlarining pasayishi va oshishiga ta'sir qiluvchi omillar aniqlanadi. Umuman olganda, talabni boshqarishda yumshoq siyosat olib

boriladi deb taxmin qilinadi. Bazis bashoratida muayyan iqtisodiy siyosat olib borilishi, muqobil, ya'ni moliyaviy barqarorlikka qaratilgan bashoratda esa talabni boshqarishda qattiqroq siyosat olib borilishi nazarda tutiladi va unda xarajatlarning oshishi narxlarning oshishiga kuchsizroq bilvosita ta'sir o'tkazadi, deb taxmin qilinadi.

Odatda, xarajatlarning oshish tendensiyasiga quyidagilarning o'zgarishi ta'sir ko'rsatadi:

- dunyo bozoridagi narxlar (xorijiy valyutada ifodalangan);
- nominal almashuv kurslari;
- ish haqi;
- bilvosita soliqlar.

Qisqacha xulosalar

Ishlab chiqarish hajmi. Talab va taklif. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida biror-bir turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki xizmatlarni ko'rsatish va ularni sotib olish odatda ixtiyoriy bo'ladi. Natijada, yalpi ishlab chiqarish hajmi iqtisodiyotni turli sektorlaridagi ayrim korxonalarning qabul qilgan qarorlarini ifodalaydi. Makroiqtisodiy tahlil ayrim firmalar faoliyatini o'rganishga emas, balki asosiy e'tiborni umumiy ishlab chiqarish hajmiga qaratadi.

Muhokama uchun savol va topshiriqlar

1. Milliy hisoblar tizimini ishlab chiqishdan ko'zlangan maqsad.
2. Iqtisodiyotning asosiy sektorlari.
3. Sektorlar faoliyati samaradorligida davlatning roli.
4. Yalpi milliy daromad qanday hisoblanadi?
5. Yalpi egalikdagi milliy daromadni hisoblash.
6. Yalpi daromad va yalpi xarajatlarni to'lov balansining joriy hisoblar hisobining saldosi bilan bog'liqligi.
7. Yalpi jamg'arma va investitsiyalar hajmi hamda joriy operatsiyalar hisobining saldosi.

8. Nominal va real YAIM.
9. YAIM deflyatori qanday hisoblanadi?
10. YAIMdan ishlab chiqarish hajmi va rezidentlarning iqtisodiy farovonligini o'lashda foydalanishning asosiy kamchiliklari.
11. Iste'mol narxlar indeksini hisoblash va uning YAIM deflyatoridan farqi.
12. Real ish haqi va real daromad tushunchalarining bir-biridan farqlanishi.
13. Ishsizlik darajasini tahlil qilishda qo'llaniladigan muhim konsepsiya va tushunchalar.
14. Ishsizlar soni va ishsizlik darajasi qanday hisoblanadi?
15. Ishlab chiqarish hajmi. Talab va taklif. Ishlab chiqarish hajmini bashoratlash.
16. Uy xo'jaliklari iste'molini belgilaydigan omillar.
17. Xususiy sektorda investitsiyalarga ta'sir qiladigan omillar.
18. Narxlar darajasini bashoratlashda hisobga olinadigan omillar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi Prezident Islom Karimovning 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi / Xalq so'zi 22.01.2011

1. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir. I.A.Karimov. – Toshkent: «O'zbekiston», 2010. – 34-50 b.

2. I.A.Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: O'zbekiston, 2009.-56 b.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir” hamda “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot.-2010.– 63-85 b.

4. Кудина М.В. Основы экономики: Учебник. – ФОРУМ: ИНФРА-М, 2006.
5. Бухгалтерский финансовый учет: Учебник для вузов/Под ред.проф. Ю.А.Бабаева. – М.:Вузовский учебник, 2006.
6. Yakubov I.O., G‘oyibnazarov B.K., Abdusattarova X.M. Balans muammolari. O‘quv qo‘llanma.-T.:O‘zRYoUAJ. 2004.
7. Якубов И.О., Тошмухамедов Н.С. Балансовые проблемы. – Т.: ТГЭУ, 2008.

10-Mavzu: SOLIQ-BUDJET SEKTORI TAHLILI VA BASHORATI

Reja:

- 10.1. Davlat sektori tushunchasi. davlat operatsiyalarini o'lchash. davlat moliyasi statistikasi tizimi
- 10.2. Daromadlar va xarajatlar tasnifi. Budjet balansi tushunchasi
- 10.3. Budjet tahlili. Budjet disbalansini hisoblash. Kamomadni moliyalashtirish
- 10.4. Soliq-budjet siyosatining barqarorligi. Daromadlar va xarajatlar tahlili
- 10.5. Davlat sektori operatsiyalarini bashoratlash. Daromadlar va transfertlarni bashoratlash. Davlat xarajatlari va sof kreditlashni bashoratlash. Moliyalashtirish manbalarini bashoratlash

10.1. Davlat sektori tushunchasi. davlat operatsiyalarini o'lchash. davlat moliyasi statistikasi tizimi

Soliq-budjet sohasi va soliq-budjet siyosatidagi o'zgarishlar xo'jalik rivoji va iqtisodiy siyosatida muhim rol o'ynaydi. Soliq-budjet siyosati yalpi iqtisodiy resurslardan foydalanish va yalpi taklif darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Pul-kredit va valyuta siyosatlari kabi, u to'lov balansining holati, qarzдорlik darajasi, inflatsiya sur'atlari va iqtisodiy o'sishni belgilaydi.

Soliq sohasi, davlat xarajatlari va qarz olish siyosati ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar hulqi, mamlakat daromadlari va boyliklarini taqsimlashga ta'sir ko'rsatadi. Ko'pincha makroiqtisodiyotning ichki va tashqi sektorlaridagi jiddiy disbalans, turli choralarni qo'llashga qaramasdan, bartaraf qilinmagan budjet kamomadi sababli kelib chiqadi.

Mamlakatning soliq-budjet sohasidagi umumiy holatiga baho berish, uni barqarorlashtirish va tizimiy islohotlar bilan birgalikda qarab chiqish uchun budjet operatsiyalarini hisobga olish va tahlil qilishning asosiy tamoyillari to'g'risida tushuncha bo'lishi talab qilinadi.

Quyida dastlab, XVJ tomonidan ishlab chiqilgan "Davlat moliyasi statistikasi bo'yicha ko'rsatmalar"da (DMS) keltirilgan asosiy tushunchalar keltiriladi. DMS davlat boshqaruv idoralarining budget operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni xalqaro andozalarga ko'ra hisobga olish tamoyillari asosida ishlab chiqilgan. Ushbu tamoyillar daromadlar, xarajatlar, kapitalni jamg'arish va moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan davlat operatsiyalarini tahlil qilishda ko'mak berish uchun ishlab chiqilgan.

So'ngra davlat boshqaruv sektoriga tushuncha, davlat idoralari operatsiyalari hajmini miqdoran o'lchash, tasniflash va davlat idoralari operatsiyalarini ifodalashda ishlatiladigan boshqa tushunchalar keltiriladi. Shuningdek, daromadlar va xarajatlar kategoriyalarining asosiy tasnifi keltirilib, odatdagi umumiy balans tushunchasi muhokama qilinadi.

Mavzuning ikkinchi qismida budget sohasini tahlil qilish bilan bog'liq bo'lgan tahliliy xarakterdagi umumiy masalalar ko'rib chiqiladi. Bunda davlat jamg'armasi va investitsiyalari, budget disbalansini o'lchashning muqobil usullari, davlat budjeti kamomadini moliyalashtirishning muqobil usullari va ularning makroiqtisodiy oqibatlari, soliq-budget siyosatining barqarorligi kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, davlat daromadlari va xarajatlari o'zgarishini baholash usullari chuqur tahlil qilingan.

DMS ko'rsatmasida davlat boshqaruv idoralarining bir nechta darajalari aniqlangan: markaziy hukumat, shtat va mintaqa darajasidagi idoralar, mahalliy idoralar va milliydan yuqori bo'lgan idoralar.

Ko'pchilik mamlakat davlat boshqaruv idoralari sektoridagi budget operatsiyalari kamida davlat budjetini shakllantiradigan markaziy hukumatni nazarda tutadi. Biroq, ko'p mamlakatlarda budget operatsiyalari bilan mahalliy va mintaqaviy idoralar ham shug'ullanadi. Davlat boshqaruv sektori atamasi davlat boshqaruvining barcha darajalarini qamrab oladi. Davlat boshqaruv sektori va pul-kredit sektori orasidagi funksiyalarni ajratish maqsadida DMSga ko'ra ikkala sektordan davlat bank va pul-kredit operatsiyalari chiqarib tashlangan. Masalan, pul-kredit boshqaruv

idoralarining barcha funksiyalari, bunday operatsiyalarni qaysi tashkilot bajarishidan qat'i nazar, davlat boshqaruv sektoriga emas, pul-kredit sohasiga kiritiladi. Pul-kredit va soliq-budjet siyosatlarini ajratish, hamda pul-kredit va moliya statistikalarini davlat moliyasi statistikasidan ajratish uchun bu sohalardagi operatsiyalar bir-biridan alohida tahlil qilinishi lozim.

Davlat sektori – keng ma'noda davlat boshqaruv sektori bo'lib, unga davlat boshqaruv sektori va davlat temir va havo yo'llari yoki davlat kommunal korxonalari kabi davlat nomoliyaviy korxonalar kiritiladi. Markaziy hukumatning ba'zi daromad va xarajatlari odatda markaziy hukumatning mahalliy idoralar va davlat korxonalariga transfertlari va o'z navbatida davlat korxonalarining markaziy hukumatga transfertlarini ifodalaydi. Turli darajadagi davlat idoralarining yalpi operatsiyalarini hisob-kitoblarida "takroriy hisob"ga yo'l qo'ymaslik uchun bunday transfertlar sof holda ko'rsatilishi kerak. Bu vazifa, ya'ni turli darajadagi davlat idoralarining hisoblarini saldolash va birlashtirish jarayoni konsolidatsiya (yig'ish) deb yuritiladi.

Davlat boshqaruvi idoralarining har bir darajasida budjet, budjetdan tashqari va ijtimoiy sug'urta mablag'lari bilan operatsiyalar bajariladi.

Budjet operatsiyalari ta'rifiga ko'ra budjet orqali amalga oshiriladi.

Budjetdan tashqari operatsiyalar budjetdan tashqarida amalga oshirilib, majburiy yig'imlar hisobiga mablag'lar to'plashga va nobozor tovar va xizmatlarni taqdim qilishga mo'ljallangan bo'ladi. Masalan, budjetdan tashqari yo'l fondi uchun ko'pincha yoqilg'i hisobidan soliqlar yig'iladi va keyin ular yo'l xo'jaligini saqlashga sarflanadi.

Ijtimoiy sug'urta dasturlari budjetdan tashqari operatsiyalarning alohida kategoriyasi sifatida qaraladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda bunday dasturlarga nafaqa (pensiya) fondi, bandlik fondi va ijtimoiy sug'urta fondlari kiritiladi. Bu fondlarda to'rejagan mablag'lar hisobidan mehnatga yaroqsizlik va ijtimoiy nafaqalari to'lanadi.

Davlat boshqaruv idoralari sektori qanday aniqlanishi va ta'riflanishidan qat'i nazar, ko'pchilik mamlakatlarda budjetning haqiqatda bajarilishi ko'pincha davlat operatsiyalarining hisobida jiddiy kamchiliklarga olib keladi.

Eng asosiy ikkita kamchilik - budjetdan tashqari hisoblarni ifodalash va hisoblarda milliy valyuta ekvivalentidan foydalanish bilan bog'liq bo'ladi. Bir qancha mamlakatlarda, ayniqsa bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda, hukumatlar budjetdan tashqari operatsiyalarda budjetga kiritilishi lozim bo'lgan operatsiyalarni ko'rsatishadi. Budjetdan tashqari fondlarning haddan tashqari qo'llanilishi (ayniqsa, ular budjet operatsiyalari bilan konsolidatsiyalashmagan bo'lsa) budjet sohasidagi ahvolni buzib ko'rsatadi va daromadlardan faqat belgilangan maqsadlardagina foydalanilishi sababli budjet mablag'larini boshqarishda qiyinchiliklar tug'diradi va eng asosiysi – ushbu hisoblarga tushadigan mablag'lar xarajati ustidan nazoratning yo'qotilishiga olib keladi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasida budjetdan tashqari hisoblardan foydalanish faqat ikki holatda, ya'ni trast fondlari (unda nodavlat tizimlarining mablag'lari joylashtirilgan bo'lsa) va bo'nak yoki oraliq hisoblari (kelgusi to'lovlar uchun mablag'lar joylashtirilgan bo'lsa) sifatida foydalangandagina asoslangan bo'ladi. Ushbu muammoni hal qilish uchun ko'pchilik mamlakatlarda budjetdan tashqari hisoblarni yaratish o'rniga budjet doirasida alohida hisoblar tuzishadi. Bu esa o'z navbatida hukumat tomonidan bunday hisoblar bo'yicha zarur nazorat va hisobotlarni tashkil qilish va tekshirishlarni olib borishga imkon beradi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan ko'pchilik mamlakatlarda milliy valyutadagi ekvivalent hisoblari budjet holatini buzib ko'rsatilishiga olib keladi. Ushbu hisoblardagi mablag'lar xorijiy kreditlar va grantlar hisobiga shakllanadi. Ko'p holatlarda ushbu mablag'lar budjet kamomadini moliyalashtirish va korxona va tashkilotlarni kreditlash (davlat budjeti orqali) maqsadlarida ishlatiladi. Bunday kreditlar ko'pincha budjetda hisobga olinmaydi va natijada u parlament nigohidan chetda qoladi va budjetning umumiy holatini buzib ko'rsatadi, hamda foiz stavkalarini subsidiyalanishiga olib keladi. Buzib ko'rsatilish bu mablag'lar "sof kreditlash" deb nomlanadigan budjetda chiziqdan yuqorida moddasida umuman

hisobga olinmaydi va natijada budjet kamomadi kamaytirib ko'rsatiladi. Undan tashqari bu "ekvivalent" hisoblar bo'yicha olingan va to'langan foizlar daromadlar va xarajatlar sifatda ko'rsatilmaydi. "Ekvivalent" hisoblarni budjetda to'liqligicha ko'rsatibgina qolmasdan, ulardan norentabel korxonalarni imtiyozli kreditlash manbasiga aylanib qolishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Davlat korxonalari davlat sektoridan tashqarida deb qaraladi. Davlat tasarrufidagi ishlab chiqarish bo'linmalari va ular tomonidan nazorat qilinadigan aksionerlik sanoat yoki iqtisodiyotning boshqa sektorlariga yirik miqyoslarda tovar va xizmatlar yetkazib beradigan tijorat bo'linmalari tasnifda nomoliyaviy korxonalar sektorining davlatga tegishli qismiga kiritiladi. Masalan, davlat temir va havo yo'llari, pochta xizmati va milliylashtirilgan yoki hukumat tashkil qilgan tarmoqlar MHT qoidalariga ko'ra davlat tasarrufida bo'lgani bilan nomoliyaviy korporatsiyalar sektoriga mansub bo'ladi. Davlat yoki davlat tomonidan nazorat qilinadigan, joriy, muddatli va jamg'arma depozitlarini qabul qiladigan, shuningdek bozorda majburiyatlar qabul qiladigan va moliyaviy aktivlarni sotib oladigan moliyaviy muassasalar tasniflashda moliyaviy tashkilotlar sektoriga kiritiladi. Markaziy bank an'anaga ko'ra davlat boshqaruv sektoriga emas, balki moliya sektoriga kiritiladi.

Davlat operatsiyalarini o'lchash. DMSning me'yorlariga binoan davlat moliya statistikasi doirasida operatsiyalar MHT, pul-kredit sohasi va to'lov balansidagidek o'tkazish (начисление) usulida emas, balki kassa yoki to'lov usulida hisobga olinadi. Olingan mablag'lar va qilingan to'lovlar moliyaviy hisob-kitob qilingan vaqtda kassa usulida amalga oshiriladi. O'tkazish usulida esa operatsiyalar majburiyatlar yoki talab yoki to'lov muddati yyetib kelgan vaqtda hisobga olinadi.

Davlat operatsiyalari kassa asosida hisoblanishi ularni pul-kredit hisoblari bilan taqqoslash imkonini beradi va uning natijasida davlat operatsiyalarining agregat pul-kredit ko'rsatkichlariga ta'sir darajasining aniqlanishini osonlashtiradi. Kassa asosida (davlat moliya statistikasi) va o'tkazish usulidagi (pul-kredit hisoblari) hisob-kitoblar orasidagi farq muddati o'tib ketgan to'lovlar bo'yicha qarzdolikning mavjudligi

natijasida paydo bo‘ladi va ular operatsiyalarni iqtisodiy tahlil qilishda muhim vosita hisoblanadi. Muddati o‘tib ketgan qarzdorlik davlat boshqaruv idoralarining o‘z majburiyatlarini vaqtida to‘lashga qurbi yetmasligidan dalolat beradi va bu holat ko‘pincha kassa va o‘tkazish usullarida hisoblangan budjet balansida katta farqlarga olib keladi. O‘tkazish usulida hisoblangan budjet balansi hukumat tomonidan mablag‘lardan sof foydalanilishini ifodalab, davlatning majburiyatlarini to‘laqonli ifodalasa (ham ichki, ham tashqi majburiyatlarini), kassa asosida hisoblangan budjet balansi faqat haqiqatda amalga oshirilgan to‘lovlarnigina ifodalaydi. Agar hukumatning kassa asosida hisoblangan budjet kamomadi o‘tkazish usulida hisoblangan budjet kamomadidan past bo‘lsa, bu holat foizlarni va boshqa majburiyatlarni to‘lash bo‘yicha qarzdorlik mavjudligidan dalolat beradi.

Davlat moliya statistikasi tizimi. Bu tizim davlat idoralarini milliy iqtisodiyotning boshqa sektorlari va tashqi dunyo bilan olib borgan operatsiyalarini to‘laqonli hisobga olish va birinchi navbatda, daromadlar tushumi, to‘lov xarajatlari va to‘lanmagan qarzdorlikni aniqlashga mo‘ljallangan.

Quyida ushbu tizimning asosiy tamoyillarini ko‘rib chiqamiz:

– *daromadlar, tushumlar, to‘lovlar va xarajatlar.* Umumdavlat budjetining holati va uning makroiqtisodiyotga ta’sirini baholash uchun daromadlar va xarajatlar tushunchalarini aniq chegaralash lozim. Barcha daromadlar tushumlar bo‘lganligi bilan barcha tushumlar daromad bo‘lib hisoblanmasligi mumkin. Daromad faqat majburiyatlarni to‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan tushumlargina hisoblanishi mumkin. Hukumatga kredit sifatida tushgan mablag‘lar daromad bo‘lib hisoblanmaydi, chunki kreditlar vaqti kelib qaytarilishi lozim bo‘ladi. Xuddi shunga o‘xshash, hamma to‘lovlar ham xarajatlar bo‘lib hisoblanmaydi. Masalan, kreditlarni qaytarish kreditlarni olish vaqtidagi majburiyatlardan kelib chiqqani uchun mablag‘lar xarajati bo‘lib hisoblanmaydi. Foizlar bo‘yicha to‘lovlar esa xarajatlar tarkibiga kiritiladi;

– *yalpi va sof summa.* Daromad olish va mablag‘larni xarajat qilishdagi davlat operatsiyalarini statistik ma’lumotlarda to‘la ifodalash uchun daromadlar va xarajatlar yalpi summa ko‘rinishida ifodalanadi. Masalan, maktabda o‘qitish uchun

to'lovlar maorif xarajatlarining balanslashgan provodkasida ko'rsatilmaydi, soliqlarni yig'ish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar esa soliq tushumlaridan "manfiy daromadlar" sifatida chegirilmaydi. Kreditlash va qarz olish qoidadan chiqadigan alohida ikkita holat hisoblanadi. Bu holatda yagona ahamiyatli miqdor bo'lib, pul mablag'larining davlat boshqaruv idoralariga va qarama-qarshi yo'nalishda tezlik bilan harakatlanishi hisoblanadi;

– *ikkiyoqlama va biryoqlama operatsiyalar.* Ikkiyoqlama operatsiyalar natijasida tovar va xizmatlarni olish (berish) evaziga pul resurslari to'lanadi (olinadi). Masalan, tovar va xizmatlarni sotish (sotib olish) operatsiyalari. Biryoqlama operatsiyalarda to'lash yoki olish ularning evaziga birorta narsani olish yoki berish bilan bog'liq bo'lmaydi. Masalan, transfertlar va grantlar olish (berish);

– *soliq va soliq bo'lmagan tushumlar.* Daromadlar, grantlardan tashqari, barcha qaytarilmaydigan tushumlarni qamrab oladi. Daromadlar joriy mablag'lar va kapital (faqat kapital aktivlarni sotishdan olingan daromadlar) hisobiga shakllanadi. Soliqlar – davlat idoralari ixtiyoriga biryoqlama majburiy tushumlar bo'lib, ulardan jamiyat ehtiyojlari uchun foydalaniladi. Soliq tushumlariga (ularning sof summasi ortiqcha to'langan soliqlar qaytarilishini nazarda tutadi) ijtimoiy sug'urta fondiga ajratmalar va fiskal monopoliyalar tomonidan davlat budjetiga o'tkazilgan daromadlar kiradi. Soliq bo'lmagan tushumlarga mulkka egalik qilishdan daromadlar, to'lovlar va yig'imlar, jarima va budjetga o'tkazilgan davlat korxonalari foydalari kiradi;

– *qaytarilmaydigan tushumlar.* Ularga boshqa davlatlar hukumatlari yoki xalqaro tashkilotlardan olingan biryoqlama tushumlar kiradi. DMS qo'llanmasida qaytarilmaydigan tushumlar moliyalashtirish emas, balki daromad operatsiyalari guruhiga kiritilgani bilan, ularning summasi va kelib tushish vaqti davlat idoralari tomonidan boshqa tushumlarga o'xshab nazorat qilib bo'lmashligi sababli, daromadlardan alohida ajratib ko'rsatiladi. Aks holda ularni budjet tushumlari va xarajatlarining bashoratlariga kiritilishi budjetni rejalashtirish jarayonida noaniqliklarga olib keladi va natijada keyinchalik budjetni yana aniqlashtirish talab qilinishi mumkin. DMSda qaytarilmaydigan tushumlar chiziq tepasiga

joylashtirilgani bilan, budget hisoblarini tahliliy ifodalashda ularni moliyalashtirishning moddalaridan biri sifatida qaralishi maqsadga muvofiq;

– *davlat idoralarini sof kreditlash*. U (kreditlash minus to'lash) davlat likvidligini boshqarish maqsadlaridagina emas, balki davlat siyosati belgilagan vazifalarini bajarish uchun davlat idoralarini kreditlash operatsiyalarini qamrab oladi. Masalan, fermerlar, talabalar va kichik biznes egalariга subsidiyalar ushbu turdagi kreditlash tarkibiga kiradi. DMS tasnifiga ko'ra ular moliyalashtirishga emas, balki xarajatlar tarkibiga kiritilgan. Davlat boshqaruv idoralarining boshqa mamlakatlar hukumatlarining ijtimoiy ehtiyojlari uchun ajratgan kreditlari sof kreditlash tarkibiga kiritiladi va shuning uchun davlat budjeti kamomadiga ta'sir qiladi. Biroq, qarz olgan mamlakat uchun bu kreditlar chiziqdan yuqorida hisobga olinadigan tashqi kreditlash hisoblanadi. Bunday tarzdagi yondoshuv davlatning kreditlash yoki qarz olish maqsadlaridagi asoslashlar orasidagi assimetriyani ifodalaydi. Davlat idoralari depozit hisoblarida joylashtirgan valyuta miqdoridagi tebranishlar naqd pul qoldiqlari singari sof kreditlash emas, balki moliyalashtirish sifatida ko'rsatiladi;

– *bank kapitalining to'ldirilishi*. Bir qancha mamlakatlarda davlatga to'la yoki qisman tegishli banklar katta zararlar ko'rib, kapital yetishmovchiligidan aziyat chekmoqdalar. Bu mamlakatlarning hukumatlari banklarga kapital kiritishi yoki qarz majburiyatlarini o'z zimmlariga yuklashlari mumkin. Yuqorida ko'rsatilganidek, DMS kassa asosida tuzilgani sababli davlat tomonidan naqdsiz qarz majburiyatlarining o'z zimmasiga yuklashi qarzni olish vaqtida xarajat sifatida hisobga olinmaydi. Lekin keyinchalik to'langan foizlar xarajatlar tarkibiga kiritiladi, naqd ko'rinishda cho'zilgan muddatlarda qarzlarni uzish manfiy moliyalashtirishga kiritiladi. Boshqacha aytganda, DMS metodologiyasiga ko'ra davlat budjeti kamomadini hisoblashda faqat olingan qarzlar bo'yicha to'langan foizlargina hisobga olinadi;

– *xususiy lashtirishdan tushumlar*. DMS qo'llanmasida xususiy lashtirishdan tushumlarni manfiy sof kreditlash sifatida ko'rsatish taklif qilingan. Uni davlat moddiy aktivlarini sotishdan hosil bo'ladigan soliq bo'lmagan kapital daromadlardan

farqlash lozim. Xususiylashtirishdan daromadlar ilgari transfert yoki kapital qo'yilmalar hisobiga sotib olingan korxonalardagi davlat ulushini sotish natijasida hosil bo'ladi. Bunday yondoshish budjet balansini faqat bir martagina yaxshilashga imkon beradi. Bu tushumlarni chiziqdan tepada ko'rsatish qabul qilingan bo'lsada, joriy operatsiyalarni tahlil qilishda, hukumatning sof moliyaviy ahvoliga ta'sir qiluvchi operatsiyalar singari, chiziq ostida ifodalash maqsadga muvofiqdir. Bir marotabalik budjet kamomadini pasaytirish keyinchalik, masalan, hukumat o'z tasarrufida bo'lgan korxonani sotib yuborganidan so'ng korxona foydasining budjetga tushmasligi hisobiga, kamomad oshib ketishi mumkin. Lekin, agar davlat korxonalarni sotishdan tushgan mablag'larni boshqa aktivlarni sotib olish yoki o'z qarzlarini uzishga ishlatgan bo'lsa, keyinchalik sodir bo'lishi mumkin bo'lgan kamomadning umumiy summasi qorejaishi mumkin. Ushbu variantda davlat va xususiy sektor real resurslar uchun talabga hech qanday ta'sir ko'rsatmasdan, faqat o'zaro aktivlarni ayirboshlagan bo'ladi. Biroq, agar hukumat xususiylashtirishdan tushgan mablag'larni joriy xarajatlarni oshirish yoki soliqlarni pasaytirish maqsadlarida ishlatib yuborgan bo'lsa, aktivlar sotilgan yilda kamomad o'zgarmaydi, keyinchalik esa u oshib boradi va shu asnoda xususiylashtirish budjet holatiga ta'sir ko'rsatadi. Buyuk Britaniya budjet kamomadidagi hisoblashda oxirgi yillarda xususiylashtirishdan katta mablag'lar kelib tushganligi sababli, makroiqtisodiy hisoblar ikki variantda, ya'ni xususiylashtirishdan olingan foyda hisobga olingan va olinmagan holda hisoblamoqdalar. Ushbu yondashish hisoblar tahlilini osonlashtiradi, chunki bunda xususiylashtirishdan olingan daromadlarga aktivlarni ayirboshlash sifatida qaraladi;

– *Markaziy bankning foydasi.* Hukumat hisobiga o'tkazilgan Markaziy bankning foydasi daromad deb hisoblanadi. Lekin, oltin-valyuta avuarlarini qayta baholash natijasida hosil bo'lgan va sotilmagan foyda bu summaga kiritilmaydi. Undan tashqari, o'tkazilgan foyda Markaziy bankning ayrim operatsiyalarinigina (malalan, valyuta yoki oltinni sotish operatsiyalari) emas, balki barcha oldi-sotdilarini qamrab olishi kerak.

10. 2. Daromadlar va xarajatlar tasnifi. Budjet balansi tushunchasi

Umuman olganda, davlat boshqaruv idoralari bajaradigan barcha operatsiyalar daromadlar va xarajatlar turlari bo'yicha tasniflanadi. Asosiy tasnif iqtisodiy xarakterga ega bo'lib, yalpi daromadlar va yalpi xarajatlar, joriy va kapital daromadlar va xarajatlarning yig'indisi sifatida aniqlanadi. Bu kategoriyalarning ichida soliqlar xo'jalik faoliyatining soliqqa tortiladigan turiga ko'ra guruhlangan, xarajatlar – ularning nima maqsadlarga mo'ljallanganligiga ko'ra, masalan, mudofa va maorif guruhlariga ajratiladi. Budjetni tahlil qilishda iqtisodiy tasnif funksional tasnifga nisbatan muhimroq ahamiyatga ega.

Budjet balansining an'anaviy tushunchasi. Agar davlat idoralarining operatsiyalariga naqd pul harakati nuqtai nazaridan qaralsa, yalpi tushum har doim yalpi to'lovlarga teng bo'ladi va shuning uchun davlat idoralarining budjet hisoblari qaysidir ma'noda doimo balanslashgan bo'ladi. Ammo, agar tahlil va qarorlar qabul qilish zarurligidan kelib chiqsak, bir tomondan asosiy e'tiborni tushumlar va grantlar, ikkinchi tomondan sof kreditlashni inobatga olgan holda xarajatlar orasidagi tafovutga qaratish maqsadga muvofiqdir. DMSda berilgan budjet balansining an'anaviy ta'rifida budjet balansi yalpi daromadlar bilan yalpi xarajatlar orasidagi farq sifatida xuddi shunday holatni ifodalaydi:

$$\begin{aligned} \text{Umumiy kamomad/ijobiy saldo} &= (\text{daromad} + \text{olingan transfertlar}) - \\ &- (\text{xarajatlar} + \text{qarzni to'langandan so'ng qolgan kreditlar}). \end{aligned}$$

Bu moddalar "chiziqli ustida" joylashadi. Qolgan barcha moddalar "chiziqli tagida"gi "moliyalashtirish" deb nomlanadigan moddalar tarkibiga kiradi va ular quyidagicha ifodalanadi:

*Umumiy kamomad/ ijobiy
saldo*

*Moliyalashtirish (qarzlarni
amortizatsiya)*

*naqd pullarning sof
ko'payishi.*

Shunday qilib, davlat idoralarining davlat budjeti kamomadi daromadlar va grantlar summasidan oshiqcha sarflangan xarajatlar va sof kreditlash yig'indisining

bir qismi hisoblanadi. Budget balansining bunday an'anaviy ta'rifi davlat idoralarining moliyaviy holatiga hamda u pul-kredit sohasi, ichki talab va to'lov balansiga qanday ta'sir etishi to'g'risida to'laqonli tasavvur berganligi sababli g'oyat katta ahamiyatga ega.

10.3. Budget tahlili. Budget disbalansini hisoblash. Kamomadni moliyalashtirish

Budget kamomadini aniqlashda DMSdagi umumiy kamomad to'g'risidagi ta'rifdan keng foydalanilsada, budget balansini o'lchashda barcha kamchiliklardan holis yagona bir usul hozirgacha o'ylab topilmagan. Oldimizda turgan maqsadlardan kelib chiqib, turli tahliliy me'yorlarga asoslangan balans tushunchasining boshqa konsepsiyalaridan foydalanish mumkin. Ko'pincha budget holatiga baho berishda budget kamomadining (profisitining) YaIMga foizlardagi nisbatidan foydalaniladi. Bu ko'rsatkich budget sohasining holatiga baho berishda ko'pchilik iqtisodchilar tomonidan eng maqbul deb tan olingan. Biroq, bu an'anaviy usul ham ushbu qo'llanmada berilgan qo'shimcha choralar bilan to'ldirilishi mumkin. U choralar soliq-budget siyosatining soliqqa tortish va xarajatlari kabi tizimiy qirralarini hisobga olishi lozim.

Balansning talablarga javob beradigan tushunchasini aniqlashda quyidagi omillarga e'tibor berish zarur: disbalansning turi, qamrab olish darajasi (markaziy hukumat, davlat boshqaruvi yoki davlat senktori), buxgalteriya hisobi usuli (kassa yoki o'tkazish usullari) va har qanday shartli majburiyatning holati.

Quyida budget balansini o'lchashning turli usullarini ko'rib chiqamiz:

– *davlat sektorining qarz mablag'lariga bo'lgan talabini aniqlash.* Ushbu usul jami davlat sektorining budget balansini hisoblashda an'anaviy usul hisoblanadi. U shuningdek barcha davlat sektorining moliyaviy resurslariga nisbatan sof talablarni qamrab olgani uchun, barcha qirralarni qamrab oluvchi andoza bo'lib hisoblanadi. Umumiy balans tushunchasidan davlat boshqaruvining barcha pog'onalarida foydalanish mumkin. Markaziy hukumat va davlat boshqaruv sektorining qarz

mablagʻlariga ehtiyoji jami davlat sektori ehtiyojlarining bir qismi hisoblanib, uni haqiqatda davlat boshqaruvi sektori va davlat korxonalari sektorining qarzi mablagʻlariga ehtiyoji va sektorlararo transfertlarni saldolash kabi maʼlumotlar asosida aniqlanadi;

– *budjetning joriy balansi (joriy operatsiyalar hisobining balansi)*. U joriy daromadlar va joriy xarajatlar orasidagi farq sifatida aniqlanadi. Bu koʻrsatkichdan koʻpincha davlat jamgʻarmalari hajmini aniqlashda foydalanilib, unga davlatning umummilliy jamgʻarmalariga qoʻshgan hissasini ifodalovchi koʻrsatkich sifatida qaraladi.

<i>Joriy budjet</i>	<i>davlat</i>	<i>yalpi joriy</i>	<i>yalpi</i>
<i>saldosi</i>	<i>jamgʻarmasi</i>	<i>daromadlar</i>	<i>joriy</i>
			<i>xarajatlar.</i>

Biroq, ushbu tushunchadan budjetni amaliy tahlil qilishda foydalanish bir qancha cheklovlar bilan bogʻlangan. Ushbu tushuncha bir tomondan kapital, ikkinchi tomondan esa joriy daromadlar va xarajatlar bilan chegaralangan. Kapital xarajatlarga bir yildan oshiq boʻlgan muddatlarda ishlab chiqarish jarayonida foydalanish uchun sotib olinadigan va transfert shaklida olingan aktivlar kiritiladi. Qolgan barcha xarajatlar tasnifga koʻra joriy xarajatlar deb hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan farqlanish, xarajatlarni kapital va joriy turlarga anʼanaviy tasniflashdagidek ixtiyoriydir. Yaʼni turli mamlakatlarda ular turlicha talqin qilinganligi sababli ulardagi davlat sektori investitsiyalarini taqqoslashda, sanoati rivojlangan mamlakatlar investitsiyalarini taqqoslashda ham bir qancha qiyinchiliklar kelib chiqadi. Bu yerda eng muhimi, barcha davlat investitsiyalari iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantiradi, lekin turli loyihalarni moliyalashtirishda davlat mablagʻlaridan foydalanish masalasida keragidan ortiqcha xarajatlarga yoʻl qoʻyilishi toʻgʻrisida koʻplab misollarni keltirish mumkinligi shubha uygʻotishini esdan chiqarmaslik va bu masalada juda katta aniqlik va nazorat oʻrnatish lozim. Agar asosiy vositalarni yaxshi holatda saqlab turishga nisbatan yangi kapital qoʻyilmalarni sarflashga ustunlik beriladigan boʻlsa, pirovard

oqibatda bu holat iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishiga (o'sishiga emas) olib keladi.

Shunday qilib, dastlabki qarashda joriy budjet balansi ko'rsatkichi jozibali ko'rinsada, yaxshi indikator bo'lib hizmat qilolmaydi. Undan shuningdek budjet sohasidagi holatning ichki va tashqi sektorlar orasidagi makroiqtisodiy balansga ta'sirini tahlil qilishda ham foydalanib bo'lmaydi.

- *birlamchi yoki foizsiz balans*. Bu ko'rsatkichda foiz to'lovlari hisobga olinmaydi va natijada turli bosqichlarda joriy budjet siyosatining ta'sirini aniqlash imkoniyati tug'iladi. Asosiy balans hisob-kitoblarida, odatda yalpi foiz to'lovlari yalpi xarajatlardan ayirib tashlanadi. Biroq, nazariy nuqtai nazardan hukumat tomonidan amalga oshiriladigan faqat sof foiz to'lovlari ayirilishi (foiz to'lovlaridan foiz tushumlari ayirmasi) lozim. Ushbu birlamchi balans hukumatning joriy budjet siyosati sof davlat qarziga qanday ta'sir o'tkazayotganligini ifodalagani uchun davlat budjeti kamomadini oldingi yil darajasida (agar u talablarga javob beradigan darajada bo'lgan bo'lsa) saqlab qolish imkoniyatini ifodalovchi muhim indikator bo'lib hisoblanadi va uni quyidagicha yozish mumkin:

Asosiy budjet kamomadi/

an'anaviy budjet kamomadi/

to'langan

ijobiy saldosi

ijobiy saldosi

foizlar.

- *operation balans*. Uni hisoblash uchun an'anaviy balansdan inflatsiya hisobiga to'g'ri kelgan foiz to'lovlari ayiriladi, yoki birlamchi balansga foiz to'lovlarining real miqdori qo'shiladi. Uzilmagan nominal davlat qarzining real qiymati kreditorlar yuqoriroq nominal foiz stavkalari belgilab, uni qoplashga harakat qilishlariga qaramasdan inflatsiya hisobiga kamayadi. Bunday qoplash ko'pincha *pul korreksiyasi* deb nomlanib, kapitaldan foydani emas, balki kapitalning qaytimini nazarda tutadi. Boshqacha aytganda, davlat qarziga xizmat qiluvchi foiz to'lovlarining bir qismi amalda asosiy summa qaytimi hisoblanadi va shuning uchun chiziq tepasidagi foiz to'lovlaridan bu summani chiqarib tashlamasak, kamomad summasi bo'rttirib ko'rsatiladi. Operation balans tushunchasidan foydalanganda

ushbu muammo paydo bo'lmaydi. Bunday tushunchadan foydalanish, ayniqsa inflatsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda har bir yil uchun budget siyosatini davlatning real qarz darajasiga ta'sirini aniqlashda asosiy indikator bo'lganligi uchun muhim hisoblanadi.

Inflatsiya jarayonlari nisbatan yuqori bo'lgan sharoitlarda real davlat qarzining dinamikasi nominal davlat qarzi dinamikasiga nisbatan kelgusida qanday budget siyosati yuritilishi lozimligini bashoratlashda muhim indikator deb tan olingan. Yuqori inflatsiya sharoitlarida an'anaviy va operatsion balans ko'rsatkichlari va o'zgarish tendensiyalari orasida katta farqlanish mavjud bo'ladi. Yuqoridagi o'zaro bog'liqliklarni quyidagicha ifodalash mumkin:

Operatsion kamomad/

an'anaviy kamomad/

foiz to'lovlarining

ijobiy saldo

ijobiy saldo

inflasyon qismi

yoki

Operatsion kamomad/

an'anaviy kamomad/

foiz to'lovlarining

ijobiy saldo

ijobiy saldo

real qismi

Kamomadni moliyalashtirish.

Davlat budjeti kamomadining makroiqtisodiy holatga ta'siri kamomadni moliyalashtirish xarakteri bilan uzviy bog'liqdir. Yuqorida ko'rsatilganidek, kamomadni quyidagi to'rtta manba hisobiga moliyalashtirish mumkin: Markaziy bankdan qarz olish yoki emission moliyalashtirish, bank sektoridan qarz olish, bank bo'lmagan sektordan qarz olish, tashqi dunyo sektoridan qarz olish yoki valyuta zahiralaridan foydalanish.

Keng ma'noda olib qaraganda, yuqorida ko'rsatilgan barcha moliyalashtirish manbalari makroiqtisodiy disbalansga olib keladi: inflatsiyaga ta'sir qiluvchi ortiqcha pul massasi shakllanadi; tashqi qarz muammosini keskinlashtirib yuboruvchi haddan tashqari tashqi qarz hajmining oshib ketishi sodir bo'ladi; valyuta zahirolari tugab, valyuta inqiroziga olib keladi; haddan tashqari ichki qarzlarning oshib ketishi real

foiz stavkalari va davlat qarzini keskin oshishiga olib keladi. Biroq, amalda moliyalashtirishning muqobil usullari va ularning oqibatlari orasidagi o‘zaro bog‘liqliklar juda murakkab bo‘lishi mumkin. Bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan ko‘pchilik mamlakatlarda davlat budjeti kamomadining salmoqli qismi naqd pulga aylanib, inflatsiyaning asosiy manbaiga aylanadi. Hukumatning real resurslarni pul emissiyasi hisobiga nazorat qilish qobiliyatini ba‘zan ”emission daromad” deb nomlashadi. Ushbu tushuncha “inflatsion soliq” tushunchasi bilan uzviy bog‘langan.

Inflatsion soliq va emission daromadning ba’zi oqibatlari.

Hukumat xarajatlarni boshqa sektorlardan soliq tushumlarini oshirish, qarz olish yoki pul emissiyasi hisobiga moliyalashtirishi mumkin. Pul emissiyasi hisobiga olingan emission daromad hukumat xohlagan miqdorda qog‘oz pullar chiqarish monopol huquqiga egaligidan kelib chiqadi. Pulni bosib chiqarishga ketgan xarajatlar nominal kupyura hisobiga sotib olinadigan resurslar qiymatidan ancha past bo‘lganligi sababli, hukumat pul bosib chiqarish evaziga emission daromad oladi. Hozirgi sharoitlarda banklar ham pul yaratib, daromad olish imkoniyatiga egalar. Demak, emission daromadni mamlakatdagi pul emitentlarini yalpi real resurslarining summasi sifatida aniqlash mumkin. Shartli ravishda emission daromadni (S) quyidagicha yozish mumkin:

$$S = \frac{\Delta M}{P} \quad \text{yoki} \quad S = \mu m,$$

bu yerda $\mu = \frac{\Delta M}{M}$ yoki foizlarda nominal pul zahiralarining o‘sishi, va $m = \frac{M}{P}$.

Shunday qilib, emission daromadni boshqa sektorlardagi nominal pul qoldiqlarining (ΔM) narx darajasi (P) orqali o‘zgarishi sifatida, yoki foizlardagi nominal pul hajmining (μ) o‘sinh sur‘atini real pul hajmiga (m) ko‘paytirish orqali aniqlash mumkin.

Davlatning emission daromadi (S_g) tabiiy ravishda faqat davlatning zahira pullari emissiyasini va yuqoriroq samarali pullarni (N) ifodalagani uchun umumiy emission daromaddan ancha kam bo‘ladi.

$$S_g = \frac{\Delta H}{P} \quad \text{yoki} \quad S_g = \beta * \frac{H}{P},$$

bu yerda $\beta = \frac{\Delta H}{H}$, ya’ni foizlarda zahira pullarining qo‘shimcha o‘sinh sur‘ati.

Emissiya daromadini (S) “sof emissiya daromadi” va “inflatsion soliq” qismlarga ajratish mumkin:

$$S = \Delta m + \pi * m$$

yoki

$$S = \text{real pul qoldiqlarining o'zgarishi} + \text{inflatsiya darajasi} * \\ * \text{real naqd pul qoldiqlari hajmi},$$

yoki

$$S = \text{sof emission daromad} + \text{inflyatsion soliq},$$

– m – emission daromadning bir qismi bo‘lib, real naqd pul qoldiqlarining o‘zgarish summasini anglatadi. U real iqtisodiy o‘sinh yoki pulga talabning maqbul tarzda o‘zgarishi natijasida paydo bo‘ladi;

– emission daromadning inflatsion soliq qismi inflatsiya sur‘atiga teng bo‘lib, soliq stavkasini (D) boshqa sektorlardagi naqd pulning real hajmiga (m), ya’ni soliqqa tortish bazasiga ko‘paytmasiga teng. Inflatsiya nolga teng bo‘lgan sharoitlarda inflatsion daromad ham, tabiiyki nolga teng bo‘ladi, ammo emission daromad naqd pullar real qoldiqlarining o‘sishi to‘xtab qolmasa, hamon kelib tushib turadi.

Aholining real pul qoldiqlariga talabi o‘zgarmasa, emission daromad inflatsion soliqqa teng bo‘ladi.

Boshqa sektorlar to‘laydigan inflatsion soliq hukumat to‘playdigan soliqdan ancha katta bo‘ladi. Boshqacha aytganda, davlatning budget kamomadini qoplashda inflatsion soliq usulidan foydalanish siyosatini olib borishi natijasida boshqa sektorlarning majburiy xarajatlari hukumatning oladigan real resurslariga nisbatan ancha katta bo‘ladi. Shu ma’noda inflatsion soliq juda samarasiz hisoblanadi.

Inflatsiya sur‘atlari tezlashganda naqd pullarning real qoldiqlariga talab pasayadi, chunki boshqa sektorlar yuqori inflatsiya sharoitlariga moslashishga harakat qiladilar. Bunda ular shu jumladan, yuqori darajada soliqqa tortiladigan milliy valyutani xorijiy valyutaga almashtirish usullaridan ham keng foydalanadilar.

Yuqori darajadagi inflatsiya sharoitlarida naqd pulning real qoldiqlarini qisqarishi inflatsion soliq bazasining qisqarishiga teng bo'ladi. Soliqqa tortish bazasining bu tarzda qisqarishi hukumatni oldingi davrdagidek soliqni yig'ib olishi uchun inflatsiyani (soliq stavkasini) oshirishga majbur qiladi.

Grafik ko'rinishida emission daromad tarzidagi tushumlarni teskari o'girilgan U-shaklida chizish mumkin. Inflatsiya oshib borgan sari emission daromad ham oshib boradi, ammo ma'lum bir nuqtada u maksimumga erishadi, undan so'ng inflatsiyani oshib borgani bilan daromadlar pasayib boraveradi.

Ko'pchilik sanoati rivojlangan mamlakatlarda emission daromadning maksimal miqdori YaIMning 1-2 foizini tashkil qiladi, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa u 5-10 foizni tashkil qiladi.

Bank tizimidan qarz olishi. Markaziy bankdan kredit olish hisobiga qarz olishdan farqli o'laroq, depozit banklaridan olingan qarz avtomatik tarzda yuqori samarali pulni yaratmaydi (ya'ni, zahira pullarni). Markaziy bank tomonidan depozit banklarining kredit resurslariga qo'shimcha talablarini qondirish uchun ajratgan qo'shimcha zahiralar Markaziy bankdan olingan kredit bilan bir xildir. Lekin, Markaziy bank kredit resurslariga bo'lgan qo'shimcha talabni qondirishdan bosh tortsa, depozit banklari xususiy sektorni kreditlash hajmini davlatga ko'proq kredit berishi natijasida qisqartirishga majbur bo'ladi. Bu holat foiz stavkalari oshirilishi natijasida xususiy sektor xarajatlarini siqib chiqarish deb nomlanadi.

Bank bo'lmagan muassasalardan qarz olish. Ichki qarz majburiyatlarini ifodalovchi qimmatbaho qog'ozlar chiqarish, uni bank bank bo'lmagan muassasalarga sotish orqali budjet kamomadini noemission moliyashtirishi mumkin. Bu holda bank tizimi davlat majburiyatlarini joylashtirishda vositachi sifatida qatnashadi. Bank bo'lmagan muassasalardan shu tarzda qarz olish, davlat tomonidan qisqa muddatlarda pul bazasi yoki xalqaro zahiralariga tegmagan holda budjet kamomadini ushlab turish imkoniyatini beradi. Bunday usuldan foydalanish natijasida nafaqat inflatsiya, balki tashqi sektordagi inqirozning oldini olish mumkin. Biroq, ushbu tarzda qarz olishga xaddan tashqari berilib ketilsa, u xavfli vaziyatlarga

olib kelishi mumkin. Birinchidan, agar davlat qarzi miqdori chegaralanmasa, qisqa muddatlarda inflatsiyaning oldi olingani bilan, o'rta va uzoq muddatlarda inflatsiya katta darajalarga ko'tarilib ketadi. Ikkinchidan, aholidan to'g'ridan-to'g'ri qarz olish, xuddi bank kreditlari holatidek, xususiy sektordan pulni siqib chiqarib, mamlakat ichkarisida foiz stavkalarining ko'tarilishiga olib keladi. Yuqoriroq darajadagi foiz stavkalari iqtisodiy o'sish sur'atlarini nafaqat susaytiradi, balki davlat qimmatbaho qog'ozlarini yuqori foiz stavkalarida emissiya qilish, ushbu stavkada majburiyatlar uzishni taqozo qilib, qarzlariga xizmat ko'rsatish xarajatlarini oshiradi va natijada kelgusi budjet kamomadini yanada oshishiga olib keladi. Real foiz stavkalarining iqtisodiy o'sish sur'atlaridan baland bo'lgan holatlarda qarzlariga xizmat ko'rsatish xarajatlari tinmay o'sib boraveradi va natijada davlat qarzini talabga javob beradigan darajada ushlab turish imkoni bo'lmaydi.

Yuqori inflatsiyali mamlakatlarda davlat uzoq muddatli qarz majburiyatlarining qiymati tez sur'atlarda pasayib boradi va natijada ushbu vositaga bozorda erkin talab keskin kamayadi. Bunday paytlarda hukumat qarz majburiyatlarini joylashtirish maqsadida banklar va aholini majburlash (bevosita yoki bilvosita) usullaridan foydalanadi. Lekin bunday usullardan foydalanib, pullarning bir qismini musodara qilish hukumatga nisbatan ko'p yillar davomida ishonchsizlikni keltirib chiqaradi. Bunday hollarda davlat chidam bilan izchil noinflatsion makroiqtisodiy siyosat olib borib, moliyaviy barqarorlikka erishish natijasida ishonch uyg'otishga harakat qilish lozim.

Tashqi qarz. Hukumat tashqi kamomadni uzoq muddatli qarz majburiyatlarini norezidentlarga sotish yoki o'z valyuta zahiralarini hisobiga moliyalashtirish mumkin. Ammo zahiralar hisobiga kamomadni moliyalashtirish imkoniyatlari chegaralangan bo'ladi. Agar xususiy sektor valyuta zahiralarining tugayotganligidan xabar topib qolsa, kapitalni chetga chiqib ketishi, almashuv kursining tushib ketishi natijasida inflatsiya darajasi ko'tarila boshlaydi.

Dastavval kamomadni tashqi qarz yoki valyuta zahiralarini hisobiga moliyalashtirish milliy valyutani baquvvatlashuviga va eksporterlar

raqobatbardoshligini keskin pasayishiga olib keladi. Oldingi davrlarda haddan tashqari ko'p qarz olinganligi va rivojlanayotgan mamlakatlarning past darajada raqobatbardoshligi bugungi kunda ularning tashqi moliyalashtirish imkoniyatlarini izlashlarida jiddiy to'siq bo'lmoqda. Tijoriy manbalardan olinishi mumkin bo'lgan xorijiy kreditlarning foiz stavkalari esa, bu mamlakatlar uchun juda qimmatlik qilmoqda.

Agar budjet ko'rsatkichlari kassa emas, balki o'tkazish usulida hisoblansa, moliyalashning yana bir manbai paydo bo'ladi, u ham bo'lsa, muddati o'tib ketgan kreditorlik qarzlaridir. Ko'pchilik rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda mavjud bo'lgan muddati o'tib ketgan qarzдорlik tufayli kassa va o'tkazish usulida hisoblangan budjet kamomadi ko'rsatkichlari bir-biridan keskin farqlanadi. Muddati o'tib ketgan qarzдорlik ham kamomadni majburiy moliyalashtirish usuli bo'lib hisoblanadi.

10.4. Soliq-budjet siyosatining barqarorligi. Daromadlar va xarajatlar tahlili

Oxirgi yillarda iqtisodchi-olimlar orasida soliq-budjet siyosatining barqarorligi masalasi katta qiziqish uyg'otmoqda. Qanday holatlarda soliq-budjet siyosatini nobarqaror deb hisoblash mumkin? Siyosiy qaror qabul qiladigan shaxslar ma'lumoti uchun qanday operatsion indikatorlar ishlab chiqish lozim? Hozirgi paytgacha soliq-budjet siyosatining barqarorligiga yagona ta'rif ishlab chiqilmagan bo'lsa-da, ko'pchilik mutaxassislar tomonidan joriy va kelgusi budjetlar kamomadi YaIMga nisbatan tez sur'atlarda oshib borsa, olib borilayotgan soliq-budjet siyosati barqaror emas, deb qabul qilingan. Shunday qilib, barqarorlikning eng asosiy ko'rsatkichlaridan biri qarzning YaIMga nisbati va uning o'sish sur'atlaridir.

Ko'pchilik mamlakatlar tajribasi qarz miqdorining YaIMga nisbati baland bo'lishi oxir-oqibatda olib borilayotgan siyosatning kelajagi yo'qligi va uni o'zgartirish lozimligini ko'rsatdi. Qarzning YaIMga nisbati baland bo'lishi real foiz stavkalariga bosim o'tkazib, budjet kamomadi sharoitlarida qarzga xizmat ko'rsatish

xarajatlari salmog'ining oshishiga olib keladi va budget siyosatida ixchamlik va egiluvchanlik imkoniyatlaridan foydalanishga imkon bermaydi. Moliya bozorining ishtirokchilari olib borilayotgan siyosat ishonch uyg'otmayotganligi sababli, uni o'zgartirish lozimligiga ko'zi yettib, o'z kutishlarini o'zgartirilardi va natijada hukumat olib borayotgan siyoatni davom ettirish imkoniyati tugaydi. Bu esa, hukumat tomonidan qarz majburiyatlarini joylashtirish masalasida muammolar tug'diradi va oxir oqibatda ularni sota olmay qoladi. Bozor faoliyatining qatnashchilari qarz miqdorining YaIMga nisbati qanchalik baland bo'lsa, hukumat shunchalik xarajatlarni qisqartirish hisobiga budget chegaralarida qolishi qiyinlashishini tushunib yetadilar va hukumatning emission moliyalashtirish yoki qarzni to'lashdan bosh tortish va qarzni qaytarish shartlarini o'zgartirish xavfi oshadi.

Yuqoridagilardan ayon bo'ldiki, soliq-budget siyosatida barqarorlikni aniqlash masalasiga yondoshuvlardan biri bo'lib, foiz stavkalari va inflatsiyaning maqbul o'sish sur'atlariga mos keladigan YaIMga nisbatan davlat qarzning miqdorini o'sishiga yo'l qo'ymaydigan kursni belgilash hisoblanar ekan. Yuqoridagi me'yorni olib borilayotgan soliq-budget siyosatining barqarorlik darajasiga baho beradigan indikator sifatida talqin qilish mumkinligiga qaramasdan, u ayrim kamchiliklardan holi emas. Birinchidan, iqtisodiy adabiyotlarda davlat qarzining YaIM miqdori qancha bo'lishi optimal yoki maqbul bo'lishi to'g'risida hech qanday ma'lumot yo'q. Ikkinchidan, davlat qarzinining YaIMga nisbatini barqaror darajada ushlab turish budget siyosatida juda qattiq cheklovlar bilan bog'langan bo'ladi. Shuning uchun soliq-budget siyosatini olib borishda to'lovga qobiliyatlilik tushunchasidan kelib chiqadigan qattiq talablarni biroz yengillashtirish masalasini ko'rib chiqish lozim.

To'lovga qobiliyatlilik tamoyili barqaror budget siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. Uning asosiy talabi qarzning YaIMga nisbati real foiz stavkasi bilan YaIMning real o'sish sur'ati ayirmasi sur'atlarida bo'lishidir. Buning ma'nosi – qarzning nominal o'sishi nominal foiz stavkalaridan pastroq bo'lishi kerak.

Barqarorlik ko'rsatkichlari. Quyida keltirilgan soliq-budget siyosatining barqarorlik indikatorlari to'lovga qobiliyatlikni ta'minlash uchun qarzning YaIMga

nisbatini qanday darajada o'zgarishi lozimligini belgilashga xizmat qiladi. Bunda emission daromadning doimiy darajasi o'zgarmas deb qabul qilinadi:

- *kapitalning sof ijobiy qiymati*. Soliq-budjet balansining diskontlangan joriy qiymati qarzning YaIMga nisbati darajasiga teng yoki undan katta bo'lishini ta'minlash uchun davlat idoralari kapitali sof qiymatining manfiy bo'lmasligi talab qilinadi. Ushbu ssenariyga ko'ra budjet barqarorligini ta'minlash uchun ko'rsatkichlarga tuzatish kiritish miqdori - qarzni YaIMga nisbatining boshlang'ich darajasi bilan diskontlangan joriy asosiy balans orasidagi farqqa teng bo'lishi lozim;

- *asosiy uzilish*. U diskontlangan asosiy balans miqdoriga teng bo'lib, qarzning YaIMga dastlabki nisbati bilan haqiqatdagi asosiy balans orasidagi farq darajasida barqarorlashadi. Agar uzilish miqdori musbat bo'lsa qarzning YaIMga nisbatini barqarorlashtirish uchun xarajatlarni qisqartirish talab qilinadi. Ushbu ko'rsatkichdan axborotlar yyetarli bo'lmagan vaqtlarda muvaffaqiyatli foydalanish mumkin. Bu indikator dastlabki qarz barqaror bo'lgan sharoitlarda kapitalning sof ijobiy qiymatini aniqlashdagidek hisoblanadi;

- *o'rta muddat bashoratlaridagi soliq bo'yicha uzilish*. Ushbu ko'rsatkichdan xarajatlar, transfertlar, real foiz stavkalari va YsIM real o'sish sur'atlarining oshishi bashorat qilinayotgan (foiz to'lovlaridan tashqari) sharoitlarda to'lanmagan davlat qarzlarini soliq tushumlari bilan mutanosibligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tuzatishlar kiritishni aniqlashda foydalaniladi.

Daromadlar tahlili. Daromadlar va tushumlarning dinamikasiga baho berishda asosiy e'tibor daromadlarning YaIMga nisbati va bu ko'rsatkichni iqtisodiyoti o'xshash bo'lgan boshqa mamlakatlar bilan taqqoslashga qaratiladi. Soliqlarning oshishi hisobiga budjet kamomadini qisqartirish zarur bo'lgan paytlarda iqtisodiy xarajatlar davlat xarajatlarini qisqartirish xarajatlari bilan taqqoslash lozim. Odatda, bu sharoitlarda ikkalasini ham qisqartirish zarur bo'ladi. Ko'pchilik hukumatlar ma'muriy va siyosiy nuqtai nazardan amalga oshirish osonroq bo'lgan qisqa muddatli, bir marotabalik daromadlarni ko'paytirish choralarini ko'rishga harakat qiladilar. Biroq, masalaga bunday yondoshish, ko'pincha soliq tizimi faoliyatida

qiyinchiliklar, samarasiz foydalanish va qoida buzilishlariga olib kelishi natijasida nafaqat yyetarlik darajada daromadlarni to'play ololmaslik, balki mehnat va jamg'arishga rag'batni susaytirish natijasida iqtisodiy o'sish sur'atlarini pasaytirishga olib keladi. Soliq tizimining samaradorlik darajasi va zarur islohotlarni aniqlashda mutaxassislar ko'pincha elastiklik va dinamiklik koeffitsiyentlaridan foydalanishadi.

Soliqlarning elastiklik va dinamikligi. Soliqning elastikligi deganda ushbu soliq tizimi sharoitida (u o'zgarmay qolganda) tushumlarni o'zgarishinining soliqqa tortish bazasi o'zgarishiga nisbati tushuniladi. Elastiklik soliq tizimida ichki ixchamlikni ta'minlaydi va uni quyidagicha yozish mumkin:

$$\frac{\text{Soliq tushumlarining elastikligi}}{\{(o'zgarmay qolgan soliq tizimi sharoitlarida) soliq tushumlarining o'zgarish foizi\} soliqqa tortish bazasining o'zgarish foizi}$$

Agar soliqqa tortish bazasining o'rniga YaIM ko'rsatkichini qo'llasak, YaIM bo'yicha elastiklik quyidagicha hisoblanadi:

$$\text{Elastiklik} = \frac{\Delta AT / AT}{\Delta GDP / GDP}, \quad (10.1)$$

bu yerda: AT – o'zgarmay qolgan soliq tizimi sharoitlaridagi soliq tushumlari; $\square$ D - ko'rsatilgan davrdagi o'zgarish.

Agar elastiklik koeffitsiyenti birdan katta bo'lsa, yangi soliqlar kiritmasdan yoki soliq stavkalarini o'zgartirmasdan, ya'ni soliq siyosatida diskretsion o'zgarishlarsiz YaIMga nisbatan soliq tushumlari oshganligini anglatadi va soliq tizimi elastiklik xarakteriga ega deb hisoblanadi. Elastiklik – ijobiy holat hisoblanadi va davlat xarajatlarining o'sishi YaIM o'sishiga nisbatan yuqori bo'lgan mamlakatlarda uni rag'batlantirish lozim. Tez rivojlanayotgan xalq xo'jaligi tarmoqlarini soliqqa tortish jarayonida odatda soliq tizimi YaIMga nisbatan elastik bo'ladi, unda soliq stavkalari progressiv xarakterda bo'ladi, soliqlar muayyan obyektдан emas, balki qiymatdan olinadi va soliqlarni yig'ish qisqa muddatlarda amalga oshiriladi. Oxirgi holat inflatsiya sharoitlarida juda muhim hisoblanadi, chunki soliqlarni hisoblash va

undirish vaqtlari orasida katta uzilish bo'lsa, soliq tushumlarining real qiymati pasayib ketadi.

Elastik soliq tizimi iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi va natijada ijtimoiy-iqtisodiy infratizimga xarajatlar muntazam oshib boraveradi. Agar xarajatlarning oshib borishi soliq tushumlarining oshishi bilan birgalikda sodir bo'lmasa, bu kamomadli budjetga va uning oqibatida tashqi va ichki qarzlarning ko'payishiga olib keladi. Soliq tizimi elastik bo'lgan hollarda odatda mehnat unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan va hukumatga ishonchni pasaytiradigan rejalashtirilmagan tez-tez soliqlarni ko'tarish masalalari kun taribida turmaydi.

Elastiklik koeffitsiyenti nafaqat umumiy soliq tushumlari, balki alohida olingan soliq turlari bo'yicha ham hisoblanadi. Masalan, qiymatdan olinadigan soliq muayyan obyektдан olinadigan soliqqa nisbatan elastikroqdir. Yana bir elastik soliq turlaridan biri individual daromad solig'idir.

Soliqning dinamikligi YaIMning nisbiy ko'payishiga nisbatan to'rejagan soliq summasi sifatida aniqlanadi. Soliq tushumlari hajmining o'zgarishi soliq tizimidagi har qanday o'zgarishlar, shu jumladan soliqqa tortish tarkibidagi diskretion o'zgarishlar tufayli sodir bo'lishi mumkin. Soliqning dinamiklik koeffitsiyenti quyidagicha ifodalanadi:

$$\text{Dinamiklik} = \frac{\Delta T / T}{\Delta \text{GDP} / \text{GDP}}. \quad (10.2)$$

ΔT ushbu davrda haqiqatda soliq tushumlarining o'zgarishini ifodalaydi. Elastiklik koeffitsiyentini hisoblash formulasidagi ΔT ham soliq tushumlaridagi o'zgarishni ifodalaydi, lekin elastiklik koeffitsiyentida ma'lum davrda soliq tizimidagi o'zgarishlar hisobiga olinishi mumkin bo'lgan samara inobatga olingan edi. Agar tizimdagi o'zgarishlar daromadlarning ko'payishiga olib kelsa, dinamiklik darajasi elastiklikdan yuqori bo'ladi, chunki soliq tizimidagi o'zgarishlar sodir bo'lmagan holdagi soliq tushumlari summasiga nisbatan haqiqiy soliq tushumlari summasi kattaroq bo'ladi.

Soliq tizimini baholash. Mutaxassislar har bir mamlakatning soliq tizimiga baho berishda uning qo'yilgan vazifalarga qanchalik javob berishi va tizimni islohot qilish imkoniyatlarini hisobga olishilari kerak. Soliqqa tortish tizimining asosiy vazifasi daromadlarni to'plash bo'lishiga qaramasdan, u ko'pincha boshqa maqsadlarda, masalan, bozor xo'jaligining kamchiliklarini tuzatish va daromadlarni qayta taqsimlashga ko'maklashish maqsadlarida ham foydalaniladi. Yuqoridagi maqsadlarni hisobga olgan holda soliq tizimining samaradorligiga baho berish uchun bir nechta me'yorlar ishlab chiqilgan. Mamlakatning soliq tizimini tahlil qilishda *Tanzi diagnostik testidan* foydalanish mumkin.

Daromadlar tushumining samaradorligiga baho berish uchun Vito Tanzi 8 ta miqdoriy diagnostik testdan foydalanishni taklif qilgan:

1. *Konsentratsiya indeksi.* Yalpi daromadlarning katta qismi nisbatan kam soliqlar soni va soliq stavkalari hisobiga tushadimi?

2. *Dispersiya indeksi.* Faqat noqulaylik tug'diradigan kam miqdorda tushumli soliqlar soni ozmi (yoki umuman yo'qmi)?

3. *Eroziya indeksi.* Haqiqiy soliqqa tortish bazasi potensial baza bilan maksimal tarzda mos keladimi?

4. *Yig'implarni kechikish indeksi.* Soliq to'lovchilar soliqlarni aytarliq kechikmasdan va qanchalik o'z vaqtida to'laydilar?

5. *Muayyanlik indeksi.* Soliq tizimi muayyan stavkali kam sonli soliq turlariga asoslanganmi?

6. *Obyektivlik indeksi.* Ko'pchilik soliqlar obyektiv o'lchash mumkin bo'lgan soliqqa tortish bazasidan olinadimi?

7. *Soliqlar yig'ishni ta'minlash indeksi.* Soliqlar samarali yig'imi to'laligicha ta'minlanadimi?

8. *Soliqlar yig'ishdagi xarajatlar indeksi.* Soliqlar yig'ishda budjet xarajatlari minimumga keltirilganmi?

Yuqoridagi savollarning barchasiga ”ha” javobi berilsa, Tanzi testiga ko‘ra, soliq tizimi tushumlarning samaradorligi nuqtai nazaridan eng yuqori bahoga sazovor bo‘ladi.

Soliq faoliyatining tahlili. Yetarli miqdorda daromadlar tushumini eng samarali tarzda ta‘minlash har qanday soliq tizimining eng asosiy vazifasi hisoblanadi. Agar yanada aniqroq gapiriladigan bo‘lsa, tartibli va iqtisodiy resurslarni xususiy foydalanuvchilardan davlatga noinflatsion tarzda o‘tkazish – soliq tizimining bosh vazifasi hisoblanadi. Soliq faoliyatini tahlil nomi bilan mashhur bo‘lgan metodologiyadan foydalanib, daromadlarni yig‘ish unumdorligining me‘yoriga baho berish mumkin.

Daromadlarni yig‘ish tizimining mahsuldorligiga baho berish asosida soliq tushumlarini oshirish zarurati tug‘ilganda davlat boshqaruv idoralari minimal noqulay oqibatlarga olib keladigan qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi yotadi. Ushbu kontekstda soliqlar yig‘imi samaradorligining keng qo‘llaniladigan indikatori bo‘lib soliq tushumlarining YaIMga nisbati yoki *haqiqiy soliq koeffisienti* hisoblanadi. Hukumatning soliq yig‘imlari bo‘yicha faoliyatiga umumiy tarzda baho berishda ushbu ko‘rsatkich boshqa malakatlar ko‘rsatkichlari bilan taqqoslanadi. Biroq, haqiqiy soliq koeffisienti mamlakat soliq salohiyatini (potensialini) inobatga olmaganligi sababli, soliq faoliyatiga baho berishda noto‘g‘ri natijalarga olib kelishi mumkin.

Soliq salohiyati o‘rtacha intensivlikdagi soliqqa tortish bazasidan foydalangandagi soliq tushumlari darajasidir. Demak, soliq faoliyatining koeffitsiyenti sifatida haqiqatda yig‘ilgan soliqlarning soliq salohiyatiga nisbati sifatida aniqlash mumkin. Soliq salohiyati aniq ko‘rsatkich emas, lekin uni umuman olganda, soliqqa tortish faoliyatining samaradorligiga baho berishda qo‘llash mumkin.

Soliq salohiyati uchta asosiy omil bilan aniqlanadi: iqtisodiyotning ochiqlik darajasi; uning rivojlanish va daromadlari darajasi; daromadlar tarkibi.

Soliq faoliyatining tahlili soliqlar yig'ish samaradorligiga baho berishga ko'mak bersada, u ayrim kamchiliklardan ham holi emas. U me'yoriy ko'rsatkich emas, past soliq faoliyati rivojlangan mamlakatlarda ham soliq koeffitsiyenti milliy qadriyatlarni hisobga olgan holda yyyetarli hisoblanishi mumkin. Soliq faoliyatining tahlili, shuningdek juda statik xarakterga ega. U soliq koeffitsintlari va soliq faoliyatida tez-tez sodir bo'ladigan o'zgarishlarni hisobga olmaydi. Dinamika nuqtai nazaridan talablarga javob beradigan indikator bo'lib YaIMga nisbatan soliq tushumlarining elastikligi tan olingan.

Xarajatlar tahlili. Davlat xarajatlari davlat idoralarining faoliyatini moliyalashtirishga ketgan xarajatlari bo'lib, unga davlat idoralari tomonidan tovar bilan ta'minlash va xizmatlar ko'rsatish, ishlab chiqarish va transfertlar kiradi. Davlat tovar va xizmatlarni ikki ko'rinishda taqdim qiladi: bevosita aholi individual yoki kollektiv tarzda iste'mol qiladigan (masalan, jamoat transporti va milliy parklar) tovar va xizmatlar; ishlab chiqarish omillaridan yanada samarali foydalanishga xizmat qiladigan tovar va xizmatlar (masalan, sanoat va port inshootlari).

Ko'pchilik xarajat turlari, masalan, infratuzlmaga xarajatlar va yo'llar ikkala kategoriyani qamrab oladi. Pensiya va ishsizlik nafaqasi kabi ba'zi xarajatlar bevosita uy xo'jaligi va tijorat korxonalariga transfertlar ko'rinishida taqdim qilinadi.

Davlat xarajatlarining darajasi va tarkibiga baho berishda tahliliy yondashish talab qilinadi. Bunday tizimli yondashish beshta elementdan iboratdir:

- makroiqtisodiy yondashishiga mos keladigan yalpi xarajatlar darajasi va budget balansi;
- ba'zi tovar va xizmatlarni taqdim qilishda xususiy sektordan oqilona foydalanish (davlat tomonidan moliyalashtirish zarur bo'lgan hollarda ham u birinchi navbatda ijtimoiy tovarlarni taqdim qilish, tashqi samarani ta'minlash va aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimidan foydalanuvchilarga nafaqa berish, ya'ni xususiy bozor bajarmaydigan yoki yetarli darajada bajarmaydigan vazifalarni hal qilishga yo'naltirishi kerak);

– xarajatlarni taqsimlash ham bitta dastur doirasida, ham boshqa dasturlar bilan o‘zaro bog‘langan holda olinadigan qaytimga asoslanishi lozim;

– ushbu dasturga yoki sektorga joriy xarajatlar va kapital qo‘yilmalarning puxta tahlili boshqa dasturlar va sektorlarga xarajatlarni oqilona taqsimlanishi bilan bog‘langan bo‘lishi;

– xuddi shunday puxta tahlil budjet institutlariga nisbatan ham talab qilinish lozim. Bunda yalpi xarajatlarni cheklash, samaradorligini oshirish va adolatlikni ta’minlash uchun rag‘batlantirish va qo‘llanmalardan foydalanish talab qilinadi.

Xarajatlar strategiyasiga tuzatishlar kiritish ko‘pincha budjetning qisqartirilishini talab qiladi. Amaldagi soliq stavkalarini oshirilishining salbiy oqibatlari va daromadlarni ko‘paytirishining muqobil manbalarini mavjud emasligi budjet xarajatlarini qisqartirishga majbur qilishi mumkin. Qattiq budjet cheklovlarini his qilayotgan bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarda budjetga tuzatishlar kiritish dasturlari xarajatlar sohasida eng muhim yoki ustuvorroq turlarining aniqlanishini talab qiladi. Xarajatlarni isloh qilish yo‘lidan borayotgan mamlakatlarda hukumatlar qaysi sohalarda xususiy sektor davlat sektorining o‘rnini muvaffaqiyatli egallashi, qaysilarini esa cheklangan resurslar sharoitida davlat o‘z tasarrufida saqlab qolishi eng samarali natijalariga olib kelishi mumkinligini aniq belgilab olishi zarur.

Davlat xarajatlarining turlari. Davlat xarajatlarining asosiy kategoriyalari bo‘lib ish haqi, tovar va xizmatlar, subsidiyalar, transfertlar, foiz to‘lovlari va kapital qo‘yilmalarga xarajatlar hisoblanadi.

Ish haqi. Davlatning davlat tashkilotlaridagi mehnat va ish haqi masalalariga yondoshuvi davlat xarajatlarining samaradorligiga sezilarli ta’sir qiladi. Maoshlarning past stavkalari va kasb-texnik tarkibdagi shkalalarda differensiasiyani yetarli darajada emasligi ish faoliyatida rag‘batning past bo‘lishi va davlat xizmatchilarining past mehnat unumdorligiga olib keladi. Boshqa tomondan, barcha sohalarda davlat sektori asosiy ish beruvchi sifatida qatnashuvi ish haqi fondi bo‘yicha xarajatlarning keskin oshib ketishiga olib keladi. Oxirgi yillarda ayrim mamlakatlarda olib borilayotgan islohotlar davlat xizmatchilarini ro‘yxatdan o‘tkazib, “o‘lik jonlar”,

vakansiya va vaqtincha ish joylarini yo‘qotish, ishga qabul qilishni to‘xtatish, davlat tomonidan kafolatlangan ish bilan ta’minlashga barham berish, o‘z xohishiga ko‘ra nafaqaga chiqish dasturlarini amalga oshirish, ish haqini kamaytirish, ish haqining yuqori chegarasini belgilash va uni muzlatib qo‘yish, va eng og‘iri – ishdan bo‘shatish kabi choralarni ko‘rishga yo‘naltirilmoqda. Boshqa bir qancha mamlakatlarda rahbarlik bo‘g‘inlaridagi xodimlarning maoshlarini oshirishga qaratilgan urinishlar bo‘ldi.

Tovar va xizmatlar. Ko‘pchilik mamlakatlarda joriy xarajatlarning salmoqli qismi davlat boshqaruv idoralarining ma’muriy va doimiy (nakladnoy) xarajatlari bilan bog‘liq bo‘lgan tovar va xizmatlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Ushbu kategoriyadagi xarajatlar hisobiga anchagina mablag‘larni tejashga erishish imkoniyati mavjudligiga qaramasdan tovar va xizmatlar hajmini qisqartirish hukumat ko‘rsatayotgan xizmatlar sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini unutmazlik kerak. Tovar va xizmatlarga xarajatlarning asosiy qismi asosiy fondlar faoliyati va unga xizmat ko‘rsatish bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Joriy faoliyatga yyetarlik mablag‘larning sarflanmasligi (ta’minot yoki ishchi kuchi xarajatlariga o‘xshab) maorif va sog‘liqni saqlash kabi sohalarda samaradorlikning keskin pasayib ketishiga olib keladi. Asosiy fondlarga texnik xizmat ko‘rsatish uchun yetarlik miqdorda mablag‘lar ajratilmasa, bu ularning tez sur‘atlarda yemirilishiga sabab bo‘ladi. Amalda foydalanilayotgan infratuzilmaning buzilishi sharoitlarida yangi quvvatlarni yaratish siyosati juda qimmat va kam unumlidir. Ishlab turgan aktivlar amortizatsiya darajasining hisob-kitoblarida sof investitsiyalar manfiy bo‘lib qolishi mumkin. Boshqa tomondan, amaldagi dasturlarning samaradorligini pasaytirmaslik uchun makroiqtisodiy islohotlarni olib borish davrida bir vaqtning o‘zida barcha xomashyo, materiallar va xizmatlarga xarajatlarni qisqartirmaslik zarur.

Subsidiyalar. Ishlab chiqaruvchilar yoki iste’molchilarga evaziga hukumat hech narsa talab qilmaydigan har qanday turdagi davlat tomonidan ko‘rsatiladigan yordamga subsidiya deyiladi. Subsidiyalar quyidagi shakllarda berilishi mumkin: ishlab chiqaruvchi yoki iste’molchilarga bevosita to‘lovlar (naqd pul ko‘rinishidagi

grantlar); davlatga taqdim qilinadigan kreditlarning foiz stavkalaridan ham past foiz stavkalarida kreditlar ajratish va ularning qaytimini davlat tomonidan kafolatlash (kredit subsidiyalari); muayyan soliq majburiyatlarini qisqartirish (soliq subsidiyalari); tovar va xizmatlarni bozor narxidan pastroq narxlarda taqdim qilish (natura ko‘rinishidagi subsidiyalar); bozor narxlaridan qimmatroq narxlarda davlat tomonidan tovar va xizmatlarni xarid qilish (subsidiyalangan tayyorlov); bozor narxlariga yoki bozorga kirishga ta’sir qiladigan davlat tomonidan me’yoriy aktlarni qabul qilinishi (me’yoriy aktlar bilan bog‘liq subsidiyalar); almashuv kursini oshirilgan darajada ushlab turish (valyuta subsidiyalari).

Subsidiyalar yaqqol yoki yashirin (bilvosita) bo‘lishidan qat’i nazar, ko‘chilik bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarda ular davlat budjetiga og‘ir yuk bo‘lib tushadi. Agar subsidiyalar davlat budjetining xarajatlar qismida ko‘rsatilsa, ular yaqqol subsidiyalar, aks holda – yashirin subsidiyalar deb yuritiladi. Yashirin subsidiyalar bozor narxidan past yoki baland direktiv narxlar, masalan, energoresurslar narxi, yoki noreal foiz stavkalari yoki oshirilgan almashuv kursini ushlab turish maqsadida o‘rnatilishi sababli sodir bo‘ladi. Davlat subsidiyalarining asosiy qismi yashirin bo‘lgani sababli, ularning miqyos va hajmi budjetda to‘la aks etmaydi. Subsidiyalar, shuningdek iqtisodiy resurslarni qayta taqsimlanishiga ham ta’sir o‘tkazadi va ayrim hollarda tarkibiy islohotlarga to‘siq bo‘lishi mumkin. Iqtisodiy rivojlanishga to‘siq bo‘lgan subsidiya sifatida energoresurslarga bozor narxidan past darajada narxning belgilanishini misol sifatida ko‘rsatish mumkin. Bunday hollarda iste’molchilar energoresurslarni tejamay, haddan tashqari ortiqcha sarflaydilar.

Subsidiyalarga baho berishda quyidagilarga e’tibor berish kerak:

Samaradorlik. Hamma subsidiyalar ham salbiy oqibatlariga olib kelavermaydi. Samarali subsidiyalar resurslarni minimal qayta taqsimlash va rag‘batlantirish tizimida eng kam uzilishlar bilan ayrim vazifalarni yechishga imkon berishlari kerak. Samarali subsidiyalar, shuningdek aniq manzilga qaratilgan bo‘ladi, ya’ni ular faqat oldindan mo‘ljallangan guruhlar va faoliyat turlariga yyetib boradi.

Davomiylik. Subsidiyalardan dasturlar orqali foydalanishni xohlaydigan kishilar o'z moddiy ahvolini yaxshilagandan so'ng ham subsidiyalardan foydalanishni davom ettirishni xohlaydilar. Natijada, vaqt o'tishi bilan subsidiyalar samaradorligini yo'qotadi. Ba'zi subsidiyalarni berish vaqti oldindan chegaralab qo'yilishi shart bo'lsada, dasturlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muntazam subsidiyalar berilish sabablari tahlil qilib borilishi, agar kerak bo'lsa, dasturlarga tuzatishlar kiritish, ularning manzili o'zgartirilishi yoki umuman to'xtatilish mumkin.

Shaffoflik. Davlat budjetida subsidiya dasturlarining hajmi va bu maqsadlarda ajratilgan mablag'larni ochiq, ravshan ko'rsatish zarur. Shaffoflikni ta'minlash ham davlat, ham xususiy sektorlar nuqtai nazaridan maqsadga muvofiqdir. Bu ayrim dasturlar bo'yicha olingan foydani qilingan xarajatlar bilan taqqoslashga imkon beradi. Davlat boshqaruv idoralari, odatda o'z budjetlarida qancha mablag', qaysi subsidiya turlari ajratilishini, iloji bo'lgan taqdirda, soliqlar, foiz stavkalari subsidiyalari ko'rinishida yoki me'yoriy aktlar va pul ko'rinishidagi transfertlar yordamida subsidiyalar ko'rinishida taqdim qilinishini ko'rsatishlari talab qilinadi. Davlat boshqaruv idoralari subsidiyalarni oluvchilar gap qanday miqdordagi subsidiyalar to'g'risida ketayotganligini faqat subsidiyalar naqd pul transfert ko'rinishida bo'lsagina, aniq bilishlari mumkin. Bunday shaffoflik boshqa tomondan moliyaviy imkoniyatlar va subsidiyalar bilan ta'minlash zaruratlarini taqqoslash imkonini beradi.

Moliyalashtirish. Subsidiyalar budjet mablag'lari hisobiga moliyalashtirilishi lozim. Budjetdan tashqari marketingni davlat boshqaruvi, yarimdavlat agentliklar va maqsadli budjetdan tashqari fondlar yoki Markaziy bank kabi vositalar yordamida muammoni hal qilish, havfli hisoblanadi. Subsidiyalashning bunday usullari shaffoflikni susaytiradi va ishlab chiqaruvchilar narxlarini pasaytirishi natijasida ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Amaliy yondashishni tanlash. Subsidiyalash dasturlari davlat boshqaruv idoralarining tashkiliy-ma'muriy imkoniyatlariga mos kelishi kerak. Yashirin (bilvosita) subsidiyalarni ochiq (bevosita) subsidiyalashga nisbatan samarali nazorat

qilish ancha mushkul ish. Dasturning ma'muriy xarajatlarini kamaytirish maqsadida subsidiyalar maksimal tarzda shaffof bo'lishi talab qilinadi.

Ijtimoiy sug'urta xarajatlari. Budjet xarajatlarining salmoqli qismi jamiyatning kam ta'minlangan qatlamlarini, shu jumladan qarilik nafaqalari va ishsizlarga nafaqalar, himoyalash hissasiga to'g'ri keladi. Markazlashgan rejalashtirish sharoitlarida davlat korxonalari bevosita yoki bilvosita ijtimoiy sug'urta xarajatlarini o'z zimmalariga olgan edilar. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida bu korxonalarini isloh qilish natijasida ijtimoiy majburiyatlarning qisqartirilishi yoki batamon korxonalar tomonidan voz kechilishi natijasida davlat tomonidan ishonchli ijtimoiy himoya tizimini yaratish masalasi ko'ndalang bo'lib qoldi.

Ijtimoiy sug'urta tizimi. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlar o'z ijtimoiy sug'urta tizimlarini yaratishga kirishib, iqtisodiy islohotlarning qisqa muddatli salbiy oqibatlarini kam ta'minlangan aholi qatlamlari uchun bir muncha yumshatishga harakat qila boshladilar. Salbiy oqibatlar asosiy tovar va xizmatlarga subsidiyalarning qisqartirilishi natijasida narxlarning oshishi va davlat korxonalarini isloh qilish natijasida ishsizlikning paydo bo'lishi oqibatida kelib chiqdi. Ijtimoiy himoya mexanizmi har bir mamlakatning, shu jumladan ma'muriy tizim xususiyatlari, shuningdek ijtimoiy himoyalashning rasmiy va norasmiy shakllarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak.

Ijtimoiy himoya quyidagi asosiy elementlardan iborat bo'lishi talab qilinadi:

- aholining sotib olish qobiliyatini eng kerakli mahsulotlarni yuqori inflatsiya sharoitlarida ham sotib olishga yyetarli darajada saqlab qolishga qaratilgan tovarlarga manzilli subsidiyalar va naqd pul ko'rinishida qo'shimcha to'lovlar;

- nafaqalar (pensiylar) va mehnatga yaroqsiz bo'lib qolishni sug'urtalash, yosh bolalarga qarash uchun nafaqalar kabi ijtimoiy himoya mexanizmlari tarkibida manzillik tamoyilining bo'lishi;

- ishsizlik nafaqasi va ijtimoiy ishlar dasturlari ishsizlikning oshib ketishi oqibatlarini kam daromadli aholi guruhlariga nisbatan yumshatishga qaratilgan bo'lishi.

Ijtimoiy himoyalash tizimini yaratishda asosiy e'tibor manzillik va rag'bat elementlarining mavjud bo'lishi hisoblanadi. Ijtimoiy ne'matlarni faqat unga muhtoj bo'lganlarga olishlari kerak.

Muhtojlik darajasini aniqlashning aniq mexanizmi bo'lmagan sharoitlarda ko'pchilik mamlakatlarda manzillikka asoslanib, nafaqani faqat bolalar va nafaqaxo'rlargagina berish bilan chegaralaniladi. Agar uy xo'jaliklari daromadlarining oshib borishi bilan nafaqalar qisqartirib borilsa, ijtimoiy himoyalashga sarflangan moliyaviy mablag'lar ham kamayib boradi. Biroq, ushbu holat bunday nafaqalarni oladiganlarga yaqqol ko'rinishda bo'lmagan soliq stavkalarining oshirilishi natijasida sodir bo'lib, rag'batlantirish tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Kapital xarajatlari. Iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida olib borilayotgan tizimiy islohotlar davlatdan samarali kapital qo'yilmalarining sarflanishini talab qiladi. Bu xomashyo va omillarning nisbiy narxlari masalasida noaniqliklarga yo'l qo'yilmasligi bilan birgalikda olib borilishi lozim. Biroq, bunday dasturlar aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan dasturlar ortiqcha xarajatlarga yo'l qo'ymaydigan, ya'ni iqtisodiy nuqtai nazardan maqsadga muvofiq bo'lishi lozim. Bunda asosiy e'tibor bozor bilan raqobat qilmasdan, uni to'ldirishga yo'naltirilgan davlat investitsiyalariga qaratiladi. Davlat uchun ustuvor yo'nalishlar bo'lib maorif, sog'liqni saqlash, shahar kommunal xo'jaligi va qishloq joylarda infratuzilimni tashkil qilish hisoblanadi.

Davlat xarajatlari va davlatning roli. Ayrim ehtiyojlarni bozor qondira olmagan uchun, davlat ishlab chiqarish jarayonlarida qatnashishga majbur bo'ladi. Bozor milliy mudofaa, ijtimoiy tartibni saqlash yoki milliy parklarni saqlash kabi aholi uchun ijtimoiy tovarlarni yetkazib berish sohalarida ishlab chiqaruvchilar foyda ololmaganliklari sababli, ushbu sohada faoliyat yuritmaydi. Davlat o'z xarajatlari, me'yoriy aktlari va soliqqa tortish orqali bozor faoliyati qamrab olmagan sohalarda faoliyat yuritadi.

Soliqqa tortishdan foydalanib, xarajatlarni amalga oshirish yoki me'yoriy aktlarga asoslanib davlat uzoq muddatli kelgusi davrda chegaralangan yoki faol ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Unda davlat sektorining roli iloji boricha aniq va yaqqol belgilanishi lozim.

Kvazifiskal operatsiyalar. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan ko'pchilik mamlakatlarda Markaziy bank va boshqa davlat moliya muassasalari davlat budjeti kamomadiga ta'sir qiluvchi moliyaviy operatsiyalarni olib borishadi. Kvazifiskal operatsiyalar tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- valyuta tizimi orqali almashuv kursini subsidiyalash;
- davlat idoralari, korxonalar yoki xususiy tizimni kreditlashda subsidiyalash;
- kafolatlangan almashuv kursi singari ta'minlanmagan yoki shartli majburiyatlarni qabul qilish.

Davlat sektori budjet balansini hisoblashda agar yuqorida ko'rsatilgan operatsiyalar keng tarqalgan bo'lsa, ular bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar albatta inobatga olinishi lozim. Ba'zi mamlakatlarning markaziy va davlat banklari katta miqdorda zarar ko'rishlari natijasida moliyaviy tizim nobarqaror holatga kelib qoladi. Bunday operatsiyalarning mavjudligi davlat budjetining iqtisodiyotga ta'sirini aniqlashda odatdagi ko'rsatkichlar orqali aniq va ishonchli tahlil qilib bo'lmashligini ko'rsatadi. Kvazifiskal operatsiyalar bilan bog'liq soliq va subsidiyalar resurslarning normal taqsimlanishiga imkon bermaydi.

Kvazifiskal operatsiyalarni har doim ham aniq hisoblash imkoniyati bo'lmasada, ularni alohida Markaziy bank va davlatning moliyaviy muassasalari balanslarida ko'rsatish lozim. Agar ularni aniq ko'rsatish imkoniyati bo'lsa, kvazifiskal soliqlar va subsidiyalarni normal budjet operatsiyalari sifatida bevosita soliqlar va subsidiyalar ko'rinishida budjetda ko'rsatish kerak. Bunda kvazifiskal operatsiyalar bilan bog'liq, ya'ni yagona almashuv kursining yo'qligi sababli bevosita subsidiya shaklidagi kreditlash budjet balansida ko'rsatilishi lozim bo'lgani kabi, uzoq muddatli muammolarni yechish asosiy vazifa sifatida ko'riladi. Kvazifiskal operatsiyalar miqyosini chegaralash uchun qonuniy tarzda Markaziy bankning kvazifiskal

operatsiyalar bilan shug'ullanish imkoniyatlarini chegaralash lozim. Bunday tizimiy islohotlarning asosiy maqsadi kvazifiskal operatsiyalarni minimal darajaga keltirish va keyinchalik ulardan batamon voz kechish hisoblanadi.

Davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvini bozor iqtisodiyotidagi kamchiliklar va resurslarni odilona taqsimlash zarurati nuqtai nazaridan oqlash mumkin. Lekin, faollik darajasi yanada oshib ketsa, jamiyat uchun bevosita va bilvosita iqtisodiy xarajatlar ham oshib ketishi mumkin. Shuning uchun ko'pchilik bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda davlatning xo'jalik faoliyatiga aralashuvini kamaytirishga qaratilgan qonuniy me'yorlar ishlab chiqilgan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat xarajatlarning YaIMdagi salmog'ini past darajada bo'lishi, davlat rolining chegaralanganligini emas, balki davlatning moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklanganligi, narxlarning haqiqiy xarajatlarni ifodalamasligi yoki kvazifiskal operatsiyalarning ko'pligidan bo'lishi mumkin.

Davlat xarajatlarning makroiqtisodiy oqibatlari. Davlat xarajatlari yalpi taklifga (yoki ishlab chiqarishga) ham, yalpi talabga (yoki xarajatlarga) ham ta'sir o'tkazadi. Moddiy aktivlar va inson kapitaliga samarali davlat investitsiyalari kiritilsa, investitsiyalar qaytimi oshadi, xususiylar kirib keladi va oxir oqibatda iqtisodiy o'sish sodir bo'ladi. Bu oz fursatlarda taklifda o'z ifodasini topadi va infratuzilmaning ba'zi muammolarini hal qilishga ko'maklashadi. Ammo maorif kabi sohalarga davlat kapital qo'yilmalarining qaytimi uzoq muddatda to'la namoyon bo'ladi. Davlat xususiylar bilan chegaralangan resurslarni olish bo'yicha raqobatlashadi va davlat xarajatlari (qarz olish yoki soliqlar hisobiga moliyalashtiriladigan) xususiylar va investitsiyalarni siqib chiqaradi. Ko'pincha bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda xarajatlarni soliqlar yoki kreditlar hisobiga moliyalashtirish imkoniyati cheklangan bo'ladi. Qisqa muddatlarda davlat soliqlarni yig'ish bobida na tashkiliy, na qarz olishi uchun rivojlangan ichki kapital bozoriga ega bo'ladi. Markaziy bank kreditlari hisobiga qarz olish esa bevosita inflatsion jarayonlarga olib keladi. Hukumatning ko'proq xarajat qilish tomon harakatlari ushbu holatda moliyalashtirish muammosini keskinlashtiradi. Bu esa o'z

navbatida inflatsiyani oshishi va soliq to'lovchilarining soliq to'lovlarini kechiktirib to'lashlari natijasida soliq tushumlarining real qiymatini pasaytiradi. Keyingi oqibatlari ichki foiz stavkalari, investitsiya xarajatlari va davlat uchun kredit resurslari qiymatining oshishi natijasida uzoq muddatli kelajakda iqtisodiy o'sish imkoniyatlari pasayadi va qarzдорlik masalasi paydo bo'ladi. Davlat qarzlar va kreditlar bo'yicha foizlarni to'lash uchun yetarli darajada soliq tushumlariga ega bo'lish uchun qarzga olingan resurslardan samarali foydalanish talab qilinadi. Davlat sektorining qarzga olgan mablag'larini ko'payishi, keyinchalik soliqlarni ko'paytirish yoki davlat ko'rsatadigan xizmat hajmlarini qisqartirish hisobiga bu qarzni uzish va foizlarni to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarini oshiradi. Kapitalning bir mamlakatdan ikkinchisiga ko'chib o'tishida mobillikning yuqori bo'lgan sharoitlarida foiz stavkalarining oshishi, ushbu mamlakatga kapitalning oqib kelishi, almashuv kursining ko'tarilishi va tashqi savdoda raqobatbardoshlikning pasayishiga olib keladi.

Qarzning betaraflik (neytrallik) xarakteri. Qarzning betaraflik gipotezasiga ko'ra (yoki Rikardo ekvivalentligi) qarz olishni muddati kechiktirilgan soliqqa tortish bilan tenglashtirish mumkin. Davlat xarajatlarining ma'lum darajasida joriy soliqlarning qisqarishi budjet kamomadiga olib keladi va natijada qarz olish zarurati tug'iladi. Agar xususiy sektor bugungi kundagi yuqori darajada bo'lgan davlat xarajatlari kelgusida kattaroq miqdorda soliqqa tortishga olib kelishi mumkinligini tan olsa, ushbu gipotezaga ko'ra kelgusidagi soliqlar ortishini qoplash uchun xususiy jamg'arish miqdori oshadi. Rikardoning ekvivalentlik gipotezasida soliq orqali moliyalashtirishdan qarz hisobiga moliyalashtirishga o'tilganda milliy jamg'armaning umumiy miqdori o'zgarmaydi, chunki dastlabki davrda davlat xarajatlarining qisqarishi xususiy sektorda jamg'armaning oshishi bilan qorejaadi. Shunday qilib, davlat qarz olishi hisobiga soliqlarning qisqartirilishi soliq yukini pasaytirmaydi, faqat uni kelgusi davrga kechiktiradi.

Na sanoati rivojlangan, na rivojlanayotgan mamlakatlarda qarzning betaraflik xarakteri gipotezasi empirik isbotini topmagan. Agar sanoati rivojlangan mamlakatlar

bo'yicha ma'lumotlar har xil natijalarga olib kelgan bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa gipoteza umuman isbotini topmadi.

Makroiqtisodiy va tizimiy aloqalar orasidagi bog'liqlik. Davlat xarajatlari sohasidagi siyosatning makroiqtisodiy va tizimiy qirralari bitta muammoning ikki tomoni hisoblanadi. Mudofa, iqtisodiy va ijtimoiy xizmatlar kabi davlat sektorining dasturlarini ularning zarurligi va makroiqtisodga ta'sirini inobatga olmasdan, muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin emas. Samaradorlik muammosi turli tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun davlat xarajatlarini sarflash xarajatlarning iqtisodiy tarkibi (ish haqi, boshqa tovar va xizmatlar, transfertlar va h.k.) bilan bog'liq bo'lmagan holda ko'rib chiqilishi mumkin emas. Tarmoqlar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish makroiqtisodiy tarkib doirasida barqaror narxlar sharoitida makroiqtisodiy o'sish, tashqi savdo balansining ijobiy saldosi va adolatli taqsimlashni ta'minlashga qaratilgan bo'lishi zarur.

10.5. Davlat sektori operatsiyalarini bashoratlash. Daromadlar va transfertlarni bashoratlash. Davlat xarajatlari va sof kreditlashni bashoratlash. Moliyalashtirish manbalarini bashoratlash

Davlat xarajatlari mamlakat iqtisodiyotidagi umumiy xarajatlar va ishlab chiqarish hajmiga kuchli ta'sir o'tkazadi. Tovlar va xizmatlarga davlat xarajatlari yalpi talabning muhim tashkiliy qismlaridan biridir. Soliqqa tortish siyosati va transfertlar xususiy sektorning biror-bir xarajatlarni amalga oshirish bo'yicha qabul qiladiga qarorlariga ta'sir o'tkazadi. Budjet kamomadini moliyalashtirish usullari inflatsiya va ichki foiz stavkalari darajasiga kuchli ta'sir qilib, asosiy pul agregatlari bashorati bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Budjet agregatlari bundan tashqari ko'p hollarda iqtisodiyotda sodir bo'ladigan nomutanosiblik sababchisi bo'lishi mumkin. Uni bartaraf qilish uchun maxsus soliq choralari, davlat xarajatlari va moliyalashtirish bobida tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Davlat xarajatlari va tarnsfetrlarni bashoratlash.

Soliq tushumlari bashorati. Soliqlarni bashoratlashda soliq bazasi va soliq stavkalari bo'yicha taklif qilinayotgan o'zgarishlarni farqlash lozim. *Soliq bazasi* deganda biror-bir turdagi soliqqa tortiladigan miqdor (summa) tushuniladi. Keng tarqalgan soliq bazasi sifatida daromadlar, ish haqi va import hajmini keltirish mumkin.

Soliqlar soliqqa tortiladigan bazaning xarakteriga ko'ra tasniflanadi. Har bir soliq kategoriyasi qonunchilikda belgilangan soliq bazasiga ega. Biroq, ko'pincha soliq qonunchiligida soliq bazasiga ta'rif murakkab tarzda beriladi. Soliq stavkalarining tarkibi turli soliq bazalari elementlari uchun turlicha bo'lishi, ba'zi hollarda esa soliqdan ozod qilingan bo'lishi mumkin. Soliq bazasiga oid qonunchilik nizomlaridagi o'zgarishlar to'g'risida batafsil axborotlar mavjud bo'lmagan hollarda makroiqtisodiy bashoratlar tayyorlash jarayonida soliq bazasining miqdori to'g'risida taxminiy ma'lumot berishi mumkin bo'lgan axborotlardan foydalanish mumkin. Moliyaviy dasturlash doirasining boshqa elementlariga asoslanib hisoblanadigan o'zgaruvchilardan foydalanish, muqarrar ustunlikka ega. Masalan, importga soliqlarni bashoratlashda soliq bazasiga yaqinroq miqdor sifatida to'lov balansi bashoratlaridagi importning umumiy hajmini olish mumkin.

Davlat daromadlarini kerakli tarzda tasniflagandan so'ng, bashoratlarni tayyorlashda soliq funksiyalaridan foydalanish mumkin. Uning yordamida biror-bir soliq bazasidan qancha soliq olinishi mumkinligini taxminiy soliq bazasi orqali aniqlash mumkin. Soliq tushumlarining maydaroq guruhlariga ajratish mavjud ma'lumotlarga uzviy bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga tushumlarni guruhlashda, kamida asosiy soliq kategoriyalari ajratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Undan tashqari, turli soliq bazalariga ega bo'lgan soliq turlari, ayniqsa katta miqdordagi soliq tushumlari to'g'risida gap ketganda, albatta alohida turga ajratilishi lozim.

Tushumlarni bashoratlashda soliq stavklari va soliq bazalari orasidagi teskari bog'liqlikni inobatga olish kerak. Masalan, zebi-ziynat predmetlariga mansub bo'lgan avtomobillar sotishga soliqlarning sezilarli darajada oshirilishi, sotiladigan avtomobillar soni kamayishi, ya'ni sotishdan olinadigan soliq tushumlarining

qisqarishiga olib kelishi mumkin. Teskari aloqalarni hisobga olish barcha sektorlar orasidagi aloqalarni inobatga oladigan makroiqtisodiy modellar asosida amalga oshirilishi mumkin.

Biror-bir davrda tushumlar summasining ko'payishi ham avtomatik, ham diskretsion o'zgarishlar natijasida sodir bo'lishi mumkin. Birinchi turdagi o'zgarishlarga soliq bazasining o'sishi misol bo'la oladi. Masalan, importning o'sishi import bojlaridan tushumlarning ham o'sishiga olib keladi. Diskretsion o'zgarishlar soliq tizimidagi o'zgarishlar hisobiga sodir bo'ladi. Masalan, soliq stavkalarining o'zgarishi, yangi soliqning kiritilishi, amaldagi soliq qamrovining o'zgarishi yoki soliq yig'ish tizimining yaxshilanishi. Soliq tushumlaridagi o'zgarishlarni tahlil qilish uchun avtomatik va diskretsion o'zgarishlar hisobiga o'zgarishlarni ajratib olish talab qilinadi.

Avtomatik va diskretsion o'zgarishlar orasidagi farq soliq tushumlari o'zgarishining mamlakat iqtisodiyotida aks ta'sirini umumlashtirishga xizmat qiluvchi yangi ikkita tushunchaning paydo bo'lishiga olib kelgan. Soliq tizimining *dinamikasi koeffitsiyenti* biror davrda haqiqatda yig'ib olingan soliq tushumlari summasining foizlardagi o'zgarishini YaIMning foizlardagi o'zgarishiga nisbati sifatida aniqlanadi. Agar dinamika koeffitsiyenti birdan katta bo'lsa, soliq tushumlaridagi foiz o'zgarishlari YaIMning foizlardagi o'zgarishiga nisbatan katta ekanligidan dalolat bersa, birdan kichik bo'lsa, aksini anglatadi. Soliq tushumlari summasining avtomatik o'zgarishini hisoblash uchun elastiklik koeffitsiyenti tushunchasi kiritilgan. U soliq tushumlari va YaIMning o'sish sur'atlarini taqqoslashga asoslanadi. Bunda, ko'rilayotgan davrda soliq tizimida o'zgarishlar sodir bo'lmagan, deb olinadi. Elastiklik tushunchasi soliq tizimining dinamikasi koeffitsiyentiga ancha yaqin bo'lib, undan eng muhim farqi - elastiklik soliq tushumlari summasining faqat avtomatik o'zgarishini ifodalaydi. Agar elastiklik birga teng bo'lsa, ushbu soliq tizimi saqlanib qolganda, soliq tushumlari (foizlarda) YaIM qanchaga ohsa, shunchaga ko'payadi.

Soliq bo'lmagan tushumlar. Ularga mulk daromadi, turli yig'imlar, jarimalar, nosanoat sotishlar, shuningdek davlat korxonalarining operatsion foydalaridan (Markaziy bankning foydasi ham) tushumlar kiritiladi. Nosoliq tushumlarining ayrim elementlari uchun tizimiy asoslar topish imkoniyati bo'lsada, umuman olganda ushbu moddalarda juda katta tebranishlar mavjud bo'lib turadi. Shuning uchun nosoliq tushumlarni trendlar yoki YaIMga bog'liq holda bashorotlash tavsiya qilinadi.

Transfertlar. Budjet transfertlarini bashorotlash xorijiy davlatlar va donor tashkilotlardan kutilayotgan tushumlar to'g'risidagi rasmiy ma'lumotlarga asoslanishi kerak. Ular to'lov balansidagi bir tomonlama rasmiy bashoratlarga mos kelishi lozim. Agar avvalgi yillarda donorlardan haqiqatda kelib tushgan tushumlar har doim rejalashtirilgan tushumlardan farqlangan bo'lsa, ushbu omilni transfertlarni bashorotlashda albatta hisobga olish kerak.

Davlat xarajatlari va sof kreditlashni bashorotlash.

Davlat xarajatlarining iqtisodiy tasnifidagi yirik kategoriyalarni belgilovchi endogen omillarni hisobga olish talab qilinadi. Ish haqi darajasiga – davlat xizmatchilarining ish haqi va bandlik sohasidagi siyosatning ayrim qirralari, ayniqsa narxlarning oshishi sharoitida ish haqining indeksatsiyalash qoidalari, hamda xususiy sektordagi ish haqining o'zgarishlari ta'sir o'tkazadi. Tovar va xizmatlarga xarajatlar budjet xarajatlarining oshishini cheklovchi mexanizmlar mavjudligiga qaramasdan, narxlarning oshishi bilan bog'liq bo'ladi. Foiz to'lovlarini ichki va xalqaro stavkalar, hamda ichki va tashqi davlat qarzlarini belgilaydi. Foiz to'lovlarini joriy yilda olingan yangi qarzlar uchun ham to'lanishi sababli, foiz to'lovlari va moliyalashtirishning tegishli moddalari bashorati bosqichma bosqich muvofiqlashtirilishi talab qilinadi. Ba'zi transfertlarning miqdori, masalan, ishsizlik nafaqalari miqdori, iqtisodiy faollik darajasi demografik omillarga bog'liq bo'ladi. Bir qancha mamlakatlarda davlat kapital qo'yilmalarining miqdori tashqi moliyalashtirish imkoniyatlari mavjudligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga davlat xarajatlari sohasidagi qarorlar mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning muhim ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Hukumat

tomonidan davlat umumiy xarajatlarining maksimal summasi belgilangan hollarda ba'zi bir xarajat turlari cheklanib qolishi mumkin.

Moliyalashtirish moddalarini bashoratlash. Moliyalashtirish elementlarini bashoratlashda quyidagi uchta manbaga alohida e'tibor beriladi: tashqi moliyalashtirish; ichki nobank qarzlar; ichki bank tizimidan qarzlar.

Tashqi moliyalashtirishni bashoratlashda asosiy axborot manbai bo'lib hukumatning yangi qarz olish rejalari va qarzlarni uzish grafiklari hisoblanadi. Shu bilan birga bu ma'lumotlar xorijiy kreditorlarning yangi kreditlar berish va qarzlarni to'lash bashoratlari va niyatlariga mos kelishi kerak. Bunday axborotlar to'lov balansining kapital bilan operatsiyalar hisobida ko'rsatiladi. Agar tashqi qarz miqdori va tarkibini aniqlash muammolar tug'dirsa, bunday bashoratlar tashqi qarz masalasini tahlil qilish doirasida ko'rib chiqilishi kerak.

Ichki nobank qarzlar moddasi bo'yicha davlat moliya muassasalari va boshqa ichki kreditorlar orasida joylashtirishi mumkin bo'lgan qarz majburiyatlarining sof summasi bashoratini tuzish lozim. Bunda ushbu majburiyatlarning chiqarilishi foiz stavkalariga (oqibatda qarz mablag'lari qiymatiga), hamda davlat sektoridan tashqaridagi mablag'lar hisobiga moliyalashtirish, ayniqsa xususiy sektorda ishlab chiqarishni kengaytirishga kapital qo'yilmalar uchun yo'naltirilgan mablag'lar imkoniyatlariga ta'sirini hisobga olish talab qilinadi.

Bank tizimi hisobiga moliyalashtirish summasi qoldiq (saldo) usulida aniqlanadi va bu summa yalpi ichki kreditning o'sish rejalari bilan taqqoslanadi.

Qisqacha xulosalar

Soliq-budjet sohasi va soliq-budjet siyosatidagi o'zgarishlar xo'jalik rivoji va iqtisodiy siyosatida muhim rol o'ynaydi. Soliq-budjet siyosati yalpi iqtisodiy resurslardan foydalanish va yalpi taklif darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Pul-kredit va valyuta siyosatlari kabi, u to'lov balansining holati, qarzдорlik darajasi, inflatsiya sur'atlari va iqtisodiy o'sishni belgilaydi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Davlat sektori va uning asosiy funksiyalari haqida gapirib bering?
2. Davlat operatsiyalarini o'lchash usullari va ularning xususiyatlarini gapiring?
3. Davlat moliya statistikasi tizimi va uning qanday asosiy tamoyillarini bilasiz?
4. Budget balansi nima?.
5. Davlat budgetining tahlilini gapiring?
6. Budget disbalansini hisoblash va kamomadni moliyalashtirish nima?
7. Budget balansini o'lchash usullarini gapiring?
8. Budget kamomadini moliyalashtirishning inflatsion va noinflatsion manbalariga nimalar kiradi?
9. Inflatsion soliq va emission daromadning oqibatlari haqida gapiring ?
10. Bank tizimidan va bank bo'lmagan muassasalardan qarz olish. Tashqi qarz nima?
11. Soliq-budget siyosatining barqarorlik ko'rsatkichlari.
12. Soliqlarning elastiklik va dinamikligi.
13. Soliq tizimini baholash. Tanzi konsepsiyasi.
14. Soliq faoliyatini tahlil qilishning ahamiyati.
15. Davlat xarajatlarining turlari va o'ziga xos xususiyatlari.
16. Subsidyalarga baho berishda nimalarga e'tibor qaratish kerak?
17. Ijtimoiy himoya qanday unsurlardan iborat bo'lishi talab qilinadi?
18. Davlat xarajatlari va davlatning roli.
19. Kvazifiskal operatsiyalar va ularning tarkibi.
20. Davlat xarajatlarining makroiqtisodiy oqibatlari.
21. Makroiqtisodiyvatizimlialoqalarorasidagibog'liqlik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi Prezident Islom Karimovning 2010-yilda

mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi / Xalq so'zi 22.01.2011

2. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir. I.A.Karimov. – Toshkent: «O'zbekiston», 2010. – 34-50 b.

3. I.A.Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: O'zbekiston, 2009.-56 b.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir” hamda “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot.-2010.– 63-85 b.

5. Кудина М.В. Основы экономики: Учебник. – ФОРУМ: ИНФРА-М, 2006.

6. Бухгалтерский финансовый учет: Учебник для вузов/Под ред.проф. Ю.А.Бабаева. – М.:Вузовский учебник, 2006.

7. Yakubov I.O., G'oyibnazarov B.K., Abdusattarova X.M. Balans muammolari. O'quv qo'llanma.-T.:O'zRyO'U'AJ. 2004.

8. Якубов И.О., Тошмухамедов Н.С. Балансовые проблемы. – Т.: ТГЭУ, 2008.

11-Mavzu: TO'LOV BALANSI TAHLILI VA BASHORATI

Reja:

- 11.1. O'zbekiston Respublikasi tashqi aloqalarini rivojlantirishning ahamiyati
- 11.2. Mamlakatning to'lov balansi tushunchasi.
- 11.3. To'lov balansining taxminiy ko'rinishi va undagi operatsiyalar.

11.1. O'zbekiston Respublikasi tashqi aloqalarini rivojlantirishning ahamiyati

Hozirgi sharoitda tashqi iqtisodiy omil har bir mamlakat iqtisodiyotining taraqqiy etishida va mustahkamlanishida muhim o'rin tutadi. U ayniqsa, mustaqilrivojlanishyo'ldanborayotganO'zbekistonuchun alohida ahamiyatga ega. Ilgarilarisobiq ittifoq tarkibiga kirganrespublika o'zimustaqilravishda xorijiyamamlakatlarbilan aloqa qilishdan mahrum edi. Undan tashqari, sobiq ittifoqda xalqaro ayirboshlashning kapital va ishchi kuchlari migratsiyasi, valyuta munosabatlari deyarli rivojlanmagan edi. Shuning uchun ham o'tkazilayotgan islohotlarning vazifalaridan biri qisqa muddatda respublikani jahon xo'jaligit izimiga kirib borishi va barcha mamlakatlar bilan teng huquqli hamkorligini ta'minlash hisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarning ahamiyati nimada? Bu savolga shunday javob berish mumkin. Har qanday mamlakat uchun xalqaro ayirboshlashning ahamiyati birinchidan, xalqaro mehnat taqsimoti va boshqa mamlakatlardagi nisbatan ishlab chiqarish sarflari pastroq bo'lgan mahsulot tayyorlashga ixtisoslashuvi natijasida olinadigan qo'shimcha foyda bilan belgilanadi. Qo'shimcha foyda jahon va ichki narxlar o'rtasidagi farqlardan tashkil topadi. Ikkinchidan, tashqi iqtisodiy munosabatlarni yo'lga qo'yish va erkinlashtirish orqali: eng yangi texnologiyalar, boshqarish usullari, chet el investitsiyalari va boshqalardan foydalaniladi va milliy iqtisodiyotni yanada tezroq ko'tarishga ko'maklashadi.

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalaridan butun jahon xo'jaligi ham yutadi. Chunki, uning qatoriga O'zbekiston kabi resurslarga boy va katta ishlab chiqarish imkoniyatlariga ega bo'lgan mamlakatning qo'shilishi umumjahon iqtisodiy imkoniyatlarini kuchaytiradi.

Tarixan tarkib topgan ob'ektiv sabablarga ko'ra, O'zbekiston sobiqittifoqdosh respublikalar iqtisodi bilan chambarchas bog'langan edi. Shu bois, O'zbekiston tashqi iqtisodiy siyosati ikki yo'nalishda ishlab chiqilmoqda va amalga oshirilmoqda. Birinchi yo'nalish O'zbekistonni ishlab chiqarish, moliya, transport, energetika, fan, madaniyat va boshqa sohalardagi ko'pyillik aloqalar bog'lab turgan sobiqittifoqdosh respublikalar bilan munosabatlari. Ikkinchi yo'nalish - respublika ilgarilari mustaqil o'zaro munosabatlarda bo'lmagan xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlari.

Agarda, birinchi yo'nalish O'zbekistonga kam xarajatlar sarflab, keng ko'lamda xomashyo, tayyor mahsulotlar, texnologiyalar, fan-texnika axboroti keng bozorlariga kirib borishni, shuningdek, rivojlangan transport tarmoqlari va aloqa vositalaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlasa, ikkinchi yo'nalish esa respublikaga iqtisodiyotni faol ravishda jahon hamjamiyatiga birlashuvining iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy asosini yaratish imkonini beradi.

11.2. Mamlakatning to'lov balansi tushunchasi.

Mamlakatning to'lov balansi- bir yil davomida bir mamlakatning boshqa bir davlatdagi alohida shaxslar, firmalar, hukumat tashkilotlari o'rtasida tuziladigan shartnomalarning yig'ma balansi.

Milliy iqtisodiyotning ochiqqligi o'zining barcha yutuq va kamchiliklari bilan to'lov balansi ko'zgusida o'z aksini topadi. Uning asosini joriy operatsiyalar balansi va kapital harakatining balansi tashkil etadi.

Mamlakatning ma'lum bir vaqt davomidagi barcha xalqaro iqtisodiy faoliyati, shu jumladan tashqi savdo, kapital va ishchi kuchi migratsiyasi ham uni o'sishi. (balansida o'z aksini topadi. Modomiki, har qanday tashqi iqtisodiy bitim valyutalarni ayirboshlash bilan kuzatiladigan oldi-sotdi jarayoni hisoblanar ekan,

pirovard hisobda mamlakatning jahon bozoridagi faoliyati natijalari xorijiy valyutaning tushumlari va xarajatlarida ifodalanadi.

11.1-jadval

Joriy operatsiyalar balansini quyidagi ko‘rinishda ifodalash mumkin:

Daromadlar:	Xarajatlar:
Tovarlar eksporti	Tovarlar importi
(shu jumladan patent va litsenziyalar)	(shu jumladan patent va xizmatlar)
Chet mamlakatlarga qilingan investitsiyadan daromad (mablag‘ kirimi)	Mamlakatda chet el investitsiyalaridan daromadni o‘tkazish (mablag‘ chiqishi)
Mamlakatda joylashgan chet El fuqarolarining transfert to‘lovlari(nafaqa, sovg‘a, aliment)	Chet el fuqarolariga transfert to‘lovlari
Chet el fuqarolarining mamlakat ichkarisidagi xaridlari	Mamlakat fuqarolarining chet el aktivlarini xarid qilish.
Joriy operatsiyalar bo‘yicha sal‘do(musbat yoki manfiy)	

Bir tomondan xorijdan tushadigan barcha tushumlarni, boshqa tomonidan-mamlakatning xorijga barcha to‘lovlarini ko‘rsatuvchi hujjatga to‘lov balansi deyiladi. Mamlakat to‘lov balansining tushumlarni (kredit «+» belgi) faqat eksport orqali, ya’ni milliy tovarlarni xorijiy valyutaga ayirboshlaganda ta’minlash mumkin. Uning xarajat qismi, aksincha, xorijiy tovarlarni sotib olish yoki import bilan bog‘liq valyutadagi xarajatlari (debet «-» belgi) ifodalaydi. Bunda tovar deganda ayirboshlashning har qanday ob’ekti: moddiy mahsulotlar, xizmatlar, ishchi kuchi, kapital va valyutaning o‘zi tushuniladi.

11.3. To‘lov balansining taxminiy ko‘rinishi va undagi operatsiyalar.

Mamlakat to‘lov balansining taxminiy ko‘rinishi va undagi operatsiyalar quyidagi jadvalda keltirilgan (11.2-jadval).

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, barcha tashqi iqtisodiy operatsiyalar ikki katta guruhga bo‘linadi: joriy operatsiyalar va kapital harakati bilan bog‘liq operatsiyalar.

Joriy operatsiyalarning asosiy moddasi tovarlar eksporti va importi hisoblanadi, ular o‘rtasidagi farq tashqi savdo balansining qoldig‘i deb ataladi.

11.2.-jadval

Mamlakat to‘lov balansining taxminiy ko‘rinishi

№	Moddalar	Kredit(+) yoki eksport hisobiga tushumlar	Debet (-) yoki import xarajat- lari	Sof kredit (+) yoki sof debet(-)
I.	Joriy operatsiyalar hisobi			
1.	Tovarlar	+125	-205	-80
2.	Tashqi savdo balansining qoldig‘i			
3.	Xizmatlar	+35	-37	-2
4.	Investitsiyalar daromadi (foizlar va dividendlar)	+17	-10	+7
5.	Pul jo‘natmalari	+1	-8	-7
6.	Joriy operatsiyalar bo‘yicha balans qoldig‘i			
II.	Kapitallar harakati hisobi			
7.	Investitsiyalar va boshqa o‘rta va uzoq muddatli kapital	+90	-37	+53
8.	Kapitallar harakati balansining qoldig‘i			+53
9.	Joriy operatsiyalar va kapitallar harakati bo‘yicha balansning qoldig‘i)			-29
III	Rasmiy rezervlar (oltin, SDR, Xalqaro valyuta fondidagi (XVF) rezerv pozitsiyalari, xorijiy valyutalar, XVF kreditlari)	29		29

Manba: Mualliflar ishlanmasi

Keltirilgan misolda joriy operatsiyalar bo'yicha balans salbiy qoldiqqa ega (-82). Bu shuni bildiradiki, import operatsiyalari natijasida mamlakatda xorijiy valyutalarga bo'lgan talab, uning eksport operatsiyalar bilan ta'minlanadigan taklifidan oshiq bo'ldi. Boshqacha so'z bilan aytganda, bunday vaziyatda mamlakat joriy operatsiyalar bo'yicha taqchillikka ega va uni qoplash uchun u yo qarz oladi (uzoq va qisqa muddatli kreditlar) yoki o'zining ko'chmas mulkini (yer, inshootlar) va moliyaviy aktivlarini (aksiya va obligatsiyalar) sotadi.

Biroq, mamlakat joriy to'lov balansining musbat qoldig'iga ham ega bo'lishi mumkin, agarda uning eksport operatsiyalari import operatsiyalaridan oshib ketsa. U holda mamlakatdaxorijiy valyutalar ortiqchaligi paydo bo'ladi va ular xorijdan ko'chmas mulkni sotib olishga yoki boshqa mamlakatga qarz ko'rinishida yo'naltirilishi mumkin.

Investitsiyalash va kreditlash bilan bog'liq operatsiyalar to'lov balansining keyingi bo'limida kapitallar harakati hisobida aks ettiriladi. Savdo balansidagi taqchillik bilan bog'liq bo'lgan aktivlarni sotish yoki ular eksporti valyutalar oqib kelishini ta'minlaydi va bu kapitalni mamlakatga olib kelishini bildiradi. Va aksincha, import yoki boshqa mamlakatlardan aktivlarni sotib olish valyutaxarajatlari bilan bog'liq bo'lib, kapitalni mamlakatdan chiqib ketishini bildiradi.

Joriy operatsiyalar va kapitallar harakati balansi bir-birlari bilan jips o'zaro bog'langan: birinchisining taqchilligi (-82) kapitalning sof oqib kelishi (+53) bilan moliyalashtiriladi. Bu ikki bo'lim aslida bir-birlarini baravrlashtirib turishi lozim, ammo haqiqatda doimo taqchillik yoki ortiqchalik hollari mavjud. SHu sababli turli mamlakatlarning Markaziy banklari xorijiy valyutalar zahiralarini barpo etadi. Ular valyuta rezervlari deb ataladi va umumiy balansni tartibga solishda, uning qoldig'ini nolga keltirishda foydalaniladi.

To'lov balansi mamlakatning tashqi dunyo bilan o'zaro hisob-kitoblari ahvolini ifodalar ekan, davlat uni mutanosib holda bo'lishidan manfaatdordir. Bunday mutanosiblikka qisqa muddat ichida valyuta kursini o'zgartirish hisobiga erishish mumkin.

Valyuta bozoriga bostirib kirish (interventsiya) va Markaziy bankning hisob stavkasini o'zgartirish yo'li bilan milliy valyuta kursini pasaytirish mumkin. Bu import hajmining qisqarishiga olib keladi. Oqibatdaxorijiy valyutalar tushumining o'sishiga sabab bo'ladi. Hukumat kamdan-kam hollarda o'z valyutasini deval'vatsiya qilishga yoki bir martalik qadrsizlanishiga yo'l qo'yishi mumkin.

Qisqacha xulosalar

Har qanday mamlakat uchun xalqaroayirboshlashning ahamiyati, xalqaro mehnat taqsimoti va boshqa mamlakatlardagi nisbatan ishlab chiqarish sarflari pastroq bo'lgan. Mahsulot tayyorlashga ixtisoslashuvi natijasida olinadigan qo'shimcha foyda bilan belgilanadi.

Mamlakatning to'lov balansi – bir yil davomida bir mamlakatning boshqa bir davlatdagi alohida shaxslar, firmalar, hukumat tashkilotlari o'rtasida tuziladigan shartnomalarning yig'ma balansidir. Uning asosini joriy operatsiyalar balansi va kapital harakatining balansi tashkil etadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Tashqi iqtisodiy aloqalar ahamiyati nimada?
2. To'lov balansi nima?
3. Davlat budjeti daromad va xarajatlar strukturasi aytib bering?
4. Sug'urta tuzilmasini tushuntirib bering?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi Prezident Islom Karimovning 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi / Xalq so'zi 22.01.2011

2. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir. I.A.Karimov. – Toshkent: «O'zbekiston», 2010. – 34-50 b.

3. I.A.Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. -T.: O‘zbekiston, 2009.-56 b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir” hamda “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” nomli ma’ruzalarini o‘rganish bo‘yicha O‘quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot.-2010.– 63-85 b.

5. Кудина М.В. Основы экономики: Учебник. – ФОРУМ: ИНФРА-М, 2006.

6. Бухгалтерский финансовый учет: Учебник для вузов/Под ред.проф. Ю.А.Бабаева. – М.:Вузовский учебник, 2006.

7. Yakubov I.O., G‘oyibnazarov B.K., Abdusattarova X.M. Balans muammolari. O‘quv qo‘llanma.-T.:O‘zRYoUAJ. 2004.

8. Якубов И.О., Тошмухамедов Н.С. Балансовые проблемы. – Т.: ТГЭУ, 2008.

12-Mavzu: PUL-KREDIT SEKTORI TAHLILI VA BASHORATI

Reja:

12.1. Pul-kredit sohasining hisoblarini yuritish. Moliya tizimining tarkibi. Pul-kredit tizimi statistikasi asosida hisobga olish tamoyillari. Pul-kredit tizimini boshqarish idoralari. Pul-depozit banklari. Pul-kredit sharxi

12.2. Pul-kredit sohasini tahlil qilish. Boshqa sektorlar bilan aloqalar. Pul bozoridagi muvozanat. Pul multiplikatori konsepsiyasi. Pul-kredit tahlilining ayrim masalalari

12.3. Bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarning pul-kredit tahlili

12.4. Pul agregatlarini bashoratlash, pulga talabni bashoratlash. pul taklifini bashoratlash

12.1. Pul-kredit sohasining hisoblarini yuritish. Moliya tizimining tarkibi. Pul-kredit tizimi statistikasi asosida hisobga olish tamoyillari. Pul-kredit tizimini boshqarish idoralari. Pul-depozit banklari. Pul-kredit sharxi

Asosiy makroiqtisodiy hisoblar orasida pul-kredit hisoblari bir qancha sabablarga ko‘ra muhim rol o‘ynaydi.

Birinchidan, asosida pul yotgan bozor iqtisodiyotida moliyaviy tizim sektorlararo resurslar oqib o‘tadigan vositachi vazifasini bajaradi. Pul-kredit sektori iqtisodiyotdagi barcha moliyaviy oqimlar bo‘yicha hisob-kitob markazi hisoblanib, ushbu sektorning hisoblarida moddiy resurslarni sektorlararo harakatini ifodalaydigan oqimlar dinamikasini aks etadi.

Ikkinchidan, pul-kredit hisoblari ochiq iqtisodiyotni makroiqtisodiy tahlil qilishda markaziy rol o‘ynaydigan o‘zgaruvchilar (pul, kredit, xorijiy aktivlar va passivlar kabi) holatini ifodalaydi. Bu o‘zgaruvchilarning daromadlar, narxlar va TBning holatiga ta’sir mexanizmini tushuntirishi uchun bir qancha turli klassik va

hozirgi zamon iqtisodiy nazariyalari ishlab chiqilgan. Ushbu mavzuda TBga monetar yondashish uchun asos bo'lgan pul-kredit sohasidagi hisobga olish kategoriyalari ko'rib chiqilgan. Pul-kredit sohasining hisoblar tizimi yyetarli darajada keng va moslanuvchan bo'lgani uchun pul, narxlar va TBning turli nazariyalarga asoslangan tahlil ishlarida foydalanish mumkin.

Uchinchidan, barqarorlik dasturlari doirasida biror-bir mamlakatda shakllangan muayyan holatlarni hisobga olgan turli xil vosita va yondoshishlardan foydalaniladi. Ushbu dasturlar nazariy asoslarining markaziy elementi bo'lib pul-kredit agregatlari va soliq-budjet operatsiyalari orasidagi o'zaro bog'liqliklar (albatta, TBning yakuniy holatini hisobga olgan holda) hisoblanadi. Shu sababli, pul-kredit sektori hisoblarining tarkibi va holati to'g'risida aniq tushunchaga ega bo'lish, barqarorlashtirish dasturining asosi hisoblanmish pul-kredit tahlilida juda muhimdir.

Va nihoyat, to'rtinchidan, pul-kredit hisoblari to'g'risidagi ma'lumotlarni odatda minimal xarajatlar bilan olish mumkin. Hattoki, rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda ham iqtisodiyotning holatini aks ettiruvchi ma'lumotlar yetishmasligiiga qaramasdan, pul-kredit sektori bo'yicha ma'lumotlar makroiqtisodiy statistikaning eng ishonchli qismi ekanligi, mamlakatdagi joriy holatni kuzatishda iqtisodiy siyosat olib boradigan idoralar uchun katta ahamiyatga egadir. Shunga ko'ra, barqarorlashtirish dasturlarini amalga oshirish jarayonida umumlashtiruvchi moliyaviy ko'rsatkichlar ko'pincha bazis mo'ljallari va me'yorlari bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuning keyingi qismlarida moliya tizimi tarkibining sharhi va XVJning nashrlarida pul-kredit tizimi statistikasi ma'lumotlarini tuzish va taqdim qilish shakllarining asosini tashkil qiladigan hisobga olish tamoyillar ko'rib chiqiladi. So'ngra pul-kredit boshqaruv idoralari va depozit banklari balanslari tahlil qilinadi. Xususan, pul-kredit boshqaruv idoralari balanslarida ifodalanadigan pul massasi bazasining dastlabki yaratilishi bilan depozit banklar tomonidan ikkilamchi pullarning yaratilishi (depozitlar ko'rinishida) farqlar ko'rib chiqiladi. Oxirgi qismda bank tizimining yig'ma balansi (pul-kredit sohasining sharhi) ko'rib chiqilib, uni

tahlil qilish asoslari keltiriladi va pul-kredit sohasi sharhidagi pul-kredit ko'rsatkichlarining iqtisodiyot holatiga ta'siri imkoniyatlari namoyish qilinadi.

Moliya tizimining tarkibi. Moliya muassasalari moliyaviy jamg'armalarni iqtisodiyotning moddiy sohasiga kapital qo'yilmalar sifatida kiritishni rejalashtirayotgan firmalarga berish uchun ixtisoslashgan tashkilotlardir. Ular moliyaviy mablag'larni davlat muassasalariga ham berishlari mumkin. Ushbu jarayon moliyaviy vositachilik deb nomlanib, moliyaviy aktivlarni to'lash muddatlarining tarkibidagi o'zgarishlar bilan birgalikda sodir bo'ladi. Qarz oluvchilar uchinchi tomonda jamg'arma shaklida bank tizimi hisoblarida hosil bo'lgan ortiqcha resurslarni turli xil kredit vositalari, xususan, aksiyalar, obligatsiyalar, tijorat veksellari, ipoteka va pay fondlari ko'rinishida foydalanish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Moliya tizimi bank tizimi va sug'urta kompaniyalari, pay fondlari, nafaqa fondlari va pul bozori fondlari kabi nobank moliya muassasalaridan tashkil topadi. Ko'pchilik mamlakatlarda bundan tashqari, umumiy moliya tizimining muhim qismini tashkil qilishi mumkin bo'lgan uchinchi norasmiy moliya sektori mavjud. Bank tizimi pul-kredit boshqaruv idoralari (PKBI) va pul-depozit banklaridan (PDB) iborat bo'lib, iqtisodiyotni naqd pullar va talab qilib olguncha depozit singari to'lov vositalari bilan ta'minlaydi.

Xalqaro moliya statistikasida (XMS) moliyaviy ma'lumotlar uchta darajaga tasniflanadi. Birinchi daraja – PKBI va PDBlarining ayrim balanslaridan tashkil topadi. Ikkinchi darajada PKBI va PDB ma'lumotlari konsolidatsiya (birlashtirish) qilinib, pul-kredit sharhi (PKSh) ishlab chiqiladi va natijada iqtisodiyotdagi pul-kredit statistikasi ko'rsatkichlari olinadi. Uchinchi darajada PKSh boshqa moliyaviy muassasalarning (BMM) balanslari bilan konsolidatsiya qilinishi natijasida moliya sohasining sharhi (MSSh) olinadi.

Ushbu mavzuning markazida umumiy moliya tizimi emas, faqat bank tizimi turadi. Buni uchta holat bilan tushuntirish mumkin.

Birinchi, empirik ma'lumotlarga ko'ra, bank sektorining pul majburiyatlari iqtisodiyotning yalpi nominal pul xarajatlariga kuchli ta'sir ko'rsatib, iqtisodiy

siyosatning iqtisodiy o'sish sur'atlari, inflatsiya va TBning holati kabi pirovard maqsadli ko'rsatkichlarida aks etadi.

Ikkinchidan, bank sektorining ma'lumotlari odatda rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda ham ishonchli, ham ularni olishda deyarli qiyinchiliklar bo'lmaganligi sababli, moliyaviy siyosatni tahlil qilishda katta ahamiyatga ega.

Uchinchidan, moliya bozorlari unchalik rivojlanmagan mamlakatlarda bank tizimi hissasiga iqtisodiyotdagi moliyaviy aktivlar va majburiyatlarning aksariyat qismi to'g'ri keladi.

Pul-kredit tizimi statistikasi asosidagi hisobga olish tamoyillari.

Zahiralar va oqimlar. Pul-kredit statistikasi balans ma'lumotlariga asoslanganligi uchun, ular zahiralar, ya'ni statistika ma'lumotlari ma'lum vaqt holatiga to'lanmagan aktivlar va majburiyatlar miqdori ko'rinishida tuziladi. Oqimlar ko'rinishida esa ma'lumotlar ma'lum bir davrda amalga oshirilgan operatsiyalarni ifodalaydi. Bunda statistik tahlil biror-bir davr davomida zahiralar o'zgarishining tahliliga asoslanadi. Yil boshidagi to'lanmagan majburiyatlarga nisbatan zahiralarining qanchalik o'zgarishiga baho berishda ham zahiralar, ham oqimlar to'g'risidagi ma'lumotlar talab qilinadi.

Kassa va o'tkazish (nachislenie) usullari. XMSda operatsiyalar kassa asosida (ya'ni, majburiyatlarning paydo bo'lgan vaqtida emas, balki ular bo'yicha hisob-kitoblar amalga oshirilgan vaqtida) ifodalanadi. Ko'pgina mamlakatlardagi bank sektorining ma'lumotlari bank tizimi balanslari asosida tuziladigan pul-kredit statistikasi ma'lumotlari tijorat buxgalteriya hisobiga ko'ra tuzilganligi sababli, odatda o'tkazish usulida (ya'ni, majburiyatlarning paydo bo'lgan vaqtida) taqdim qilinadi. Rivojlangan mamlakatlarda bank operatsiyalarining asosiy qismi odatda kassa vositalaridan foydalanib, o'sha zahoti amalga oshirilgani uchun, kassa va o'tkazish usullarida hisoblangan ma'lumotlar bir-biridan unchalik farq qilmaydi.

Valyuta. Pul-kredit sohasining hisoblari mamlakatning milliy valyutasida ifodalanadi. Xorijiy valyutada ifodalangan barcha moddalar balans tuzilgan kundagi

(odatda davr oxiridagi) almashuv kursi bo'yicha milliy valyutaga konvertasiya qilinadi va balansning agregat ma'lumotlari zahira ko'rinishida bo'ladi. Ushbu yondoshish oqim ko'rinishdagi agregat ko'rsatkichlarni (masalan, eksport, import va h.k.) konvertatsiya qilishdan keskin farq qiladi. Oxirgilarda konvertasiya maqsadlarida davrdagi o'rtacha almashuv kursidan foydalaniladi.

Konsolidatsiyalash. Agregatlashdan farqli o'laroq, konsolidatsiyalashda xo'jalik birliklarining qarama-qarshi operatsiyalari o'zaro hisobga olinadi. Masalan, turli DBlarning hisoblarini konsolidatsiyalashda banklararo pozitsiyalar o'zaro hisobga olinadi (bir-birlariga nisbatan aktiv va majburiyat pozitsiyalari). PKShni tuzish uchun konsolidatsiyalash ikki darajada amalga oshiriladi. Dastavval barcha DBlarning balanslari konsolidatsiyalanadi, so'ngra esa PKBI bilan DBlarinig balanslari konsolidatsiyalanadi va natijada PKSh hosil bo'ladi.

Pul-kredit tizimini boshqarish idoralari (PKBI). PKBI ta'rifi va ularni pul-kredit boshqaruvidagi roli.

PKBI tushunchasi institutsionalga nisbatan ko'proq funksional xarakterga ega. Ko'p mamlakatlarda PKBI sifatida Markaziy bank faoliyat yuritadi, lekin ushbu muassasa toifasi tarkibida g'aznachilik kabi Markaziy bankning ayrim funksiyalarini bajaradigan turli davlat idoralari ham bo'lishi mumkin. PKBI naqd pullarni chiqarish, valyuta zahiralarini saqlash, TBni moliyalashtirish uchun qarz olish operatsiyalarini bajarib, davlat idoralarining banki hisoblanadi va pul-kredit tizimini umumiy nazorat qiladi va bank tizimi uchun oxirgi bosqichdagi (instansiyadagi) kreditor vazifasini bajaradi. Ko'pchilik mamlakatlarning g'aznachiligi tangalarni chiqarish bilan shug'ullansa, ba'zi mamlakatlarda davlatning rasmiy zahiralarini g'aznachilik muassasasida yoki g'aznachilik nazorati ostida bo'lgan barqarorlashtirish fondi kabi boshqa tashkilotda saqlanadi. XVJda qabul qilingan hisobga olish qoidalariga ko'ra, davlat idoralarining pul-kredit funksiyalari PKBilarining yagona statistik hisob birligi tarkibida Markaziy bankning hisoblari bilan birgalikda taqdim qilinadi.

Yuqorida qayd qilinganidek, PKBilarining eng muhim funksiyalaridan biri – bank tizimi uchun oxirgi bosqichdagi kreditor funksiyasidir. Bank tizimiga moliyaviy

vahima xavf solsa, PKBI investorlarning tizimga ishonchini tiklash va banklardan ommaviy tarzda mablagʻlarni olib qoʻyilishini oldini olish maqsadida kechiktirib boʻlmaydigan choralarni koʻrishlari lozim. Markaziy bankdan oxirgi bosqichdagi kreditor sifatida foydalanishga asos boʻlib, kredit tizimining nolikvidlik xarakteri hisoblanadi. Ayrim olingan vaqt momentida qarzdorlar oʻz qarzlarini uzishlari mumkin, lekin bu ishni qarzdorlar kreditorning talabi bilan har qanday momentda bajarishga qodir emaslar.

Bank hisobida saqlanayotgan mablagʻlari singari, koʻpchilik majburiyatlarini toʻlash qisqa muddatli boʻlib, agar barcha kreditorlar oʻz aktivlarini olish choralari koʻra boshlasalar, koʻpchilik banklar oʻz majburiyatlarini toʻlashga qodir boʻlmay qoladilar. Agar bitta DB kerakli toʻlovlarni bajarishda qiyinchiliklarga duchor boʻlib qolsa, barcha bank tizimi likvidligidan ayirilib qolishi mumkin, chunki tizimda turli darajadagi kreditlar va vositachilik munosabatlari mavjudki, koʻpincha bank oʻz majburiyatlarini nima sababdan bajara olmayotganligini aniqlash imkoniyati boʻlmaydi. Bunday noaniqlikning natijasi – kreditlarni ”muzlatishga” olib keladigan bank tizimiga ishonchsizlikdir.

Moliyaviy inqirozning oldini olish uchun Markaziy bank tang ahvolda qolgan bankni ajratib (izolyasiyalab), kredit bozorida zanjirsimon reaksiyaning oldini olishga imkon berish maqsadida bankning mijozlarga toʻlovlarini kafolatlashi lozim. Markaziy bank ayrim bankning yoki umuman bank tizimining likvidligini yoʻqotishning oldini olish maqsadida ularning ishiga aralashsa, Markaziy bankka xos boʻlgan oxirgi bosqichdagi kreditorlik vazifasini bajarayotganligidan dalolat beradi.

PKBI balansi maʼlumotlarining favqulodda muhimligi sababli, ular pul tahlilida markaziy rol oʻynaydi. Faqat PKBIga xos boʻlgan funksiyalardan biri “yuqori samarali pullar”ni yaratishdir (zahira pullari yoki pul massasi bazasi). PKBI iqtisodiyotdagi pul massasini boshqarish va emission daromad olishda iqtisodiyotdagi “yuqori samarali pullar” summasini nazorat qilish usulidan foydalanadi. Markaziy bank har doim aktivlarni sotib olish va majburiyatlarni toʻlash orqali zahira pullarini yaratgani uchun, uning balansini tahlili pul yaratish jarayonini tushunish uchun juda

muhim hisoblanadi. Ochiq bozorda davlat qimmatbaho qog'ozlarini sotib olish yoki sotish, davlat va DBlarni kreditlash, shuningdek valyuta intervensiyasi deb nomlanadigan xorijiy valyutalarni oldi-sotdi kabi PKBllarining barcha operatsiyalari iqtisodiyotdagi zahira pullarining miqdoriga ta'sir o'tkazadi. PKBI zahira pullarini yaratishda monopolistligi, ularga pul-kredit siyosati va umuman mamlakatdagi pul sohasidagi masalalarga shubhasiz qozilik (arbitrlik) qilish vakolatini beradi.

PKBIning balansi

Quyida PKBllarining tipik balansi keltirilgan

Aktivlar	Passivlar
Xorijiy aktivlar Oltin Xorijiy valyuta XVFDagi zahira pozitsiyalari SDRdagi avuarlar Xorijiy korrespondent-banklardagi hisoblar Xorijiy investitsiyalar	Zahiradagi pullar Bankdan tashqaridagi naqd pullar DBlarning kassalari DBlarining depozitlari Xususiy sektorning so'rab olinguncha hisoblari Boshqaruv idoralaridan tashqari davlat sektorining hisoblari Pul-kredit bo'lmagan moliyaviy muassasalarning hisoblari
Davlat boshqaruv idoralariga talablar Qisqa muddatli g'aznachilik obligatsiyalari Ssuda va bo'naklar Boshqa talablar	Muddatli, jamg'arma va valyuta hisoblari Obligatsiyalar
Nomoliyaviy davlat korxonalariga talablar Ssuda va avanslar Veksel va qimmatbaho qog'ozlar Boshqa talablar	Import bo'yicha hisoblar va boshqa cheklangan hisoblar Markaziy bankning hisoblari Svoplar mexanzmlari XVJ kreditlaridan foydalanish Boshqa tashqi qarzlar Davlat boshqaruv idoralarining hisoblari
Xususiy sektorga talablar	Kapital bilan operatsiyalar hisoblari Kapital Zahiralar
Pul-depozit banklariga talablar Ssuda va overdraftlar Boshqa talablar	Tasniflanmaydigan majburiyatlar
Pul-kredit bo'lmagan moliyaviy muassasalarga talablar qayta hisoblash va ta'minlangan bo'naklar Ssuda va overdraftlar Boshqa talablar	
Tasniflanmaydigan aktivlar	

PKBIning tahliliy balansi

Aktivlar	Passivlar
Sof xorijiy aktivlar (<i>NFA</i>)	Zahira pullari (<i>RM</i>)
Sof ichki aktivlar (<i>NDA</i>)	Chiqarilgan naqd pullar (<i>CY*</i>)
	Banklarda
	Banklardan tashqarida (<i>CY</i>)
	Pul-kredit banklarining depozitlari
Sof ichki kreditlar (<i>NDC</i>)	
Davlat idoralariga sof talablar (<i>NDC_g</i>)	
Pul-kredit banklariga talablar (<i>NDC_b</i>)	
Iqtisodiyotning boshqa ichki sektorlariga talablar (<i>NDC_r</i>)	
Boshqa moddalar (<i>sof</i>) (<i>OIN</i>)	

Sof xorijiy aktivlar. Ba’zi mamlakatlarda PKBIning sof xorijiy aktivlari bilan sof rasmiy xalqaro zahiralar bir-birlaridan farqlanmaydi. Aslida, sof xorijiy aktivlar tushunchasi sof rasmiy zahiralar tushunchasiga nisbatan kengroqdir. Masalan, ba’zi bozor iqtisodiyotiga o’tayotgan mamlakatlarda sof xorijiy aktivlarga TBdagi muammolar paydo bo’lgan paytlarda kamomadni qoplash uchun ishlatilishi mumkin bo’lgan PKBIning xorijiy aktivlar ko’rinishidagi avuarlari ham kiritiladi (ya’ni bu mablag’lar sof xalqaro zahiralar tarkibiga kiritilmasligi kerak). Bunday aktivlarga milliy valyutaga konvertasiya qilinmaydigan xorijiy valyutalar, hamda to’lov to’g’risidagi ikkiyoqlama kelishuvlarga ko’ra paydo bo’ladigan moliyaviy talablar kiritilishi mumkin. Bu aktivlar, ta’rifga ko’ra, oldindan belgilab qo’yilgan muayyan mamlakatlar bilan rasmiy hisob-kitoblarda foydalanilishi mumkin.

Davlat boshqaruv idoralariga talablar (sof). Ularga PKBIning ixtiyorida bo’lgan davlat qimmatbaho qog’ozlari va davlat boshqaruv idoralariga berilgan bevosita ssudalar kiradi. Ular hukumatning sof depozitlari sifatida ko’rsatiladi, chunki davlat sektorining kredit olish imkoniyatlari boshqa sektorlarga nisbatan kengroqdir. Natijada hukumatning xarajatlari ularning ixtiyorida bo’lgan hisoblardagi mablag’lar va pul qoldiqlari bilan chegaralanmaydi. Bundan tashqari, PKBIning aynan sof kreditlar zahira pullarining yaratilishiga mos keladi.

Pul-depozit banklariga talablar pul-kredit banklariga berilgan bevosita kreditlar summasi va Markaziy bank tomonidan hisobga olingan va ular tomonidan berilgan o'tkaziladigan veksellardan iboratdir. Markaziy bankning boshqa banklarga ssudalari bo'yicha foizlari hisob (qayta moliyalash) stavkasi deb yuritiladi. Pul-kredit siyosatining muhim vositalari sifatida Markaziy bankning pul-kredit banklariga bergan kreditlar summasi va sof qayta moliyalash stavkasi ko'riladi. Qayd qilingan talablar to'la miqdorda ko'rsatiladi, chunki DBlarining PKBIdagi depozitlari bu summadan chegirilmaydi va bu depozitlar pul-kredit siyosatida muhim rol o'ynaydi.

Xususiy sektorga talablar. Odatda bu talablar kichkina miqyosda bo'ladi. An'anaga ko'ra, jismoniy shaxslar va korxonalarga ssudalarni berish Markaziy bank tomonidan emas, pul-depozit banklari tomonidan amalga oshiriladi. Lekin, ushbu kategoriyaga PKBIda boshqa moliya muassasalari va davlat korxonalariga nisbatan talablari kiritilishini aytib o'tish lozim.

Boshqa moddalar (sof). U qoldiq kategoriya bo'lib, balansdagi muqobil o'zaro hisobga olish qoldiqlari natijasi miqdori sifatida ko'rsatiladi. Bu moddaga banklarning moddiy jismoniy aktivlari (aktiv tomonida), kapital va zahiralar (passiv sifatida), Markaziy bankning foyda yoki zararlari, almashuv kursining o'zgarishi va buning natijasida amalga oshmay qolgan foyda yoki zararlar natijasida hosil bo'ladigan qiymatlar sof xorijiy aktivlar pozitsiyalarini qayta baholash tarzida kiritiladi.

Zahira pullari (RM). Bu modda PKBIning asosiy majburiyatlari hisoblanib, pul-kredit sohasini tahlil qilish va pul-kredit siyosatini olib borishda muhim rol o'ynaydi. Zahira pullar tarkibiga asosan muomalaga chiqarilgan naqd pullar (banklar va banklardan tashqarida muomalada bo'lgan) hamda banklar va bank bo'lmagan muassasalarning PKBIdagi hisob raqamlarida mavjud bo'lgan mablag'lar kiradi. Ushbu kategoriyaga davlat idoralari va norezidentlarning PKBI hisoblaridagi mablag'lar kiritilmaydi, chunki bu mablag'lar davlat idoralariga nisbatan moliyaviy majburiyatlar va xorijiy aktivlar bilan mos ravishda o'zaro hisob-kitob qilinadi (vzaimozachet). O'z navbatida pul zahiralariga mamlakat iqtisodiyoti sektorlarining

(masalan, xususiy shaxs va firmalar) PKBIIdagi hisoblarida mablag'lar va shuningdek rezidentlarning valyuta hisoblaridagi mablag'lar kiritiladi. Ushu yondoshishdan foydalanishga sabab, Markaziy bankning o'ziga o'zi chek taqdim qilishi orqali ham pul yaratish mumkinligidir.

Markaziy bank mamlakat rezidentlariga to'lovni o'ziga chek taqdim qilish orqali amalga oshirayotganda (masalan, ulardan davlat qimmatbaho qog'ozlarini xarid qilganda) rezident ushbu chekni depozit bankiga joylashtirishi mumkin. Depozit banki esa, o'z navbatida chekni yana Markaziy bankka depozit sifatida joylashtirishi mumkin. Yuqorida ifodalangan operatsiyalar natijasida Markaziy bankdagi banklarning depozitlari ko'payadi va oqibatda zahira pullari ham oshadi. Iqtisodiyotda bunday imkoniyatga ega boshqa birorta muassasa yo'qdir.

Zahira pullarining miqdoriga ta'sir ko'rsatadigan omillar

- Sof xorijiy aktivlar (NFA^*).
- Davlat boshqaruv idoralariga sof talablar (NCg^*).
- Depozit banklariga talablar (Sb^*).
- Xususiy sektorga talablar (Cp^*).
- Boshqa sof moddalar (OIN^*).

Demak, zahira pullari (RM) miqdorining o'zgarishi PKBI balansining aktiv tomonidagi o'zgarishini ifodalay ekan. Masalan, TBning umumiy Saldosini musbat (manfiy) bo'lishi PKBIIdagi sof xalqaro zahiralar ko'payadi (kamayadi) va agar ichki kredit yoki boshqa sof aktivlarda o'zgarishlar mavjud bo'lmasa, zahira pullarining miqdori oshadi (kamayadi). Xuddi shunga o'xshash, agar PKBI o'z ichki aktivlarini davlat qimmatbaho qog'ozlarini sotib olish (sotish) yoki depozit banklari ssudalar berish (ssudalarni qaytarib olish) hisobiga oshirsalar (kamaytirsalar), boshqa moddalarda o'zgarishlar sodir bo'lmasa, oqibatda zahira pullarining miqdori ko'payadi (kamayadi).

PKBIlarining balansini quyidagi shaklda ifodalash mumkin:

$$RM = NFA^* + NCg^* + Cb^* + Cp^* + OIN^* . \quad (12.1)$$

Yuqoridagi tenglamani oqimlar (zahiralarning o'zgarishi) tarzida ham ifodalash mumkin:

$$\Delta RM = \Delta NFA^* + \Delta NCg^* + \Delta Cb^* + \Delta Cp^* + \Delta OIN^* . \quad (12.2)$$

Odatda, pul-kredit boshqaruvi idoralari iqtisodiyotdagi zahira pullari miqdori ustidan to'la nazorat qila olmaydilar. Masalan, TBning holatini ifodalaydigan sof xorijiy aktivlar miqdorining o'zgarishini iqtisodiy siyosat orqali to'la nazorat qilish ancha mushkul hisoblanadi. Bundan tashqari, ko'pchilik mamlakatlarda hukumatga bo'lgan talabning o'zgarishi, ayniqsa Markaziy bank mustaqil bo'lmagan mamlakatlarda, davlat budjetiga passiv tarzda moslashuv natijasida sodir bo'ladi. Markaziy bank biror-bir darajada TBga tashqi omillar ta'sirini qoplashi va budjet kamomadini monetizatsiyalashga qarshilik ko'rsatishiga qaramasdan, amalda eng yaxshi nazoratni tijorat banklari ustidan olib borishi mumkin.

PKBI balansidagi o'zgarishlar izohi. PKBI pul sohasidagi vaziyatga zahira pullarining miqdorini o'zgartirish orqali ta'sir o'tkazadi. Ular ixtiyorida zahira pullari miqdoriga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir o'tkazuvchi 5 ta vosita mavjud: valyuta intervensiyasi, ochiq bozordagi operatsiyalar, budjet kamomadini moliyalash, qayta moliyalash foizi siyosati va majburiy zahiralarni me'yorlari.

Valyuta intervensiyasi. PKBI almashuv kursini ushlab turish va xalqaro zahiralarni yetarli darajaga yetkazish kabi maqsadlarda xorijiy valyuta bozorida intervensiya qilishi mumkin. Bunday intervensiya zahira pullari miqdoriga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir o'tkazadi va shuning uchun mamlakat iqtisodiyotidagi umumiy likvid mablag'lar miqdori va pul-kredit siyosatining qattiq yoki liberalligiga ta'sir qiladi. Masalan, Markaziy bank mamlakat rezidentlaridan xorijiy valyutalarni harid qilib, o'ziga o'zi chek yozish orqali ushbu operatsiyani to'lasa (bu qo'shimcha pul emissiyasi bilan bir xil natija beradi), mamlakat iqtisodiyotidagi zahira pullarining miqdori oshadi. Markaziy bankning balansida tashqi aktivlarning ko'payishi ham mos ravishda zahira pullari miqdorining ko'payishiga olib keladi.

Agar Markaziy bank xorijiy valyutalarni sotsa, tashqi aktivlar miqdori va mos ravishda iqtisodiyotdagi zahira pullarining miqdori kamayadi.

Ochiq bozordagi operatsiyalar. Ushbu operatsiyalar pul bazasi miqdoriga ta'sir qiluvchi eng yaxshi va keng qo'llaniladigan vosita hisoblanadi. Unda ikkilamchi bozorda davlat sektorining vositalari, xususan davlatning qimmatbaho qog'ozlari sotiladi yoki sotib olinadi. Masalan, Markaziy bank aholi va korxonalardan davlat qimmatbaho qog'ozlarini sotib olsa, uning qimmatbaho qog'ozlar ko'rinishidagi avuarlari ko'payadi (aktivlar ko'payadi) va mos ravishda uning majburiyatlari (zahira pullari) ham naqd pul ko'rinishida (agar davlat qimmatbaho qog'ozlarini yangi pullarni emissiya qilish hisobiga amalga oshirilsa) yoki tijorat banklarining Markaziy bankdagi depozitlarini ko'payishi hisobiga (agar Markaziy bank o'ziga chek yozib bersa) oshadi. Agar Markaziy bank davlat qimmatbaho qog'ozlarini aholi va korxonalarga sotsa, uning avuarlari kamayadi va natijada zahira pullarining miqdori kamayadi.

Davlat budjeti kamomadini moliyalashtirish. Agar hukumat o'z kamomadini Markaziy bankdan qarz olish hisobiga moliyalashtirsa (davlat qimmatbaho qog'ozlarni Markaziy bankka sotsa ham xuddi shunday holat kuzatiladi), Markaziy bankning davlat qimmatbaho qog'ozlari ko'rinishidagi avuarlari ko'payadi. Davlat Markaziy bankdan ssuda olgan hollarda Markaziy bankning davlatga nisbatan talablari va davlatning Markaziy bankdagi depozitlari oshadi va natijada Markaziy bankning davlatga nisbatan sof talablari o'zgarmay qoladi. Biroq, agar davlat qarz ko'rinishida olingan pullardan xususiy sektorga to'lovlarni amalga oshirsa, davlatni Markaziy bank hisoblaridagi mablag'larining kamayishi hisobiga zahira pullarining miqdori ko'payadi va natijada Markaziy bankning davlatga bergan sof kredit miqdori oshadi.

Shunday qilib, davlat budjeti kamomadining Markaziy bankdan olingan qarz hisobiga moliyalanishi proporsional ravishda zahira pullarining ko'payishiga olib kelar ekan. Shu sababli budjet kamomadini Markaziy bankdan olingan qarzlar hisobiga moliyalashtirilishi pul emissiyasi hisobiga moliyalashtirish bilan

tenglashtiriladi (ko'pincha ushbu holatni pulni bosib chiqarish hisobiga kamomadni moliyalashtirish yoki kamomadni monetizasiyalash deb yurtuladi). Demak, Markaziy bankning erkinligiga baho beruvchi me'yorlardan biri - davlatga ssuda berishdan bosh tortish hisobiga zahira pullari miqdorini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lish ekan.

Qayta moliyalash stavkasi. Qayta moliyalash mexanizmi pul-kredit boshqaruvining muhim vositalaridan biri bo'lib, Markaziy bankning bank tizimiga beradigan kreditlari miqdoriga ta'sir qiluvchi bir qancha usullarni qamrab oladi. Eng muhim vositalardan biri - beriladigan kreditlarning foiz stavkasi hisoblanadi. Markaziy bank iqtisodiyotdagi zahira pullari miqdoriga summani va o'z kreditlarini berish sharoitlarini o'zgartirishi hisobiga ta'sir o'tkazishi mumkin. Markaziy bankning tijorat banklariga beradigan krediti amalda bevosita uning nazoratida bo'ladigan zahira pullarining manbaidir. Moliyaviy bozori rivojlangan ko'pchilik mamlakatlarda ushbu turdagi kreditlar faqat banklarning likvid mablag'lar va inqiroz holatlarini oldini olish maqsadida qisqa muddatli talablarini qondirish bilan chegaralanadi. Markaziy bank kreditlari foiz stavkalarning oshishi (qayta moliyalash stavkasining) pul-kredit bozorida qattiqroq sharoitlar yaratishga intilishni anglatadi. Kreditlar qiymatining oshishi natijasida banklar Markaziy bankdan qarz olishini qisqartirishadi va bir vaqtning o'zida bu holat tijorat banklarining ortiqcha zahiralarini oshirishga majbur qiladi. Ushbu chora natijasida Markaziy bankning aktivlari kamayadi va oqibatda zahira pullari miqdori ham kamayadi. Agar Markaziy bank qayta moliyalash foiz stavkasini pasaytirsam, ushbu holat tijorat banklarining Markaziy bankdan qarz olishini rag'batlantiradi va shuning uchun iqtisodiyotdagi zahira pullarining miqdori ko'payadi.

Majburiy zahiralar me'yorlari. Markaziy bank iqtisodiyotdagi zahira pullarining miqdoriga Markaziy bankda saqlanadigan majburiy zahiralar miqdoriga oddiy o'zgartirishlar kiritish orqali ta'sir o'tkazishi mumkin. Masalan, majburiy zahiralar me'yorining oshirilishi bank tizimini belgilangan depozit darajasini saqlab turish uchun ko'proq zahiralar ushlab turishga majbur qiladi va natijada zahira pullarining

miqdori ko‘payadi. Shu bilan bir vaqtda bank tizimining pul yaratish bobidagi salohiyati ham qisqaradi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan har bir vosita PKBIning balansiga ta’sir ko‘rsatishi sababli, zahira pullarining o‘rish sur’atlarini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$\frac{\Delta RM_t}{RM_{t-1}} = \frac{\Delta NFA_t}{RM_{t-1}} + \frac{\Delta NG_t}{RM_{t-1}} + \frac{\Delta CB_t}{RM_{t-1}} + \frac{\Delta CP_t}{RM_{t-1}} + \frac{\Delta OIN_t}{RM_{t-1}} \quad (12.3)$$

yoki

$$\begin{aligned} \frac{\Delta RM_t}{RM_{t-1}} = & \frac{\Delta NFA_t}{NFA_{t-1}} * \frac{NFA_{t-1}}{RM_{t-1}} + \frac{\Delta NCG_t}{NCG_{t-1}} * \frac{NCG_{t-1}}{RM_{t-1}} + \\ & + \frac{\Delta CB_t}{CB_{t-1}} * \frac{CB_{t-1}}{RM_{t-1}} + \frac{\Delta OIN_t}{OIN_{t-1}} * \frac{OIN_{t-1}}{RM_{t-1}} \end{aligned} \quad (12.4)$$

Boshqacha aytganda,

$$\begin{aligned} & \text{Zahira pullarining o'rish sur'ati} = \\ & = \text{aktivlar alohida moddolari o'rish sur'atlarining} \\ & \text{tortilgan summasi.} \end{aligned}$$

Ushbu tenglamada vazn sifatida har bir aktivning o‘tgan yildagi salmog‘i olinadi.

Pul-depozit banklari (PDB). PDBga barcha banklar va shunday funksiyani bajaradigan katta miqdorda depozit shaklidagi majburiyatlarga (talab qilinganda to‘lanadigan) ega bo‘lgan moliya tashkilotlari kiradi. Majburiyatlar cheklar yoki boshqa to‘lov usullarida amalga oshirilishi mumkin.

PDB 4 ta iqtisodiy funksiyani bajarishadi.

Birinchidan, va dastavval, ular bir tomondan jamg‘arlarga ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar bilan va ikkinchi tomondan, investorlar o‘rtasida vositachilik vazifasini bajaradilar. Ushbu jarayonda moliyaviy aktivlarni to‘lash muddatlari o‘zgaradi. PDBning muhim roli uzoq muddatli ssudalar uchun qisqa muddatli depozitlarni taqdim qilishdir.

Ikkinchidan, PDB iqtisodiyotda depozit pullarini asosiy yaratuvchilaridir. Ushbu vazifa kreditlar berish orqali amalga oshiriladi. PDB qisman zahira qoplash sharoitlarida iqtisodiyotda pul yaratilishiga ham hissa qo‘shadilar.

Uchinchidan, PDBning depozitlarni qabul qilish va kreditlarni berish siyosatidagi hulqi iqtisodiyotdagi pul massasining miqdori va likvid mablag'lar miqdoriga ta'sir o'tkazadi.

To'rtinchidan, PKBI tomonidan belgilangan chegaralarda o'z faoliyatini olib borib, PDB PKBIning pul-kredit siyosati orqali iqtisodiyotning qolgan qismiga ta'sirini o'tkazishga ko'mak beradi. Boshqa moliyaviy tashkilotlardan farqli o'laroq, PDB ushbu vazifani bajarish qudratiga ega, chunki ularning depozitlar bo'yicha majburiyatlari to'lov vositasi vazifasini bajaradi, ya'ni hisoblardagi pullar pul egalarining majburiyatlarini to'lashlari uchun foydalaniladi.

PDBning ta'rifi ushbu moliya muassasa turiga mansublik me'yorlari boshqa moliya muassasalariga nisbatan ancha erkinroq ekanligini ko'rsatadi, chunki ular muassasalarning xarakteriga emas, balki depozitlarning miqdori va tarkibiga asoslangandir.

Pul-kredit sohasini tahlil qilishda yuqoridagi erkinlikka e'tibor berish zarur, chunki banklarning likvidlik darajasi ancha murakkab va bir xil ma'no bermaydigan kategoriyadir.

Yuqoridagi moddalarning ko'p qismi qo'shimcha izohlarni talab qilmaydi. Lekin shunga qaramay quyidagi uchta holatga e'tibor berish zarur.

1. PDBlari tashqi savdo operatsiyalarini moliyalashtirishda qatnashganligi sababli, ular odatda ma'lum miqdorda xorijiy aktivlarga ega bo'ladilar. Ushbu zahiralar mamlakatning rasmiy zahiralariga qo'shish masalasi har bir mamlakatda bu zahiralar PKBilari tomonidan qanchalik nazorat qilinishiga qarab hal qilinadi.

2. Aktivlardan farqli o'laroq, PDBlarning majburiyalari qaysi sektorga mansubligiga qarab emas, balki vositalarning turiga, xususan likvidlik darajasiga ko'ra tasniflanadi. Bunday tasniflash PDBlarning qaysi majburiyatlari pul massasiga (tor ma'noda) likvidlik darajasini belgilovchi majburiyatlarni uzish muddatiga ko'ra kiritilishi mumkinligidan kelib chiqadi.

3. PDBlari PKBilarida qonunda belgilangan miqdorda o'z aktivlarining bir qismini zahira ko'rinishida saqlaydilar. Bunday mexanizm zahiralarini qisman qoplash

tizimi deb yuritiladi. PKBI PDBdan qisman mijozlarga naqd pul kerak bo‘lib qolgan taqdirda, ularni pul bilan ta‘minlash va qisman pul massasini boshqarish maqsadlarida o‘z depozitlarining bir qismini naqd pul ko‘rinishda saqlab turishni talab qiladilar. Ba‘zan PDB qo‘shimcha himoyalani choralari sifatida ortiqcha zahiralar ham saqlab turadilar.

Quyida PDBlarining namunaviy balansi keltirilgan

Aktivlar:	Passivlar:
zahiralar; kassa (maxsus joylarda saqlanadigan naqd pullar); PKBIIdagi hisoblar; xorijiy aktivlar; norezident banklarga talablar; norezident nobank muassasalarga talablar; davlat boshqaruv idoralariga talablar; g‘aznachilik veksellari; boshqa davlat qimmatbaho qog‘ozlari; ssuda va bo‘naklar; boshqa talablar; nomoliyaviy davlat korxonalariga talablar; xususiy sektorga talablar; hisob operatsiyalari; ssuda va bo‘naklar; ipoteka; investitsiyalar; overdraftlar; boshqa talablar; pul-kredit bo‘lmagan moliyaviy muassasalarga talablar;	talab qilib olinguncha hisoblar; oddiy talab qilib olinguncha hisoblar; chek hisoblari; muddatli, jamg‘arma va valyuta depozitlari; muddatli depozitlar; jamg‘arma depozitlari; valyuta depozitlari; pul bozori vositalari; depozit sertifikatlari; oddiy veksellar; boshqa vositalar; obligatsiyalar; chegaralangan depozitlar; importni oldinday to‘lash; depozit akkreditivlari bo‘yicha depozitlar; boshqa chegaralangan depozitlar; xorijiy majburiyatlar; norezident banklar; norezident nobank muassasalari; davlat boshqaruv idoralarining hisoblari; kapital bilan operatsiyalar hisoblari; tasniflanmagan majburiyatlar;

PDBlarining tahliliy balansi

Aktivlar:	Passivlar:
sof xorijiy aktivlar;	depozitlar;
zahiralar;	talab qilib olinguncha (DD);
majburiy zahiralar;	muddatli va jamg'arma (TD);
ortiqcha zahiralar;	valyuta (FC);
ichki kredit;	PKBIga nisbatan majburiyatlar;
davlat boshqaruv idoralariga talablar (netto);	boshqa likvidlik darajasi pastroq majburiyatlar;
ichki iqtisodiyotning boshqa sektorlariga talablar;	
boshqa moddalar (netto);	

PDB qo'yilmalar bo'yicha o'zlariga naqd pul berish majburiyatlarini olganliklari uchun, ma'lum miqdorda zahiralarini saqlab turishlari shart. Talab qilib olinguncha depozitlar o'sha zahotiyoq, muddatli va likvidlik darajasi pastroq qo'yilamalar esa, oldindan belgilangan muddatlarda naqd pulga aylanadilar. Albatta, barcha mijozlar bir vaqtning o'zida banklardagi qo'yilmalarini baravar talab qilishlari ehtimoli juda past. Agar PDBlarining zahiralarini yetarli bo'lmasa, ular PKBI dan Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasida ssuda olishlari mumkin.

Shunday qilib, PDBlarining zahiralariga talabi iqtisodiyotdagi zahira pullarining miqdori va pul massasini belgilovchi muhim omil hisoblanar ekan. Zahiralarining o'zgarishi PDBlarini depozitlar bo'yicha majburiyatlarining zahiralar miqdoriga nisbatan martalab oshishi yoki kamayishini ta'minlashi mumkin. PDB ssudalarini Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi bo'yicha jalb qilishlari sababli, ularning avuarlari miqdori ushbu foiz stakalaridan qisman bog'liq bo'ladi. Zahiralariga PDBlarining talabini belgilashda yana bir muhim omil sifatida to'lov tizimining samaradorligini ko'rsatish mumkin. Ushbu omil, ayniqsa bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda, katta ahamiyatga ega.

Pul-kredit sharhi (PKSh).

PKSh barcha bank tizimining yig'ma balansi hisoblanib, unda PDB va PKBI balanslari konsolidatsiyalashgan bo'ladi. PKShning aktiv va passivlari barcha bank tizimining aktiv va majburiyatlarini ifodalaydi. Pul-kredit sohasining PKShni

tuzishdagi eng muhim vazifalardan biri bo‘lib, bank tizimi bo‘yicha umuman pul va kredit ko‘rsatkichlarining dinamikasini o‘z vaqtida taqdim qilishdir. Bu esa o‘z navbatida, ushbu ko‘rsatkichlar dinamikasini kuzatish orqali zarur bo‘lgan hollarda pul-kredit siyosatiga ma’lum o‘zgartirishlar kiritishga imkon beradi.

Quyida PKSh ning namunaviy shakli keltirilgan

Aktivlar	Passivlar
Sof xorijiy aktivlar (<i>NFA</i>)	Keng ma’nodagi pul massasi (<i>M2</i>)
Sof ichki aktivlar (<i>NDA</i>)	Tor ma’nodagi pul massasi (<i>M1</i>)
Cof kreditlar (<i>NDC</i>)	Muomaladagi naqd pullar (<i>CY</i>)
Davlatga sof kreditlar (<i>NDC_g</i>)	Bank tizimining talab qilib olinguncha hisoblaridagi mablag‘lar(<i>DD</i>)
Iqtisodiyotga kreditlar (<i>NDC_r</i>)	Kvazi pullar (<i>QM</i>)
Boshqa sof moddalar (<i>OIN</i>)	

PKShning passiv qismi iqtisodiyotdagi likvid mablag‘lar miqdorini ifodalaydi. Unga ko‘ra pul massasi bank tizimi yaratgan muomaladagi pullardir.

Moliyaviy vosita sifatida ”pul” tushunchasini aniqlashda iqtisodchilar bir qancha me’yorlarni qo‘llaydilar. Xususan, moliyaviy vosita, agar u to‘lov vositasi, qiymat me’yori kabi vazifalarni bajarib, belgilab qo‘yilgan nominal qiymatga ega bo‘lsa va likvid bo‘lsa (ya’ni, o‘sha zahotiyoq foydalanilishi mumkin bo‘lsa), hamda u qonuniy to‘lov vositasi bo‘lsagina pul tarkibiga kiritilishi mumkin.

Tor ma’noda pul massasi bankdan tashqaridagi naqd pullar (*CY*) bilan bank tizimidagi talab qilib olinguncha hisoblardagi mablag‘larning yig‘indisiga teng. Tor ma’nodagi pul massasi iqtisodiy adabiyotlarda *M1* deb belgilanadi. Muomaladagi naqd pullar deganda barcha bosib chiqarilgan naqd pullar emas, balki bank tizimidan tashqarida bo‘lgan naqd pullar nazarda tutiladi.

$$\text{Tor ma'nodagi pul massasi (M1)} = \text{Muomaladagi naqd pullar (CY)} + \\ + \text{Talab qilib olinguncha depozitlar (DD)}.$$

Kengroq ma’nodagi pul tushunchasi *M1*dan tashqari kvazipullarni (*QM*) ham qamrab oladi. Kvazipullar tarkibiga bank tizimining muddatli va jamg‘arma hisoblaridagi mablag‘lar kiradi. Keng ma’nodagi pul massasi (*M2*) kategoriyasi bank

tizimining majburiyatlariga mos keladi. Xususan, unga rezidentlarning valyuta hisoblaridagi mablag'lar, depozit sertifikatlari va qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha REPO bitimlari kiradi.

$$\text{Keng ma'nodagi pul massasi } (M2) = \text{Tor ma'nodagi pul massasi } (M1) + \\ + \text{Kvazipullar } (QM)$$

yoki

$$M2 = CY + DD + TD. \quad (12.5)$$

Bank tizimi aktivlari va majburiyatlarining ayniyati - pul massasi miqdori ($M2$) balansning qarama-qarshi tomonidagi komponentlarning, ya'ni: milliy valyutada ifodalangan sof xorijiy aktivlar (NFA) va sof ichki aktivlarning (NDA) yig'indisiga tengligini anglatadi. Boshqacha aytganda, umuman bank tizimi uchun quyidagi tenglamani yozish mumkin:

$$M2 = NFA + NDA. \quad (12.6)$$

Sof ichki aktivlar (NDA) sof ichki kreditlar (NDS) va boshqa sof moddalar yig'indisiga teng bo'lganligi uchun, 5.6 tenglamani quyidagicha ifodalash mumkin:

$$M2 = NFA + NDC + OIN \quad (12.7)$$

yoki oqimlar ko'rinishida:

$$DM2 = DNFA + DNDC + DOIN. \quad (12.8)$$

Yuqorida ko'rib chiqilgan pulning $M2$ va $M1$ kategoriyalari amaliyotda eng keng tarqalgan kategoriyalardir. Ko'pchilik mamlakatlarda mamlakat iqtisodiyoti erkinlashtirilganidan so'ng pul massasining $M3$, $M4$ va L kabi kengroq ko'rsatkichlari ham qo'llanila boshlandi.

Har bir mamlakatda $M3$ ning xususiy muayyan ta'rifi berilishiga qaramasdan, odatda ushbu agregat $M2$ va qo'shimcha pul vositalarining kengroq spektorlari va emitent muassasalarini qamrab oladi. Pul massasining bu agregatiga yo'l cheklari va

turli tijorat qogʻozlari (pul bozorining pay fondlarida qatnashish sertifikatlari, pul vaucherlari) kiradi.

M4 agregati M3 agregati va likvid davlat qimmatbaho qogʻozlari, erkin muomaladagi obligatsiyalar va boshqa moliyaviy vositachilarning majburiyatlarini qamrab oladi. Baʼzan, shuningdek “likvid mablagʻlar” (L) deb nomlanadigan yanada kengroq pul kategoriyasidan ham foydalaniladi. Ushbu kategoriyaga M4dan tashqari likvidlik darajasi pastroq boʻlgan gʻaznachilik qisqa muddatli obligatsiyalari, davlat obligatsiyalari, garovlar bilan taʼminlangan obligatsiyalar va hattoki, ayrim korporatsiyalarning obligatsiyalari singari moliyaviy aktivlar ham kiradi.

Moliya bozoridagi yangiliklar pullar bilan oʻz tavsiflariga koʻra, pullarga yaqin boʻlgan boshqa aktivlar orasidagi chegaralarni yoʻqotib bormoqda. Shuning uchun hozirgi paytda iqtisodchi olimlar orasida moliyaviy aktivlar oʻrtasidagi chegaralar qayerdan oʻtishi lozim, nimalarni pul deb va nimalarni moliyaviy aktivlar deb hisoblash kerak degan masalalarda mushohadalar boʻlmoqda.

Moliyaviy aktivlarning umumiy spektorida bir qutbda naqd pullar (foiz keltirmaydigan), boshqasida esa yuqoriroq daromad keltiradigan, lekin pastroq likvidlikka ega boʻlgan aktivlar turadi. Pul-kredit siyosatini olib borish va pul sohasidagi vaziyatni kuzatib borishda pul massasining biror-bir koʻrsatkichidan foydalanish zarurligi pul agregatlarining barqarorligi va ularning iqtisodiyotdagi yalpi talab bilan bogʻliqliklari, hamda PKBIning ushbu pul agregatining miqdorini nazorat qilish imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Demak, pul massasi tarkibiga moliyaviy aktivlarning qaysidir bir turi har doim kirishini, hamda amaldagi pul tushunchasi kelgusida oʻzgarmasligini kafolatlab boʻlmas ekan. Qaysi aktivlarning pul massasi tarkibiga kirishi empirik usulda amalga oshiriladi va shu sababli, pul agregatlarining bir nechta turlarini tahlil qilib borish lozim.

12.2. Pul-kredit sohasini tahlil qilish. Boshqa sektorlar bilan aloqalar. Pul bozoridagi muvozanat. Pul multiplikatori konsepsiyasi. Pul-kredit tahlilining ayrim masalalari

Bank tizimining balansi hisoblanmish PKSh, mamlakatning tashqi pozitsiyalari bilan bank tizimidagi sof aktivlar, hamda davlat boshqaruv idoralarining hisoblari bilan bank tizimi tomonidan davlatni moliyalashtirish orasidagi muhim aloqalarni aniqlashga imkon beradi. Shuningdek, bank tizimi, albatta, real sektor (milliy hisoblar bilan ham) bilan ham xususiy sektorga pul ko‘rinishda kredit berish orqali ham bog‘langandir.

TB bilan aloqalar. TBni tahlil qilishda ko‘rilganidek, agar bank tizimi bo‘yicha operatsiyalar chiziq ustida ifodalansa, TBning umumiy Saldosi bank tizimining sof xalqaro zahiralarini o‘zgarishi hisobiga moliyalashtiriladi. Umuman olganda, sof xorijiy aktivlarning o‘zgarishi xoh PKSh, xoh TB orqali aniqlanmasin, bir xil natija beradi. Shuning uchun ushbu o‘zgarish PKSHda

$$DNFA = DM2 - DNDA$$

ko‘rinishda hisoblansa, TBda

$$\Delta NFA = - \Delta RES$$

bo‘lganligi sababli

$$\Delta NFA = CAB + \Delta FI,$$

$$CAB + \Delta FI + \Delta RES = 0,$$

(bu yerda ΔFI – noemission moliyalashtirish oqimlari) ko‘rinishda hisoblanadi.

Va natijada,

$$\Delta NFA = \Delta M2 - \Delta NDA = CAB + \Delta FI = \Delta RES.$$

PKSh dagi ayniyat – pul massasining ko‘payishiga nisbatan ichki kredit ekspansiyaning har qanday ustunligi (muvozanat paytida u pulga talab bilan teng

bo'ladi) bank tizimidagi sof xorijiy aktivlarning (ya'ni, ΔNFA manfiy bo'ladi) kamayishida aks etadi. Ushbu nisbat TB ga pul-kredit jihatdan yondashish va sof ichki aktivlarning yuqori chegaralarini belgilashda asos bo'lib xizmat qiladi.

Haqiqatan ham, moliyaviy dasturlash tarkibining asosi bo'lib, ichki manbalardan pullar (ichki kredit) bilan tashqi manbalardan pullar (sof xorijiy aktivlar) orasida farqlar, hamda ular orasidagi bog'liqliklar hisoblanadi. PKSh ga asoslangan ayniyat tarkibida pul massasi ichki va tashqi komponentlardagi o'zgarishlar summasi sifatida keltirilgan. U pulga talab funksiyasi orqali real pul qoldiqlarini real daromadlar va inflatsiya sur'atlari bilan bog'laydi, bank tizimidagi sof xorijiy aktivlar, pul massasi va ichki aktivlar orasidagi bog'liqliklarni belgilaydi. Agar pul massasining o'zgarishi ichki aktivlarning o'zgarishidan katta bo'lsa, sof xorijiy aktivlarning o'zgarishi ijobiy bo'ladi va TB aktiv Saldo bilan chiqadi. Pul massasining maqbul darajada o'zgarishiga nisbatan sof ichki aktivlarning o'zgarishi kattaroq darajada bo'lishi sof xorijiy aktivlarning qisqarishi bilan qorejaadi.

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning real dasturlarini tuzish jarayonida ishlab chiqarish, inflatsiya sur'atlari va boshqa iqtisodiy siyosatga taalluqli chora-tadbirlarning maqsadli ko'rsatkichlari belgilanadi. Ishlab chiqarish, inflatsiya sur'atlari, TB va boshqa maqsadlardagi har qanday o'zgarishlarning oqibatlarini chuqur tahlil qilinadi.

Pul-kredit hisoblari bilan TB orasidagi aloqalar valyuta kursida o'zgarishlar sodir bo'lsa, ancha murakkablashadi. Bank tizimi balansini tahlil qilishda zahiralarining o'zgarishi ko'pincha operatsiya oqimlariga tenglashtiriladi. Bu har doim ham to'g'ri emas. Xususan, ikki davr orasidagi zahiralarining o'zgarishi faqat operatsiyalardagi o'zgarishlarnigina emas, balki qiymatni qayta baholash va boshqa omillarning o'zgarishlari hisobiga sodir bo'lishi mumkin. Qiymatni qayta baholash moliyaviy aktivlar va passivlarga narxlarning o'zgarishi natijasida paydo bo'ladi. Narxlar esa o'z navbatida bozor narxlari yoki valyuta kurslaridagi tebranishlar, kreditorlar tomonidan qarzlardan voz kechib yuborish va boshqa omillar hisobiga sodir bo'lishi mumkin. Zahiralarining vaqt bo'yicha o'zgarishlarini operatsiyalar

oqimlariga tenglashtirish tahlil qilinayotgan davrda, ayniqsa valyuta kurslarida kuchli tebranishlar bo'lganda, noto'g'ri xulosalarga olib keladi. Demak, bunday holatlarda aniq operatsiyalar oqimini hisoblash uchun valyuta kursidagi o'zgarishlarni inobatga oladigan tuzatishlar kiritish lozim.

Aniq olganda, vaqt bo'yicha zahiralar ma'lum moddalarining o'zgarishiga valyuta kurslaridagi tebranishlar ta'sirini operatsiyalardagi o'zgarishlar va qiymatni qayta baholash hisobiga qancha bo'lganini ajratish talab qilinadi (ushbu misolda boshqa omillar va bozor narxlaridagi tebranishlar hisobga olinmagan).

A_{Rt} – milliy valyutaga denominasiya qilingan balansdagi zahira moddasi;

A_{St} – dollarda ifodalangan balansdagi zahira moddasi;

E_t – davr oxiriga bir dollarga to'g'ri kelgan milliy valyuta kursi;

E^*_t – o'rtacha davrdagi valyuta kursi.

Bu yerda,

$$A_{Rt} = E_t * A_{St}.$$

So'ngra:

$$\text{Zahiralarning summar o'zgarishi} = (A_{Rt} - A_{Rt-1}),$$

$$\text{Operatsiyalar oqimi} = E^*_t (A_{St} - A_{Rt-1}).$$

Demak,

$$\begin{aligned} \text{Zahiralarning summar o'zgarishi} &= \text{operatsiyalar oqimi} + \\ &+ \text{qiymatni qayta baholash,} \end{aligned}$$

bundan:

$$\begin{aligned} \text{Qiymatni qayta baholashdagi o'zgarishlar} &= \\ &= (A_{Rt} - A_{Rt-1}) - E^*_t (A_{St} - A_{St-1}). \end{aligned}$$

Qayta baholashni o'tkazish hisobiga tuzatishlarni kiritish (VA_d) shuningdek quyidagicha ifodalanadi:

$$VA_d = A_{St-1}(E_t - E_{t-1}) + \Delta A_{St}(E_t - E^*_t).$$

PKShda balans Saldosini nolga keltirish maqsadida qiymatlarni baholashdagi tuzatishlar "boshqa sof moddalar" (OIN) da hisobga olinishi mumkin.

Davlat boshqaruv idoralari hisoblari bilan aloqalar. Bank tizimining davlat boshqaruv idoralariga sof talablari PKSHning aktiv tomonida ko'rsatiladi. Ushbu talablardagi o'zgarishlar bank tizimi tomonidan har qanday kamomadni qoplash uchun davlat boshqaruv idoralariga berilgan sof kreditni ifodalaydi. Bu davlat boshqaruv sektori bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikdir va u budjet kamomadini monetizatsiyalash (ya'ni, bank tizimining kreditlari hisobiga budjet kamomadini moliyalashtirish) bevosita pul massasiga qanday ta'sir ko'rsatishini aks ettiradi.

Real sektor bilan aloqalar. Aktivlar tomonida ko'rsatiladigan bank tizimi tomonidan xususiy sektorga beriladigan kreditlar ushbu sektorning rivojlanishi va o'sishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Passiv tomonda xususiy sektor ixtiyorida bo'lgan bank tizimi tomonidan jamg'arib boriladigan pul mablag'lari ko'rsatilib, u xususiy sektorning iqtisodiyotdagi inflatsiya sur'atlariga ta'sir qiluvchi xususiy sektorning "reaksiya funksiyasi"dir.

Pul bozoridagi muvozanat. Bozor iqtisodiyotida pul bir qancha funksiyalarni bajaradi:

- almashuv vositasi. Ushbu funksiya operatsiyalarini bajarish pullarga egalik qilish rag'batiga mos keladi;

- jamg'arish vositasi. Pul xarid quvvatini hozirgi davrdan kelgusi davrga ko'chirishi maqsadida foydalanilishi mumkin bo'lgan aktivdir. Ushbu funksiya pul saqlashning porfel (spekulyativ) rag'batiga mos keladi. Shu asnoda bu rolni bajaradigan pulga talab, pul bo'yicha foyda normasi bilan muqobil aktivlar daromadlariga taqqoslanib bog'langan;

- hisob birligi. Tovar, xizmat va aktivlarning narxlari odatda pul birliklarida ifodalanadi (masalan, so'm, rubl, dollar yoki evrolarda).

Boshlang'ich bosqichlarda pul-kredit siyosati asosiy e'tiborni operatsiyalar bo'yicha Saldo funksiyasini bajaradigan moliyaviy aktiv hisoblanmish, M1 pul agregatiga qaratadi. Biroq, likvidlik darajasi bo'yicha pullardan farq qiladigan moliyaviy aktivlar pul xarakteristikalariga mos kela boshlagan sari, pul-kredit

siyosatini shakllantirish maqsadida kengroq pul agregatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Miqdor nazariyasi va pulga talab. Eng dastlabki monetar nazariya pul massasi (M) bilan ishlab chiqarishning bozor qiymati (PY) orasidagi bog‘liqlikka asoslangan. Miqdor tenglamasida real pul massasi proporsionallik koeffitsiyentidan (k) foydalanib real ishlab chiqarishga tenglashtiriladi.

Shunday qilib,

$$\frac{M}{P} = kY. \quad (12.10)$$

“ k ” o‘zgarmas deb olinganda, yuqoridagi ifoda pulning miqdor nazariyasi deb yuritiladi. Bu nazariya pul massasi bilan mamlakat iqtisodiyotidagi to‘la bandlik sharoitida (ya’ni, Y belgilab qo‘yilgan) mavjud bo‘lgan narx darajasi (R) bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqlikni o‘rnatadi. Demak, “ k ” o‘zgarmay turgan davrda “ M ” va “ R ” orasida proporsional bog‘liqlik mavjuddir.

Natijada (5.10) tenglamasini quyidagicha yozish mumkin:

$$M*V = P*Y. \quad (12.11)$$

Bu yerda $V = 1/k$ (proporsionallik koeffitsiyenti) daromadlarni doiraviy aylanishida pulning aylanish tezligini ifodalaydi va pul daromadlarini (ya’ni, $YaIM$ ni) pul massasiga nisbati tarzida aniqlanadi. Boshqacha aytganda, u nominal oqimni moliyalashtirish uchun ma’lum davr ichida pul zahiralarini necha marta aylanishini ko‘rsatadi. Pul aylanish tezligi monetar iqtisodiy nazariyada eng ko‘p o‘rganilgan o‘zgaruvchi hisoblanadi. U iqtisodiy siyosatni ishlab chiqadigan va olib boradigan shaxslar uchun juda muhim va foydali konsepsiyadir. Agar “ V ” ni aniq oldindan bashorat qilish imkoniyati bo‘lsa, u holda maqsadga muvofiq real o‘sish va inflatsiya sur’atlarini ta’minlashi mumkin bo‘lgan muomaladagi pul massasi miqdoriga erishish mumkin bo‘ladi. “ V ”ni yanada chuqurroq o‘rganish, uning naqadar nominal daromadlar bilan pul zahiralarini orasidagi mexanik aloqani ifodalashini ko‘rish mumkin. Ushbu konsepsiya pulga talab bilan kuchli aloqadadir. Pul aylanish tezligi

va pulga talab o'zaro teskari bog'langan. Ular bitta hodisani turli usullarda ifodalanishidir. (5.11) tenglamani qo'shimcha o'sish sur'atlari orqali ifodalasak:

$$\frac{\Delta M}{M} = \frac{\Delta P}{P} + \frac{\Delta Y}{Y} - \frac{\Delta V}{V} \quad (12.12)$$

tenglamasi hosil bo'ladi.

Pul aylanish tezligi o'zgarish holatida $\Delta V/V=0$ bo'lib, (5.12) tenglama miqdor nazariyasining (5.11) qayta ishlangan izohiga aylanib qoladi. Bu tenglama pul massasining foizlardagi qo'shimcha o'sishi, narxlarning foizlardagi qo'shimcha o'sishi (ya'ni, inflatsiya sur'ati) bilan YaIMning real o'sishi yig'indisiga tengligini ifodalaydi. Pulni daromadlarning doiraviy aylanishidagi aylanish tezligi tushunchasi, umumiy operatsiyalar hajmini pul massasiga bo'lib aniqlanadigan operatsiyalardagi pul aylanish tezligi tushunchasi bilan bir xildir. Odatda operatsiyalardagi pul aylanish tezligi daromadlarning doiraviy aylanishidagi aylanish tezligiga nisbatan yuqoriroq bo'ladi, chunki YaIMdagi bir so'm, odatda operatsiyalarni bajarish manbai hisoblanib, ularning qiymati katta miqdordagi so'mlarni talab qiladi. Operatsiyalardagi pul aylanish tezligini hisoblash, daromadlarning doiraviy aylanishi orqali pul aylanish tezligini hisoblashga nisbatan ancha mushkul.

Pul aylanish tezligi doimiy bo'lgan holatlarda narxlarning doimiy darajasini saqlab turish uchun pul massasining o'zgarish sur'atlari real YaIMning o'zgarish sur'atlariga teng bo'lishi lozim.

Pul aylanish tezligi doimiy bo'lgan holatda pul massasi o'sishining real daromadlar o'sishidan yuqori darajada bo'lishi inflatsiyaga olib keladi.

Ko'pchilik bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda, ayniqsa o'tish jarayonining boshlang'ich bosqichlarida, inflyatsiyaning asosiy sababi monetar siyosat hisoblanadi. Shu davrlarda olib borilgan ilmiy-tadqiqot tekshiruvlarida sobiq ittifoqning barcha mamlakatlarida yuqori darajada sodir bo'lgan inflatsiyaning asosiy sababchisi pul-kredit ekspansiyasining sur'atlari yuqori darajada bo'lganligi aniqlangan.

Yuqoridagi xulosa pul aylanish tezligining doimiy holatda bo'lgan deb ehtimol qilib olingan. Lekin, u doimiy bo'lmaydi. Pul aylanish tezligi inflatsiya darajasi va foiz stavkalarining oshib borishi bilan tezlashib borsa, daromadlarning o'zgarishiga sal bo'shroq javob beradi. Agar daromadlar bo'yicha pulga talab elastikligi 1 ga teng bo'lsa, real daromadlarning o'zgarishi pul aylanish tezligiga ta'sir o'tkazmaydi. Agar elastiklik 1 dan kichik (katta) bo'lsa, pul aylanish tezligi oshadi (kamayadi).

Pulga talab. Eng avvalo real va nominal pul qoldiqlarini bir-biridan ajratish zarur. Pulga nominal talab – muayyan pul belgilarining, masalan so'm yoki dollarning, ma'lum belgilangan miqdoriga talabdir. Pulga real talab yoki real pul qoldiqlariga talab – ushbu pullarga sotib olinishi mumkin bo'lgan tovarlar miqdorida ifodalangan talabdir. Shuning uchun real pul qoldiqlariga talab (M/R) umumiy narx indeksleri bilan deflatsiya qilingan real ko'rinishdagi pul miqdorini ifodalaydi. Pulga talab real pul qoldiqlariga talabni ifodalaydi, chunki kishilar pulni unga nima sotib olish mumkinligiga qarab saqlaydilar.

Iqtisodiy adabiyotlarda har qanday aktivlarga talab funksiyasi singari, real pul qoldiqlari ham uning narxi funksiyasidir degan qarashlar quvvatlanadi. Narxlar aktivlar, daromadlar, farovonlik va nimalar kutilayotganligiga bog'liqdir. Soddaroq ko'rinishda real pul qoldiqlariga talab daromadlar bilan ijobiy va pullarni saqlashning muqobil xarajatlari bilan salbiy bog'liqlikdadir.

Real daromadlar oshib borishi bilan real pul qoldiqlariga talab ham oshib boradi va bu holat operatsiyalar hajmining oshishida o'z ifodasini topadi.

Pul qoldiqlarining saqlash xarajatlarini boshqa mulk shakllari bilan taqqoslash mulkni muqobil saqlash shakllariga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun moliya sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodchilari boshqa aktivlarga nisbatan pulni muqobil saqlash xarajatlari sifatida nominal foiz stavkasi ko'rsatkichidan foydalanadilar. Real pul qoldiqlarini muqobil saqlash xarajatlarining taxminiy miqdori sifatida kutilayotgan inflatsiya darajasini ham qo'llash mumkin. Giperinflatsiya sharoitlarida pulni saqlashning muqobil xarajatlari juda yuqori bo'lib, pulga talab keskin kamayib ketadi.

Pul multiplikatori konsepsiyasi. PKBI balansida ko‘rilganidek, zahira pullarining dastlabki o‘shishi kelgusi davrda bank tizimi tomonidan olib boriladigan pul-kredit ekspansiyasiga asos hisoblanadi. PKBI tomonidan zahira pullarining ko‘paytirilishi, keyinchalik PDB tomonidan ulardagi deponirlashgan resurslarning ko‘payishi hisobiga yana zahira pullari miqdorini oshiradi. Buning sababi – har bir so‘m deponirlashgan summadan ma’lum qismi (belgilangan zahira me’yoriga ko‘ra) PDB tomonidan zahira shaklida saqlanishi lozimligidir. Qolgan mablag‘lar, odatda kredit sifatida mijozlarga beriladi va natijada depozitlar hosil bo‘ladi. Depozitlar esa o‘z navbatida yangi ssudalar berilishi uchun asos bo‘ladi. Bu jarayonning oxirgi bosqichida yaratilgan depozitlarning summasi dastlabki zahira pullar o‘shishi summasining “ko‘p martalab” summasi hisoblanadi.

Zahiralarni qisman qoplash tizimida banklar ssudalarni berish uchun zahira sifatida o‘z depozitlarining bir qismini saqlagan holda aholining depozitlaridan foydalanadilar.

Pul muomalasi jarayoni uchun oddiy model PKBI jamg‘aradigan zahira pullariga (RM) asoslangan bo‘ladi. Zahira pullariga talab naqd pullar (CY) sifatida foydalanish uchun aholi tomonidan va zahira sifatida foydalanish uchun tijorat banklari tomonidan bo‘ladi.

Demak,

$$RM = CY + R \quad \text{va} \quad M = CY + DD,$$

bu yerda, R – PDB larining PKBI laridagi depozitlari; DD – depozitlar; M – pul massasi.

Natijada, pul massasini pul bazasiga (zahira pullariga) nisbati sifatida pul multiplikatorini aniqlash mumkin:

$$mm = \frac{M}{RM} = \frac{CY+DD}{CY+R}. \quad (12.13)$$

Pul multiplikatori – bir birlik zahira puli hisobiga qancha pul yaratilishini ko‘rsatadi. Shunday qilib, pul massasining funksiyasini quyidagicha yozish mumkin:

$$M = mm * RM. \quad (12.14)$$

Yuqoridagi formulani o'zgarishlar ko'rinishida quyidagicha yozish mumkin:

$$\Delta M_t = \Delta mm_t RM_{t-1} + mm_{t-1} \Delta RM_t. \quad (12.15)$$

(12.14) va (12.15) formulalar pul massasining pul multiplikatori yoki zahiradagi pullarning o'zgarishi hisobiga ko'payishi mumkinligini ko'rsatadi. Xususan, zahira pullarining belgilangan maqsadli ko'rsatkichi o'zgarmasdan qolib, pul multiplikatorining oshishi pul-kredit sharoitlarining bo'shashganligidan dalolat beradi.

Pul multiplikatori (mm) majburiy zahira me'yor va umumiy pul massasidagi naqd pullar salmog'i qanchalik kichik bo'lsa, shunchalik katta bo'ladi.

Pul multiplikatorining miqdori vaqt davomida doimiy bo'lmasiligi, zahira pullari bilan pul massasi orasidagi bog'liqliklarni oldindan belgilashda qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Pul multiplikatorining o'zgarishi uch turdagi iqtisodiy subyektlarning faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Bu iqtisodiy subyektlar: majburiy zahiralar me'yorini belgilovchi PKBI; qancha ortiqcha zahira pullarini saqlash kerakligini belgilovchi tijorat banklari; va inflatsiya, foiz stavkalar va boshqa ko'rsatkichlarga asoslanib qancha pulni naqd ko'rinishda va qancha pulni depozit shaklida saqlash kerakligini belgilovchi bank tizimiga mansub bo'lmagan aholi.

Shunday qilib, pul massasining o'zgarishiga zahira pullari va pul multiplikatorining o'zgarishlari ta'sir qiladigan bo'lsa, o'z navbatida:

- zahira pullariga – sof xorijiy aktivlar, davlat boshqaruv idoralariga sof talablar, tijorat banklariga talablar va boshqa moddalar (sof);
- pul multiplikatoriga – talab qilib olinguncha depozitlar bo'yicha majburiy zahiralar, muddatli depozitlar bo'yicha majburiy zahiralar, ortiqcha zahiralar koeffitsiyenti, muddatli depozitlarning talab qilib olinguncha depozitlarga nisbati va naqd pullarning talab qilib olinguncha depozitlarga nisbati ta'sir ko'rsatar ekan.

Banklar ssudalar berganda, ssuda oluvchilar iste'mol qobiliyatini sotib oladilar. Qarz oluvchilar o'zlariga bank oldida qarz majburiyatini oladilar. Shu sababli ssuda qarz oluvchining sof kapital qiymatini oshirishga olib kelmaydi, chunki sof kapital

qiymati aktivlar va majburiyatlarning farqi sifatida aniqlanadi. Boshqacha aytganda, qisman zahira tizimi orqali yaratiladigan pul aktivlarni emas, balki iqtisodiyotdagi likvidlik darajasini oshiradi.

Aholining pul massasiga ta'siri kuchli bo'lganligi sababli, PKBI pul massasini to'laonli nazorat qila olmaydilar. Biroq, pul multiplikatori doimiy yoki uning o'zgarishini oldindan aniqlash mumkin bo'lgan holatlarda Markaziy bank belgilangan maqsadli pul massasi darajasiga erishish uchun, dastavval pul multiplikatorini baholashi, so'ngra (12.15) tenglamasi yordamida zahira pullari miqdorini belgilashi lozim.

Pul-kredit tahlilining ayrim masalalari. Mamlakat pul-kredit tizimidagi o'zgarishlarni tahlil qilishda quyidagi 5 ta masalaga alohida e'tibor berish lozim: moliya sohasidagi yangiliklar va boshqarishni qisqartirish; valyutalar o'rnini o'zgartirish; valyuta kurs roli; kapital oqimlari sababli sodir bo'ladigan qiyinchiliklar va emission daromad.

Moliya sohasidagi yangiliklar va boshqarishni qisqartirish. Yuqorida qayd qilinganidek, ko'pchilik mamlakatlarda axborot texnologiyasining mukammallashuvi va moliya bozorlarida yangi moliyaviy vositalar va ish uslublaridagi yangiliklar natijasida pul va pul bo'lmagan moliyaviy aktivlar orasidagi farqlarni aniqlash qiyin bo'lib bormoqda. Ko'p mamlakatlarda talab qilib olinguncha depozitlardan olinadigan foizlarni jamg'arma sifatidagi boshqa moliyaviy aktivlardan olinadigan daromadlar bilan taqqoslash mumkin. Aksiya va obligatsiyalarga jalb qilingan mablag'larni investitsion fondlardan qaytib olib, naqd pulga aylantirishda to'siqlarning bartaraf etilishi obligatsiyalar va aksiyalar sifatida mablag'lar saqlanish likvidligini oldingi davrlarga nisbatan ancha oshirdi. Natijada, ushbu pul substitutlari shaklidagi aktivlar pulga talabni oldindan aniqlash imkoniyati, pul-kredit siyosatini ishlab chiqish va olib borishni ancha qiyinlashtiradi.

Uy xo'jaliklaridagi pul zahiralari va pul substitutlarining tez o'zgarishi pul aylanish tezligida nobarqarorlikka olib kelishi mumkin. Shuning uchun pul miqdori yalpi talabning o'zgarishini baholashda noto'g'ri ko'rsatkich bo'lishi mumkin. Ba'zi

mamlakatlarda bu muammoni yechish uchun pul substitutlarini qamrab oluvchi, M1 va M2 agregatlariga nisbatan kengroq pul agregatlaridan foydalaniladi. Pul-kredit agregati qanchalik keng bo'lsa, pul substitutlari shaklidagi aktivlar bo'yicha majburiy zahiralar me'yorlari belgilanmaganligi va pul substitutlari bank tizimiga kirmagan muassasalar tomonidan emissiya qilinganligi sababli PKBllarining kengroq pul agregatlarini nazorat qilish imkoniyati shunchalik chegaralangan bo'ladi. Shuning uchun oraliq va pirovard maqsadlarga erishish orasidagi bog'liqliklarni saqlab qolish masalasida qaror qabul qiluvchi siyosatchilar dialemmaga duch kelishadi. Ular maqsadli ko'rsatkichga erishish uchun pul-kredit agregatining kengroq tushunchasidan foydalanishlari mumkin, lekin uni nazorat qilish darajasi va imkoniyati ancha past bo'ladi. Shuning uchun pul-kredit siyosatining oraliq maqsadlarini tanlashda keng pul agregati (yalpi talab bilan bog'liqlik) va nazorat qilish imkoniyatlari puxta balanslashtirilgan bo'lishi lozim.

Moliyaviy yangiliklar va boshqaruvning qisqarishi natijasida pul agregatlarining qaysi turini pul-kredit siyosatini ishlab chiqishda asos qilib olish masalasi paydo bo'ladi. Albatta, siyosatni ishlab chiqadigan va olib boradigan shaxslar ushbu davrda eng talabga javob beruvchi ma'lumotlardan foydalanishga harakat qiladilar. Ammo bunday yondashish salbiy oqibatlariga olib kelib, siyosatni ishlab chiqish va olib borish masalalariga javob beruvchilar, ayniqsa aholi xatolarga yo'l qo'yishi mumkin. Shuning uchun pul-kredit agregatlaridan tashqari, pul-kredit siyosatining boshqa indikatorlaridan foydalanish taqozo qilinadi. Bular: nominal va real foiz stavkalari, to'lash muddatiga qarab foiz stavkalarining tarkibi (daromadlilik egri chizig'ida ifodalanadigan) va valyuta kursi dinamikasidir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda tez sur'atlarda tarkibiy va dinamik o'zgarishlar bo'layotganligi sababli, pul-kredit siyosatidagi oraliq maqsadlar va pul-kredit indikatorlarini tanlashda eklektik yondashish talab qilinadi.

Valyuta o'rini bosish. Inflatsiya darajasining yuqori va tez-tez o'zgarib turishi mamlakatda muomalada bo'lgan valyutaning jamg'arish vositasi, o'lchov birligi va almashuv vositasi kabi vazifalarni bajarishida samaradorlik darajasini keskin

pasaytirib yuboradi. Natijada, iqtisodiy agentlar milliy valyutadan voz kechib, barqaror valyutaga (masalan, AQSh dollariga) ko‘proq o‘ta boshlaydilar. Ushbu holatni valyuta o‘rnini bosish yoki “dollarizatsiya” deb yuritiladi. Yuqori inflatsiya darajasi mavjud bo‘lgan ko‘pchilik mamlakatlarda iqtisodiy agentlar aktivlarini xorijiy valyutalarda saqlash havfsizroq va foydaliroq bo‘lganligi sababli, milliy valyuta jamg‘arish vazifasini o‘tamay qo‘ydi.

Valyuta o‘rnini bosish, ya’ni “dollarizatsiya” holati, Lotin Amerikasining ayrim mamlakatlaridagi tajriba ko‘rsatishicha, keyinchalik inflatsiya darajasi keskin pasaytirilgan paytlarda ham yuqori darajada saqlanib turgan. Dollarizatsiya fuqarolarni mustahkam jamg‘arish vositasi hisoblansada, siyosatni ishlab chiquvchilar uchun muammolar tug‘diradi, chunki ular PKBI tomonidan pul massasini nazorat qilishda qiyinchiliklarga duchor bo‘ladilar.

Uzoq cho‘zilgan inflatsiya, yumshoq pul-kredit va almashuv kursi siyosati hamda rasmiy va norasmiy indeksatsiyalar natijasida, bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarda iqtisodiyotni dollarizatsiyalash darajasi ko‘tarilib ketgan. Institutsional chegaralashlar va makroiqtisodiy sharoitlarga ko‘ra dollarizatsiya koeffitsiyenti (xorijiy valyutalardagi depozitlarning keng ma’nodagi pul massasiga nisbati) odatda islohotlar dasturini amalga oshirishning boshlang‘ich bosqichlarida 0-10 % dan 30-60 % gacha o‘zgarib turishi mumkin.

Valyuta o‘rnini bosish darajasining oshib borishiga qarab milliy valyutadan foydalanish qisqarib boradi va natijada budjet kamomadining inflatsiyaga bosimi kuchayadi. Bu esa dollarizatsiya darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda budjet intizomi masalasini muhim darajaga ko‘taradi. Bundan tashqari, valyuta o‘rnini bosish pul massasining valyuta qismiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir o‘tkazish imkoniyati bo‘lmaganligi sababli, davlat tomonidan pul-kredit siyosatini yuritishda muammolar tug‘diradi. Yuqoridagi potensial muammolarga qaramasdan, Lotin Amerikasi mamlakatlarining tajribasi sun’iy usullar, xususan, indeksatsiya qilingan ichki moliyaviy vositalarni chiqarish yoki xorijiy aktivlarni majburan konvertatsiya qilish yordamida dollarizatsiyaga qarshi kurash inflatsiyani yanada kuchayib ketishiga olib

keladi, degan xulosa chiqarishga imkon beradi. Oqilona moliyaviy va budget siyosati milliy valyutadagi aktivlarning, tashqaridan majburlash choralarini qo'llamasdan, ko'payishiga olib keladi. Nihoyat, rezidentlar ixtiyoridagi xorijiy valyutalarning zahiralari milliy valyutaning o'rnini bosganligi uchun, pul massasi tarkibiga kiritilishi lozim.

Valyuta kurslari tarkibiva pul-kredit tahlili. Valyuta kursi tarkibi pul-kredit siyosati bilan uzviy bog'lanishda bo'ladi. Qat'i belgilangan valyuta kursi tizimida PKBI oldindan qat'i belgilangan narxlarda milliy valyutaga xorijiy valyutani sotib olish yoki, aksincha, sotishga tayyor bo'ladi. Agar valyutaning bozor kursi qat'i belgilangan kursdan cheklanish tendensiyasiga ega bo'lsa, PKBI qat'i belgilangan kursni saqlab qolish uchun milliy valyutaga xorijiy valyutani sotib oladilar yoki sotadilar. PKBI balansi atamasiga ko'ra sof xorijiy aktivlar miqdori valyuta intervensiyasiga ko'ra o'zgarsa, pul bazasi va pul massasi sof xorijiy aktivlarning o'zgarishiga qarab o'zgaradi. Demak, qat'i belgilangan valyuta kursini qabul qilish, pul-kredit siyosatining rasmiy qat'i belgilangan valyuta kursini muvozanat kursiga mos kelishini ta'minlashga qaratilgan bo'lishini talab qiladi. Bunda Markaziy bank muvozanat kursi bilan oldindan qat'i belgilangan valyuta kursiga mos kelishini ta'minlash uchun pul massasiga tuzatishlar kiritib turishga majbur bo'ladi. Shunday qilib, PKBI pul massasi ustidan nazoratni amalga oshira olmaydilar. Qat'i belgilangan valyuta kursining qabul qilinishi, pul massasi ustidan nazorat qilishdan voz kechishni talab qiladi.

Qat'i belgilangan valyuta kursi tartibi sharoitlarida Markaziy bankning ichki kreditlarni kengaytirishga qaratilgan harakatlari ichki narxlar va ishlab chiqarish chegaralaridan chiqib ketadi. Yalpi xarajatlarning oshishi joriy operatsiyalar hisobining kamomadini oshishiga olib keladi va valyuta kursiga bosimni pasaytiradi. Markaziy bank ushbu bosimga qarshi turish uchun xorijiy valyutalarni sotish va sof xorijiy aktivlarni qisqartirishga majbur bo'ladi. Bu esa Markaziy bankning pul massasini ko'paytirishga qaratilgan harakatlarini barbod qiladi. Odatda, oqilona moliyaviy dastur teskari natijalarni beradi va sof xorijiy aktivlarni oshiradi. Bunday

tahlilning yagona xulosasi - moliyaviy dasturlash doirasida TBning holatini yaxshilash uchun ichki kreditlarning yuqori chegaralarini belgilashdir. Qat'i belgilangan valyuta kursi tartibi sharoitlarida pul massasining hajmi oldindan belgilanmaydi (endogen), u siyosat vositasi hisoblanmasdan, tizim tomonidan aniqlanadi.

Qat'i belgilangan valyuta kursi tartibi sharoitlarida pul massasi hajmini avtomatik tuzatish (korrektirovka) Markaziy bank tomonidan faqat sterillash hisobiga qorejaadi. Sterillash Markaziy bankning valyuta intervensiyasi natijasidagi ta'sirlarni ochiq bozordagi davlat qimmatbaho qog'ozlari bilan operatsiyalar o'tkazish orqali qoplashga qaratiladi. Shunday qilib, xorijiy valyutalarning sotilishi PKBIIdagi sof xorijiy aktivlarning kamayishiga olib keladi, bu esa ochiq bozordagi qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish hisobiga qorejaadi. Oxirgi holat esa, PKBI sof ichki aktivlarining ko'payishiga olib keladi va zahira pullari va pul massasiga ta'sirni sustlashtiradi. Sterillash natijasida tashqi disbalans bilan pul massasining tekislashga qaratilgan o'zgarishi orasidagi to'g'ridan-to'g'ri aloqa buziladi. Biroq, sterillash faqat qisqa muddatli davrlardagina ijobiy natija berishi mumkin. Uning asosiy kamchiligi bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda unchalik rivojlanmagan qimmatbaho qog'ozlar bozoriga uzviy bog'liqligidir. Nazariy nuqtai nazardan qaraganda, agar Markaziy bank xorijiy valyutaning katta miqdordagi oqimini qoplash maqsadida haddan tashqari katta miqdorda qimmatbaho qog'ozlarni sotsa, ma'lum vaqt o'tganidan so'ng katta miqdordagi foizlarni to'lashga to'g'ri kelishi munosabati bilan sterillash imkoniyatlari ham chegaralangan bo'ladi.

Pul massasi ustidan mustaqil nazoratning yo'qotilishiga qaramasdan, ba'zi mamlakatlar o'z mamlakati valyuta kursini inflatsiya darajasi past bo'lgan mamlakat valyutasiga bog'lashga harakat qiladilar. Buning natijasida ular ichki siyosatning avtomatik qoidalarini o'rnatishadi va inflatsiya darajasi past bo'lgan mamlakat Markaziy bankining mustahkam holatidan foydalanadi. Bunday mexanizmdan foydalanishning "salbiy" tomoni – Markaziy bank pul massasi ustidan nazoratni

yo'qotishi va mab TBni tuzatish uchun valyuta kursidan vosita sifatidan foydalanishdan voz kechishdir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlardagi «Valyuta kengashlari» (masalan, mab Estoniya va Litvadagi kabi) zahira pullari faqat xorijiy valyuta bilan ta'minlangan holdagina yaratilishi mumkinligidan kelib chiqib, sterillash qilish imkoniyatlarisiz, qat'i belgilangan valyuta kursi tizimini yaratishga imkon beradi. Sterillashdan voz kechilishi natijasida tuzatishlar kiritish avtomatik, lekin ancha oson kechadi. Pirovard natijada tuzatishlar kiritish nominal va real foiz stavkalarining oshishiga olib kelib, agar narxlar, ayniqsa ish haqi egiluvchan bo'lmasa, narxlarga bo'shroq bosim o'tkazadi, ishlab chiqarish hajmi va bandlik qisqaradi.

Pul-kredit tizimining avtonomligi va natijada, pulga talabning barqarorligini ta'minlaganligi uchun, ko'pchilik mamlakatlarda suzib boruvchi valyuta kursidan foydalanishga ustunlik beriladi. Suzib boruvchi valyuta kursi sharoitlarida PKBI valyuta bozorida intervensiya qilmaydilar. Lekin, amalda "erkin" suzib boruvchi kurs gipotetik xarakterga ega, chunki ushbu turdagi almashuv kursini qo'llagan ko'pchilik mamlakatlarda, agar amaldagi almashuv kursi uning asosida yotgan muvozanatli almashuv kursidan haddan tashqari tafovut qilgan davrlarda valyuta intervensiyasini amalga oshirishga majbur bo'ladilar va shuning uchun kursning suzib yurishi "noerkin" bo'ladi. Valyuta kursining suzib boruvchi tartibi sharoitlarida PKBI ichki pul massasini to'la nazorat qiladilar va shu asnoda ichki inflatsiya sur'atlarini belgilashlari mumkin. Ortiqcha kreditlarni yaratish qo'shimcha manba (valyuta kursining pasayishi) hisobiga sodir bo'ladi. Shuning uchun katta bo'lmagan ochiq iqtisodiyotli mamlakatlarda muhim tovarlar importiga bog'liqlik mavjud bo'lganligi sababli, valyuta kursi pul massasi va inflatsiya orasida qo'shimcha bog'liqlikni ta'minlaydi.

Kapital oqimlarining roli. Milliy chegaralar orqali harakatda bo'lgan kapital, mamlakat ichkarisidagi jamg'aruvchilar va investorlar bilan banklar orasida moliyaviy vositachilik xizmatlari singari, mamlakatlar orasida vositachilik funksiyasini bajaradi. Kapital oqimlari ichki iqtisodiy siyosat bilan TB orasidagi

aloqalarni mustahkamlaydi. Jahon kapital bozoridagidek, oxirgi o'n yilliklar davomida xorijiy mamlakatlardagi pul-kredit sohasi bilan ichki pul-kredit siyosati uyg'unlashib bormoqda. Kapitalning absolyut harakatchanligi (мобильность) sharoitlarida ichki va tashqi xorijiy bozorlarda foiz stavkalari orasidagi kichkina farq ham juda katta kapital oqimlariga turtki bo'lishi mumkin. Agar bunday hollarda amalda qat'i belgilangan valyuta kursi bo'lsa, Markaziy bank ichki foiz stavkalari darajasiga ta'sir ko'rsata olmaydi. Markaziy bankning pul-kredit siyosatini qattiqlashuviga qaratilgan har qanday harakati mamalakat ichkarisiga katta miqdorda kapital oqib kelishiga olib keladi. Natijada, Markaziy bank milliy valyuta qiymatining ko'tarilishini oldini olish uchun valyuta bozorida intervensiya qilishga majbur bo'ladi. Sof xorijiy aktivlarning ko'payishi, dastlab pul massasining qisqarishi hisobiga qorejaadi va natijada ichki foiz stavkalarining darajasi jahon foiz stavkasi darajasigacha kamayadi.

Suzib boruvchi valyuta kursi tartibi sharoitlarida PKBI tomonidan valyuta intervensiyasini amalga oshirilmasligi, sof xorijiy aktivlarning o'zgarishiga olib kelmaydi, joriy operatsiyalar hisobi bo'yicha kamomad esa, xususiy va rasmiy kapital kirib kelish miqdoriga teng bo'ladi. Pul massasi va TB orasidagi bog'liqlik buziladi va Markaziy bank yana pul massasi ustidan nazoratga erishadi. Aslida, mamlakatlardagi real sharoit qat'i belgilangan va suzib boruvchi almashuv kurslari tartiblari orasida, kapitalning harakatchanligi esa to'la va noldarajalari orasida bo'ladi. Shuning uchun kapital oqimlari ustidan qattiq nazorat o'rnatilgan sharoitlarda ham savdo operatsiyalarining qatnashchilari joriy operatsiyalar hisobiga kapitalning kirib kelishi va chiqib ketishi orqali ta'sir o'tkazadilar va ichki aktivlar tashqi aktivlar bilan qisman qorejaishi mumkin. Kapital bilan operatsiyalar qanchalik ochiq bo'lgani sari, qoplash darajasi oshib boraveradi va valyuta kursiga nisbatan yyetarli darajada egiluvchanlik bo'lmasa, mustaqil pul-kredit siyosatini yuritish qiyinlashib boradi. Dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida unga quyidagi chora-tadbirlar orqali ta'sir o'tkazishga harakat qiladilar:

- kirib kelgan kapitalning bir qismini qoplash uchun qisman valyuta intervensiyasini amalga oshirish. Bu nominal valyuta kursini ma'lum darajada ko'tarilishiga olib keladi;

- sof xorijiy aktivlarning qo'shimcha o'sishini pul bazasiga ta'sirini qisman sterillash;

- pul bazasi va inflatsiya sur'atlarini ma'lum miqdorda oshirish. Bu valyuta kursini oshishiga olib keladi.

Emissiya daromadi va inflatsion soliq. Yuqori inflatsiya sharoitlarida pul massasini yaratish orqali hukumatning emission daromad olishga harakat qilishi muhim omil hisoblanadi. Ushbu masala soliq-budjet sohasini tahlil qilishda atroflicha ko'rib chiqilgan edi.

12.3. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarning pul-kredit tahlili

Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarning pul-kredit sohasini tadqiqot qiluvchi mutaxassislari biror-bir mamlakatga xos bo'lgan tizimiy va institutsional xarakterga ega bo'lgan muayyan muammolarga duch kelishadi.

Pul aylanish tezligining tez-tez o'zgarib turishi. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda yuqori va tez-tez o'zgarib turuvchi inflatsion jarayonlar pul aylanish tezligining tezlashuvi bilan birgalikda sodir bo'ladi. Pul aylanishining tezlashuvi muttasil bo'lmasdan, diskret hollarda sakrab turgan. Ekstremal holatlarda (masalan, 1993-yilning oxirlarida Armaniston va Gruziyada) pul aylanish tezligi bir chorakning o'zida uch barobar tezlashgan. Dastlabki pul aylanish tezligining yuqori darajada tezlashuv tendensiyasining teskari yo'nalishda o'zgarishi yoki pasayishi birdaniga sodir bo'lmasdan, buning uchun ancha uzoq vaqt talab qilinadi. Bu holatga erishish uchun real pul qoldiqlari uzoq vaqt davomida past darajada saqlab turilishi lozim. Yuqori darajadagi inflatsiya mavjud bo'lgan mamlakatlarda real pul qoldiqlari operatsiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan minimal darajada sekin-asta barqarorlashadi. Avval sodir bo'lgan giperinflatsiya sharoitlaridan kelib chiqib, real pul qoldiqlari bir qancha vaqt mobaynida inflatsiya boshlanguncha bo'lgan davrdagi

darajaga real pul qoldiqlariga talab keskin pasaygan taqdirda ham yaqinlashmaydi, degan xulosa chiqarish mumkin.

Giperinflatsiya atamasi odatda juda yuqori sur'atlarda muttasil narxlarning o'sib borishini anglatadi. Filipp Kagan tomonidan taklif qilingan ta'rifga ko'ra, giperinflatsiya holatlari oylik inflatsiya darajasi bir necha oy mobaynida 50 foizdan kam bo'lmagan vaqtlarda sodir bo'ladi. Ilgari I va II jahon urushlaridan keyingi Germaniyadagi, ushbu urushlar oraligida Avstriya, Vengriya va Lotin Amerikasi mamlakatlaridagi giperinflatsiya holatlari yuqori sur'atlarda pul massasi o'sishining inflatsiyaga ta'sirini o'rganish uchun laboratoriya tajribasi deb hisoblanishi mumkin.

Giperinflatsiyaning holatlarini o'rganish, ularga xos bo'lgan bir qancha umumiy tomonlarni aniqlashga imkon beradi. Birinchidan, pulga real talab keskin pasayib ketadi. XX asrning 20-yillariga kelib, Germaniyadagi real pulga talab ikki yil oldingi darajaning $\frac{1}{30}$ qismigacha pasayib ketgan. Ikkinchidan, nisbiy narxlar juda ham nobarqaror holatga kelib qoladi. Germaniyada real ish haqining darajasi past va yuqoriga har oyda $\frac{1}{3}$ darajaga tebranib turgan. Nisbiy narxlar va real ish haqining bunday keskin o'zgarib turishi va ular bilan bog'liq bo'lgan tengsizlik va buzilishlar iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka katta ziyon yetkazdi. Uchinchidan, yuqori sur'atli inflatsiya sharoitlarida, odatda katta tebranishlar sodir bo'ladi. 1921-1923-yillarda Germaniyada oylik inflatsiya sur'atlari noldan 500 foizgacha o'zgarib turgan. Bunday sharoitlarda nominal foiz stavkalaridan ushbu stavkalar bo'yicha kreditlash jarayoniga barham berilishi sababli, pullarni saqlashning muqobil xarajatlari me'yori sifatida foydalanib bo'lmaydi. Giperinflatsiya sharoitlarida pullarni saqlash xarajatlarining eng yaxshi indikatori bo'lib kutilayotgan inflatsiya darajasi hisoblanadi.

Ichki pul-kredit aktivlari bo'yicha real ko'rinishda ijobiy foyda normasini ta'minlash maqsadida valyuta kursi sohasida keskin siyosat yuritayotgan mamlakatlar milliy valyutaga ishonchni nisbatan qozonishlari mumkin.

Tijorat banklari orasida raqobatning yo'qligi. Tijorat banklari orasida raqobatning yo'qligi pul-kredit nazoratining bilvosita usullaridan foydalanishni

qiyinlashtiradi. Tijorat banklari o'z foydalarini maksimallashtirish uchun faoliyatni boshlamaganliklari uchun bank zahiralariga talab foiz stavkalariga nisbatan sezgir bo'lmaydi. Shuning uchun bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan ko'pchilik mamlakatlar pul qoldiqlarini pul bozorida zahiralarini qayta taqsimlash uchun auksionlar o'tkazish orqali Markaziy bankning kreditlarini narxlar bilan bog'liq bo'lmagan normallashtirish usulidan foydalanganlar. Bank tizimida raqobat bir qancha sabablarga ko'ra chegaralangan bo'ladi. Ko'pchilik korxonalar singari, tijorat banklari davlatga tegishli bo'lib, keng taqsimlangan shohobchalarga ega bo'lmaydi. Banklar hamon Markaziy bank mablag'lari, yirik miqdorda imtiyozli kreditlar va kreditlashning yuqori chegaralariga bog'liq holda faoliyat yuritadilar. Ko'pchilik banklar Markaziy bankning qayta moliyalashiga bog'liq bo'lishi natijasida, markazlashgan rejalashtirish davridan davom yetib kelayotgan kreditlarning depozitlardan oshib ketish holatlariga barham berilmagan. Oqibatda mablag'lardan qayta foydalanishga mo'ljallangan banklararo bozor shakllanmasdan va ssudalarning salmoqli qismi subsidiyalanib qolmoqda.

Korxonalarning o'zaro qarzdorligi. Agar mamlakatda korxonalardan o'z individual xarajatlarini qat'i chegaralash talab qilinmasdan qattiq kredit siyosati olib borilsa, oqibatda vositachilarning moliyaviy xizmatlaridan foydalanishdan voz kechiladi yoki mablag'lar bank tizimidan tashqariga oqib keta boshlaydi. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlardagi korxonalar bank kreditlari o'rniga o'zaro qarzdorlikdan foydalanishga harakat qiladilar. Ayrim mamlakatlar tajribasi, xususan Ruminiya tajribasi, uzoq muddatli davrda o'zaro qarzdorlikni yechish uchun bank kreditlarida foydalanish, masalani yechilishiga olib kelmasligini yaqqol ko'rsatdi. Masalani hal qilish uchun korxonalarda qat'i budjet chegirmalari belgilanishi lozim. Yangitdan o'zaro qarzdorlikning paydo bo'lmasligi uchun ijobiy real foiz stavkalarini ta'minlash, to'lov tizimini takomillashtirish, boshqaruvchilarning yuqori darajada hisobot berishlari va bankrotlik to'g'risidagi qonunchilikning samarali ishlashi, hamda korxonalarda tizimiy islohotlar o'tkazish va kerak bo'lsa, ularni xususiylashtirish talab qilinadi.

Pul va moliya bozorlarining mavjud emasligi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki bosqichlarida bunday bozorlarning yyetarli darajada rivojlanmaganligi ochiq bozordagi operatsiyalarni pul-kredit nazoratining vositasi sifatida foydalanilishiga to'sqinlik qiladi. Muammo banklararo kliring tizimining mavjud emasligi va banklararo operatsiyalarning kreditlash qobiliyatiga ishonchning pastligi sababli yanada murakkablashadi.

Foiz stavkalari sohasidagi muammolar. Uzoq muddatlarga past darajada belgilangan foiz stavkalari bo'yicha beriladigan katta miqdordagi ssudalar (masalan, uy-joy uchun ssudalar) foiz stavkalarini erkinlashtirish jarayonini murakkablashtiradi. Undan tashqari, moliya tartibining bo'shligi, odatda, foiz stavkalari rolini buzib yuboradi. Masalan, agar korxonalarga banklardan olingan kreditlar uchun foizlarni uzish uchun qarz olishga ruxsat berilsa, yuqoriroq foiz stavkalari muntazam tarzda pul massasining o'sish sur'atlarini oshib borishiga olib kelishi mumkin (natijada inflatsiyani ham).

Depozit va kredit stavkalari orasidagi katta farq. Banklar turli xarajatlarini o'z mijozlari zimmasiga yuklashlari sababli ushbu farq katta darajada saqlanib turish tendensiyasiga ega bo'ladi. Bu xarajatlar katta miqdorda ishlamaydigan ssudalarning mavjudligi, imtiyozli stavklarda beriladigan kreditlar salmog'ining yuqoriligi, hamda islohotlarning dastlabki yillarida Markaziy bank foizsiz zahira talablariga ko'proq e'tibor berganligi natijasida bank aktivlari bo'yicha foyda normasining pasayishi, tizimning samarasizligi natijasida yuqori darajadagi ma'muriy xarajatlar bilan bog'liq bo'ladi. Banklar orasida raqobatning sustligi sababli banklar eski tizimdan meros bo'lib qolgan narxlarni belgilash tamoyilidan, ya'ni "xarajatlar plyus ustama" usulidan voz kechishga shoshilmaydilar.

Davlat sektorining moliyalashtirishga katta ehtiyojlari. Pul-kredit siyosatini shakllantirish siyosiy jarayonlardan ajratilmagan holatlarda PKBI ko'pincha o'z maqsadlarini hukumatni moliyalashtirish ehtiyojlariga moslashtirishga majbur bo'ladilar. Katta budjet kamomadi va cheklangan ichki nobank moliyalashtirish

manbalariga ega bo'lgan mamlakatlarda ushbu holat, odatda yuqori darajadagi inflatsiyaga olib keladi.

12.4. Pul agregatlarini bashoratlash. pulga talabni bashoratlash. pul taklifini bashoratlash

PKBIning moliyaviy dasturlashni amalga oshirishdagi asosiy vazifasi belgilangan inflatsiya sur'atlari va YaIMning real o'sish sur'atini ta'minlovchi pul taklifi bilan pulga talab darajalarini muvofiqlashtirishdan iborat bo'ladi. Pulga talab bashorati PKBI belgilangan pul massasi hajmiga erishish maqsadida boshqaruv vositalariga o'zgartirishlar kiritish uchun zarurdir.

Pulga talab bashorati

Pul-kredit sohasidagi o'zgarishlarni miqdoriy baholash va ularni iqtisodiyotning boshqa sektorlari bilan bog'lash uchun asos bo'lib pul-kredit sharhi (PKSH) xizmat qiladi.

(12.7) formulaga ko'ra PKShning asosiy ayniyati quyidagicha yoziladi:

$$NFA + NDC = M2 - OIN, \quad (12.16)$$

bu yerda: $M2$ – keng ma'nodagi pul massasi, ya'ni tor ma'nodagi pul massasi ($M1$) bilan kvazi pullar (QM) yig'indisi; NFA – sof xorijiy aktivlar; NDC – sof ichki kreditlar; OIN – boshqa sof moddalar.

PKBIning muhim vazifalaridan biri yuqorida keltirilgan o'zgaruvchilarning talabga javob beradigan va kutilayotgan boshqa makroiqtisodiy o'zaruvchilarga mos keluvchi kelgusidagi miqdorlarini bashoratlashdir. Bu yo'lda birinchi muhim qadam sifatida pulga talabni bashoratlash hisoblanadi.

Pulga talabni baholashda ikkita asosiy yondashuv mavjud. Ulardan birinchisi nominal YaIM ni pul massasi miqdoriga bo'lish orqali hisoblanadigan pul aylanish tezligining oxirgi o'zgarishlarini ekstropolyatsiyalashga asoslanadi.

$$V = \frac{GDP}{M2}. \quad (12.17)$$

Agar pul aylanish tezligi oxirgi bir necha yil davomida o'zgarmagan bo'lsa yoki qandaydir tendensiya bo'yicha o'zgargan bo'lsa, shu asosda bashorat davri uchun pul aylanish tezligini baholash mumkin. Shu tarzda aniqlangan pul aylanish tezligining miqdoriga asoslanib inflatsion kutish va foiz stavkalari bo'yicha o'zgartirishlar kiritish mumkin.

Pul aylanish tezligining bashoratidan foydalanib bashorat qilingan YaIMga mos keluvchi pulga bo'lgan talabni ham bashorat qilish imkoniyati tug'iladi. Bashoratlashning ushbu usulidan foydalanish, ayniqsa, dinamika qatorlarida ma'lumotlar yyetarli bo'lmagan yoki ma'lumotlar sifati past bo'lgan, shuningdek moliya sektorida sezilarli darajada institutsional o'zgarishlar sodir bo'layotgan mamlakatlarda katta foyda beradi.

Pulga bo'lgan talabni baholashning ikkinchi usuli ekonometrik usullarga asoslanadi. Iqtisodiy agentlarning moliyaviy qarorlari unchalik ko'p bo'lmagan ayrim iqtisodiy o'zgaruvchilarning funksiyasi sifatida, pul agregatlari orasidagi bog'liqliklar va ularni belgilovchi o'zgaruvchilar vaqt davomida o'zgarmaydi deb qaraladi. Aholi o'z xohishi bilan qo'lida saqlab turadigan pul miqdori uning sotib olish qobiliyati bilan bog'liq bo'lganligi sababli, pulga talab tenglamasi real ko'rinishdagi miqdorlarda ifodalanadi (ya'ni, inflatsiyani hisobga olgan holda).

Hisob-kitoblarni olib borishda pulning qaysi agregatidan foydalanish lozimligi empirik natijalar asosida aniqlanadi. Aholining pulga talabini biror-bir pul agregati aniq va barqaror ifodalashini oldindan belgilab bo'lmaydi. PKShni bashoratlashda, odatda bank tizimini nodavlat sektori oldidagi majburiyatlarida pul massasiga kiradigan qaysi qismi salmoqli bo'lsa, o'sha qismga asoslangan pul massasi agregatidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Biroq pul agregati tushunchasi qanchalik keng qaralsa, PKBI tomonidan uning miqdorini nazorat qilish shunchalik qiyinroq bo'ladi.

Iqtisodiy operatsiyalar bilan bog'langan real YaIMni va pullarni saqlashning boshqa moliyaviy va real aktivlarga nisbatan nisbiy foydaliligini (nisbiy qiymat)

o'zgaruvchi miqdor sifatida qaralishi pulga talab funksiyasini bashratlashda keng qo'llaniladi.

Muqobil qiymat o'zgaruvchisini tanlash mamlakatda foydalaniladigan pul agregati tushunchasi va institutsional tizim tarkibiga bog'liq bo'ladi. Foiz daromadlari keltirmaydigan pul aktivlarini saqlashning muqobil qiymatining me'yori sifatida nominal foiz stavkalaridan foydalanish mumkin. Foiz daromadlari keltiradigan pul agregatlari uchun esa, pul va boshqa moliyaviy aktivlar bo'yicha foiz stavkalari orasidagi farq mos keladi. Bank tizimini xususiy sektor oldidagi moliyaviy majburiyatlari yalpi moliyaviy aktivlarning asosiy qismini tashkil qilgan mamlakatlarda ba'zan real foiz stavkasi moliyaviy aktivlardan daromadlar bilan real aktivlardan daromadlar orasidagi farqning me'yori sifatida foydalaniladi (real foiz stavkasining ko'payishi pul agregati o'zgarishiga ijobiy ta'sir o'tkazadi). Agar foiz stavkalari uzoq vaqt mobaynida o'zgarmasa, bunday ta'sirning miqdorini aniqlash uchun faqat inflatsiya darajasining o'zgarishidan foydalanish mumkin (inflatsiyaning real pul qoldiqlariga ta'siri salbiy bo'ladi).

Pul agregatiga talabni empirik baholash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\left(\frac{M}{P}\right)_t = a_0 + a_1 \left(\frac{Y}{P}\right)_t + a_2 (\pi)_t \quad (12.18)$$

$$a_1 \geq 0; a_2 \neq 0$$

buyrda: M – pulagregati; R – narxdarajasi (inflatsiya); Y – nominalYaIM; Δ – pulsaqlashning nisbiy qiymati; a_1 – daromad bo'yicha pul gatalabning elastikligi (agarmiqdorlar logarifmik shakldaberilgan bo'lsa); a_2 – pul massasining nisbiy qiymat o'zgaruvchisigata'sirdarajasi (belgi Dning tanlanganta'rifi gaboqliq bo'ladi).

(12.18) tenglamasibo'yichabar qaror bog'liqliklar belgilangandanso'ng, tenglamadagi o'zgaruvchilarasosidakelgusidavruchun pul gatalab nibasharotlash mumkin bo'ladi. O'zgaruvchilar sifatida esa real YaIM, inflatsiya darajasi va foiz stavkalarining o'zgarishlari olinishi lozim.

PKShning passiv qismini bashoratlashda pul massasini bashoratlash asosiy element hisoblanadi.

Aktiv qismning sof xorijiy aktivlar (*NFA*) bo‘lagi tashqi to‘lovlarning umumiy Saldosini bashoratlash orqali hisoblanadi. Boshqa sof moddalar (*OIN*) bashorati to‘laqonli axborotlar mavjud bo‘lmagan hollarda ma’lum tendensiyalarga asoslanishi mumkin. Boshqa sof moddalar valyutalarning almashuv kurslaridagi o‘zgarishlarni inobatga olishi lozim.

NFA va *OIN* larning miqdorlarini va shuningdek pulga taklifning bashorat davri uchun aniqlanishi 5.16 tenglamaga mos keluvchi ichki kredit imkoniyatlarini belgilashda asos bo‘lib hisoblanadi. Davlat sektoriga sof kredit berish miqdorining bashorati davlat sektorining bank tizimidan sof qarz olish bashoratiga asoslanadi. Xususiy sektorga ajratilishi mumkin bo‘lgan kreditlar miqdori esa, umumiy kreditlar miqdoridan davlat sektoriga ajratiladigan kreditlar miqdorini ayirish natijasida hisoblanadi. Bunda xususiy va davlat sektorlariga ajratilayotgan kreditlar YaIM tarkibidagi kapital qo‘yilmalar bashoratiga mos kelishiga e’tibor berilishi lozim.

Pul taklifi bashorati

PKBI PKShda pul-kredit siyosatining oraliq belgilangan bashorat ko‘rsatkichlariga erishishlari uchun operatsion belgilangan o‘zgaruvchilarning bashoratlari talab qilinadi. Bunday bashoratlar PKBIning hisoblari asosida tuziladi. (5.1) tenglamasiga mos keluvchi ayniyat quyidagicha ifodalanadi:

$$RM^* = NFA^* + NCg^* + CDMB^* + CPS^* + OIN^*, \quad (12.19)$$

bu yerda: RM^* - zahira pullari; NFA^* - PKBIning sof xorijiy aktivlari; NCg^* - davlatga sof talablar; $CDMB^*$ - pul-depozit banklariga talablar; CPS^* - davlat sektoriga talablar (agar ular bo‘lsa); OIN^* - boshqa sof moddalar.

Yulduzcha (*) belgisi ma’lumotlar PKBI hisoblari to‘g‘risida ekanligini anglatadi.

PKShda ifodalangan M2 pul agregatining o‘zgarishi Markaziy bankning zahira pullaridagi o‘zgarishlar bilan quyidagi bog‘liqlikda bo‘ladi:

$$M2 = mm \cdot RM^*. \quad (12.20)$$

Pul multiplikatorining miqdori (mm) bank tizimidagi zahira talablarining oʻrtacha miqdoriga teskari proporsional bogʻliqlikda boʻlgani bilan, ular bir xil emas. Quyida bank tizimidan tashqarida boʻlgan naqd pullarning salmogʻidagi oʻzgarishlarni hisobga oladigan formula keltirilgan. Buning uchun quyidagi tushunchalarni kiritamiz:

CY - banklardan tashqari naqd pullar;

D - talab qilib olguncha depozitlar va muddatli hamda jamgʻarma depozitlar ($DD+TD$);

R - tijorat banklarining zahiralar (ularning Markaziy bankdagi depozitlari + banklardan tashqaridagi naqd pullar), ortiqcha zahiralar ham qoʻshib hisoblaganda;

c - banklardan tashqari naqd pullarni depozitlarning umumiy summasiga nisbati;

r - zahiralarining aholini umumiy depozitlari summasiga nisbati.

Natijada, quyidagi 2 ta ayniyatni yozish mumkin:

$$M2 = CY + D,$$

$$RM = CY + R.$$

Bundan (5.20) formulani qoʻllab, pul multiplikatorini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$mm = \frac{CY+D}{CY+R}.$$

Surat va mahrajni D ga boʻlsak, quyidagi formulaga ega boʻlamiz:

$$mm = \frac{c+1}{c+r}. \quad (12.21)$$

(12.21) tenglamasi pul multiplikatorining uchta iqtisodiy agentning harakatiga bogʻliqligini koʻrsatadi: 1) majburiy zahiralar meʼyorini belgilaydigan PKBidan; 2) oʻzining ortiqcha zahira miqdorini belgilaydigan tijorat banklaridan; va 3) pul massasining tarkibini, yaʼni naqd pullar va depozitlar nisbatini amaldagi foiz stavkalari va boshqa oʻzgaruvchilar asosida aniqlaydigan bank tizimidan tashqarida

bo'lgan aholidan. Markaziy bank pul multiplikatori miqdorini to'raligicha nazorat qila olmaydi. Bundan tashqari, uning zahira pullari ustidan nazorati ham to'laonli emas. Markaziy bankning olib borayotgan siyosati tijorat banklariga nisbatan talablarni ifodalasada, sof xorijiy aktivlarning o'zgarishi TBning holatini ifodalaydi, davlat sektoriga sof talablarning o'zgarishi esa, davlat budjetining holatiga bog'liq bo'ladi.

Qisqacha xulosalar

Asosiy makroiqtisodiy hisoblar orasida pul-kredit hisoblari bir qancha sabablarga ko'ra muhim rol o'ynaydi.

Birinchidan, asosida pul yotgan bozor iqtisodiyotida moliyaviy tizim sektorlararo resurslar oqib o'tadigan vositachi vazifasini bajaradi. Pul-kredit sektori iqtisodiyotdagi barcha moliyaviy oqimlar bo'yicha hisob-kitob markazi hisoblanib, ushbu sektorning hisoblarida moddiy resurslarni sektorlararo harakatini ifodalaydigan oqimlar dinamikasini aks etadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Pul-Kredit tizimining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. To'lov balansi va pul-kredit tizimi orasida qanday bog'liqlik mavjud?
3. Pul massasi qanday hisoblanadi?
4. Moliya muassasalarining vazifalari nimalardan iborat?
5. Nobank moliya muassasalariga nimalar kiradi?
6. Bank tizimi necha qismdan iborat va qaysilar?
7. Xalqaro moliya statistikasida moliyaviy ma'lumotlar qanday darajalarga tavsiflanadi?
8. Qanday ma'lumotlar asosida pul-kredit sharhi ishlab chiqiladi?
9. Pul-kredit statistikasi asosida qanday hisobga olish tamoyillari mavjud?
10. Operatsiyalarni kassa usulida ifodalash deganda nimani tushunasiz?
11. Operatsiyalarni o'tkazish usulida ifodalash deganda nimani tushunasiz?
12. Pul-kredit hisoblari ma'lumotlari qaysi valyutada ifodalanadi?

13. Pul-kredit hisoblari operatsiyalarini aks ettirishda qaysi davrdagi kurs qo'llaniladi?
14. Birlashtirish deganda nimani tushunasiz?
15. PKBIlarning pul-kredit tizimini boshqarishdagi roli qanday?
16. G'aznachilik deganda nimani tushunasiz?
17. PKBIlarning kreditorlik funksiyasi nimadan iborat?
18. Bank tizimiga ishonchsizlik qanday hollarda namoyon bo'ladi?
19. Iqtisodiyotning monetizatsiya darajasi va uni hisoblash usuli?
20. Pul multiplikatori nima?
21. Pul aylanish tezligi qanday hisoblanadi?
22. PKBI tahliliy balansining aktiv qismi nimalardan tashkil topadi?
23. Xususiy sektorga talablar qanday shakllanadi?
24. Zahira pullar deganda nimani tushunasiz?
25. Zahira pullarning miqdoriga qanday omillar ta'sir qiladi?
26. Valyuta intervensiyasi deganda nimani tushunasiz?
27. Davlat budjeti kamomadini Markaziy bank sudalari hisobiga moliyalashtirish qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi Prezident Islom Karimovning 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi / Xalq so'zi 22.01.2011
2. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir. I.A.Karimov. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2010. – 34-50 b.
3. I.A.Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: O'zbekiston, 2009.-56 b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir” hamda “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” nomli ma’ruzalarini o‘rganish bo‘yicha O‘quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot.-2010.– 63-85 b.

5. Кудина М.В. Основы экономики: Учебник. – ФОРУМ: ИНФРА-М, 2006.

6. Бухгалтерский финансовый учет: Учебник для вузов/Под ред.проф. Ю.А.Бабаева. – М.:Вузовский учебник, 2006.

7. Yakubov I.O., G‘oyibnazarov B.K., Abdusattarova X.M. Balans muammolari. O‘quv qo‘llanma.-T.:O‘zRYoUAJ. 2004.

8. Якубов И.О., Тошмухамедов Н.С. Балансовые проблемы. – Т.: ТГЭУ, 2008.

13-Mavzu: MOLIYAVIY DASTURLASH

Reja:

13.1. Moliyaviy dasturlashning umumiy xarakteristikasi va asoslari

13.2. Iqtisodiy siyosat va moliyalashtirishning turli variantlari. Talabni boshqarish metodlari. Xarajatlar xarakterini o'zgartirish chora-tadbirlari. Tizimiy siyosat. Moliyalashtirishning turli variantlari. Iqtisodiy choralarning zaruriy ketma-ketligi va zaruriy kelishuvlar

13.3. Iqtisodiy bashoratlash bosqichlari. Iqtisodiy muammolarni baholash. Boshqaruv idoralarining nazoratidan tashqarida bo'lgan omillarni aniqlash. Ko'rsatkichlarning tahminiy maqsad darajalari va ularga erishish uchun chora-tadbirlarni ishlab chiqish

13.4. Ayrim sektorlarning bashoratlarini tayyorlash

13.1. Moliyaviy dasturlashning umumiy xarakteristikasi va asoslari

Moliyaviy dasturlash - belgilangan makroiqtisodiy maqsadlarga erishishga qaratilgan chora-tadbirlar to'plami. Ushbu maqsadlar iqtisodiyot faoliyatining belgilangan samaradorlik darajasini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi mumkin. Ammo, ko'pincha moliyaviy dasturlashda ko'zlangan chora-tadbirlar yalpi talab bilan yalpi taklif o'rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etishga qaratilgan bo'ladi. Nomutanosiblik, odatda TBning qoniqarsiz holati, yuqori darajadagi inflatsiya va past yoki pasayib borayotgan ishlab chiqarish hajmlarida ifodalanadi.

Makroiqtisodiy disproporsiyalar mavjud bo'lgan hollarda resurslarga talab va taklif orasida mutanosiblikni ta'minlash uchun turli chora-tadbirlarni amalga oshirish talab qilinishi mumkin. Agar o'z vaqtida maqsadli yo'naltirilgan choralar ko'rilmasa, boshqarish bobidagi ishlar tartibsiz va samarasiz bo'ladi. Masalan, mamlakatdagi xalqaro zahiralar miqdori keskin tarzda pasayib ketsa, xorijiy kreditorlar ushbu mamlakatga kredit ajratmay qo'yishlari mumkin. Natijada, import miqdori keskin qisqarib ketadi, bu esa o'z navbatida, iqtisodiy o'sish va aholi turmush darajasiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Moliyaviy dasturlashning asosiy xususiyatlari shundan

iboratki, uni qo'llash natijasida o'z vaqtida chora-tadbirlar ko'rish uchun iqtisodiy siyosatga tuzatishlar kiritiladi va ma'lum hajmda tashqi moliyalashtirish bilan ta'minlanadi.

Moliyaviy dasturlashda pul-kredit, soliq-budjet va valyuta siyosatlari sohasidagi choralar mamlakat ichki talabini nazorat qilish va TBdagi muvozanatning buzilishiga yo'l qo'ymaslikka qaratiladi. Moliyaviy dasturlar, shuningdek iqtisodiy siyosatni boshqa choralarining, ayniqsa yalpi taklifni oshirishga qaratilgan choralarning ham ta'sirini ifodalaydi. Bunday choralar iqtisodiy siyosatni amalga oshirish jarayonida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish hajmining pasayish darajasi va bandlik darajasining pasayishini oldini olishi lozim. Pirovard natijada, ko'rilgan choralar TBning barqarorligini ta'minlashi zarur.

Moliyaviy dastur, albatta kelgusi davrdagi o'zgarishlarni inobatga olgan holda tuzilishi talab qilinadi. O'rta muddatli davr tushunchasi qat'i tarzda chegaralab qo'yilmagan. Odatda, o'rta muddatli dasturlar taxminan besh yilga mo'ljallanadi. Qoidaga ko'ra, kelgusi yil uchun tuziladigan moliyaviy dasturlar keng qamrovda ishlab chiqiladi, chunki unda keng qamrovli iqtisodiy choralar ishlab chiqilishi talab qilinadi va shuningdek axborot bazasi ham ancha ishonchli bo'ladi. Uzoqroq davr uchun bashoratlar qamrovi torroq chora-tadbirlarni nazarda tutganligi uchun, odatda ularda asosiy e'tibor tashqi iqtisodiy siyosatning umumiy oqibatlariga qaratiladi va o'z xarakteriga ko'ra qisqa va o'rta muddatli dasturlarga nisbatan aniqlik darajasi pastroq bo'ladi.

Moliyaviy dasturlash asoslari.

Iqtisodiyot faoliyatining samaradorlik darajasiga baho berish va iqtisodiy siyosatga tuzatishlar kiritish uchun qarorlar qabul qilish ishlarida makroiqtisodiy hisoblar majmuasidan foydalanish talab etildi. Ushbu majmuaga milliy hisoblar tizimi, TB va budjet hamda pul-kredit sohalarining hisoblari kiradi. Bu hisoblar, shuningdek iqtisodiy siyosatni tahlil etish va muhim makroiqtisodiy nisbatlarni tekshirishda qo'llaniladi. Bu hisoblardagi ma'lumotlarning o'zaro bog'liqligi biror-bir sektorda xarajatlarning daromadlardan ortiq bo'lishi boshqa sektorda erishilgan

iqtisod bilan qorejaishi lozimligi va mamlakat iqtisodi bo'yicha haddan tashqari ortiqcha xarajatlarni moliyalashtirish faqat tashqi manbalar hisobiga amalga oshirilish mumkinligini yaqqol ko'rsatadi.

Mamlakat rahbariyati uchun milliy hisoblardagi ma'lumotlar qiziqish uyg'otishi maqsadida bu ma'lumotlar boshqa sektorlar bilan bog'langan holda keltirilish talab qilinadi. Bu bog'liqliklar milliy hisoblardagi ko'rsatkichlar boshqa ko'rsatkichlar hisobiga qanday o'zgarishi mumkinligin ko'rsatishi lozim. Buxgalteriya ayniyatlari bilan birgalikda olingan yuqoridagi bog'liqliklar iqtisodiy jarayonlarning raqamlarda ifodalangan muayyan sxematik "modelini" ifodalaydi. Ushbu modeldan boshqarilayotgan parametrlarga oldindan belgilangan maqsadlarga erishish uchun qanday tuzatishlar va o'zgartirishlar kiritilishi lozimligini (masalan, endogen omillar orqali aniqlanadigan inflatsiya va TB ko'rsatkichlariga) aniqlash maqsadida foydalanish mumkin. Iqtisodiy siyosatga tuzatishlar kiritishning mantiqiy natijalari ketma-ketligini ta'minlash uchun iqtisodiyotning barcha sektorlaridagi o'zgarishlar inobatga olinishi lozim.

Dasturlar ishlab chiqishda katta miqdordagi omillar va qiyinchiliklarga duch kelinadi. Moliyaviy dasturlar moliyaviy o'zgaruvchilar orasidagi barqaror bog'liqliklarga asoslansada (masalan, iqtisodiy o'sish sur'ati, inflatsiya sur'ati va TB), amalda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni aniqlash ancha murakkab bo'ladi. Bunday bog'liqliklar turli mamlakatlarda turlicha bo'ladi va undan tashqari vaqt o'tib borishi bilan va institutsional, siyosiy va boshqa omillar ta'sirida o'zgarib turadi. Iqtisodiy siyosatda sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lib, yirik islohotlar o'tkazilsa, oldingi davrlardagi tendensiyalar umuman o'zgarib ketishi mumkin. Tahlil olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning natijalari qachon namoyon bo'lishi, kutilayotgan o'zgarishlarning o'zaro bog'liqliklarga qay tarzda ta'sir etishini aniqlashdagi murakkabliklar sababli tendensiyalarni aniqlash yanada qiyinlashishi mumkin. Nihoyat, ekzogen parametrlarning o'zgarishlari bobidagi bashoratlar ham noto'g'ri bo'lib chiqishi mumkin.

13.2. Iqtisodiy siyosat va moliyalashtirishning turli variantlari. Talabni boshqarish metodlari. Xarajatlar xarakterini o'zgartirish chora-tadbirlari. Tizimiy siyosat. Moliyalashtirishning turli variantlari. Iqtisodiy choralarning zaruriy ketma-ketligi va zaruriy kelishuvlar

Iqtisodiy siyosat variantlari quyidagi ikkita buxgalteriya ayniyatlari asosida o'zaro bog'lanishi mumkin:

$$GNDI - A = CAB \quad (13.1)$$

va

$$CAB + DFI = DRES, \quad (13.2)$$

bu yerda: *GNDI* - egalikdagi yalpi milliy daromad (EYAMD); *A* - ichki foydalanish, ya'ni rezidentlarning iste'mol va investitsiya xarajatlari; *CAB* - TBning joriy operatsiyalar hisobi saldosi; *DFI* - kapitalning sof oqib kelishi; *DRES* - davlat sof xalqaro zahiralarining o'zgarishi.

(13.1) tenglama shuni ko'rsatadiki, TBning joriy operatsiyalar hisobi saldosi yaxshilash uchun mamlakatdagi ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish kerak, yoki uning xarajatlarini qisqartirish kerak. Demak, boshqarish usullari ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun ichki xarajatlarni qisqartirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Natijada, eksport qilinadigan mahsulot salmog'i oshib, import hisobiga xarajatlar salmog'i qisqaradi.

(13.2) tenglama TB dagi ayniyatni ifodalaydi: daromadlarga nisbatan foydalanishning har qanday oshishi, TB ning joriy operatsiyalar hisobida kamomadga olib keladi va bu kamomad qo'shimcha kapitalning oqib kelishi hisobiga, yoki zahiralar miqdorining qisqarishi hisobiga qorejaishi mumkin.

Talabni boshqarish bo'yicha choralar.

TBning joriy operatsiyalar hisobidagi kamomad yoki inflatsion bosimni qisqartirish lozim bo'lgan paytlarda talabni boshqarish choralari ichki talabni qisqartirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bunday choralar sifatida pul-kredit, soliq-budjet va daromadlar siyosati sohalaridagi tadbirlarni ko'rsatish mumkin. Lekin narxlarning erkinlashtirish kabi choralar ham xarajatlarni qisqartirishga olib kelishi mumkin.

Ko'p hollarda ichki talabning haddan tashqari oshib ketishiga noto'g'ri olib borilayotgan soliq-budjet siyosati sababchi bo'ladi. Bunday hollarda, yuzaki qaraganda, davlat xarajatlarini qisqartirish va davlat daromadlarini ko'paytirish lozimdek ko'rinishi mumkin. Ammo, davlat sektorining umumiy balansini ifodalovchi oddiy ko'rsatkichlar soliq-budjet siyosatining talabga ta'sirini yyyetarli tarzda baholay olmasligi mumkin. Xususan, dasturni amalga oshirish natijalariga baho berish uchun umumiy balans qanday manbalar hisobiga moliyalashtirilayotganligi muhim. Ichki xarajatlarni, shuningdek pul agregatlarining o'sish sur'atlarini chegaralash, masalan, xususiy yoki davlat sektoriga berilayotgan kredit hajmini o'zgartirish hisobiga ushlab turish mumkin.

Pul-kredit va soliq-budjet siyosatlari bank tizimi davlat sektorini sof moliyalashiga (ijobiy yoki salbiy) ko'ra o'zaro bog'langan bo'ladi. Masalan, davlat sektorining kamomadi qisqarsa, bankdan ssudalar olish zaruriyati ham kamayadi (yoki ushbu kamomadni nobank ssudalari orqali moliyalash ortadi). Natija esa - pul agregatlari o'sish sur'atlarining pasayishi bo'ladi.

Xarajatlar xarakterini o'zgartirish chora-tadbirlari.

Iste'molni qisqartirishga qaratilgan ko'pgina dasturlardagi choralar xarajatlar xarakterini o'zgartirishga qaratilgan choralar bilan, xususan almashuv kursi siyosati choralari bilan birgalikda to'ldirib olib boriladi. Almashuv kursining pasayishi tovarlar xorijiy va ichki nisbiy narxlarining o'zgarishiga olib keladi. Rezidentlar nuqtai nazaridan mamlakat eksport va import qilayotgan tovarlarning nisbiy narxleri tovarlarning ichki narxlariga nisbatan oshadi. Milliy valyutaning devalvatsiyasi ikkita maqsadni ko'zlab amalga oshiriladi: 1) ichki tovar va xizmatlarga tashqi dunyoning talabini oshirish va shu bilan birga import narxlarining oshishi hisobiga rezidentlarning ichki xarajatlarini qisqartirish; 2) taklif sohasida – eksport tovarlari va import tovarlari bilan raqobat qila oladigan ichki tovarlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish.

Eksport tovarlari hamda import tovarlari bilan raqobat qila oladigan tovarlarning umumiy ishlab chiqarish hajmida salmog'ining oshishi ichki talab qisqarishining ishlab chiqarish hajmiga salbiy ta'sirini ancha susaytiradi.

Tizimiy siyosat.

Tizimiy choralar iste'mol bilan ishlab chiqarish orasidagi uzilishlarga barham berish uchun taklifni oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Umuman olganda, bunday choralarni ikki kategoriyaga ajratish mumkin: 1) mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hisobiga ishlab chiqarish hajmini oshirish choralari; 2) iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qaratilgan choralar.

Amalda yuqorida keltirilgan kategoriyalar orasida chegaralarni belgilash mushkul bo'lsada, birinchi kategoriyaga narxlar va chegaraviy xarajatlar orasidagi farqlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan choralarni kiritish mumkin. Farqlanishlar odatda, narxlarni nazorat qilish, raqobatdagi kamchiliklar, hamda savdo va valyuta operatsiyalarini olib borishdagi cheklovlar, shuningdek soliq va subsidiyalar natijasida sodir bo'ladi.

Ikkinchi kategoriyaga kapital qo'yilmalari va jamg'arishni rag'batlantirishga qaratilgan choralarni kiritish mumkin. Ularga, xususan real foiz stavkalarini ta'minlash, budjet xarajatlarini katta miqdorda iqtisodiy rivojlanishni ta'minlaydigan sohalarga yo'naltirish, shuningdek kapital qo'yilmalarini amalga oshrish uchun yangi turdagi resurslardan foydalanish orqali yuqori darajadagi foyda normasini ta'minlaydigan choralarni kiritish mumkin. Tizimiy xarakterdagi choralar bo'yicha ijobiy natijalarga erishish, odatda ko'p vaqtni talab qiladi.

Moliyalashtirishning turli variantlari.

TBning joriy operatsiyalari bo'yicha kamomadini qoplash va shu bilan bir vaqtda tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha muammolarga duch kelmaslik uchun xorijiy kapitalning oqib kelishini ta'minlash imkoniyati, boshqa omillar bilan bir qatorda, kreditorlarning mamlakatni kreditlarni qaytarish imkoniyati va qarz olingan mablag'lardan samarali foydalanishi to'g'risidagi fikrlariga bog'liq bo'ladi. Xususan, agar xorijiy ssudalar, ssudalar qaytimini ta'minlashga yetarli miqdorda

foйда olishni ta'minlaydigan kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishga sarflanadigan bo'lsa, qarzlariga xizmat ko'rsatishda muammolar kelib chiqmaydi. O'z navbatida, agar tashqi qarzlar samarasiz yoki faqat ichki iste'mol uchun sarflansa, muammolar kelib chiqishi mumkin. Bundan tashqari, mablag'larning mavjudligi va ularni olish imkoniyati dunyo iqtisodiyotidagi o'zgarishlarga ham bog'liq bo'ladi. Masalan, 1980-yillarning boshidagi foiz stavkalarining oshib ketishi, rivojlanayotgan mamlakatlarda qarzlariga xizmat ko'rsatishda qiyinchiliklarni keltirib chiqardi.

Dasturlarni ishlab chiqishda tashqi qarzni boshqarish masalalari katta ahamiyat kasb yetib bormoqda. Tashqi qarzga xizmat ko'rsatishdagi asosiy bog'liqliklarni o'rta muddatlarda ushbu mamlakatning iqtisodiy siyosati va tashqi omillar, shu jumladan xorijiy foiz stavkalarini hisobga olgan holda nazorat qilish lozim. O'rta muddatli ssenariylarni tayyorlash barqarorlashtirish dasturlarining muhim qismi hisoblanadi.

Moliyalashtirishni xalqaro zahiralar darajasini qisqartirish hisobiga ham amalga oshirish mumkin. Lekin, uning imkoniyatlari dastlab mavjud bo'lgan zahiralarining miqdori bilan chegaralangan bo'ladi.

Yuqorida ko'rsatilgan "o'z xohishi" bilan tashqi moliyalashtirish manbalaridan tashqari, ma'lum holatlarda ba'zi mamlakatlar TB kamomadini moliyalashtirishda qarzlarni to'lamaslik hollariga yo'l qo'yishlari mumkin. Bu holat qarzdorlik to'lovlarini chegaralaydi, natijada ochiq dunyo savdo tizimining ustunlik tomonlarini yo'qqa chiqaradi, xorijiy kreditorlarning ishonchlarini pasaytiradi va ular bilan munosabatlarni murakkablashtiradi.

Iqtisodiy choralarning zaruriy ketma-ketligi va zaruriy kelishuvlar.

Qabul qilinayotgan choralar samarali bo'lishi uchun ularni ishlab chiqish va joriy qilish o'zaro bir-birlarini to'ldiradigan xarakterda bo'lishi talab qilinadi. Masalan, almashuv kursining pasayishi talabni chegaralash choralari bilan qo'llab turilmasa, tashqi sektorga yo'naltirilgan resurslar salmog'i oshmaydi va bu holat faqat mamlakatdagi inflatsion kutishni kuchaytirishga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiy siyosat choralari majmuasining maqsadlarini aniqlashda amalga oshiralayotgan turli vazifalar va ularga erishish zarurligi masalalari inobatga olinishi lozim. Bu sohada bir nechta misollarni keltirish mumkin:

- resurslarni taqsimlash samaradorligini oshirish nuqtai nazaridan narxlarning nazorat qilinishini bekor qilish maqsadga muvofiq bo‘lsada, ushbu chora, kamida dastlabki bosqichda inflatsiya sur’atlarining oshishiga olib keladi;

- TBning joriy moddalari bo‘yicha kamomadni qisqartirish maqsadida almashuv kursini pasaytirish natijasida mahalliy valyutada tashqi qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlari oshib ketadi. Boshqa choralar mavjud bo‘lmagan sharoitlarda, bu holat davlat budjetining kamomadini oshishiga olib keladi;

- savdoni erkinlashtirish dastlabki bosqichda importga talabni chegaralab turgan cheklovlarni olib tashlanishi natijasida TB umumiy holatining yomonlashuviga olib keladi;

- pul agregatlarining o‘shish sur’atlarini pasaytirish maqsadida ichki foiz stavkalarining oshirilishi, xorijiy kapitalning oqib kelishiga olib keladi va natijada bu holat pul massasining oshishiga bosim o‘tkazishi mumkin.

13.3. Iqtisodiy bashoratlash bosqichlari. Iqtisodiy muammolarni baholash.

Boshqaruv idoralarining nazoratidan tashqarida bo‘lgan omillarni aniqlash. Ko‘rsatkichlarning tahminiy maqsad darajalari va ularga erishish uchun chora-tadbirlarni ishlab chiqish

Moliyaviy dasturni tayyorlash uchun iqtisodiy muammolarga baho berish va oldinga qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun o‘zaro mos keluvchi va bir-biriga zid bo‘lmagan miqdoriy ko‘rsatkichlar majmuasi ishlab chiqilishi taqozo qilinadi. Buning uchun taklif qilinayotgan choralarni amalga oshirish natijasida bir-biriga qarama-qarshi kelmaydigan asosiy sektorlarning hisoblari bashoratlari tayyorlanadi. Bu hisoblar orasidagi bog‘liqliklar mavjudligini hisobga olgan holda dasturdagi barcha elementlarining mosligini ta’minlash uchun bunday bashoratlar birin-ketin emas, balki birgalikda tayyorlanishi talab qilinadi.

Har bir sektor uchun bashoratlar tuzilayotganda ayrim hisoblarni bashoratlash jarayonida paydo bo'ladigan masalalar va bunda qanday usullar qo'llanilishi lozimligi ko'rsatib o'tiladi. Asosiy e'tibor har doim biror-bir muayyan sektorga qaratilsada, pirovard maqsad ushbu mamlakat uchun ketma-ket iqtisodiy holatni ifodalovchi makroiqtisodiy bashoratni tuzish ekanligini esimizdan chiqarmasligimiz lozim. Birinchi bosqichda "baza ssenariysi" ishlab chiqiladi. Ushbu ssenariy mamlakat iqtisodiy siyosati oldingi yilga nisbatan o'zgarmay qoladi degan faraz bilan tuziladi. Baza ssenariysini tuzishdan maqsad – mavjud muammolar o'zidan o'zi yechilib ketadimi yoki o'z kesinligini saqlab qoladimi yoki yanada kuchayib ketadimi degan savollarga javob topishdir.

Oldingi yilga nisbatan qaysi iqtisodiy siyosat o'zgarmay qolishini aniqlash uchun bir qancha farazlar qilinadi. Masalan, agar amaldagi budjet xarajatlari doimo bashorat qilingan miqdorlardan katta miqdorda ortiq bo'lgan bo'lsa, ushbu amaliyotning davom ettirilishi iqtisodiy siyosatning ma'lum bir elementi o'zgarishsiz qolganligidan dalolat berishi mumkin. Xuddi shunga o'xshab, agar almashuv kursining o'zgarishi mamlakat ichidagi inflatsiya sur'atlari bilan tashqi savdo bo'yicha sherik mamlakatlardagi inflatsiya sur'atlari orasidagi farqqa qarab belgilanib turgan bo'lsa, ushbu yondashishning saqlanib qolishi mamlakat iqtisodiy siyosati o'zgarmay qolganligining ma'lum elementi bo'lib hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiy siyosatiga baho berishda soliq-budjet va pul-kredit sohalari, almashuv kursi va tizimiy masalalarni qamrab oladigan keng masalalar to'plamini qamrab olish muhimdir.

Ma'lum sabablarga ko'ra asosiy ssenariylari bir-biridan farqlanishi mumkin. Bunga sabab, ekzogen o'zgaruvchilarga aloqador turlicha farazlar va oldingi yilga nisbatan qaysi iqtisodiy siyosat elementi o'zgarmay qolishi bo'yicha turlicha farazlar, shuningdek hal qiluvchi o'zaro bog'liqliklarni bashoratlashdagi turlicha usullarning qo'llanilishi bo'lishi mumkin. Baza ssenariysini tayyorlashda har doim subyektivlik elementi mavjud bo'lsada, o'zaro bog'liklarning mosligini ta'minlash uchun ayrim sektorlarning bashoratlarini ko'p martalab tekshirib turish talab qilinadi.

Bazis ssenariysi siyosat choralari ssenariysini ishlab chiqishda mo'ljall vazifasini o'taydi. Choralar oldinga qo'yilgan makroiqtisodiy maqsadlarga erishishi uchun tadbirlar majmuasiga asoslanishi kerak. Ushbu tadbirlar majmuasini amalga oshirish natijasida kutilayotgan natijalar bazis ssenariysini siyosiy choralar ssenariysi bilan solishtirish orqali aniqlanadi.

Iqtisodiy muammolarni baholash.

Iqtisodiy siyosat bashoratini tuzish va tahlil qilish uchun iqtisodiyotning iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy-siyosiy tizimini, hamda oxirgi yillarda iqtisodiyotda sodir bo'layotgan o'zgarishlarini tushunish zarur. Shuningdek, ixtiyorda mavjud bo'lgan iqtisodiy siyosat yuritishning qanday vositalari borligini ham aniqlash lozim. Quyidagilarni belgilash talab qilinadi:

- Iqtisodiy nomutanosibliklarning xarakteri va ahamiyati. Agar muammolar qisqa muddatli (siklik, mavsumiy va h.k.) xarakterga ega bo'lsa, faqat oraliq moliyashtirish talab qilinishi yoki vaqtincha xalqaro zahiralaridan foydalanish mumkin. Chuqurroq nomutanosiblikning mavjudligi tezda kuchli tuzatish choralari qo'llanilishini taqozo qiladi.

- Nomutanosiblik sababi (sabablari). Agar muammoning asosida katta miqdordagi davlat budjetining kamomadi yotgan bo'lsa, ushbu sohada tuzatishlar kiritilishi lozim. Agar muammo tashqi omillar hisobiga paydo bo'lgan bo'lsa, masalan, tashqi savdo sharoitlarining yomonlashuvi sababli, TBning joriy operatsiyalar hisobi saldosi yaxshilashga qaratilgan choralar ko'rilishi yoki almashuv kursiga tuzatishlar kiritish imkoniyati ko'rib chiqilishi talab qilinadi.

Boshqaruv idoralarining nazoratidan tashqarida bo'lgan omillarni aniqlash.

Tashqi sektor bashoratlari tashqi dunyo bilan o'zaro aloqalarga bog'liq bo'lganligi sababli, ularda dunyo iqtisodiyotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, tashqi savdo ayrim moddalariga narxlarning o'zgarishi, dunyo foiz stavkalari va sherik va raqobat mamlakatlardagi talab va ishlab chiqarish hajmlaridagi o'sish sur'atlari kabi ko'rsatkichlar albatta hisobga olinishi lozim. Ushbu ko'rsatkichlarning bashoratini turli xususiy va davlat tashkilotlaridan va xalqaro moliya tashkilotlaridan olish

mumkin. Shu bilan birga, bunday bashoratlar yuqori darajadagi noaniqlik xarakteriga ega va shuning uchun tashqi omillardagi tebranishlar bashorat qilinayotgan ko'rsatkichlarga qanchalik ta'sir qilishi mumkinligini tahlil qilish kerak.

Ko'rsatkichlarning taxminiy maqsadli darajalari va ularga erishish uchun chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Bazis ssenariysida dastlabki maqsadli ko'rsatkichlar kelgusida ham hozir olib borilayotgan siyosat o'zgarmay qoladi degan faraz asosida aniqlanadi. Bazis ssenariysi siyosiy choralar ssenariysidagi asosiy maqsadli ko'rsatkichlarni ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi. Siyosiy choralar ssenariysida bazis ssenariysidan farqli o'laroq, dastavval maqsadli ko'rsatkichlar belgilanadi, so'ngra esa ushbu maqsadga erishish uchun zarur choralar aniqlanadi.

Maqsadli ko'rsatkichlar tarkibiga, odatda TB ko'rsatkichlari, inflatsiya darajasi va real ishlab chiqarish (o'sish sur'atlari) kiradi. TB ko'rsatkichlariga joriy operatsiyalar hisobining saldosi yoki xalqaro zahiralarini kiritish mumkin; ular o'rta muddatda TBning talabga javob beradigan holatini ta'minlashlari lozim.

13.4. Ayrim sektorlarning bashoratlarini tayyorlash

Bashoratni tayyorlash jarayoni iterativ xarakterga ega bo'lganligi sababli, ssenariy va farazlarni belgilashda ko'p yondoshishlardan foydalanish mumkin. Ushbu mavzu doirasida, dastlab narxlar va ishlab chiqarish hajmi birlamchi bashorat qilinadi, so'ngra TB va soliq-budjet sohasi va oxirida pul-kredit sohasi bashoratlanadi. Biroq turli bosqichlarda ayrim sektor ko'rsatkichlarini, hisobga olinayotgan ko'rsatkichlarning o'zaro mos kelishi va maqsad qilib belgilangan darajalariga erishish uchun, qaytadan bashoratlash zarur bo'lib qolishi mumkin. Bir nechta misollar keltiramiz.

Faraz qilaylik, narxlar, real ishlab chiqarish hajmi va sof xalqaro zahiralar ko'rsatkichlarining o'zgarishlariga doir birlamchi bashorat tuzilgan. Ushbu bashorat ko'rsatkichlari tashqi sektorga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini tekshirish uchun eksport qiymati va mamlakatga kapital oqimini va ular orqali import hajmini

bashoratlash orqali tekshirish mumkin. Biroq, ikkinchi bosqichda yuqoridagi usulda hisoblangan import hajmini bashorat qilingan ishlab chiqarish hajmini ta'minlash uchun importga talab hajmi bilan mos kelishi tekshirilishi kerak. Agar, importga talab yuqoridagi usulda hisoblangan import hajmidan katta bo'lsa, bashorat hisob-kitoblariga tuzatishlar kiritilishi talab qilinadi. Bunda quyidagi variantlardan foydalanish mumkin:

- ko'proq hajmdagi import hajmini ta'minlash uchun ko'proq xorijiy valyutadan foydalanish, yoki eksport tushumlarini oshirishga qaratilgan choralar ko'rish, yoki qo'shimcha moliyalashtirish manbalarini topish;

- import hajmini oshirish uchun birlamchi belgilangan yoki maqsadli sof xorijiy zahiralar hajmini qisqartirish;

- importga talabni qisqartirish uchun dastlabki belgilangan yoki maqsadli ishlab chiqarish hajmini qisqartirish;

- bir vaqtning o'zida yuqorida ko'rsatilgan usullardan foydalanish.

Yuqorida qo'llanilgan iterativ usulni soliq-budjet va pul-kredit sektorlarini bashoratlashda ham qo'llash zarur. Masalan, bank tizimining sof ichki kreditlarini har qanday bashoratlash asosida narxlar, ishlab chiqarish hajmi va sof xorijiy aktivlar miqdorlarini bashoratlash yotadi. Agar davlat sektoriga nazarda tutilayotgan bank kreditlarining miqdori davlat budjetining kamadini qoplashga yetarli bo'lmasa, quyidagi variantlardan foydalanish mumkin:

- davlat sektori kamomadini qisqartirish uchun soliq-budjet sohasidagi choralar majmuasini joriy qilish natijasida iqtisodiy o'sish sur'atlari sekinlashadi;

- xususiy sektorga bank kreditlarini qisqartirish hisobiga davlat sektoriga kreditlarni ko'paytirish natijasida nominal ishlab chiqarish hajmi sekinlashadi;

- qo'shimcha tashqi moliyalashtirish manbalarini izlab topish natijasida TB holati o'zgaradi;

- ichki bankdan tashqari manbalar hisobiga moliyalashtirish natijasida foiz stavkalari o'zgaradi;

- davlat sektoriga ajratiladigan bank kreditlari miqdorining oshirilishi inflatsiya sur'atlarini oshiradi yoki TBning holatini yomonlashtiradi;

- bir vaqtning o'zida yuqorida ko'rsatilgan usullardan foydalanish.

Yuqorida ko'rib chiqilgan misollar turli sektorlar ko'rsatkichlari orasidagi moslikni ta'minlashga alohida e'tibor berilishi lozimligini taqozo qiladi.

Asosiy bashorat va moliyaviy dasturlarni ishlab chiqishda quyidagi buxgalteriya ayniyatlarining bajarilishini ta'minlash talab qilinadi:

- MHTning xarajatlar tomonidagi ishlab chiqarish hajmi budjet ma'lumotlarida beriladigan davlat boshqaruv idoralarining iste'moli va investitsiyasiga, hamda TBning sof tashqi xarajatlarga asoslangan bo'lishi kerak;

- davlat budjeti ma'lumotlaridagi davlat boshqaruv idoralariga ajratilgan bank kreditlari miqdori pul-kredit hisoblarida aks ettirilgan davlat boshqaruv idoralari sof ichki kreditlaridagi o'zgarishlariga mos kelishi kerak;

- davlat budjeti ma'lumotlaridagi tashqi moliyalashtirish miqdori va bank tizimining sof xorijiy aktivlaridagi o'zgarishlar hajmi TBdagi kapital oqimi to'g'risidagi ma'lumotlariga mos kelishi kerak.

Bashoratlar buxgalteriya ayniyatlarini ta'minlashlari bilan birga iqtisodiy sektorlar orasidagi o'zaro bog'liqliklarni ham ifodalaydi. Bunday o'zaro bog'liqliklarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- pulga talab va uning nominal ishlab chiqarish va boshqa ko'rsatkichlar bilan bog'liqligi;

- ichki daromad va nisbiy narxlar va boshqa ko'rsatkichlarning importga talab bilan bog'liqligi;

- bank kreditining xususiy investitsiyalar va importga ta'siri.

Qisqacha xulosalar

Moliyaviy dasturlash - belgilangan makroiqtisodiy maqsadlarga erishishga qaratilgan chora-tadbirlar to'plami. Ushbu maqsadlar iqtisodiyot faoliyatining belgilangan samaradorlik darajasini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi mumkin. Ammo,

ko'pincha moliyaviy dasturlashda ko'zlangan chora-tadbirlar yalpi talab bilan yalpi taklif o'rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etishga qaratilgan bo'ladi.

Nomutanosiblik, odatda TBning qoniqarsiz holati, yuqori darajadagi inflatsiya va past yoki pasayib borayotgan ishlab chiqarish hajmlarida ifodalanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Moliyaviy dasturlash deganda nimani tushunasiz?
2. Moliyaviy dasturlashga umumiy xarakteristika bering?
3. Moliyalashtirishning qanday variantlari mavjud?
4. Iqtisodiy siyosat variantlari qanday bog'lanadi?
5. Talabni boshqarishning qanday metodlari mavjud?
6. Xarajatlar xarakteri deganda nimani tushunasiz?
7. Tizimli siyosatning qanday kategoriyalari mavjud?
8. Iqtisodiy bashoratlashning qanday bosqichlari mavjud?
9. Nima uchun iqtisodiy choralarining zaruriy ketma-ketligi talab qilinadi (misollarda tushuntirib bering)?
10. Qanday omillar boshqaruv idoralari nazoratidan tashqarida bo'lishi mumkin?
11. Yalpi talab va yalpi taklif orasidagi nomutanosiblikka qanday omillar sabab bo'lishi mumkin?
12. Moliyaviy dasturlashda pul-kredit, soliq budjet va valyuta siyosatlari qanday maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi?
13. Qanday holatlarda to'lov balansi barqaror deb hisoblanadi?
14. Iqtisodiy siyosatni tahlil qilishda qanday hisoblardan foydalaniladi?
15. TB ning joriy operatsiyalar hisobini yaxshilash uchun qanday choralar qurish kerak?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi Prezident Islom Karimovning 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi / Xalq so'zi 22.01.2011
2. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir. I.A.Karimov. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2010. – 34-50 b.
3. I.A.Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: O'zbekiston, 2009.-56 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir” hamda “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot.-2010.– 63-85 b.
5. Кудина М.В. Основы экономики: Учебник. – ФОРУМ: ИНФРА-М, 2006.
6. Бухгалтерский финансовый учет: Учебник для вузов/Под ред.проф. Ю.А.Бабаева. – М.: Вузовский учебник, 2006.
7. Yakubov I.O., G'oyibnazarov B.K., Abdusattarova X.M. Balans muammolari. O'quv qo'llanma.-T.:O'zRyoUAJ. 2004.
8. Якубов И.О., Тошмухамедов Н.С. Балансовые проблемы. – Т.: ТГЭУ, 2008.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent «O'zbekiston»2008.
2. O'zbekiston Respublikasi “Tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida” gi Qonuni. Xo'jalik va huquq. 2008 yil, 9-son.
3. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi Qonuni» - T.: O'zbekiston, 1997 yil.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2008 yil 2 dekabrda “Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida”gi Farmoni, Xalq so'zi, 2008 yil 4 dekabr.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “Iqtisodiyot real sektori korxonalarini qo'llab - quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish bo'yicha chora – tadbirlar Dasturi to'g'risida”gi Farmoni. Xalq so'zi, 2008 yil 2 dekabr.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2008 yil 18 noyabrda “Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni. Xalq so'zi, 2008 yil 19 noyabr
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2007 yilda ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi Qarori. – «Xalq so'zi», 2008y., 9 fevral.

III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2010 yilgacha O'zbekiston Respublikasida mikromoliyalashtirishni rivojlantirish Dasturi to'g'risida”gi Qarori, 2007 yil 8 iyun.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ipoteka kredit berishni Qo‘llab – quvvatlash jamg‘armasi faoliyatini tashkil qilish chora - tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori. – «Xalq so‘zi», 2005y., 6 may.

IV. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari.

10. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlarga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzası / Xalq so‘zi 22.01.2011

11. I.A. Karimov. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz yanada yuksaltirishdir. T.: O‘zbekiston, 2010. – 80 bet.

12. I.A. Karimov “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari”. T.: O‘zbekiston, 2009 yil.

13. I.A. Karimov O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligini 17 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so‘zi. Xalq so‘zi 2008 yil 1 sentyabr 172-son.

14. I.A. Karimov “Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash – barcha islohot va o‘zgarishlarimizning bosh maqsadidir. Xalq so‘zi. 9 fevral 2008 y.

15. I.A. Karimov ”Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo‘lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish – asosiy vazifamizdir.” 13 fevral 2007y.

V. O‘zbekiston Respublikasi Vazirliklari me‘yoriy – huquqiy xujjatlari

16. O‘zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligining 2002 yil 26 noyabrdagi 247-sonli Buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Moliyaviy natijalar va o‘zaro hisob-kitob holati to‘g‘risida hisobotni tuzish bo‘yicha” Yo‘riqnoma.

VI. Darsliklar

17. Замков О.О. и др. Математические методы в экономике. Учебник – М.: Дело и сервис, 2004, – 380 с.
18. Кудина М.В. Основы экономики. Учебник. – М.: ФОРУМ: ИНФРА-М, 2006. – 352 с.
19. Бухгалтерский финансовый учет. Учебник для вузов / Под ред. проф Ю.А. Бабаева. – М.: Вузовский учебник, 2006. – 525 с.
20. O‘zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida 1-5 qismlar. Akademik S.S.G‘ulomov tahriri ostida. T.: TDIU, 2006

VII. O‘quv qullanmalar

21. B.Yul. Xodiev va boshqalar. «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari», O‘quv qo‘llanma., Iqtisodiyot 2009 y.
22. Yakubov I.O., G‘oyibnazarov B.K., Abdusattarova X.M. Balans muammolari. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zRYoUAJ. 2004, – 168 b.
23. Yakubov I.O. “Iqtisodiyotda balans tizimlari” O‘quv kursi bo‘yicha ta’lim texnologiyasi. Uslubiy qo‘llanma. “Iqtisodiy ta’limda o‘qitish texnologiyasi” to‘plami. - T.:TDIU 2008.
24. Yakubov I.O. “Iqtisodiyotda balans tizimlari” o‘quv kursi bo‘yicha o‘quv - uslubiy majmua. Uslubiy qo‘llanma. “Iqtisodiy ta’limda o‘qitish texnologiyasi” to‘plami. - T.:TDIU 2008.
25. Yakubov I.O. “Yig‘ma moliyaviy balans tizimi” mavzusi bo‘yicha ishlab chiqilgan keys – texnologiya. Uslubiy qo‘llanma. - T.:TDIU 2008y. 32 b.
26. Mualliflar guruhi. O‘zbekistonda biznes keyslar. O‘zbekiston Respublikasidagi biznes ta’limotida “Keys – Stadi” uslubining qo‘llanishi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Akademiya, 2006, – 645 b.

27. Владими́рова Л.П. Прогнозирование и планирование в условиях рынка. Учебное пособие. – 5-е издание перер. и доп. – М.: Дашков и К, 2005, – 401 с.

28. Татаринов А. Субнациональные счета: проблемы, разработки и использование в региональном анализе. – М.: ИЭПП, 2005. – 163 с

29. Гершуна А.М., Нефедьева Ю.С. Разработка сбалансированной системы показателей. Практ.рук. Учебное пособие. – М.: ЗАО ОЛИМП-БИЗНЕС, 2004, - 280 с.

VIII. Ilmiy monografiyalar, maqolalar va boshqa asarlar.

30. O‘zbekiston Respublikasi oliy iqtisodiy ta’lim tizimini rivojlangan xorijiy mamlakatlar oliy o‘quv yurtlari tajribasi asosida takomillashtirish.” Ilmiy uslubiy anjuman tezislari. 2005 y 5 iyul.

31. Nazarova G.G. Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv: tajriba va amaliyot. Monografiya. – T.:TDIU, 2005, 180-bet.

32. Bekmuradov A.Sh. va boshqalar O‘zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish yo‘llarida. 1-qism. Makroiqtisodiy siyosat va iqtisodiy islohotlar. – T.:TDIU, 2005.

IX. O‘zbekistonda ximoya qilingan doktorlik, nomzodlik va magistrlik dissertatsiyalari

33. Якубов И.О. “Формирования эффективной структуры экономики регионов Республики Узбекистан в условиях углубления рыночных реформ”. дис-я Т.: 2005.

34. Sodikov Z. O‘zbekiston hududlarida qo‘shma korxonalarni rivojlantirish yo‘llari. T.:TDIU, Magistrlik dissertatsiyasi, 2005 yil.

X. Gazeta va jurnallar

35. “O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi” №1-12, 2006-2008 y.

36. “Экономическое обозрения” №1-12, 2007-2008 г.

37. “Bozor, pul va kredit” №2-7, 2008 y.

38. “Вопросы экономики” №1-12, 2007-2008 й.

XI. Statistik ma'lumotlar to'plamlari

39. O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot tahliliy sharh. 2007. Toshkent, 2008.

40. 2008 yilda O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish yakunlari. / Xalq so'zi, 2009 yil 1 mart.

XII. Internet saytlari

41. www.economyta-culty.uz. – Экономика Узбекистана

42. Новости Узбекистана – www.uzreport.com.

43. www.eco77.ru. – Экономика, статистика

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
1-Mavzu	IQTISODIYOTDA BALANS TIZIMLARI FANINING PREDMETI, USULLARI VA ASOSIY VAZIFALARI.....	5
1.1.	Iqtisodiyotda balans tizimlari fanining qisqacha rivojlanish tarixi va uning boshqa nazariy fanlar bilan aloqalari	5
1.2.	Iqtisodiyotda balans tizimlari fanining predmeti va o'rganish usullari	8
1.3.	Iqtisodiyotda balans tizimlari fanining asosiy vazifalari	10
1.4.	Moliyaviy faoliyat to'g'risidagi statistik axborotlarning zarurligi	11
	5. Statistik ma'lumotlarni tashkil qilish va iqtisodiy siyosatni tahlil qilishning uslubiy asoslari	12
	Qisqacha xulosalar	15
	Nazoratvamu hukama uchun savollar	15
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	16
2-Mavzu	IQTISODIYOTDA BALANS TIZIMLARI ASOSLARI....	17
2.1.	Milliy iqtisodiyot balansining mazmuni va mohiyati.....	17
2.2.	Milliy iqtisodiyot balansini ishlab chiqishning ilmiy asoslari.....	18
2.3.	Takror ishlab chiqarish jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitidan nazariyasi milliy iqtisodiyot balansini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.....	20
	Qisqacha xulosalar.....	23
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	23
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	23
3-Mavzu	AHOLI VA MEHNAT BALANSI.....	25
3.1.	Ishchi kuchi balansini tuzishning nazariy va ijtimoiy asosi..	25
3.2.	Ishchi kuchi balanslari tizimi va ularning iqtisodiyotni tartibga solishda qo'llanishi.....	25
3.3.	Mehnat resurslari va aholining kelajakdagi sonini aniqlash uslubiyati.....	30
	Qisqacha xulosalar.....	32
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	32
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	32
4-Mavzu	MILLIY BOYLIK BALANSI	34
4.1.	Yig'ma moddiy balans vazifalari va ko'rsatkichlari.....	34
4.2.	Milliy mahsulotni ishlab chiqarish, iste'mol qilish va jamg'arish balanslari	36
4.3.	Asosiy fondlar balanslari.....	40
	Qisqacha xulosalar.....	45

	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	45
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	46
5-MAVZU.	AHOLI PUL DAROMADLARI VA XARAJATLARI BALANSI.....	47
5.1.	Aholi pul daromadlari tushunchasi va balansi.....	47
5.2.	Iste'mol baholar o'zgarishi, indeksi va aholining nominal va real daromadlariga ta'siri	49
5.3.	Aholi pul daromadlari va xarajatlari balansi.....	52
5.4.	Aholi iste'moli.....	56
	Qisqacha xulosalar.....	61
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	61
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	61
6-Mavzu	MILLIY HISOBLAR TIZIMIDA QO'LLANILADIGAN GURUHLASH VA TASNIFLASHLAR.....	62
6.1.	Iqtisodiy faoliyat turlarini mulk shakllari, ma'muriy va iqtisodiy hudud hamda idoraviy tassarufi bo'yicha tasniflash.....	62
6.2.	Institutsional birlik tushunchasi va iqtisodiy faoliyat turlarining sektorlari bo'yicha tasnifi.....	65
6.3.	Iqtisodiyot sektorlari asosiy resurslari kelib chiqishi va iqtisodiy faoliyat turlari tarmoqlarining tasnifi.....	68
6.4.	Makroiqtisodiyotda qo'llaniladigan boshqa guruhlash va tasniflash.....	72
	Qisqacha xulosalar.....	75
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	75
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	75
7-Mavzu	MAKROIQTISODIY TAHLILDA MHT DAN FOYDALANISH.....	77
7.1.	Makroiqtisodiy tahlil.....	77
7.2.	Makroiqtisodiy tahlilda MHT dan foydalanish.....	78
7.3.	Milliy hisoblar va pul-moliyaviy amaliyoti.....	79
	Qisqacha xulosalar.....	83
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	84
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	84
8-Mavzu	TARMOQLARARO BALANS (TAB).....	85
8.1.	Milliy hisoblar tizimi uslubiyati asosida tarmoqlararo balansni tuzish tamoyillari.....	85
8.2.	Tarmoqlararo balansning milliy hisoblar tizimidagi o'rni...	88
8.3.	Milliy mahsulot ishlab chiqarish va taqsimlash tarmoqlararo balansidan MHT TABiga o'tish usuli.....	91
	Qisqacha xulosalar.....	102

	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	102
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	103
9-Mavzu	REAL SEKTOR TAHLILI VA BASHORATI...	104
9.1.	Milliy hisoblar tizimi (MHT). Iqtisodiyotning asosiy sektorlari. Asosiy agregatlar. Asosiy tushunchalar. Yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmini hisoblashning muqobil (muqobil) usullari. Boshqa standart agregatlar.....	104
9.2.	Asosiy o'zaro bog'liqliklar. Yalpi daromad va talab bilan to'lov balansining joriy operatsiyalar hisobi saldosi. Yalpi jamg'arish va investitsiyalar bilan to'lov balansining joriy operatsiyalar hisobi saldosi.....	116
9.3.	Nominal va real YaIM.....	120
9.4.	YaIM hajmini hisoblash masalalari. Umumiy masalalar. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlardagi xususiy masalalar.....	121
9.5.	Inflatsiya.....	124
9.6.	Daromadlar va bandlik. Real ish haqi. Bandlik va ishsizlik	127
9.2.	Ishlab chiqarish hajmi, xarajatlar va narxlar bashorati.....	131
9.2.1.	Ishlab chiqarish. Ishlab chiqarish hajmini belgilaydigan omillar: talab va taklif. Ishlab chiqarish hajmini bashoratlash.....	131
9.2.2.	Xarajatlar tarkibi. Uy xo'jaliklari iste'molini belgilovchi omillar. Xususiy sektorda kapital qo'yilmalarni belgilovchi omillar.....	134
9.2.3.	Narxlar darajasini bashoratlash. Umumiy qoidalar. Amaliy yondoshish.....	137
	Qisqacha xulosalar.....	140
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	140
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	141
10-Mavzu	SOLIQ-BUDJET SEKTORI TAHLILI VA BASHORATI.....	143
10.1.	Davlat sektori tushunchasi. Davlat operatsiyalarini o'lchash. Davlat moliyasi statistikasi tizimi.....	143
10.2.	Daromadlar va xarajatlar tasnifi. Budget balansi tushunchasi.....	152
10.3.	Budget tahlili. Budget disbalansini hisoblash. Kamomadni moliyalashtirish.....	153
10.4.	Soliq-budget siyosatining barqarorligi. Daromadlar va xarajatlar tahlili.....	161
10.5.	Davlat sektori operatsiyalarini bashoratlash. Daromadlar va transfertlarni bashoratlash. Davlat xarajatlari va sof kreditlashni bashoratlash. Moliyalashtirish manbalarini	178

	bashoratlash.....	
	Qisqacha xulosalar.....	182
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	183
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	183
11-Mavzu	TO'LOV BALANSI TAHLILI VA BASHORATI.....	185
11.1.	O'zbekiston Respublikasi tashqi aloqalarini rivojlantirishning ahamiyati.....	185
11.2.	Mamlakatning to'lov balansi tushunchasi.....	186
11.3.	To'lov balansining taxminiy ko'rinishi va undagi operatsiyalar.	187
	Qisqacha xulosalar.....	190
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	190
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	190
12-Mavzu	PUL-KREDIT SEKTORI TAHLILI VA BASHORATI.....	192
12.1.	Pul-kredit sohasining hisoblarini yuritish. Moliya tizimining tarkibi. Pul-kredit tizimi statistikasi asosida hisobga olish tamoyillari. Pul-kredit tizimini boshqarish idoralari. Pul-depozit banklari. Pul-kredit sharhi.....	192
12.2.	Pul-kredit sohasini tahlil qilish. Boshqa sektorlar bilan aloqalar. Pul bozoridagi muvozanat. Pul multiplikatori konsepsiyasi. Pul-kredit tahlilining ayrim masalalari.....	211
12.3.	Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarning pul-kredit tahlili.....	228
12.4.	Pul agregatlarini bashoratlash. pulga talabni bashoratlash. pul taklifini bashoratlash.....	232
	Qisqacha xulosalar.....	237
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	237
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	238
13-Mavzu	MOLIYAVIY DASTURLASH.....	239
13.1.	Moliyaviy dasturlashning umumiy xarakteristikasi va asoslari	239
13.2.	Iqtisodiy siyosat va moliyalashtirishning turli variantlari. Talabni boshqarish metodlari. Xarajatlar xarakterini o'zgartirish chora-tadbirlari. Tizimiy siyosat. Moliyalashtirishning turli variantlari. Iqtisodiy choralarning zaruriy ketma-ketligi va zaruriy kelishuvlar.....	243
13.3.	Iqtisodiy bashoratlash bosqichlari. Iqtisodiy muammolarni baholash. Boshqaruv idoralarining nazoratidan tashqarida bo'lgan omillarni aniqlash. Ko'rsatkichlarning tahminiy maqsad darajalari va ularga erishish uchun chora-tadbirlarni ishlab chiqish.....	247
13.4.	Ayrim sektorlarning bashoratlarini tayyorlash.....	247
	Qisqacha xulosalar.....	250
	Nazorat va muhokama uchun savollar.....	252

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	254
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	255

YAKUBOV ISKANDAR ODILOVICH
HAKIMOV HAKIMJON ABDULLO O'G'LI

IQTISODIYOTDA BALANS TIZIMLARI

(MA'RUZALAR MATNI)

Muharrir: Z. Yo'ldoshev
Texnik muharrir: SH. Tojiev
Musahhih: J. Yo'ldoshev
Komputerda sahifalovchi –
S. Sayfullaev

Bosishga ruxsat etildi 29.08.15. Qog'oz bichimi 60x84 1/16.

Shartli bosma tabog'i 16,7. Adadi 10 nusxa.

27 - sonli buyurtma.

100003, Toshkent sh., O'zbekiston shoh ko'chasi, 49-uy.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti bosmaxonasida bosildi.